Ontogenez – o‘simlikning individual rivojlanish bosqichlarini o‘z ichiga olgan murakkab biologik jarayon bo‘lib, har bir bosqichda morfologik va fiziologik o‘zgarishlar yuz beradi. O‘simlikning ontogenezini o‘rganish, ayniqsa mahalliy sharoitida, uning optimal yetishtirish texnologiyasini ishlab chiqish, bioaktiv moddalarning shakllanish dinamikasini tushunish va dorivor xomashyo sifatini nazorat qilishda muhim ahamiyatga ega.

Toshkent vohasi – O‘zbekistonning markaziy hududi bo‘lib, o‘ziga xos iqlim va tuproq sharoitlariga ega. Ushbu hududda *Plantago ovata* Forssk.ning ontogenez bosqichlarini o‘rganish, o‘simlikning ekologik moslashuvchanligini baholash imkonini beradi.

Tadqiqot ob’ekti va metodlar. Tadqiqot Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Botanika bog‘ida 2025-yil bahor-yoz mavsumida olib borildi. Ushbu hududning agroiqlim sharoiti – yarim qurg‘oqchil iqlim, bahor va yozda mo‘tadil harorat, o‘rtacha yillik yog‘in miqdori 300–350 mm, tuproq turi – bo‘z tuproq.

Plantago ovata Forssk. urug‘lari Xitoy davlatidan olib kelindi. Yer maydoni 3 xil organik o‘g‘it bilan boyitildi. Ekish aprel oyining birinchi o‘n kunligida amalga oshirildi, ekilgan urug‘ 5-kuni unib chiqa boshladi, unuvchanlikning yuqori ko‘rsatkichi 32% ni tashkil etdi, o‘simliklar oralig‘i 20 sm. Ontogenez bosqichlari fenologik kuzatuvlar asosida olib borildi. Biometrik o‘lchovlari-o‘simlik bo‘yi, barg soni, ildiz chuqurligi, generativ organlar shakllanishi o‘rganildi.

O‘similik ontogenezi - urug‘dan murtakni shakllanishdan boshlab vegetatsiya davrini o‘tab, urug‘ hosil qilishi va o‘simlikning nobud bo‘lishi tushuniladi [3].

Olingan natijalar va tahlillar. Toshkent vohasi sharoitida *Plantago ovata* da ham ontogenez bosqichlarini latent, virginil (maysa, yuvenil, immatur) hamda generativ davrlari kuzatildi (1-jadval).

1-jadval

Toshkent vohasi sharoitida *Plantago ovata* Forssk.ning ontogenez davrlari

№	Ontogenez davrlari	Ontogenez bosqichlari	Boshlangan sana	Yakunlangan sana	Davomiy ligi
1	Latent	Urug‘	Iyul 2024 y	Aprel 2025 y	9 oy
2	Virginil	Maysa	09.04.2025 y	17.04.2025 y	9 kun
3		Yuvenil	18.04.2025 y	01.05.2025 y	14 kun
4		Immatur	02.05.2025 y	09.05.2025 y	8 kun
5	Generativ	G‘unchalash	10.05.2025 y	29.05.2025 y	20 kun
		Gullash	19.05.2025 y	22.06.2025 y	35 kun
		Mevalash	13.06.2025 y	04.07.2025 y	22 kun

Latent davri bu o‘simlik urug‘ining tinim davri hisoblanadi. Virginil davrining maysa bosqichi 9.04.2025-17.04.2025 y (9 kun) davom etdi. Yuvenil davri 18.04.2025-01.05.2025 y (14 kun), immatur bosqichi 02.05.2025-09.05.2025 y (8 kun) davom etdi. Generativ davrining g‘unchalash bosqichi 10.05.2025-29.05.2025 y (20 kun), gullash bosqichi 19.05.2025-22.06.2025 y (35 kun), mevalash bosqichi 13.06.2025-04.07.2025 y (22 kun) davom etdi.

So‘ngra o‘simlik tuplari asta sekin vegetatsiyasini tugata boshladi. Mevalash jarayoni yakunlanishi o‘simlikning vegetatsiyasini yakunlashigacha davom etgani sababli fenologik tadqiqotlar davomida senil davri kuzatilmadi.

Tadqiqot davomida *Plantago ovata* Forssk.ning ontogenez bosqichlarining davomiyligi va morfometrik ko‘rsatkichlari quyidagicha aniqlandi: urug‘ unishi (5–7 kun); unish 18–22°C haroratda optimal bo‘ldi, unuvchanlik ko‘rsatkichi 32% ni tashkil etdi; yuvenil bosqichi, ya’ni chin barglarni hosil bo‘lishi (7–14 kun), ildiz chuqurligi 4–6 sm gacha yetdi, barglar soni 2–3 dona, o‘simlik balandligi 3–5 sm;

immatur bosqichi (8 kun), barglar soni 8–16 dona, o‘simlik balandligi 12–18 sm, harorat 25–28°C bo‘lgan davrda o‘sish sur’ati maksimal bo‘ldi; generativ davri (57 kun), gullar soni o‘rtacha 15–20 dona, urug‘ shakllanishi vegatatsiyasining 65–69-kunlarida boshlandi.

Xulosa. O‘tkazilgan tadqiqot natijalari Toshkent vohasi sharoitida *Plantago ovata* Forssk.ning ontogenez bosqichlari aniq va izchil kechishini ko‘rsatdi. Urug‘ unishidan boshlab generativ bosqichgacha bo‘lgan har bir rivojlanish davrida o‘simlikning morfologik va fiziologik o‘zgarishlari, shuningdek, tashqi omillarga moslashuv darajasi o‘rganildi. Vegetativ bosqichda o‘sish sur’atining yuqori bo‘lishi, generativ bosqichda esa bioaktiv moddalarning maksimal miqdorda shakllanishi kuzatildi. Toshkent vohasining mo‘tadil iqlimi va bo‘z tuproqlari *Plantago ovata* Forssk.ni yetishtirish uchun qulay sharoit yaratadi. Toshkent vohasi sharoitida o‘simlikning vegetatsiya davomiyligi 88 kunni tashkil etdi. Ushbu davomiylik iqlim sharoitiga bog‘liq bo‘lib, 5-10 kunga qisqarishi yoki cho‘zilishi mumkin. Mazkur tadqiqot *Plantago ovata* Forssk. ni mahalliy sharoitida yetishtirish, dorivor xomashyo sifatini nazorat qilish va seleksiya ishlarini takomillashtirishda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Daironas, J. V., Zilfikarov, I. N., Vandyshev, V. V., & Miroshnikova, E. A. (2017). Morphological and anatomical study of granules with seeds epidermis of Plantago ovata Forssk. Pharmacy & Pharmacology, 5(2), 117-134.
2. GHADERI, F. F., Alimagham, S. M., Kameli, A. M., & Jamali, M. (2012). Isabgol (Plantago Ovata Forsk) Seed Germination and Emergence as Affected by Environmental Factors and Planting.
3. G.S.Tursinbayeva, G.M.Duschanova, A.T.Abdullaeva, J.S.Sadinov. “Botanika o‘simliklar morfologiyasi va anatomiyasi” , (2018) y.
4. Barfa, R. (2010). *Evaluation of Isabgol (Plantago ovata Forsk) Germplasm for Morpho-physiology, Productiveity and quality Traits* (Doctoral dissertation, jnkvv, jabalpur).

5. Roumani, A., Biabani, A., Karizaki, A. R., Alamdari, E. G., & Gholizadeh, A. (2019). Effects of salicylic acid and spermine foliar application on some morphological and physiological characteristics of isabgol (Plantago ovata Forsk) under water stress.

BIS-TETRAGIDROIZOXINOLINLAR SINTEZI

[1]Sedalova Iroda Saytmurod qizi,
[2]Jo‘raqulov Sherzod Niyatqobulovich
Tayanch doktorant[1], k.f.d., kat.i.x[2]
O‘zR FA akad. S.Y. Yunusov
nomidagi
O‘simlik moddalari kimyosi instituti
isedalova@gmail.com

Annotatsiya. Izoxinolinlarning ichida bis-tetragidroizoxinolin (bis-THIQ) tabiiy mahsulotlari tibbiyotda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan izoxinolin alkaloidlari sinfiga kiradi. Ular keng biologik faollikka ega bo‘lib, ayniqsa kuchli antitumor xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bis-izoxinolin alkaloidlar - bu farmakologik jihatdan faol bo‘lgan muhim biologik birikmalar sinfidir.

Kalit so‘z: Alkillash, qaytarish, halqalanish reaksiyalari, izoxinolinlar, 3,4-dimetoksifeniletilamin, natriy bor gidrid, formalin.

Izoxinolin tuzilishi ko‘plab biologik faol moddalarning molekulasining asosi hisoblanadi, jumladan, salsolin, papaverin, noshpa, fensiklidin va boshqalar, ular tibbiyotda keng miqyosida qo‘llaniladi. Tetragidroizoxinolin (THIQ) tabiiy mahsulotlari **alkaloidlarning eng yirik oilalaridan biri** bo‘lib, keng **strukturaviy xilma-xillik** va **biologik faollik** namoyon etadi. Oddiy THIQ tabiiy mahsulotlaridan tortib murakkab **tris-THIQ alkaloidlarigacha** (masalan, ektainaskidinlar), ularning kimyoviy sintezi va analoglari **murakkab tuzilishi, funksional guruhlari va yuqori terapevtik salohiyati** tufayli chuqur o‘rganilgan [1].

Ular orasida bis-tetragidroizoxinolin (bis-THIQ) tabiiy mahsulotlari tibbiyotda eng ahamiyatli izoxinolin alkaloidlari sinfiga kiradi. Bis-tetragidroizoxinolin (bis-THIQ) keng biologik faollikka ega bo‘lib, ayniqsa kuchli rakka qarshi xususiyatlari

bilan ajralib turadi. Bu moddalar orasida ayniqsa, **sitostatik (hujayra bo‘linishini to‘xtatuvchi)** ta’sirga ega bo‘lgan **makrolidli izoxinolin alkaloidlari — tsikleapeltin** va **metiltelobin-N** alohida ajralib turadi. Ba’zi hosilalar, masalan, **sekotsefarantin** (*Stephania sasakii* o‘simligidan ajratib olingan) va **norberbamin-2, yuqori antivirus ta’sirga** ega ekanligi aniqlangan. Shuningdek, bis-izoxinolin alkaloidlar orasida **antiparazitar** va **antibakterial** xususiyatga ega moddalar ham mavjud. [2]

Bis-tetragidroizoxinolin alkaloidlarining biologik faol xususiyatlarini inobatga olgan holda, 1-feniltetragidroizoxinolin asosida bis-tetragidroizoxinolinlar sintez qilindi. Dastlab 1-feniltetragidroizoxinolinni 3-xlormetil-4-metoksibenzaldegid ishtirokida alkilash reaksiyasi amalga oshirildi. Olingan mahsulotga 3,4-dimetoksifeniletilamin bilan toluolda qizdirish orqali imin **3** hosil qilindi. Olingan imin **3** qaytarildi va so‘ngra kislotali muhitda formalin bilan halqalandi. Natijada bis-tetragidroizoxinolin **5** hosil qilindi.



Sintez qilingan birimalarning tuzilishi ^{1}H va ^{13}C YaMR, mass spektroskopik tahlil usullari yordamida isbotlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Alexia N. Kim, Aurapat Ngamnithiporn, Emily Du, and Brian M. Stoltz, Recent Advances in the Total Synthesis of the Tetrahydroisoquinoline Alkaloids (2002-2020), *Chem. Rev.* 2023, 123, 9447-9496
2. Aurapat Ngamnithiporn, Eric R. Welin, Gerit Pototschnig, and Brian M. Stoltz, Evolution of a Synthetic Strategy toward the Syntheses of Bistetrahydroisoquinoline Alkaloids, *Chem. Res.* 2024, 57, 1870-1884

KIMYO FANINI OQITISHNING ZAMONAVIY USULLARI VA ISTIQBOLLARI

Zulxumorxon Po‘latova Jalolidin qizi
Gulomov Xikmatillo Baxritdinovich
Profi unversiteti,
E-mail: 7ulhumor@gmail.com

Annotatsiaya: Ushbu maqolada kimyo o‘qitishning metodlari va uslublari haqida tushunchalar hamda ushbu metodlarning o‘quvchilarda kuzatilgan samaradorligi haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: zamonaviy ta'lim vositalari, samarali metod, galogenlar, murakkab masalalar, globallashuv, guruhli fikrlash, izlanish, imkoniyat, amaliy.

KIRISH. Bugungi kunda yangi O‘zbekistonning yangi avlodini shakllantirishda ta‟lim standartlarining asosiy xususiyatlaridan biri talabalarning bilim, qobiliyatlari, ko'nikmalarini shakllantirishdan talaba kompetentsiyasini shakllantirishga o‘tishdir. Shubhasiz, “bilim, ko‘nikma va malakani o‘qitishdan kompetensiyaga asoslangan yondashuvga o‘tish ta’lim jarayonining barcha tarkibiy qismlarini: mazmuni, nazorat qilish usullari va o„qitish usullarini o‘zgartirishni talab qiladi. Kompetensiyaga asoslangan yondashuvga o‘tish davrida o‘qitish usullarini o‘zgartirishning mumkin bo‘lgan yo‘nalishlaridan biri ta'lim jarayonida faol o‘qitish usullaridan foydalanish hisoblanadi[1]. Ta’lim tizimida islohotlarni amalga oshirish jarayonida o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini eng samarali metod va vositalar yordamida nazorat qilish hamda baholash muhim ahamiyatga ega. Baholash tizimi orqali o‘quvchilarning fanlarni o‘zlashtirishida bo‘shliqlar hosil bo‘lishining oldi olinadi. Jahon yoshlari bilan tengma-teng raqobatlasha oladigan, kuchli bilim va tafakkurga ega avlod shakllanadi. Fan-texnika jadal sur’atlar bilan rivojlanib borayotgan hozirgi globallashuv davrida umumiy o‘rta ta'lim maktablari kimyo fani o‘qituvchilarining zimmasiga ham nihoyatda mas'uliyatli vazifalarni yuklab qo‘ymoqda. O‘quvchilarga kimyo fanini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlarni tatbiq qilish, innovatsiyalardan foydalanish uchun zarur bo‘lgan bilim va

ko‘nikmalarni shakllantirish hamda darslarida zamonaviy ta'lim vositalaridan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish, ya'ni texnik vositalardan, ekspressso'rovlar, test so‘rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash va boshqa interfaol ta'lim usullaridan foydalanish hozirgi kun talablaridan biri hisoblanadi. Kimyo darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish bugungi kun kimyosining eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Ushbu buyuk vazifalarni amalga oshirish yo‘lida barcha fanlar qatori kimyo fanining ham o‘rni kattadir. Bahs (munozara) -aniq muammo bo‘yicha fikr almashish, muhokama shaklidagi ta’lim berishning faol usuli. Munozara usuli hamma vazifalarni bajaradi Bu usuldan quyidagi maqsadlarda foydalaniladi: yangi bilimlarni shakllantirishda; o‘quvchilar u yoki bu savollarnichuqur o‘ylab ko‘rish, ularning mohiyatiga kirishni ta’minlashda; o‘quvchilarni dalil va dalillarga asoslangan xulosalar orasidagi farqni tushunib yetishga o‘rgatishda; o‘zaro fikr almashinuv ko‘nikmalarni shakllantirishda; o‘quvchilarga shaxsiy fikrida mustahkam turish va uni himoya qilishiga yordam berish. Munozara erkin bo‘ladi, qachonki, u erkin rivojlansa, boshqaruvchan bo‘lishi mumkin. U faqat o‘zlashtirish lozim bo‘lgan mavzu va savollarga taalluqli bo‘lishi kerak. Insert –samarali o‘qish va fikrlash uchun matnda belgilashning interfaol tizimi. Avvalgi bilimlarni faollashtirish va matnda belgilash uchun savollarning qo‘yilish muolajasi. Shundan so’ng matnda uchraydigan, har turdagi axborotlarning belgilanishi. Insert -matn bilan ishlash jarayonida ta’lim oluvchiga o‘zining mustaqil bilim olishini faol kuzatish imkonini ta’minlovchi kuchli asbob. Insert -o‘zlashtirishning majmuali vazifalarini yechish va o‘quv materialini mustahkamlash, kitob bilan ishlashning o‘quv malakalarini rivojlantirish uchun foydalaniladigan o‘qitish usulidir. Zamonaviy texnologiyalar kimyo fanini o‘qitishni sezilarli darajada o‘zgartirib, mavzuni talabalar uchun yanada interaktiv, qulay va qiziqarli qiladi. Kimyo ta'limida zamonaviy texnologiyalar qanday rol o‘ynayotgani haqida qisqacha ma'lumot:Interaktiv simulyatsiyalar va Virtual laboratoriyalar. Virtual laboratoriyalar: PhET va Labster kabi platformalar virtual kimyo laboratoriyalarini taqdim etib, talabalarga xavf-xatarsiz muhitda tajriba o‘tkazishga imkon beradi. Ushbu vositalar, ayniqsa, jismoniy laboratoriyalar mavjud

bo‘lmagan yoki qimmat bo‘lgan stsenariylarda foydalidir. Simulyatsiyalar: interfaol simulyatsiyalar o‘quvchilarga reaksiyalar, bog‘lanish va molekulyar geometriya kabi molekulyar darajadag kimyoviy jarayonlarnitasavvur qilishga yordam beradi. Bu faqat darsliklardan tushunish qiyin bo‘lgan mavhum tushunchalarni tushunishni kuchaytirishga yordam beradi. Kengaytirilgan haqiqat (AR) va Virtual haqiqat (VR)-Immersiv ta'lim: AR va VR texnologiyalari talabalarga 3D formatida molekulyar tuzilmalarni o‘rganishga imkon beradi va immersiv tajriba beradi. Masalan, talabalar molekula orqali "yurishlari" va atomlarning qanday bog‘langanligini ko‘rishlari mumkin, bu ularning atom nazariyasi haqidagi tushunchalarini chuqurlashtiradi.-AR ilovalari: ba'zi AR ilovalari o‘quvchilarga elementlar yoki birikmalarni skanerlash va ularning tuzilmalari bilan o‘zaro ta'sir o'tkazish imkonini beradi, bu ularga murakkab kimyoviy hodisalarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Kompyuter yordamida ko‘rsatma-O‘rganish va baholash uchun dasturiy ta'minot: Chemdrav va Avogadro kabi dasturiy vositalar o‘quvchilarga molekulyar tuzilmalarni loyihalashga imkon beradi, ChemCollective kabi vositalar esa haqiqiy kimyo dasturlarini simulyatsiya qiladigan muammolarni hal qilish mashqlarini taqdim etadi [2-5]. Ushbu o‘zgarish kimyo ta'limini butun dunyo bo'ylab talabalar uchun yanada qulay va samarali qiladi. O‘quvchilarni erkin, mustaqil va mantiqiy fikrlashga, jamoa bo‘lib ishlashga, izlanishga, fikrlarni jamlab ulardan nazariy va amaliy tushuncha hosil qilishga, jamoaga o‘z fikri bilan ta’sir eta olishga, uni ma’qullashga, shuningdek, mavzuning tayanch tushunchalariga izoh berishda egallagan bilimlarini qo‘llay olishga o‘rgatish. Texnologiyaning qo‘llanishi: ma’ruza (imkoniyat va sharoit bo‘lsa), seminar, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarida yakka tartibda yoki kichik guruhlarda o‘tkazish hamda nazorat darslarida qo‘llanilishi mumkin. Mashg‘ulotda qo‘llaniladigan vositalar: A-3, A-4 formatlarda tayyorlangan (mavzuni ajratilgan kichik mavzuchalar soniga mos) chap tomoniga kichik mavzular yozilgan tarqatma materiallar, flomaster (yoki rangli qalam)lar. Mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi: o‘qituvchi o‘quvchilarni mavzular soniga qarab 3-5 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi (guruhlar soni 4 yoki 5ta bo‘lgani ma’qul); o‘quvchilar mashg‘ulotning maqsadi va uning o‘tkazilish tartibi

bilan tanishtiriladi. Har bir guruhga qog‘ozning chap qismida kichik mavzu yozuvi bo‘lgan varaqlar tarqatiladi; o‘qituvchi guruh a’zolarin tarqatma materialda yozilgan kichik mavzular bilan tanishishlarini va shu mavzu asosida bilganlariniflomaster yordamida qog‘ozdagi bo‘sh joyiga jamoa bilan birgalikda fikrlashib yozib chiqish vazifasini beradi va vaqt belgilaydi; guruh a’zolari birgalikda tarqatma materialda berilgan kichik mavzuni yozma (yoki rasm, yoki chizma) ko’rinishida ifoda etadilar. Bunda guruh a’zolari kichik mavzu bo‘yicha imkon boricha to‘laroq ma’lumot berishlari kerak bo‘ladi. Tarqatma materiallar to‘ldirilgach, guruh a’zolaridan bir kishi taqdimot qiladi. Taqdimot vaqtida guruhlar tomonidan tayyorlangan materiallar, albatta, sinf doskasiga mantiqan tagma-tag (zina shaklida) ilinadi; O‘qituvchi guruhlar tomonidan tayyorlangan materiallarga izoh berib, ularni baholaydi va mashg‘ulotni yakunlaydi. O‘quv mashg‘ulotining bunday tashkil etilishi o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, o‘tilgan va o‘zlashtirilgan mavzularni eslashga, ularni yozma (yoki rasm, chizma ko‘rinishida) bayon etishga, fikrlarni umumlashtirishga o‘rgatadi. Zamonaviy texnologiyalar kimyo ta'limiga o‘zgaruvchan ta'sir ko‘rsatadi. Interfaol, vizual va shaxsiylashtirilgan o‘quv tajribalarini taqdim etish orqali kengaytirilgan haqiqat, virtual simulyatsiyalar va sun'iy intellekt kabi vositalar kimyo qanday o‘qitilishini zamonaviy qilish imkoniyatiga ega. Ushbu siljish nafaqat kimyoni yanada qulayroq qiladi, balki talabalarning faolligini va tushunishini kuchaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Бордовская Н.В., Даринская Л.А., Костромина С.Н. Современные образовательные технологии. М.:Кнорус, 2016. 269 с.
2. Дендебер С.В. Современные технологии в обучении химии: развивающее обучение, проблемное обучение, проектное обучение, сотрудничество в обучении, компьютерные технологии. - 2-е издание - М.: За Знания 5, 2015. - 112с.

3. Калмыкова З.И. Зависимость уровня усвоения знаний от активности учащихся в обучении // Современная педагогика. 2016. № 7. С.18.
4. Летние школы NooGen: Education Extreme. – М.: Эврика, 2015 – 240 с.
4. Курбанова Г.Дж., Курбанова А.Дж., Комилов К.У. Интеграция химии и русского языка// Касб-хунар таълими. 2019. № 2(2), С.-36-40.
5. Komilov Q.O‘ Badalova S.I., Kurbanova A.Dj. Case Technology in Chemistry Lessons// Academic Research in Educational Sciences. 2020. №1 (1), Page. 262-265.
6. Komilov Q.O‘ Badalova S.I., Kurbanova A.Dj. Intellectual Training of Students of Technical Institute// Academic Research in Educational Sciences. 2020. №1 (1)

POLYTHERMIC SOLUBILITY OF THE SYSTEM HOOC-COOH ·$NH_2C_2H_4OH$ - [10% $C_{10}H_{11}ClN_4$ + 90%C_2H_5OH] – H2O

[1]B.B. Akhmedov, [2]Z.A. Eshonkulov, [3]J.S. Shukurov
[1] Kimyo International University in Tashkent Branch Samarkand
[2]Academic Lyceum of the Samarkand State Pedagogical Institute
[3] Institute of General and Inorganic Chemistry

Abstract. Today, the daily increase in the number of the population causes an increase in the demand for agricultural products not only in Uzbekistan, but also in the whole world. Protection of food crops from the effects of various insects and increasing productivity is one of the important tasks of scientists today. Taking into account the above, it is important to synthesize effective drugs that exhibit stimulating and insecticidal effects at the same time and to study the mechanisms of their effect on agricultural crops.

Key words: solubility, system, diagram, concentration, “composition-property”, crystallization temperature, insecticide, stimulant.

Introduction. Nowadays, the increase of various diseases among agricultural crops and the high level of influence of pests cause the demand for insecticides. One of the insecticides that has an effective effect against insects is acetamiprid, which is an odorless, neonicotinoid synthetic organic compound [1]. Neonicotinoid insecticides paralyze the nervous system of insects and are used to protect plants from sucking insects [2]. Insecticides are applied two or three times a year in the fight against pests [3].

Physiologically active substances are widely used for the rapid growth and development of plants and their resistance to various diseases. One of the effective properties of physiologically active substances is that it gives the opportunity to achieve the expected result with a small amount of support [4].

In addition, various insects and pests over time adapt to the effects of insecticides applied to plants, which creates the need to synthesize new insecticides, study and analyze the conditions of synthesis [5].

Usually, in order to improve the development and growth of agricultural crops, various stimulants are used, and insecticides are widely used to fight against insects. As a result of the fact that this process is carried out separately, increasing the sensitivity of plants causes a state of stress in them. As a result, there is a decrease in productivity and a weakening of resistance to the effects of pests. Taking into account the above, it is important to synthesize new, effective drugs that simultaneously exhibit effective stimulant properties and have insecticidal effects, and to study their mechanisms of action in plants [6].

Results and discussion. The oxalate monoethanolammonium-water system was studied from -3.5 °C to the melting point of the starting components. In this two-component system, the eutectic point is a temperature of -3.5 °C, in which oxalate monoethanolammonium corresponds to 12% and water 88% (fig.1)



Figure 1. Diagram of the two-component system HOOC-COOH ·$NH_2C_2H_4OH$ -H_2O

Taking into account these above properties, in order to develop drugs that simultaneously have physiologically active and insecticidal effects, the HOOC-COOH ·$NH_2C_2H_4OH$ - [10% $C_{10}H_{11}ClN_4$+ 90%C_2H_5OH] – H_2O system the interaction of components in a visual polythermic method was studied in the temperature and concentration range.

The polythermal solubility diagram of the HOOC-COOH ·$NH_2C_2H_4OH$ - [10% $C_{10}H_{11}ClN_4$ + 90%C_2H_5OH] – H_2O system was constructed using two-component systems and internal sections. The phase boundaries of ice, acetamipyride, and monoethanolammonium oxalate were identified in the diagram .

Among them, lines I-IV were studied by transferring from [10% $C_{10}H_{11}ClN_4$ + 90% C_2H_5OH] side to HOOC-COOH·$NH_2C_2H_4OH$, lines V-VIII from HOOC-COOH·$NH_2C_2H_4OH$ side to [10% $C_{10}H_{11}ClN_4$+90% C_2H_5OH]. In the diagram, all phases meet at one triple point, and this point corresponds to 5.7% monoethanolammonium oxalate, 1.6% acetamiprid, and 92.7% water at -4 °C.

In the HOOC-COOH ·$NH_2C_2H_4OH$ - [10% $C_{10}H_{11}ClN_4$ + 90%C_2H_5OH] – H_2O polythermal solubility diagram, the isotherms were studied at every 10 °C, and this system belongs to the simple eutonic type, and no new chemical compound is formed (table 1).

Table 1

HOOC-COOH ·$NH_2C_2H_4OH$- [10% $C_{10}H_{11}ClN_4$+ 90% C_2H_5OH] binary and ternary points of the system

Liquid phase composition, %			Crystal. Temp.° C	Solid phase
HOOC-COOH ·$NH_2C_2H_4OH$	10% $C_{10}H_{11}ClN_4$+ 90% C_2H_5OH	H_2O		
1.00	65.6	33.4	15.5	$C_{10}H_{11}ClN_4$ + HOOC-COOH ·$NH_2C_2H_4OH$
1.80	63.2	35.0	19.0	-//-
4.30	56.0	39.7	23.0	-//-
10.9	22.4	66.7	25.0	-//-
9.90	12.0	12.0	15.0	-//-
7.50	3.60	88.9	2.00	-//-
7.00	2.00	91.0	0.00	-//-
5.70	1.60	92.7	-4.00	$C_{10}H_{11}ClN_4$ + ice + HOOC-COOH·$NH_2C_2H_4OH$
5.00	1.60	93.4	-3.00	$C_{10}H_{11}ClN_4$ + ice
3.00	1.60	95.4	-2.00	-//-
	1.60	98.4	-1.90	-//-
10.0	0.40	89.6	3.00	HOOC-COOH ·$NH_2C_2H_4OH$ + ice
12.0	---	88.0	3.50	-//-

3- Fig. Polythermal projection of HOOC-COOH ·$NH_2C_2H_4OH$ - [10% $C_{10}H_{11}ClN_4$ + 90%C_2H_5OH] – H_2O system.



The diagram shows the interaction of components, projections of the HOOC-COOH ·$NH_2C_2H_4OH$- [10% $C_{10}H_{11}ClN_4$+ 90% C_2H_5OH] system in temperature and concentration changes (Fig. 3).

Conclusion. HOOC-COOH $NH_2C_2H_4OH$ - [10% $C_{10}H_{11}ClN_4$ + 90%C_2H_5OH] – H_2O system belongs to the simple eutonic type, it was found that the components retain their individuality and no new chemical compounds are formed. The scientific information obtained on the interaction of components in this system serves as the basis for the creation of the technology of obtaining physiologically active substances with insecticidal properties.

REFERENCE

1. Zoumenou, B.G.Y.M., Aïna, M.P., Imorou Toko, I. et al. Occurrence of Acetamiprid Residues in Water Reservoirs in the Cotton Basin of Northern Benin. Bull Environ Contam Toxicol 102, 7–12 (2019). DOI:10.1007/s00128-018-2476-4\
2. Ishaaya I, Barazani A, Kontsedalov S, Horowitz AR (2007) Insecticides with novel modes

of action: Mechanism, selectivity and cross-resistance. Entomol Res 37:148–152. DOI:10.1111/j.1748-5967.2007.00104.x

3. N. Simon-Delso & V. Amaral-Rogers & L. P. Belzuncesand and others. Systemic insecticides (neonicotinoids and fipronil): trends, uses, mode of action and metabolites// Environ Sci Pollut Res Int. 2015; 22(1): 5–34.Published online 2014 Sep 19. DOI: 10.1007/s11356-014-3470-y
4. Singh, S., Kulshrestha, G. Residues of Thiamethoxam and Acetamaprid, Two Neonicotinoid Insecticides, in/on Okra Fruits (Abelmoschus esculentusL). Bull Environ Contam Toxicol 75, 945–951 (2005). DOI:10.1007/s00128-005-0841-6
5. E. S. Khusanov, J. S. Shukurov, A. S. Togasharov, S. Tukhtaev study of the solubility of components in a system $H_3PO_4 \cdot CO(NH_2)_2$ - $NH(C_2H_4OH)_2$ - H_2O// Uzbek chemical journal.-Tashkent,2 /2022. pp.9-14.
6. Zh.S. Shukurov, E.S. Khusanov, M.Sh. Mukhitdinova, A.S. Togasharov. Component solubilities in the acetic acid–monoethanolamine–water system// Russian Journal of Inorganic Chemistry. – Moscow, 2021 Vol. 66, No. 6, pp. 807-813. DOI: 10.31857/S0044457X21060179

RAQAMLI LABORATORIYALAR ORQALI KIMYOVIY JARAYONLARNI VIZUAL O‘QITISH TEXNOLOGIYALARI

Eshonqulov Zoyir Axmadovich
E- mail: eshonqulov.7997@gmail.com
Samarqand davlat pedagogika institutining Akademik liseyi

Annotatsiya: Ushbu maqolada kimyo ta’limida raqamli laboratoriyalarni qo‘llashning ahamiyati, ularning o‘quv jarayoniga ta’siri hamda rivojlanish istiqbollari yoritilgan. Raqamli (virtual) laboratoriyalar o‘quvchilarga kimyoviy jarayonlarni xavfsiz, interaktiv va vizual tarzda o‘rganish imkonini beradi. Tadqiqotda ushbu texnologiyalar orqali murakkab kimyoviy reaksiyalarni modellashtirish, tajriba natijalarini tahlil qilish va o‘quvchilarda amaliy

ko‘nikmalarni shakllantirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada raqamli laboratoriyalarning samaradorligini oshirishda duch kelinayotgan texnik, metodik va kadrlar bilan bog‘liq muammolar ko‘rsatilib, ularni bartaraf etish bo‘yicha taklif va tavsiyalar berilgan. Natijada, raqamli laboratoriyalar kimyo fanini o‘qitishda innovatsion yondashuv sifatida ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, ilmiy tahlil va ijodkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim omil ekani isbotlangan.

Kalit so‘zlar: raqamli laboratoriya, kimyo ta’limi, virtual tajriba, vizual o‘qitish, innovatsion texnologiya, STEAM, ta’lim sifati.

Kirish. So‘nggi yillarda ta’lim sohasida raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayoni jadal sur’atlar bilan rivojlanmoqda. Ayniqsa, tabiiy fanlar, jumladan, kimyo ta’limida virtual tajribalarni tashkil etish imkonini beruvchi *raqamli laboratoriyalar* o‘quv jarayonining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. An’anaviy laboratoriya ishlarini o‘tkazishda moddiy-texnik baza, xavfsizlik talablari va tajriba vositalarining yetishmasligi o‘qitish jarayonida bir qator cheklovlarni keltirib chiqaradi. Shu sababli raqamli laboratoriyalar o‘quvchilarga murakkab kimyoviy jarayonlarni *xavfsiz, vizual va interaktiv tarzda o‘rganish* imkonini beruvchi muqobil yechim sifatida katta ahamiyat kasb etmoqda.[1,2] Kimyo fani ko‘proq amaliy tajriba va kuzatuvga asoslangan bo‘lib, uni samarali o‘qitish uchun o‘quvchilarda *reaksiyalar mohiyati, moddalarning o‘zaro ta’siri, energetik jarayonlar* haqida chuqur tushuncha hosil qilish zarur. Raqamli laboratoriyalar aynan shu jarayonlarni *3D animatsiya, simulyatsiya va real vaqt rejimidagi kuzatish* orqali osonlashtiradi. Bu esa o‘quvchilarda ilmiy tafakkur, tahliliy fikrlash, mustaqil o‘rganish va tajribaviy faoliyatga qiziqishni kuchaytiradi. *Raqamli laboratoriyalar* yordamida kimyoviy jarayonlarni vizual o‘qitish — nafaqat tajriba o‘tkazishni qulaylashtiradi, balki o‘quvchilarning *kognitiv faoliyatini* faollashtiradi. Shu bilan birga, ushbu texnologiyalarni joriy etishda bir qator muammolar ham mavjud: texnik vositalarning yetishmasligi, internet tezligi, o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasi hamda o‘zbek tilidagi o‘quv kontentlar kamligi.

Mazkur tadqiqotning *maqsadi* — kimyo ta’limida raqamli laboratoriyalar orqali kimyoviy jarayonlarni vizual o‘qitish texnologiyalarining samaradorligini o‘rganish, ularning amaliy qo‘llanilishida uchraydigan muammolarni tahlil qilish va istiqbolli yechimlarni asoslab berishdan iborat. Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat: 1.Raqamli laboratoriyalarning kimyo fanini o‘qitishdagi o‘rni va afzalliklarini aniqlash; 2.Vizual o‘qitish texnologiyalarining o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalariga ta’sirini o‘rganish; 3.Raqamli tajribalarni tashkil etishda uchraydigan texnik va metodik muammolarni aniqlash; 4.Raqamli laboratoriyalarni milliy ta’lim tizimiga samarali joriy etish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Asosiy qism. Raqamli laboratoriyalarning mohiyati va o‘quv jarayonidagi o‘rni. Raqamli laboratoriyalar — bu kimyoviy jarayonlarni virtual muhitda modellashtirish**,** tajribalarni interaktiv o‘tkazish va natijalarni grafik yoki animatsion tarzda tahlil qilish imkonini beruvchi innovatsion texnologiyalardir. Bunday laboratoriyalar orqali o‘quvchi murakkab kimyoviy reaksiyalarni xavfsiz sharoitda, real tajriba o‘tkazmasdan turib, kuzatish imkoniga ega bo‘ladi.

Zamonaviy raqamli laboratoriyalar, masalan, *PhET Interactive Simulations**,** Labster**,** ChemCollective**,** MEL Chemistry VR* kabi dasturlar, o‘quvchilar uchun kimyoviy jarayonlarni bosqichma-bosqich, vizual tarzda o‘rganish imkonini beradi. Bu jarayon o‘qituvchi uchun ham qulay, chunki har bir tajriba *ko‘rsatma, xavfsizlik choralari va natijaviy tahlil* bilan birgalikda amalga oshiriladi.[3,4]

Raqamli laboratoriyalarning o‘quv jarayoniga kiritilishi o‘quvchilarda: murakkab jarayonlarni idrok etish qobiliyatini; tahliliy va tanqidiy fikrlashni; mustaqil tajriba o‘tkazish malakasini; ilmiy tafakkur va qiziqishni oshiradi.

Natijada kimyo ta’limi jarayoni nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham qiziqarli va samarali tus oladi.

1-jadval

Raqamli laboratoriyalarni kimyo ta’limida qo‘llashning afzalliklari, muammolari va istiqbollari

Aspekt	Afzalliklari	Mavjud muammolar	Istiqbolli yechimlar
O‘quv jarayoni	Kimyoviy jarayonlarni xavfsiz va vizual o‘rganish imkonini beradi	An’anaviy darsliklar bilan integratsiya yetarli emas	Vizual laboratoriya modellarini o‘quv dasturiga moslashtirish
Texnik imkoniyatlar	Kompyuter va internet orqali istalgan joyda tajriba o‘tkazish mumkin	Kompyuterlar va internet tarmog‘ining yetishmasligi	Ta’lim muassasalarini texnik jihozlashni bosqichma-bosqich kengaytirish
O‘qituvchi roli	O‘qituvchi murakkab jarayonlarni interaktiv ko‘rsatishi mumkin	Raqamli kompetensiya darajasi past	Malaka oshirish va trening dasturlarini yo‘lga qo‘yish
O‘quvchi faolligi	O‘quvchilar mustaqil tajriba o‘tkazish imkoniga ega	Motivatsiya yetarli darajada emas	Gamifikatsiya va i nteraktiv baholash tizimlarini joriy etish
O‘quv resurslari	3D simulyatsiya, video va animatsiyalar orqali jarayonlarni tushunish osonlashadi	O‘zbek tilidagi raqamli kontent kam	Mahalliy platformalarda o‘zbek tilidagi laboratoriya modellarini yaratish

2. Kimyoviy jarayonlarni vizual o‘qitishning afzalliklari

Kimyoviy jarayonlar asosan *mikrodarajada,* ya’ni ko‘z bilan bevosita kuzatib bo‘lmaydigan shaklda kechadi. Shu sababli ularni o‘quvchilarga tushuntirishda *vizual texnologiyalar* katta ahamiyatga ega. Raqamli laboratoriyalar yordamida: atomlar va molekulalarning o‘zaro ta’siri 3D formatda ko‘rsatiladi; reaksiyalar tezligi, harorat, bosim va konsentratsiya ta’siri real vaqt rejimida modellashtiriladi; energiya o‘zgarishlari grafik ko‘rinishda tahlil qilinadi; o‘quvchilar har bir tajriba natijasini o‘zlari o‘lchab, tahlil qiladilar.[5]

Bu jarayon o‘quvchilarning *ko‘rish, eshitish va tahlil qilish* faoliyatini birlashtiradi, natijada bilimlar yanada mustahkam o‘zlashtiriladi.

Misol uchun, kislota va asoslarning neytrallanish reaksiyasi yoki metallarning kislotalar bilan reaksiyasi kabi tajribalar virtual shaklda xavfsiz tarzda o‘tkazilishi mumkin. Shu orqali o‘quvchi jarayonni to‘liq tushunadi va nazariy bilimlarini amaliy jihatdan mustahkamlaydi.



1-rasm. Letsiy o`quvchilari va ularda raqamli laboratoriyalarning samaradorligi yo‘nalishlar bo‘yicha foizlarda taqsimlangan holda tasvir

Xulosa. Raqamli laboratoriyalar kimyo ta’limida tajriba o‘tkazish, tahlil qilish va kuzatish jarayonlarini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Ular o‘quvchilarga murakkab kimyoviy jarayonlarni xavfsiz, interaktiv va vizual shaklda o‘rganish imkonini beradi. Tadqiqot davomida shuni aniqlash mumkinki, raqamli laboratoriyalar nafaqat tajriba o‘tkazish vositasi, balki ilmiy tafakkurni rivojlantiruvchi, funksional savodxonlikni oshiruvchi va tahliliy fikrlashni

shakllantiruvchi kuchli pedagogik texnologiya sifatida namoyon bo‘ladi.[6] Shu bilan birga, mavjud texnik imkoniyatlarning cheklanganligi, o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasining yetarli darajada emasligi va o‘zbek tilidagi resurslarning kamligi bu yo‘nalishdagi asosiy muammolar sifatida saqlanib qolmoqda. Raqamli laboratoriyalarni kimyo ta’limida samarali qo‘llash uchun quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Pedagoglar uchun maxsus malaka oshirish kurslarini tashkil etish, bunda raqamli laboratoriyalardan foydalanish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalar shakllantiriladi.
2. O‘zbek tilida milliy raqamli laboratoriya platformasini yaratish, u kimyo fanining o‘quv dasturiga mos bo‘lgan tajribalar bazasini o‘z ichiga olishi lozim.

Umuman olganda, raqamli laboratoriyalar asosida kimyo fanini vizual o‘qitish texnologiyalarini rivojlantirish — zamonaviy ta’lim tizimining raqamlashtirish strategiyasida muhim o‘rin tutadi. Bu jarayon o‘quvchilarda nafaqat nazariy bilim, balki amaliy tafakkur, tahliliy va innovatsion fikrlash kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Pardayev U. et al. The effects of organizing chemistry lessons based on the finnish educational system in general schools of uzbekistan //Journal of universal science research. – 2024. – T. 2. – №. 4. – C. 70-74.
2. Abdukarimova M. A. Q. et al. Tabiiy fanlar o ‘qitishda STEAM yondashuvi //Science and Education. – 2024. – T. 5. – №. 11. – C. 237-244.
3. Narzullayev M. et al. Application of generalized methods in chemistry classes. organization of effective lessons based on KIMBIFT //Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 5. – C. 643-648.
4. Xayrullo o'g P. U. et al. The importance of improving chemistry education based on the STEAM approach //fan va ta'lim integratsiyasi (integration of science and education). – 2024. – T. 2. – №. 1. – C. 56-62.
5. Xaliqulov X., Abdukarimova M., Tilyabov M. Kimyo darslarida ekologik muammolarni yoritish orqali ekologik madaniyatni shakllantirish //Modern Science and Research. – 2025. – T. 4. – №. 5. – C. 66-70.
6. Nortojiyeva S., Xaliqulov X., Tilyabov M. Kimyo fanidan zamonaviy va pedagogik to’garaklarni tashkil etish texnologiyasi //Modern Science and Research. – 2025. – T. 4. – №. 5. – C. 71-74.

HUJAYRAVIY Ca^{2+} MUVOZANATIDA MITOXONDRIYANING AHAMIYATI

Adizova Shoira Toirovna
Buxoro innovatsion ta'lim
va tibbiyot universiteti
adizovashoira263@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada mitoxondriyaning hujayra ichidagi kalsiy gomeostazini tartibga solishdagi roli tahlil qilinadi. Ca^{2+} ionining transporti, uni saqlash va chiqarish mexanizmlari, shuningdek, mitoxondriya membranasi o'tkazuvchanligining o'zgarishi natijasida yuzaga keluvchi apoptoz jarayonlari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Jigar, mitoxondriya, antigen, matriks, ingibitor, ATF, ADF, oksidlanish-fosforlanish, membrana potensiali.

Kalsiy ioni (Ca^{2+}) hujayra ichida kechadigan ko'plab biologik jarayonlarda jumladan, energiya hosil bo'lishida muhim boshqaruvchi rol o'ynaydi. Hujayraning normal faoliyatini ta'minlash uchun sitozoldagi Ca^{2+} miqdorini juda past darajada saqlab turish zarur, chunki qisqa vaqt davomida ham ichki kalsiy miqdorining ortishi turli xil omillar gormonlar, neyromediatorlar, o'sish omillari va antigenlar ta'sirini hujayra javoblarida ifodalaydi. Ca^{2+} ioni nerv sinapslarida neyromediatorlarning ajralib chiqishi, mushak tolasining qisqaruvi, adrenalinning ta'sirida glikogenning parchalanishi kabi jarayonlarda muhim ahamiyatga ega. Sitozolda Ca^{2+} ning uzoq muddat davomida ko'payishi esa hujayraning apoptoz orqali halokatiga olib keladi.[1].

Ca^{2+} tomonidan boshqariladigan ko'pchilik jarayonlar hujayra ichidagi ionlashtirilgan Ca^{2+} miqdori orqali nazorat qilinadi, ammo to'qimalar orasidagi Ca^{2+} konsentratsiyasi bundan ancha yuqori bo'ladi. Eukariot hujayralarda plazmatik membrana, mitoxondriya va endoplazmatik retikulum Ca^{2+} tashilishini tartibga soluvchi tizimlar mavjud. Odatda plazmatik membrana uchta asosiy tizimga ega bo'lib bular Ca^{2+} kanallari, ATF-azalar va Na^{+}/Ca^{2+} almashinish kanallaridir. Hujayraga Ca^{2+} ning kirishi asosan Ca^{2+} kanallari orqali amalga oshadi, uning

chiqarilishi esa Ca^{2+}-ATF-aza va Na^{+}/Ca^{2+} almashinuv mexanizmlari orqali sodir bo‘ladi.

Sitozoldagi past miqdordagi kalsiy Ca^{2+}-ATF-aza, endoplazmatik retikulum va mitoxondriya tashuvchi tizimlari orqali saqlanadi. Mg^{2+} ionlari esa Ca^{2+} dan farqli ravishda sitoplazmada millimolyar miqdorda mavjud bo‘lib, tashqi tomonga chiqmaydi. Bu selektivlik Ca^{2+} ning fosfatlar, xususan ATF bilan erimaydigan tuzlar hosil qilish xususiyati bilan bog‘liq. Shu sababli hujayralar evolyusion jarayonda Ca^{2+} ni ortiqcha miqdorda sitoplazmadan chiqarish mexanizmini ishlab chiqqan. Keyinchalik esa Ca^{2+} gradiyenti hujayra ichidagi turli fermentativ jarayonlarni faollashtiruvchi signal sifatida ishlatila boshlagan.

Mitoxondriyaga Ca^{2+} elektroforetik yo‘l bilan, ichki membranadagi nafas olish zanjiri hosil qilgan proton harakatlantiruvchi kuch ta’sirida faoliyat yurituvchi Ca^{2+} uniporteri orqali kiradi. Bu uniporter orqali boshqa ayrim ionlar ham tashiladi, biroq ularning tezligi Ca^{2+} ga nisbatan pastroq bo‘ladi. Mitoxondriyadan Ca^{2+} chiqishi asosan Na^{+}/Ca^{2+} almashinuvi yoki Na^{+} ga bog‘liq mexanizmlar orqali sodir bo‘ladi. Bu tizim Na^{+}/H^{+} antiporter bilan birgalikda ishlaydi va fiziologik sharoitda mitoxondriyada Ca^{2+} ni doimiy aylanishini ta’minlaydi.

Ishemiya yoki oksidlanish stressi holatida esa butunlay boshqa mexanizm ishga tushadi, ya’ni sitozolda Ca^{2+} miqdori sezilarli darajada oshadi va mitoxondriyaga ortiqcha Ca^{2+} kirishi kuzatiladi. Bunda Ca^{2+} ning ko‘payishi, noorganik fosfatlar va reaktiv kislorod shakllari ishtirokida, immunosupresiv vositaga sezgir kanallarning ochilishi orqali mitoxondriya o‘tkazuvchanligi ortadi. Ushbu kanallar mitoxondriyaning ichki va tashqi membranalari o‘rtasida joylashgan bo‘lib, ularning tarkibida ADF/ATF antiporter, potensialga bog‘liq anion kanali va siklofilin D mavjud.

ADF/ATF antiporter kanalning darvozasi sifatida xizmat qiladi. Uning “m” va “s” konformasiyalari mavjud bo‘lib, ular mos ravishda matriks va sitoplazma tomonida joylashgan bog‘lanish sohalariga ega. Sitoplazmatik ingibitorlar kanalning ochilishini stimullaydi, matriksli ingibitorlar esa uni to‘sadi. Siklosporin ta’sirida ushbu kanalning ochilishi ingibirlansa, u diametri 2,0–2,6 nm bo‘lgan kanal shaklida

mavjud bo‘ladi. Past o‘tkazuvchanlik holatida u 300 Da gacha bo‘lgan molekulalarni o‘tkazadi, yuqori o‘tkazuvchanlikda esa Ca^{2+}, H^{+} va K^{+} ionlarining chiqishini ta’minlaydi, natijada mitoxondriya membrana potensiali pasayadi.

Xulosa. Mitoxondriya hujayra ichidagi kalsiy ionlari (Ca^{2+}) muvozanatini saqlashda markaziy rol o‘ynaydi. U Ca^{2+} ni o‘z ichiga qabul qilish va chiqarish jarayonlarini muvofiqlashtirib, hujayra ichidagi ion muvozanatini, energiya almashinuvi va apoptoz jarayonlarini nazorat qiladi. Biroq ishemiya yoki oksidlanish stressi kabi patologik holatlarda Ca^{2+} ning ortiqcha to‘planishi mitoxondriyal o‘tuvchanlik kanalining ochilishiga sabab bo‘ladi. Bu esa membrana potensialining pasayishiga, mitoxondriyaning shishishiga va natijada hujayraning nekroz yoki apoptoz orqali halokatiga olib keladi. Siklofilin D oqsili ushbu teshikning faoliyatini tartibga soladi, Siklosporin A esa uni ingibirlab, mitoxondriyal disfunksiya va hujayra o‘limini oldini oladi.

Shunday qilib, mitoxondriya Ca^{2+} gomeostazini ta’minlash bilan birga, hujayra energetikasi, oksidlanish-fosforlanish jarayonlari va apoptotik mexanizmlar o‘rtasida muvozanatni saqlovchi asosiy organellalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayeva M. Hujayraning Ca^{2+} gomeostazini saqlanishida mitoxondriyaning roli. FarDu. ilmiy xabarlari.–Farg‘ona, 2022 -B. 1487-1491.

2. Dalimova S. Bioenergetik jarayonlarda mitoxondriyaning roli. O‘zbekiston Milliy Universiteti Ilmiy Axborotnomasi. – Toshkent, 2019. – №2. – B. 45–51.

3. Carafoli E., Santella L., Branca D., Brini M. Generation, control, and processing of cellular calcium signals. Critical Reviews in Biochemistry and Molecular Biology. – 2001. – Vol.36. – P.107–260.

4. Duchen M.R. Mitochondria and calcium: from cell signalling to cell death. The Journal of Physiology. – 2000. – Vol.529, №1. – P.57–68.

ISHQORIY BENTONITLARNI KIMYOVIY FAOLASHTIRISH ORQALI ADSOBSION XOSSALARINI OSHIRISH

Adizova Shoira Toirovna
Buxoro innovatsion ta'lim
va tibbiyot universiteti
adizovashoira263@gmail.com

Annotatsiya. Tadqiqotda tabiiy bentonit gilining sulfat kislotasi yordamida kimyoviy faollashtirilish jarayonida uning strukturaviy va adsorbsion xossalarida yuz beradigan o‘zgarishlar tahlil qilindi. 15 % kislota bilan ishlov berilganda adsorbsion sig‘im 38 cm^3/g dan 110 cm^3/g gacha oshdi. 25 % konsentratsiyada esa kamayish kuzatildi. BET tahliliga ko‘ra, 15 % li H_2SO_4 eritmasi bentonitni faollashtirish uchun optimal sharoit sifatida tavsiya etildi.

Kalit so‘zlar: Bentonit, sorbent, kimyoviy faollash, adsorbsiya izotermasi, oqava suv, BET yuzasi, sulfat kislota.

Konchilik, kimyo, metallurgiya va to‘qimachilik kabi sanoat tarmoqlari katta miqdorda suv resurslaridan foydalanadi. Texnologik jarayonlarda bevosita ishlatiladigan suvlar tarkibida dastlabki xom ashyodagi qimmatbaho komponentlar hamda turli zararli moddalar mavjud bo‘ladi [1]. Tabiatni muhofaza qilish va texnologik muammolarni hal etish uchun mahalliy xom ashyoni qayta ishlashning chiqindisiz texnologiyalariga asoslangan yangi, ilmiy jihatdan asoslangan usullarni izlab topish zarur. Oqova suvlarni tozalash usullarini tanlashda texnologik jarayonning turi, ifloslanish manbalari oqova suvlarning sifati va boshqa omillar inobatga olinadi. Mahalliy xom ashyodan samarali sorbentlarni aniqlash uchun chiqindisiz texnologiyalar asosida chuqur tozalashga mo‘ljallangan yangi ilmiy-uslubiy yondashuvlarni ishlab chiqish muhimdir. Sorbentni tanlash sanoat, maishiy va kimyoviy ifloslantiruvchi moddalarning tarkibi, fizik-kimyoviy xossalari, usulning arzonligi va komponentlarning mavjudligi, shuningdek tozalash mahsulotlarini qayta ishlash imkoniyatiga bog‘liq.

Ishlab chiqarish sanoati korxonalarining oqova suvlarini tozalash bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, fizik-kimyoviy va sorbsiya usullari eng

istiqbolli yo‘nalishlardir. Modifikatsiyalangan bentonit gillarining sirt maydoni esa 200 m^2/g va undan ortiq bo‘lishi mumkin. Faollashtirilgan bentonitning adsorbsion xossalari ularning g‘ovak tuzilishi, o‘lchami va taqsimlanishiga bog‘liq. Sorbentning faolligi uning hajm birligiga yoki massasiga to‘g‘ri keladigan yutilgan modda miqdori (kg/m^3 yoki kg/kg) bilan ifodalanadi.

Eng samarali sorbentlar sifatida faollashtirilgan sorbentlar qo‘llaniladi. Tarkibida montimorillonit saqlagan ishqoriy bentonit giliga sulfat kislotaning 10% dan 25% gacha konsentrasiyali eritmalari bilan ishlov berish bilan faollashtirilgan gillarning sorbsiya izotermalari olinib, BET usulida tahlil qilindi.



1-rasm. a) Tabiiy bentonit gilining azot muhitidagi adsorbsiya-desorbsiya izotermalari



b) 10% li sulfat kislota bilan faollashtirilgan bentonit gilining azot muhitidagi adsorbsiya-desorbsiya izotermalari



c) 15% li sulfat kislota bilan faollashtirilgan bentonit gilining azot muhitidagi adsorbsiya-desorbsiya izotermalari



d) 25% li sulfat kislota bilan faollangan bentonit gilining azot muhitidagi adsorbsiya-desorbsiya izotermalari

1-rasmdan ko‘rinib turganidek, faollashtirilmagan (a namuna) gilning adsorbsion sig‘imi 38 sm^3/g bo‘lgan bo‘lsa, sulfatning 10% konsentratsiyali eritmasi bilan faollashtirilgan (b namuna) gilning adsorbsion sig‘imi 75-77 sm^3/g gacha, 15% konsentratsiyali H_2SO_4 eritmasi bilan ishlov berilgan (c namuna) gilning adsorbsion

sig‘imi 110 sm^3/g gacha oshishiga erishildi. 25% konsentratsiyali sulfat kislotalari bilan ishlov berilishi gilning adsorbsion sig‘imini 15% konsentratsiyali eritmaga nisbatan pasayishiga olib keldi. Jumladan sulfat kislota bilan ishlov berilgan (d namuna) gilning adsorbsion sig‘imi esa 70 sm^3/g gacha pasaydi.

Adsorbsion sig‘imning pasayishiga ta'sir etgan ko‘rsatgichlarni aniqlash maqsadida natijalarni BET va Langmuir usulida tahlil qilinib, gil namunalari yuzasining umumiy maydoni, mikro va mezog‘ovakliklar nisbiy yuzasi, g‘ovakliklarning umumiy hajmi, mikrog‘ovakliklar hajmi, shuningdek adsorbsion g‘ovakliklarning o‘rtacha o‘lchami kabi ko‘rsatkichlar hisoblab chiqildi. Natijalar 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Namuna	**S_{sy} m^2/g (BET**	**S_{sy} m^2/g (Lengmyur**	**t-Plot (mikrog‘ ova llar yuzasi)**	**Mezog’ ovakl ar yuzasi, m^2**	**V_{mic}, sm^3/g**	**V_a,sm^3/gm**	**R,A**
Tabiiy bentonit	44,68	64,78	2,12	42,56	0,0007	0,018	13,301
15%li sulfat kislota orqali faollantirilgan bentonit	184,56	378,14	18,25	166,31	0.0074	0,112	37,012

1-jadvaldagi ko‘rsatkichlar tahlil qilinganda, tabiiy bentonit zarrachalarining boshlang‘ich nisbiy yuzasi 44,68 m^2/g ni tashkil etgan bo‘lsa, 10% konsentratsiyali H_2SO_4 eritmasi bilan ishlov berilgan bentonit gili 133,06 m^2/g gacha, 15% li eritma bilan ishlov berilganda bentonit gili yuzasi 184,56 m^2/g gacha oshgan. Lekin, kislota konsentratsiyasini keyingi 25% gacha oshirilishi 125,42 m^2/g gacha kamayishiga olib keldi. Aytish mumkinki, kislota kontsentratsiyasini kerakli darajadan oshirilish nafaqat gil tarkibidagi metallar oksidlarini yuvib chiqadi, balki, gilning strukturaviy buzilishiga ham olib keladi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, bentonit gilining 15 % H_2SO_4 eritmasi bilan faollashtirilishi eng samarali sharoit bo‘lib, bu holda sorbentning sirt maydoni va adsorbsion sig‘imi maksimal darajaga yetadi. Yuqori konsentratsiyali kislotalar esa gil tuzilmasining buzilishiga sabab bo‘ladi. Faollashtirilgan bentonit sorbentlari yordamida oqova suvlarni og‘ir metall ionlari va boshqa ifloslantiruvchilardan yanada samarali va chuqur tozalash mumkin bo‘ladi. Shu bois, 15 % H_2SO_4 eritmasi bilan ishlov berish bentonit asosidagi samarali sorbentlar olish uchun optimal sharoit hisoblanadi. Kislota kontsentratsiyasining ortishi esa gil tuzilmasining buzilishiga va adsorbsion xossalarining pasayishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boyjanov, Nodirbek I., Boyjanov, islombek I., Yulchiev, Asilbek B., and Serkayev, Kamar p. "The effect of activated alkaline earth bentonite on the quality of vegetable oils," chemistry and chemical engineering. Vol. 2024 p.68-72.

2. Umurov F., Amonova M.,&Amonov M. Combined method of wastewater treatment of silk-winding products. 2021. No. 25(4), P. 38-43. Retrieved from https://doi.org/10.18412/1816-0395-2021-4-38-43. Ecology and Industry of Russia.

3. Курбанов, Х. Г., Ахмедова, Н. Н., Сагдиев, Н. Ж., Турсунмуратов, О. Х., & Бекчанов, Д. Ж. (2020). Модификация гиалуроновой кислоты. Universum: химия и биология, (10-1 (76)), 32-36.

ELEMENT IZOTOPLARINING INSON HAYOTIDAGI AHAMIYATI

Xolikova Gulnora Muhammadovna
Andijon viloyati Ulug‘nor tuman
ixtisoslashtirilgan maktabi Ma‘naviy va
ma‘rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari
(kimyo fani o‘qituvchisi).
xoliqovagulnora8484@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada element izotoplarining inson hayotidagi o‘rni, ularning tibbiyot, sanoat, qishloq xo‘jaligi, arxeologiya va boshqa sohalarda qo‘llanilishi yoritilgan. Shu bilan birga, izotoplardan foydalanishning ilmiy asoslari

va ularni amaliyotda tatbiq etish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar ham keltirilgan. Maqolada izotoplarning zamonaviy texnologiyalardagi ahamiyati va kelajakdagi istiqbollari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Izotop, radioaktivlik, diagnostika, yadro tibbiyoti, radiatsion terapiya, yadro energetikasi, C-14, Uran-235.

Element izotoplari-bu protonlar soni bir xil, ammo neytronlar soni farqli bo‘lgan bir xil elementlarning atomlari bo‘lib, ular turli fizik xossalarga ega. Barqaror va radioaktiv izotoplar mavjud bo‘lib, ularning har biri inson hayoti va texnologik jarayonlarda muhim rol o‘ynaydi. Bugungi kunda izotoplar tibbiyot, sanoat, energetika, arxeologiya va boshqa sohalarda keng qo‘llanilmoqda.

Maqolani yozishda quyidagi ilmiy-uslubiy yondashuvlar qo‘llanildi:

1.Tahliliy usul – ilmiy maqolalar, darsliklar va internet manbalaridagi ma’lumotlar tahlil qilindi.

2.Taqqoslash usuli – izotoplarning turli sohalardagi qo‘llanishi o‘zaro solishtirildi.

3.Ilmiy kuzatuv – izotoplarning amaliyotdagi roli misollar orqali o‘rganildi.

4.Statistik usul – ayrim hollarda ma’lumotlar raqamlar bilan ifodalandi.

Актуальность. По данным ВОЗ, каждый 7-й взрослый в мире страдает от болей в спине (БС) (WHO,2003). В последнее время, отмечается тенденция к увеличению распространенности болевого синдрома среди детей и подростков. Причину возникновения БС в большинстве случаев установить не удается, в связи с чем БС часто трактуется с позиции синдромного подхода без уточнения структуры БС и вариантов течения заболевания Вышеперечисленные аспекты определяют необходимость дальнейшего изучения проблемы БС, особенно у лиц молодого возраста. По данным отечественных и зарубежных авторов, нарушения осанки и функциональные деформации позвоночника встречаются у 40–70 % школьников, а у 10–15 % диагностируются начальные формы структурных изменений позвоночного столба [1,5]. Особое внимание следует уделить подросткам допризывного возраста (15–17 лет), находящимся в периоде интенсивного роста и биомеханической перестройки опорно-двигательного аппарата. Состояние позвоночника и мышечно-связочного аппарата в этот период определяет не только физическое развитие, но и годность к военной службе, что придаёт проблеме выраженное социальное значение. Среди факторов, способствующих развитию дорсопатий, ведущими являются гиподинамия, длительное статическое положение тела при учебных занятиях, несоответствие мебели росту ребёнка, нерациональный двигательный режим,

неправильные привычки осанки и низкий уровень физической активности [2,4]. В последние годы отмечается увеличение времени, проводимого подростками за компьютером и смартфоном, что формирует синдром "офисного позвоночника" уже в школьном возрасте [3].

Таким образом, изучение распространённости дорсопатий у подростков допризывного возраста и выявление ведущих факторов риска являются актуальными задачами современной профилактической медицины, педагогики и военной гигиены.

Цель исследования. Определить распространённость и структуру дорсопатий у подростков допризывного возраста, выявить клинико-функциональные особенности нарушений осанки и ведущие факторы риска их формирования для последующей оптимизации программ диагностики и профилактики.

Материалы и методы исследования. В исследование были включены 327 подростков мужского пола в возрасте 15–17 лет, проходивших профилактические медицинские осмотры в подростковом центре города Ташкента. Все участники были клинически здоровы по основным соматическим показателям и не имели выраженных врождённых деформаций позвоночника.

Методы исследования включали: Клинический осмотр с оценкой осанки, линии остистых отростков и положения лопаток. Антропометрию (рост, масса тела, индекс массы тела). Функциональные тесты — определение амплитуды движений в позвоночнике по Шоберу и Отто, оценка силы мышц спины и брюшного пресса. Инструментальные методы — постурографию и плантографию для анализа статико-динамической устойчивости. Анкетирование для оценки двигательной активности, длительности сидячего режима и привычек осанки. Статистическая обработка данных проводилась с использованием программы Statistica 10.0. Применялись параметрические и непараметрические методы, различия считались достоверными при $p < 0,05$.

Результаты исследования. Дорсопатии различной степени выраженности были выявлены у 61,5% (n= 201) обследованных подростков допризывного возраста. Функциональные нарушения осанки (кифотическая, лордотическая или сколиотическая установка) диагностированы у 32,7 % (n= 107) подростков. Структурные изменения (начальные формы сколиоза I степени, юношеский остеохондроз, уплощение физиологических изгибов позвоночника) — у 18,7 % (n= 61). Нарушения биомеханики стопы (плоско-вальгусная установка) выявлены у 11,3 % (n= 37) и часто сочетались с изменениями осанки.

У подростков с дорсопатией (n=201) среди факторов риска достоверно чаще встречались: низкая физическая активность (у 89,1% (n=179); избыточная масса тела (у 26,9 % (n= 54); длительное пребывание в положении сидя более 6 часов в сутки (у 74,6% (n= 150); нарушение режима сна и отдыха (у 61,2 % (n= 123). Также у этого контингента допризывников выявлено снижение показателей статической устойчивости по данным постурографии на 18,9% (n= 38) по сравнению с контрольной группой ($p < 0,05$) и уменьшение силы разгибателей спины на 22,9% (n= 46); ($p < 0,05$). Корреляционный анализ показал прямую связь между продолжительностью статической нагрузки и выраженностью постуральных нарушений ($r = 0,46$; $p < 0,05$).

Вывод: Распространённость дорсопатий среди подростков допризывного возраста составляет более 60 %, что указывает на высокую частоту нарушений осанки и статико-динамической функции позвоночника. Ведущими факторами риска являются гиподинамия, избыточная масса тела и длительные статические нагрузки при учебных занятиях. У подростков с дорсопатиями выявляется снижение показателей статической устойчивости и силы разгибателей спины, что требует ранней диагностики и коррекции. Полученные результаты обосновывают необходимость разработки оптимизированных программ диагностики и профилактики дорсопатий, направленных на формирование двигательной культуры и предупреждение постуральных нарушений у подростков допризывного возраста.

Список литературы

1. Кулагина Н.С., Аксенова О.В. Нарушения осанки у детей и подростков: современные аспекты диагностики и профилактики // *Здравоохранение Российской Федерации*. — 2022. — №2. — С. 42–48.

2. Чурин А.А., Исаева Н.А. Структура дорсопатий у детей и подростков: анализ 10-летнего наблюдения // *Российский педиатрический журнал*. — 2021. — Т. 24, №1. — С. 52–56.

3. Скрипников А.М., Кузнецов В.И. Постуральные нарушения у подростков: биомеханические и нейрофизиологические аспекты // *Физиология человека*. — 2022. — Т. 48, №2. — С. 78–85.

4. Алимова Е.Р., Воронина Н.Ю. Клинико-функциональные особенности дорсопатий у подростков // *Неврологический вестник*. — 2019. — Т. 51, №3. — С. 15–20.

Nissinen M., Heliövaara M., Seitsamo J. Low back pain in childhood and adolescence: risk factors and prognostic indicators // *Spine*. — 2020. — Vol. 45, No. 4. — P. 275–282.

ILK BOR VA QAYTA MUROJAAT QILGAN TURG‘UN TUBERKULYOZLI BEMORLARNI DAVOLASH FONIDA SIYDIKDAGI SISTATIN C DARAJASINING DINAMIKADA O‘ZGARISHI

Kamolov Hamidjon Umidjon og’li
Buxoro Innovatsion ta’lim
va tibbiyot universiteti

Annotatsiya. Siydikdagi sistatin S darajasini monitoring qilish tuberkulyozga qarshi davolanayotgan bemorlarda, ayniqsa komorbid holatlar fonida, nefrotoksiklikni erta aniqlash uchun muhim vosita hisoblanadi. Ilk bor murojaat qilgan va qayta murojaat qilgan bemorlar sistatin S darajasining turlicha dinamikasini namoyon qiladi. Bu esa buyraklarning funksional buzilish darajasi har xil ekanligidan dalolat beradi.

Qayta murojaat qilgan bemorlarga alohida e’tibor talab etiladi. Chunki ularda sistatin S darajasi dastlabdan ancha yuqori bo‘lib, davolash jarayoni davomida yuqori darajada saqlanib qoladi. Bu esa buyrak to‘qimalarining ko‘proq zararlanganligidan yoki asoratlar xavfining oshganligidan dalolat berishi mumkin.

Tadqiqot materiallari va usullari. Ushbu tadqiqot 2022–2023 yillarda ftiziatriya va pulmonologiya markazida statsionar davolangan 31 nafar ko‘p dori vositalariga barqaror shaklli tuberkulyozli bemorlarning tibbiy kartalari prospektiv tahliliga asoslangan. Statistik ma’lumotlarni qayta ishlash uchun IBM SPSS v27 dasturi qo‘llanilgan, natijalarning ishonchliligi esa Pirsonning xi-kvadrat mezoni orqali tekshirilgan.

Tadqiqot natijalari. Ilk bor va qayta murojaat qilgan bemorlarda siydikdagi sistatin S darajasi davolashning turli bosqichlarida farq qilgan. Ilk bor murojaat qilgan bemorlarda sistatin S darajasi davolashdan oldin past (1,30 mg/l) bo‘lib, 120-kunga kelib eng yuqori cho‘qqiga yetgan (8,03 mg/l) va asta-sekin pasaygan, lekin boshlang‘ich qiymatdan yuqori qolgan. Qayta murojaat qilgan bemorlarda esa sistatin S dastlabdan ancha yuqori (5,10 mg/l) bo‘lib, 210-kunga kelib eng yuqori qiymatga yetgan (12,36 mg/l).

Statistik tahlilga ko‘ra, guruhlar orasida davolashgacha ($p=0,04$) va 5–10-kunlar oralig‘ida ($p=0,05$) ahamiyatli farqlar mavjud bo‘lgan, biroq kechki bosqichlarda bu farqlar bartaraf bo‘lgan ($p=0,57$ – 210-kun). Qayta murojaat qilgan bemorlarda davolashning barcha bosqichlarida sistatin S darajasi yuqori bo‘lib qolgan, bu esa ularda nefrotoksiklik yoki buyrak funksiyasi buzilishlari kuchliroq ekanligini ko‘rsatadi.

Xulosa. Siydikdagi sistatin S darajasi ilk bor va qayta murojaat qilgan bemorlarda tuberkulyozga qarshi terapiyaga buyraklarning javobini aks ettiradi. Ilk bor murojaat qilgan bemorlarda davolashgacha past darajada bo‘lib, terapiya o‘rtasida oshib, davolash oxirida qisman pasaygan. Qayta murojaat qilgan bemorlarda esa sistatin S dastlabdan yuqori bo‘lib, davolash oxirigacha yuqori darajada saqlangan, bu ularning nefrotoksiklikka nisbatan sezgirligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Usmonov, Isomiddin Kh, Bahodir R. Muazzamov, and Muhtor F. Jumaev. "Features of Diagnostics and Treatment of Drug-Resistant Forms of Pulmonary Tuberculosis." International Journal of Pharmaceutical Research (09752366) 12.3 (2020).
2. Kh, Usmonov I. "Clinical Course and Modern Diagnosis of Resistant Forms of Pulmonary Tuberculosis." American journal of social and humanitarian research 3 (2022): 250-260.
3. Moe, S., et al. "Second-line drug-resistant TB and associated risk factors in Karakalpakstan, Uzbekistan." IJTLD open 1.9 (2024): 391-397.

SIYDIKDAGI SISTATIN S VA KOPTOKCHALAR FILTRATSIYASI TEZLIGI (KFT) TURG‘UN TUBERKULYOZGA QARSHI DAVOLANAYOTGAN BEMORLARDA: BUYRAK FUNKSIYASINI MONITORING QILISH ZARURIYATI

Kamolov Hamidjon Umidjon o’g’li
Buxoro innovatsion ta’lim
va tibbiyot universiteti

Annotatsiya. So‘nggi yillarda buyrak surunkali kasalligi bilan og‘rigan bemorlar soni ortib bormoqda, jumladan, tuberkulyozga qarshi davolanuvchilar orasida ham. Bunday bemorlarda buyrak funksiyasini monitoring qilish muvaffaqiyatli davolash jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Ayniqsa, nefrotoksik ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan tuberkulyozga qarshi dorilar qo‘llanilganda. Koptokchalar filtratsiyasi tezligi (KFT) va siydikdagi sistatin S darajasini baholash buyrak funksiyasidagi o‘zgarishlarni o‘z vaqtida aniqlash va prognoz qilish uchun istiqbolli usuldir.

Tadqiqot materiallari va usullari. Ushbu tadqiqot 2022–2023 yillarda ftiziatriya va pulmonologiya markazida statsionar davolangan ko‘p dorilarga barqaror shaklli tuberkulyozli 31 bemorning tibbiy kartalarini prospektiv tahlil qilish asosida olib borildi. Statistik ma’lumotlarni qayta ishlash uchun IBM SPSS v27 dasturi qo‘llanildi, natijalarning ishonchliligi Pirsonning χ^2 mezoni bilan baholandi.

Natijalar. Tadqiqot davomida asosiy va nazorat guruhlaridagi bemorlarda siydikdagi sistatin S va KFT dinamikasi tahlil qilindi. Asosiy guruhda KFT 86,4 ml/min bilan boshlandi va davolash kursi davomida kichik o‘zgarishlar kuzatildi. Biroq, 120 va 210-kunlarda KFT mos ravishda 90,9 va 102,1 ml/min gacha oshdi, bu buyrak funksiyasining vaqtinchalik yaxshilanishini ko‘rsatishi mumkin. Shu bilan birga, siydikdagi sistatin S darajasi 2,15 mg/l dan 8,20 mg/l gacha oshdi, bu esa davolashga bog‘liq nefrotoksik ta’sir orqali buyrak funksiyasining yomonlashishini tasdiqlaydi.

Nazorat guruhi esa 90,5 ml/min KFT bilan boshlandi va butun davolash jarayonida uzluksiz pasayish kuzatildi, 240-kunga kelib 71,1 ml/min gacha tushdi, bu esa nefropatiyaning kuchayishini ko‘rsatadi.

Xulosa. Siydikdagi sistatin S va KFT dinamikasini tahlil qilish tuberkulyozga qarshi davolanuvchi bemorlarda buyrak funksiyasini kompleks monitoring qilish zarurligini tasdiqlaydi. Nazorat guruhida sistatin S darajasining oshishi va KFT pasayishi buyrak funksiyasining tobora yomonlashib borayotganini ko‘rsatadi, bu esa terapiya strategiyasini qayta ko‘rib chiqish va buyraklarni himoya qilish bo‘yicha qo‘shimcha choralar ko‘rishni talab qiladi.

Tadqiqot natijalari nefrotoksik ta’sirning erta belgilarini aniqlash va o‘z vaqtida davolash taktikalarini to‘g‘rilash muhimligini tasdiqlaydi, bu esa terapiya natijalarini yaxshilash va jiddiy buyrak asoratlari xavfini kamaytirishga hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Usmonov, Isomiddin Kh, Bahodir R. Muazzamov, and Muhtor F. Jumaev. "Features of Diagnostics and Treatment of Drug-Resistant Forms of Pulmonary Tuberculosis." International Journal of Pharmaceutical Research (09752366) 12.3 (2020).

2. Kh, Usmonov I. "Clinical Course and Modern Diagnosis of Resistant Forms of Pulmonary Tuberculosis." American journal of social and humanitarian research 3 (2022): 250-260.

3. Moe, S., et al. "Second-line drug-resistant TB and associated risk factors in Karakalpakstan, Uzbekistan." IJTLD open 1.9 (2024): 391-397.

CONGENITAL CARDITIS IN CHILDREN

Jalilov Jahongir Abduroziqovich,
Rasulova Nazokat Shavqiddin qizi
Bukhara Innovative Education
and Medical University

Abstract. This scientific article discusses the etiology, pathogenesis, clinical manifestations, diagnosis, and treatment principles of congenital carditis in children. Congenital carditis is an inflammatory disease of the heart tissues (myocardium, endocardium, or pericardium) that develops during the early stages of fetal development due to infectious or toxic factors. Early diagnosis and appropriate treatment are essential to prevent the development of heart failure in children.

This scientific article discusses the etiology, pathogenesis, clinical manifestations, diagnosis, and treatment principles of congenital carditis in children. Congenital carditis is an inflammatory disease of the heart tissues (myocardium, endocardium, or pericardium) that develops during the early stages of fetal development due to infectious or toxic factors. Early diagnosis and appropriate treatment are essential to prevent the development of heart failure in children.

Keywords: congenital carditis, myocardium, endocardium, pericardium, child, heart failure, diagnosis, treatment.

Introduction. Among cardiovascular diseases in children, carditis occupies an important place in clinical pediatrics. Congenital carditis primarily develops due to intrauterine infections or maternal diseases during pregnancy. This condition is characterized by inflammation, fibrosis, or dystrophic changes in the heart muscle tissues. Congenital carditis manifests clinically in the first months of life, and if not diagnosed in time, it can lead to heart failure.

Main Part

Etiology

The causes of congenital carditis are divided into the following groups:

1. Infectious factors – rubella, cytomegalovirus, influenza, toxoplasmosis, mycoplasma, streptococcal infections.

2. Toxic and metabolic factors – exposure of the mother to alcohol, drugs, or chemicals during pregnancy.

3. Immunological factors – maternal autoimmune diseases and the influence of reactive antibodies on fetal tissues.

4. Genetic predisposition – hereditary defects of the cardiac tissues.

Pathogenesis. During fetal development, infection or toxic agents disrupt myocardial cell metabolism, resulting in degenerative changes and the onset of inflammation and fibrosis. As a result, the heart walls become thinner, contractility decreases, and hemodynamic disturbances appear in the heart chambers.

Clinical Features

The main clinical symptoms of congenital carditis include:

- Shortness of breath and cyanosis after birth;
- Poor feeding and fatigue during suckling;
- Tachycardia (increased heart rate);
- Muffled heart sounds;
- Edema, hepatomegaly, and pallor of the skin;
- In severe cases, signs of heart failure.

Diagnosis.

Diagnosis is based on the following methods:

- Echocardiography (ECHO) – evaluates the movement of heart walls, chamber size, and contractility;
- ECG – detects rhythm disturbances and conduction abnormalities;
- X-ray examination – shows enlargement of the heart shadow;
- Laboratory tests – elevated ESR, CRP, and antibody titers confirm inflammation.

Treatment.

The main directions of congenital carditis treatment are:

1. Etiotropic therapy – antiviral or antibacterial drugs (interferons, antibiotics).
2. Anti-inflammatory therapy – corticosteroids or non-steroidal anti-inflammatory drugs (prednisolone, ibuprofen).
3. Supportive therapy – diuretics (furosemide), cardiac glycosides (digoxin), potassium preparations.
4. Rehabilitation – physiotherapy, massage, and limiting physical exertion.

Conclusion.

Congenital carditis in children is a rare but severe cardiac pathology. Early diagnosis, accurate differential diagnostics, and comprehensive treatment can prevent the development of heart failure. Prevention requires protection of pregnant women from infections, regular medical supervision, and maintaining a healthy lifestyle during pregnancy.

References

1. Toirov A.A., 'Pediatric Cardiology', Tashkent, 2020.
2. Karimova M.M., 'Heart Diseases in Pediatrics', Bukhara, 2022.
3. World Health Organization (WHO). Congenital and acquired heart diseases in children. Geneva, 2023.
4. European Society of Cardiology Guidelines for Pediatric Cardiology, 2022.
5. Ministry of Health of the Republic of Uzbekistan, 2024.

ALSGEYMER KASALLIGIDA NEYROTRANSMITTERLAR TIZIMIDAGI O’ZGARISHLAR

Yo’ldosheva Mohinur Umedovna
Buxoro Innovatsion ta’lim
va tibbiyot universiteti
yoldoshevamohinur61@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Altsgeymer kasalligida neyrotransmitterlar tizimidagi o‘zgarishlar tahlil qilingan. Kasallikning asosiy patogenetik

mexanizmlaridan biri sifatida asetilxolin, glutamat, dopamin, serotonin va noradrenalin tizimlaridagi disbalanslar ko‘rib chiqiladi. Ayniqsa asetilxolin darajasining kamayishi va glutamat tizimining ortiqcha faolligi kognitiv buzilishlarning rivojlanishida yetakchi rol o‘ynashi ta’kidlangan. Shuningdek, neyrotransmitterlar o‘zaro bog‘liqligi, ularning miya strukturasi va kognitiv jarayonlarga ta’siri tahlil etilgan. Tadqiqot natijalari Altsgeymer kasalligida neyrotransmitter tizimlarini tiklashga qaratilgan kompleks terapiyaning dolzarbligini ko‘rsatadi.

Kalit so’z:Alsgeymer kasalligi,neyrotransmitter, dopamin,glutamat, asetilxolin,serotonin.

Kirish. Altsgeymer kasalligi (AK) — bu markaziy asab tizimining surunkali, progressiv, degenerativ kasalligi bo‘lib, u asosan keksalik davrida uchraydi va demensiyaning eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi. Kasallikda xotira, tafakkur, diqqat va kundalik faoliyatni bajarish qobiliyatining pasayishi kuzatiladi. Alsgeymer kasalligida b-amiloid gipotezasi va Tau-patologiyasi muhim o’rin tutadi.b-amiloid gipotezasida APP(amyloid precursor protein)noto’g’ri parchalanadi va b-amiloid peptid hosil bo’ladi.Bu peptidlar miya to’qimasida to’planib amyloid blyashkalarni tashkil etadi.Bu moddalar neyronlarga toksik ta’sir etadi va u yallig’lanish chaqirib,sinapslar yo’qolishiga olib keladi.Ikkinchi mexanizmda,tau-protein patologik fosforlanib.neyrofibrillyar chigallar hosil qiladi.Neyron skeleti parchalanishi natijasida hujayra o’limi sodir bo’ladi. Bu mexanizmlar asosida nerv sistemasida turli disfunksiyalar uchraydi.

Asosiy qism.

1. Neyrotransmitterlar tizimining umumiy ahamiyati

Neyrotransmitterlar – bu neyronlar o‘rtasida axborot uzatishni ta’minlovchi kimyoviy moddalar bo‘lib, ular miya faoliyatining asosiy tarmoqlarida muhim rol o‘ynaydi. Kognitiv faoliyat, kayfiyat, xotira, motivatsiya va o‘rganish jarayonlari asosan asetilxolin, glutamat, dopamin, serotonin kabi moddalar bilan boshqariladi.

Altsgeymer kasalligida ushbu moddalar sintezi, parchalanishi va retseptorlar bilan o‘zaro ta’siri buziladi. Bu esa neyronlar o‘limi va sinaptik aloqalarning yo‘qolishiga olib keladi.

2. Asetilxolin tizimidagi o‘zgarishlar.

Asetilxolin tizimi Altsgeymer kasalligida eng ko‘p o‘rganilgan sohadir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki:

-miya po‘stlog‘i va gipokampda asetilxolin ishlab chiqaruvchi xolinergik neyronlar degeneratsiyasi sodir bo‘ladi;

-asetilxolin transferaza faolligining pasayishi kuzatiladi, bu esa sinaptik darajadagi asetilxolin miqdorini kamaytiradi;

-xolinergik tizimning zaiflashuvi bemorlarda xotira va o‘rganish qobiliyatining pasayishi bilan bevosita bog‘liq;

Tibbiy yondashuv: shu sababdan Altsgeymer kasalligida antixolinesteraza dorilari (Donepezil, Rivastigmin, Galantamin) qo‘llaniladi. Ular asetilxolin parchalanishini sekinlashtirib, kognitiv simptomlarni yengillashtiradi.

3.Glutamat tizimidagi o‘zgarishlar

Glutamat – markaziy asab tizimining asosiy qo‘zg‘atuvchi neyrotransmitteri. Altsgeymer kasalligida:

-glutamatning haddan tashqari ko‘pligi ekzitotoksiklik holatini keltirib chiqaradi;

-bu holatda NMDA-retseptorlar ortiqcha faollashadi va neyronlar kaltsiy ortiqligi sababli zararlanadi;

-natijada sinaptik plastiklik pasayadi va kognitiv funksiyalar buziladi;

4. Dopamin va serotonin tizimidagi o‘zgarishlar.

Garchi Altsgeymerda asosiy zararlanish xolinergik tizimda bo‘lsa-da, dopamin va serotonin tizimlari ham buziladi:

-dopamin darajasi pasayganda bemorda apatiya, befarqlik, motivatsiyaning yo‘qolishi kuzatiladi;

-serotonin yetishmovchiligi esa kayfiyat buzilishi, depressiv holatlar va uyqu buzilishlariga sabab bo‘ladi;

-ushbu buzilishlar Altsgeymer kasalligida tez-tez uchraydigan psixiatrik simptomlarni izohlaydi;

5.Noradrenalin tizimidagi o‘zgarishlar

Lokus seruleusdagi noradrenergik neyronlar degeneratsiyasi aniqlangan:

-bu diqqat, uyg‘oqlik va stressga javob reaksiyalarining buzilishiga olib keladi;

-natijada bemorlarda sustlik, loqaydlik, reaksiya sekinligi paydo bo‘ladi;

Xulosa. Altsgeymer kasalligida neyrotransmitterlar tizimidagi o‘zgarishlar kasallikning asosiy patogenetik mexanizmlaridan biridir. Ayniqsa asetilxolin va glutamat tizimlarining disbalansi kognitiv pasayish va demensiya simptomlariga bevosita sabab bo‘ladi. Shu bois, kelajakdagi davolash strategiyalari neyrotransmitter muvozanatini tiklashga qaratilgan kompleks yondashuvlarni o‘z ichiga olishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Selkoe D.J Hardy.J.”The amyloid hypothesis of Alzheimer’s disease at 25 years.”

2.Francis PT, Palmer AM, Snape M, Wilcock GK. "The cholinergic hypothesis of Alzheimer’s disease: a review." *Journal of Neurology, Neurosurgery & Psychiatry*, 1999.

3.Cummings JL, Morstorf T, Zhong K. "Alzheimer’s disease drug-development pipeline: few candidates, frequent failures." *Alzheimer’s Research & Therapy*, 2014.

4.Alzheimer’s Association. "2024 Alzheimer’s Disease Facts and Figures."

ҚАНДЛИ ДИАБЕТ БИЛАН КАСАЛЛАНГАН БЕМОРЛАРДА СТОМАТОЛОГИК ЁРДАМ КЎРСАТИШ УСУЛЛАРИ

Толибова Мунира Иззатуллоевна
Бухоро инновацион таълим
ва тиббиёт университети

Аннотация. *Қандли диабет ёки инсулинга боғлиқ диабет деб номланувчи бу хасталик болалар ва ўсмирларда энг кўп учрайдиган диабет тури ҳисобланади. Қандли диабет оғиз бўшлиғи холатига сезиларли таъсир қилади. Шунинг учун болалар стоматологлари бу касалликнинг оғиз*

бўшлиғида келтириб чиқариши мумкин бўлган асоратлари ва ўзига хос хусусиятлари хақида билишлари лозим.

Калит сўзлар. *эндокрин тизими патологиялари, қандли диабет, стоматологик касалликлар, пародонт касалликлари.*

Тадқиқотнинг долзарблиги. Замонавий тадқиқотлар шуни кўрсатадики, диабетга чалинган беморлар ўзининг касаллигини стоматологик касалликлар билан ўзаро боғлиқ эканлиги хақида етарли даражада маълумотга ва билимга эга эмаслар. Стоматологлар ҳам пародонт касаллигининг диабетга таъсирини етарлича баҳоламайдилар, 60% шифокорлар диабет билан оғриган беморларда тишларнинг эрта йўқотилиши ва терининг турли йирингли яллиғланишлари, масалан хўппозлар тез-тез учраб туришига ишонмайдилар. Қандли диабетда - оғиз бўшлиғида айрим касалликларнинг ривожланиши ва бунинг оқибатида ноқулайлик пайдо бўлишининг сабаблари: қандли диабет билан касалланган беморларда қондаги глюкоза миқдорининг ошиши ва юмшоқ тўқималарда қон айланишинг бузилганлиги сабабли оғиз қурийди, сўлак ажралиши камаяди, патоген микроорганизмлар сони оғиз бўшлиғида фаол кўпайиб боради. Тишлар эмалининг тузилишида ўзгаришлар пайдо бўлади - бу кариес пайдо бўлишининг асосий сабабларидандир.

Тадқиқотнинг мақсади. эндокрин тизими патологияси мавжуд беморларда стоматологик ёрдам кўрсатиш усулларини баҳолаш.

Натижа ва таҳлиллар. Шу билан бирга, беморлар организими ҳимоя функцияларининг сезиларли даражада пасайиши кузатилади, инфекцияларга мойиллик хавфи ортади. Ушбу инфекциялар оғиз бўшлиғида гингивит, периодонтит, пародонтоз каби касалликларни келтриб чиқаради.

Стоматологик касалликларни эрта ташхислаш ва уларни ўз вақтида даволаш тишларнисақлаб қолишда ҳал қилувчи роль ўйнайди. Шунинг учун қандли диабет билан оғриган беморларнинг ҳаёт сифатини яхшилаш мақсадида амалиётчи эндокринологлар ва стоматологлар ўртасидаги чамбарчас муносабатларни ўрнатиш зарур. Бундай ҳолларда, стоматолог- шифокорини танлаш мухим ахамиятга эга. Шуни эсда тутиш керакки, тиш шифокори

диабет билан оғриган беморларни даволаш ва тишларини протезлашнинг ўзига хос хусусиятларини яхши билиши керак.

Тадқиқот маълумотларига кўра, стоматологлар 44,3% холатларда пародонт тўқимаси яллиғланишлари билан бўлган беморларни мунтазам равишда эндокринолог маслахатига юборишган, аммо даволаш оғиз бўшлиғидаги клиник ҳолатга мувофиқ холда мустақил равишда тайинланган. Шифокорларнинг 36,8% ушбу туркумдаги беморларга эндокринологга ташриф буюришни маслаҳат беришган, агар “учрашувда бунинг зарурлигини тушунтиришга вақт топилса”. 12,2% холатларда стоматологлар пародонткасалликлари билан оғриган беморларни эндокринологга мурожаат қилмаган ҳолда, дарҳол даволанишни бошлашган. Шифокорларнинг атиги 6,7% эндокринолог билан маслаҳатлашишни маслаҳат беришган ва фақат натижага мувофиқ улар даволаш режасини тузишган (ушбу даволаш режаси кўп холларда кўп тармоқли хусусий касалхоналарда олиб борилганлиги ҳақида хабар беришади). Бундай беморларни даволашда, шифокор-эндокринолог ва стоматологлар даволаш режасига антибиотикларни киритишган.

Кўпгина стоматологларнинг фикрига кўра организмнинг эндокрин касалликлари билан оғиз бўшлиғи ҳолати ўртасида чамбарчас боғлиқлик мавжуд бўлиб, хусусан қандли диабетстоматологик касалликларнинг кечишини сезиларли даражада оғирлаштиради. Олинган сўровномаларда шифокорларнинг атиги 36,8 % тиш патологияси эндокрин касалликларнинг кечишини оғирлаштириши мумкинлигига ишонишган. Беморларда эндокрин патологияларнианиқлашда стоматолог-шифокорларнинг фаоллиги қониқарли эмас. Олинган маълумотлар стоматологларнинг ушбу касаллик хақида етарли билимлари ва амалий кўникмалари мавжуд эмаслигидан далолат беради, хамда қандли диабет муаммосига жиддий ёндошиш зарурлигини талаб қилади. Қандли диабет билан оғриган беморларда стоматологик касалликларнинг яллиғланишга қарши терапиясини эндокринологлар билан маслахатлашган холда режалаштириш зарур.

Стоматология сохасида болалар ёшида бир қатор эндокрин касалликларни ташхислашда қатор камчилик ва қийинчиликларнинг мавжудлиги муаммони ҳал қилишнинг долзарблиги ва талабини бахолайди. Эндокрин касалликларга чалинган болаларда стоматологик касалликларни эрта олдини олиш чора-тадбирларива усулларини жорий этиш кўплаб мамлакатлар учун долзарб муаммо бўлиб, унинг тиббий-ижтимоий аҳамияти ҳозирги кунда ошиб бормоқда. 1-тип қандли диабетга чалинган ва стоматологик касаллиги мавжуд бўлган болаларни даволашда узлуксизликни сақлаб қолиш ва ушбу тоифадаги беморларни даволаш натижаларига кўра асосий касалликнинг кучайишидан олдинги ва кейинги босқичларида эрта дифференциал ёндашувни ташкил этиш мақсадида стоматологик касалликларни келтириб чиқариши мумкин бўлган хавф омилларини комплекс баҳолашда таққослаш жадвали тузилди ва алгоритм ишлаб чиқилди (1-расм).

Алгоритмни тузиш жараёнида агрессив хавф омиллари инобатга олинди:

-1-тип ҚД ривожланиши учун агрессив хавф омили бўлиб, рухий зўриқиш (КН-2.21, ИО- 99%, P<0.001), оғиз бўшлиғи кандидози (КН -2.06, ИО- 99%, P<0.001), оилада ҚД ёки ота-оналарда (КН -1.83; ИО- 95%, P<0.01), ичак дизбактериози (КН -1.85; ИО- 95%, P<0.01), анамнезида диарея (КН-1.73; ИО- 95%, P< 0.01). Аниқланган бу каби агрессив хавф омилларини стоматолог бу каби беморларни текшириш ва дастлабки кўриги давридаёқ аниқлаши мумкин.

Хавф омилларини комплекс ўрганиш ва интеграл бахолашни ишлаб чиқиш жараёнида 1-тип қандли диабетга чалинган болаларда қуйидаги ҳолатлар мавжуд бўлганда, тиш касалликларини ривожланиш хавфи юқори бўлганлиги аниқланди: эмлашга реакция (КН-1,55; ИО 95%, P<0,01), ЭКД ёки атопик дерматит (охирги 3 ой ичида)(КН-1,46; ИО 95%, P<0,01), қўшимча овқатларни эрта бошлаш (КН-1,43; ИО 95%, P<0,01), сунъий озиқлантириш (сўнгги 3 ой ичида ёки анамнезида)(КН-1,25; ИО 95%, P<0,01), шиша

кариес(КН-1,34; ИО 95%, P<0,01) ва эрта ёшдаги кариес(КН-1,21; ИО 95%, P<0,01).

Баъзи бир омилларнинг устунлигини (дастлабки текширувда беморларда анамнестик, клиник ва лаборатор диагностика маълумотлари) ва 1-тип диабетга чалинган беморларни даволаш ва бошқаришдаги узлуксизликни таъминлаш, болалар стоматологлари ва эндокринологнинг келгусидаги чора-тадбирларни белгилаб олиши мақсадида услубий қўлланма ишлаб чиқдик.

Ишлаб чиқилган алгоритмнинг афзалликлари шундаки, унинг амалиётга татбиқ этилиши диабетга чалинган беморларни амбулатор ташхис босқичида ҳам, ушбу тоифадаги беморларни стационар даволаниш босқичларида ҳам,бирдек,ташхислашга ёрдам беради. Амалда ундан фойдаланиш педиатр, иммунолог, гастроэнтеролог ва стоматологлар томонидан диабетга чалинган беморларда стоматологик касалликларни олдини олиш ва даволашга янгича ёндашишга имкон беради.

Ишлаб чиқилган алгоритм асосида,мутахассислар томонидан болаларда 1-тип қандли диабетдаги стоматологик касалликларнинг олдини олиш дастурини амалиётга татбиқ этишга ёрдам беради, шунингдек тиббий хизмат сифатини яхшилайди ва касалликни эрта аниқлаш ва камайтиришга имкон беради. 1-тип диабетга чалинган болаларда тиш касалликларини ривожланишининг хавф омиллари дастлабки профилактика тадбирларини режалаштириш ва ушбу тоифадаги беморларга ихтисослашган тиббий ёрдам кўрсатиш учун асос бўлиб хизмат қилади. Мутахассис шифокор, беморларни дастлабки текширув босқичида, мақсадли даволаш учун ташхис қўйиш усулини ва турини аниқлайди. Ушбу бошқариш алгоритим 1-тип қандли диабет билан касалланган беморларнинг ҳаёт сифатини яхшилашга, касалланиш ва ногиронликни камайтириш билан бирга стоматологик ва эндокринологик хизматларнинг сифатини оширишга ёрдам беради.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Алексеева Е.О., Русакова Е.Ю. Эффективность комплексной программы профилактики кариеса зубов у детей с заболеваниями органов дыхания,

проживающих на территории Приморского края // Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук. 2015. №12-7.

2. Белая Т. Г. Проявления в полости рта детей соматических заболеваний. Часть 2: Заболевания эндокринной и сердечно-сосудистой системы / Т. Г. Белая // Современная стоматология. – 2005. – № 4. – С. 8–10.

3. Горобец С.М., Романенко И.Г., Бобкова С.А., Джерелей А.А., Крючков Д.Ю., Горобец О.В., Мельниченко Д.И. КСЕРОСТОМИЯ. СОВРЕМЕННЫЙ ВЗГЛЯД НА ПРОБЛЕМУ // ТМБВ. 2019. №2. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/kserostomiya-sovremennyy-vzglyad-na-problemu (дата обращения: 01.09.2020).

4. Четвертных В. А., М. В.Мартюшева, А. Г. Рогожников, Н. П. Логинова Клиническое, цитологическое, микробиологическое и биомеханическое обоснование эффективности комплексной стоматологической реабилитации пациентов с заболеваниями пародонта и сахарным диабетом II типа// Пермский медицинский журнал 2020 том XXVII № 4, С50-55.

5. Шашмурина Виктория Рудольфовна, Каргина Анна Сергеевна, Мишутина Ольга Леонидовна Профилактика стоматологических заболеваний в условиях школьного стоматологического кабинета (обзор) // Вестник Смоленской государственной медицинской академии. 2017. №1. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/profilaktika-stomatologicheskih-zabolevaniy-v-usloviyah-shkolnogo-stomatologicheskogo-kabineta-obzor

6. Adlercreutz E.H., Wingren C.J., Vincente R.P. Perinatal risk factors increase the risk of being affected by both type 1 diabetes and coeliac disease. Acta Paediatr. 2015; 104(2): 178-184. DOI: 10.1111/apa.12836.

7. Ahmadizar F, Fazeli Farsani S, Souverein PC, van der Vorst MM, de Boer A, Maitland-van der Zee AH. Cardiovascular medication use and cardiovascular disease in children and adolescents with type 1 diabetes: a population-based cohort study. Pediatr Diabetes. 2016;17(6):433–440. doi: 10.1111/pedi.12302. [PubMed] [CrossRef] [Google Scholar]

GINEKOLOGIK ONKOLOGIYADA SUN’IY INTELLEKT YORDAMIDATASHXISLASH IMKONIYATLARI

Shodiyeva Dilorom Shavkat qizi,
Alimova Hulkar Halim qizi,
Qodirova Ziyoda Qobil qizi
Buxoro Innovatsion ta’lim va tibbiyot universiteti
ziyodaqodirova74@gmail.com

Annotatsiya. So‘nggi yillarda tibbiyotda sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Bunday texnologiyalarning jadal rivojlanishi diagnostika sifatini oshirish va erta tashxis qo‘yish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Ayniqsa, ginekologik onkologiya sohasida – bachadon bo‘yni, bachadon tanasi, tuxumdon va boshqa ayol jinsiy a’zolari o‘smalarini aniqlashda – SI tizimlaridan foydalanish samarali natijalar bermoqda. Ushbu maqolada ginekologik onkologiyada sun’iy intellektning qo‘llanish yo‘nalishlari, afzalliklari, cheklovlari hamda kelajakdagi istiqbollari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Sun’iy intellekt, ginekologik onkologiya, saraton, diagnostika, tibbiy tasvir, histopatologiya

Kirish. Ginekologik onkologiya ayol jinsiy tizimi o‘smalarini o‘rganadigan, ularni erta aniqlash va davolash bilan shug‘ullanadigan muhim tibbiyot sohasi hisoblanadi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, ayollar orasida o‘limga olib keluvchi onkologik kasalliklar ichida bachadon bo‘yni saratoni va tuxumdon saratoni yetakchi o‘rinda turadi. Shu sababli, erta tashxis va skriningning aniqligi muhim ahamiyat kasb etadi. So‘nggi yillarda sun’iy intellekt, xususan, **mashina o‘rganish (machine learning)** va **chuqur o‘rganish (deep learning)** algoritmlari ginekologik tasvirlarni (ultratovush, MRI, histologik kesmalar) tahlil qilishda keng qo‘llanila boshladi.

Asosiy qism

1. Sun’iy intellekt texnologiyalarining diagnostikadagi o‘rni Sun’iy intellekt – bu inson aqliy faoliyatini modellashtiruvchi kompyuter tizimidir.

Tibbiyotda u tasvirni tahlil qilish, klinik ma’lumotlardan xulosa chiqarish, kasallikni prognozlash kabi jarayonlarda yordam beradi. Ginekologik onkologiyada SI quyidagi yo‘nalishlarda qo‘llanadi:

Radiologik tahlil: MRI, KT, va ultratovush tasvirlarini avtomatik segmentatsiya qilish va o‘smalarni aniqlash.

Sito- va gistopatologik diagnostika: Bachadon bo‘yni saratoni uchun Papanikolau (Pap) test natijalarini avtomatik baholash.

Genetik biomarkerlarni tahlil qilish: BRCA1/2 gen mutatsiyalarini aniqlashda algoritmik modellarni qo‘llash.

Klinik qarorlarni qo‘llab-quvvatlash: Bemorning tibbiy tarixi va laborator ma’lumotlariga asoslanib, xavf darajasini baholash.

2. Amaliy misollar

Bachadon bo‘yni saratoni: Deep learning asosidagi konvolyutsion neyron tarmoqlar (CNN) yordamida Pap test tasvirlarini tahlil qilishda aniqlik 95% gacha yetishi kuzatilgan.

Tuxumdon saratoni: AI algoritmlari ultratovush tasvirlaridan o‘smalarning benign yoki malign ekanligini farqlashda radiologlardan yuqori aniqlik ko‘rsatgan.

Endometriyal saraton: Histologik suratlarni avtomatik tahlil qiluvchi modellar patologik baholashni tezlashtirmoqda.

3. Afzalliklar

-Inson xatosini kamaytiradi.

-Tahlil jarayonini tezlashtiradi.

-Qimmatbaho testlar sonini kamaytiradi.

-24/7 ishlash imkoniyati mavjud.

-Katta ma’lumot bazasidan o‘rganish orqali aniqlikni oshiradi.

4. Cheklovlar

-Ma’lumotlar sifati va miqdoriga bog‘liqlik.

-Algoritmni o‘qitish uchun katta hajmli, aniqlangan klinik ma’lumot talab qilinadi.

-Shifokorning yakuniy qarori o‘rnini to‘liq bosa olmaydi.

-Etika va ma’lumot maxfiyligi masalalari hal etilishi zarur.

Xulosa. Sun’iy intellekt ginekologik onkologiyada diagnostika jarayonini yangi bosqichga olib chiqmoqda. U erta tashxis, individual yondashuv va davolash strategiyasini tanlashda shifokorga katta yordam beradi. Kelgusida SI texnologiyalari, ayniqsa, multimodal ma’lumotlarni (tasvir, laborator natijalar, genetik ma’lumotlar) integratsiya qilish orqali yanada ishonchli va aniq tibbiy qarorlarni qabul qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, tibbiyot mutaxassislari SI tizimlarining natijalarini tanqidiy tahlil qilishni davom ettirishlari zarur.

Adabiyotlar

1. Esteva A. et al. *A guide to deep learning in healthcare.* Nature Medicine, 2019.
2. Xiong Y., et al. *Artificial intelligence in gynecologic oncology: current applications and future perspectives.* Frontiers in Oncology, 2022.
3. Zhou J., et al. *AI-based cervical cancer screening: challenges and opportunities.* Journal of Cancer Research, 2021.
4. WHO. *Global strategy to eliminate cervical cancer*, 2020.
5. Park S. H., et al. *Artificial intelligence in radiology: applications in women’s imaging.* Korean J Radiol, 2020.

ОНИКОМИКОЗНИНГ КЛИНИК, ЭТИОЛОГИК ВА ТЕРАПЕВТИК ХУСУСИЯТЛАРИ

Муродова Ижобатхон Абдулбоси қизи
Ҳарбий тиббиёт институти,
Ҳарбий гигиена, эпидемиология
ва биохавфсизлик кафедра
ўқитувчиси
ijobatmurodova3@gmail.com

Аннотация. Оникомикоз - бу клиник амалиётда энг кўп учрайдиган тирноқ касаллиги бўлиб, оғриқ, юриш қийинлиги ва психо-ижтимоий муаммоларни келтириб чиқариши мумкин. Оникомикоз белгисини

кўрсатадиган тирноқ муаммолари билан мурожаат қилган ҳар бир бемор учун тўлиқ тарих ва физик текширув, шу жумладан дермоскопия ўтказилиши керак.

Калит сўзлар. оникомикоз, дерматофитлар, замбуруғлар, инфекция, антифунгал терапия.

Кириш. Оникомикоз - бу дерматофитлар, дерматофит бўлмаган моғор ва ачитқи замбуруғлари келтириб чиқарадиган, клиник амалиётда энг кўп учрайдиган тирноқ инфекцияси. Бутун дунё бўйлаб 5,5% ва Америка Қўшма Штатларда 2% дан 14% гача, Европада 4 ва 0,5% дан 24% гача касалланиш учрайди. Хавф омилларига гипергидроз (кўпроқ терлаш), тинеа педис ва псориаз каби олдинги дерматологик шароитлар, шунингдек экзоген омиллар, жумладан, синтетик поябзал, травма ва тирноқларни нотўғри парвариш қилиш киради [1]. Қандли диабет, иммуносупрессия, малигните, веноз этишмовчилик, периферик артериал касалликлар, семириб кетиш ва яллиғланишли ичак касалликлари каби касалликлар ҳам хавфни оширади. Инфекцияни ривожланишида авлодлар ўртасида генетик мойиллик бўлиши мумкин ва бир уй хўжалиги аъзолари инфекцияланганида юқиш хавфи ортади.Оникомикоз ҳар қандай ёшда пайдо бўлиши мумкин, аммо унинг тарқалиши ёшга қараб ортади. 70 ёшдан ошган беморларнинг тахминан 50 фоизига таъсир қилади ва болалар популяциясида жуда кам учрайди [2]. Оникомикоз, айниқса иккиламчи бактериал инфекциялар билан маҳаллий оғриқ пайдо бўлишига олиб келиши мумкин, бу эса сезиларли психофизикал оқибатларга олиб келади. Чекланган юриш ва қулай оёқ кийимларини топишда қийинчилик ижтимоий ноқулайлик ва ўз-ўзини ҳурмат қилишнинг пасайишига, бу ҳатто инфекция оғир бўлмаса ҳам, катта даражада қайғули бўлиши мумкин. Беморлар тирноқларининг эстетик кўринишидан норозиликлари ҳақида хабар беришади [3].

Калий гидроксид ва микроскопия, бактериологик, гистопатологик, полимераза занжири реакцияси ёки усулларнинг комбинацияси каби аниқ диагностика тестлари учун бир нечта ёндашувлар мавжуд. Ҳар қандай антифунгал терапияни бошлашдан олдин ҳар бир бемор учун тасдиқловчи тест

ўтказилиши керак. Бир нечта турли хил терапевтик вариантлар мавжуд, жумладан, оғиз орқали, маҳаллий тери юзасига қўлланувчи дори-дармонлар ва қурилмаларга асосланган муолажалар. Оғиз антифунгаллари одатда ўртача ва оғир оникомикоз учун тавсия этилади ва юқори даволаш тезлигига эга, тери юзасига қўлланувчи антифунгаллар эса энгил ва ўртача касаллик учун тавсия этилади ва қулайроқ хавфсизлик профилига эга. Оғиз учун тербинафин, итраконазол ва грисеофулвин ва тери юзасига қўлланувчи циклопирокс 8% тирноқ лаки, эфинасоназоле 10% эритмаси ва таваборол 5% эритмаси АҚШ да ва Европада аморолфин 5% тирноқли лаки оникомикозни даволаш учун озиқ-овқат ва фарматсевтика идораси томонидан тасдиқланган [4]. Лазер билан даволаш Қўшма Штатларда тиниқ тирноқнинг вақтинча ўсиши учун тасдиқланган, аммо клиник натижалар субоптималдир. Оғзаки флуконазол Қўшма Штатларда оникомикозни даволаш учун тасдиқланмаган, лекин тез-тез яхши самарадорлик билан этикеткадан ташқари қўлланилади [5]. Ҳозирги вақтда бир нечта янги оғиз, тери юзасига қўлланувчи ва ретсептсиз даволаш усуллари текширилмоқда. Шифокорлар даволаш режаларини белгилашда касалликнинг оғирлигини, патогенни, дори хавфсизлигини, самарадорлигини ва нархини, беморнинг ёшини, қўшма касалликларни, дори-дармонларни қабул қилиш тарихини ва мувофиқлик эҳтимолини ҳисобга олишлари керак. Оникомикоз - бу такрорланиш даражаси юқори бўлган сурункали касаллик ва беморларга самарали антифунгал терапиядан сўнг такрорланиш хавфини камайтириш учун тегишли режа бўйича маслаҳат бериш керак.

Хулоса. Оникомикоз клиник амалиётда энг кўп учрайдиган тирноқ касаллиги бўлиб, ҳаёт сифатини сезиларли даражада бузиши мумкин. Беморларда оғриқ, юриш қийинлиги ва ижтимоий муаммоларни келтириб чиқаради. Келажакдаги тадқиқотлар янги даволаш усулларини қўшимча текшириш ва комбинацияланган даволаш учун оптимал ва стандартлаштирилган кўрсатмаларни аниқлаш учун турли хил беморлар популяцияларида мустаҳкам ишлаб чиқилган клиник синовларни ўтказишга қаратилиши керак.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Разнатовский К. И., Котрехова Л. П. Микози кожи и ногей //КИ Разнатовский, ЛП Котрехова–Москва: ГЕОТАР-Медиа. – 2020.

2. Сурупа Е. Н. и др. Особенности диагностики и терапии онихомикоза, обусловленного перманентними декоративними покритиями для ногтей //Проблеми медитсинской микологии. – 2021. – Т. 23. – №. 2. – С. 157-157.

3. Сиганкова Е. И., Васенова В. Й. Фотодинамическая терапия в лечении онихомикоза: сравнителний анализ эффективности монотерапии и комбинированного подхода //РМЖ. МЕДИТСИНСКОЕ ОБОЗРЕНИЕ. – 2025. – Т. 9. – №. 6. – С. 306.

4. Шипилова Н. А., Сергеева И. Г. Онихомикоз у патсиентов с хроническими заболеваниями почек //Иммунопатология, аллергология, инфектологиЙ. – 2022. – Т. 2. – С. 74-78.

5. Тлиш М. М. и др. Онихомикоз стоп: междиссиплинарное взаимодействие как важний инструмент повишения эффективности терапии //Лечебное дело. – 2025. – №. 1. – С. 40-47.

VIRUSLI BO'LMAGAN O'TKIR RESPIRATOR DISTRESS SINDROMIDA KORTIKOSTEROIDLARNING QO'LLANISHI

Ashurova Mahliyo Madiyorovna
Buxoro innovatsion ta'lim
va tibbiyot universiteti
ashurovamahliyo80@gmail.com

Annotatsiya: O'tkir respirator distress sindromi (ARDS) — alveolyar kapillyar membrananing diffuz shikastlanishi bilan kechuvchi, og'ir gipoksemiyaga olib keluvchi sindrom bo'lib, virusli va virusli bo'lmagan (travma, sepsis, aspiratsiya, pankreatit va boshqalar) sabablarga ko'ra rivojlanadi. Virusli bo'lmagan ARDSda yallig'lanish mediatorlarining ortiqcha faollashuvi natijasida alveolalarda eksudatsiya, surfaktant buzilishi va elastiklikning pasayishi kuzatiladi.

Kortikosteroidlar bu jarayonda yallig‘lanishga qarshi, antifibrotik va immunomodulyator ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, past va o‘rta dozali kortikosteroidlar (masalan, metilprednizolon 1 mg/kg/kun atrofida) ARDSning erta bosqichida buyurilganda o‘pka shishining rezorbsiyasini tezlashtiradi, ventilyatsiya muddatini qisqartiradi va mortalitetni kamaytirishga yordam beradi. Biroq kortikosteroidlar kech bosqichdagi fibroz fazada yoki nazoratsiz yuqori dozada qo‘llanilganda infektsion asoratlar xavfini oshirishi mumkin. Shu sababli ularni qo‘llashda bemorning klinik holati, yallig‘lanish markerlari va infeksion nazorat holati e’tiborga olinishi lozim.

Kalit so‘zlar: ARDS, virusli bo‘lmagan, kortikosteroidlar, metilprednizolon, yallig‘lanish, gipoksemiya.

Maqola mazmuni: O'tkir respirator distress sindromida (ARDS) kortikosteroidlarni qo'llash randomizatsiyalangan boshqariladigan sinovlar (RCTs) va so'nggi qo'llanmalar tomonidan qo'llab-quvvatlangan sezilarli kuchga ega bo'ldi. Amerika Toraks Jamiyati (ATS) va Jiddiy Tibbiyot Jamiyatining (SCCM) so'nggi ko'rsatmalari o'rtacha va og'ir ARDS uchun tizimli kortikosteroidlarni tavsiya qiladi . Biroq, ARDS etiologiyasida sezilarli geterogenlikka ega bo'lgan sindrom bo'lib, bakterial pnevmoniya eng keng tarqalgan va klinik jihatdan ajralib turadigan pastki tiplardan biridir. Shu nuqtai nazardan, kortikosteroidlarni qo'llash faqat bitta o'lchamli tavsiyaga aylanadi va ko'proq fenotipga xos aniqlik masalasiga aylanadi. So'nggi yutuqlar shuni ko'rsatadiki, ARDS bir xil shaxs emas, balki turli xil fenotiplar va subfenotiplarni o'z ichiga oladi. Klinik fenotiplar o'pkaning to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita shikastlanishini, fokal va nofokal rentgenologik naqshlarni va turli darajadagi gipoksemiyani o'z ichiga oladi, bu turli xil patofiziologiyani aks ettiradi. Yashirin sinf tahlillari va biomarkerlarga asoslangan tadqiqotlar sitokin profillari, shok va metabolik atsidozning chastotasi, ventilyatorsiz kunlar, o'lim va davolanish javoblarida farq qiluvchi kamida ikkita biologik subfenotipni, "giperinflamatuar" va "gipoinflamatuar" ni aniqlaydi. Ushbu geterogenlikni tan olish kortikosteroid sinovlarini sharhlash va yanada moslashtirilgan terapevtik yondashuvlarni ilgari surish uchun juda muhimdir. Ushbu asos ARDSda kortikosteroid terapiyasini

fenotipga xos ta'sirlar ob'ektivi orqali qayta ko'rib chiqish uchun mantiqiy asos beradi.Virusli bo'lmagan etiologiyalardan kelib chiqqan ARDS: aniq yallig'lanish manzarasi Virusli bo'lmagan ARDS turli xil etiologiyalar guruhini o'z ichiga oladi, jumladan bakterial pnevmoniya, oshqozon aspiratsiyasi, o'tkir pankreatit, o'pkadan tashqari sepsis va o'pkaning to'g'ridan-to'g'ri shikastlanishi, masalan, travma yoki transfüzyon bilan bog'liq o'tkir o'pka shikastlanishi. Ushbu xilma-xil mexanizmlar ARDSni aniq yallig'lanish yo'llari orqali keltirib chiqaradi. Bakterial pnevmoniyadan kelib chiqqan ARDS, masalan, to'g'ridan-to'g'ri alveolyar insult, kuchli neytrofil infiltratsiya va mahalliy sitokin bo'ronini o'z ichiga oladi. Bu tizimli yallig'lanish hukmron bo'lgan ekstrapulmonar sabablardan sezilarli darajada farq qiladi. Ushbu immunopatologik nuanslarni tushunish kortikosteroid terapiyasini moslashtirish uchun juda muhimdir. Meta-tahlillar va infektsiyaga yo'naltirilgan sinovlar ma'lumotlari virusli bo'lmagan ARDS fenotiplarida kortikosteroidlardan foydalanishga ishonch hosil qiladi. 18 ta randomizatsiyalangan boshqariladigan sinovlarni tizimli ko‘rib chiqish va meta-tahlil, shu jumladan, COVID-19 va COVID-19 bo‘lmagan ARDS kortikosteroidlar 28 kunlik o‘limni sezilarli darajada kamaytirishi bilan bog‘liqligini ko‘rsatdi (RR 0,82; 95% CI 0,72-0,95), steroidologlar bo‘ylab barqaror foyda va kuzatilgan. Shunisi e'tiborga loyiqki, kortikosteroidlarni uzoq muddat qo'llash (7 kundan ortiq) qisqa kurslarga qaraganda samaraliroq bo'ldi. Ushbu topilmalar virusli kontekstdan tashqari ARDSda kortikosteroidlarning kengroq terapevtik rolini qo'llab-quvvatlaydi. Dalillar bo'shliqlari: ARDS sinovlari va infektsiya sinovlari o'rtasida CAPE-COD sinovi shuni ko'rsatdiki, gidrokortizon og'ir jamiyat tomonidan orttirilgan pnevmoniya (CAP) bilan og'rigan bemorlarda o'limni sezilarli darajada kamaytirdi va klinik natijalarni yaxshiladi. Xuddi shunday, APROCCHSS tadqiqotining kichik guruh tahlilida, CAP bilan bog'liq septik shok bilan og'rigan bemorlar gidrokortizon va fludrokortizondan ham foyda ko'rdilar. Garchi ushbu sinovlar ARDS mezonlari asosida bemorlarni maxsus ro'yxatga olinmagan bo'lsa-da, og'ir CAP bilan og'rigan bemorlarning katta qismi klinik kurs davomida Berlinyoki yangi ARDS ta'riflarini bajargan. CAPE-COD sinovida gidrokortizonga tayinlangan bemorlarning 44% 172

PaO2/FiO2 bilan musbat bosimli ventilyatsiya olayotganda, 42% esa PaO2/FiO2 130 bilan yuqori oqimli burun kislorodida bo‘lgan. Ularning barchasida o'pka infiltrati bor edi, ammo ikki tomonlama ishtirok etish nisbati haqida xabar berilmagan. Shunday qilib, katta qismi Berlin va global ta'riflar ostida ARDS mezonlariga javob berishi mumkin. APROCCHSS sinovida bemorlarning 96% inklyuziv ventilyatsiya qilingan, PaO2/FiO2 qiymatlari 175 dan 200 gacha. Hammasida o'pka infiltrati bo'lsa-da, ikki tomonlama ishtirok etish darajasi aniqlanmagan; ammo, bemorlarning ko'pchiligi Berlin mezonlarini qondirgan. Eng muhimi shundaki, pnevmoniya bilan bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra septik shok bo'lgan bemorlarda gidrokortizonning hech qanday foydasi kuzatilmadi, bu pnevmoniya bilan bog'liq ARDS ta'sirining o'ziga xosligini ta'kidlaydi. Bundan tashqari, DEXA-ARDS sinovida deksametazon o'rtacha va og'ir ARDS bilan og'rigan bemorlarda o'limni sezilarli darajada kamaytirdi va ventilyatorsiz kunlarni ko'paytirdi. Deksametazon guruhidagi bemorlarning 52 foizida va platsebo guruhidagi 54 foizida pnevmoniya etakchi etiologiya bo'lgan, aspiratsiya, travma yoki o'pkadan tashqari sepsis kabi boshqa sabablar esa kichikroqdir. Garchi sinov deksametazonning umuman ARDS uchun foydasini aniq ko'rsatgan bo'lsa-da, natijalar etiologiya bo'yicha tabaqalashtirilmagan, bu ularning kamroq tarqalgan virusli, pnevmoniya bo'lmagan fenotiplarida samaradorligi bo'yicha noaniqlik qoldirdi. Ushbu topilmalar pnevmoniya bilan bog'liq ARDSda kortikosteroid terapiyasi muhim bilvosita dalillar bilan qo'llab-quvvatlanishini ko'rsatadi. Bundan farqli o'laroq, aspiratsiya, pankreatit, travma yoki qon quyish kabi virusli bo'lmagan, pnevmoniya bo'lmagan ARDS bilan og'rigan bemorlar mavjud bo'lgan sinovlarda kam ifodalangan yoki alohida kichik guruhlar sifatida tahlil qilinmagan. Shunday qilib, tavsiyalar pnevmoniya bilan bog'liq ARDS uchun yaxshi qo'llab-quvvatlanadi, ammo boshqa virusli bo'lmagan fenotiplarga nisbatan qo'llanilganda haddan tashqari umumlashtirilishi mumkin. Amalda, kelajakdagi randomizatsiyalangan sinovlar "sof" virusli bo'lmagan, pnevmoniya bo'lmagan ARDS populyatsiyalarini ajratib olishi dargumon, bu ularning nisbatan kamdan-kamligi va pnevmoniyada steroidlarni ushlab turishning axloqiy muammolarini hisobga olgan holda. Shu

sababli, haqiqiy dalillar bo'shlig'i pnevmoniya-ARDS uchun asosli ravishda tasdiqlangan foydani isbotlashda kamroq va kamroq tarqalgan virusli bo'lmagan fenotiplar bo'yicha optimal rejimlarni, vaqtni va qo'llanilishini aniqlashtirishda.

Ushbu bo'shliqlarni hisobga olgan holda, virusli bo'lmagan ARDS fenotiplarida kortikosteroidlarni qo'llashning pragmatik vaqt jadvali sinov dalillarini klinik amaliyotga sintez qilishga yordam beradi. Kortikosteroid rejimlarini ARDS etiologiyasiga moslashtirish optimal kortikosteroid rejimi ARDS fenotiplariga qarab farq qilishi mumkin. DEXA-ARDS tadqiqotida deksametazonning nisbatan yuqori dozasi 5 kun davomida kuniga 20 mg vena ichiga yuborilgan, so‘ngra 5 kun davomida kuniga 10 mg dan foydalanilgan va ARDSning o‘rtacha va og‘ir darajasidan qat’i nazar, 60 kunlik o‘lim darajasi sezilarli darajada kamayganini va ventilyatorsiz kunlar ko‘payganini ko‘rsatdi. Ushbu topilmalar etiologik jihatdan turli xil ARDS populyatsiyalarida erta, yuqori dozali deksametazonning potentsial foydasini qo'llab-quvvatlaydi. Kuniga 200 mg gidrokortizonni doimiy infuziya orqali yuborish bo'yicha CAPE-COD sinovi CAPning og'ir mezonlariga javob berganidan keyin 24 soat ichida boshlandi, 4-7 kun davom etdi, so'ngra 2-3 kun davomida kuniga 100 mg / kungacha, so'ngra to'xtatilishidan oldin 50 mg / kungacha kamaytirildi. Ushbu rejim 28 kunlik o'limni, vazopressorlarni qo'llashni va og'ir CAP bemorlarida intubatsiya darajasini sezilarli darajada kamaytirdi, ularning ko'pchiligi kasalxonada davolanish paytida ARDS bilan kasallangan edi. Bundan tashqari, APROCCHSS sinovining apriori kichik guruhi tahlilida, SAP bilan bog'liq septik shok bilan og'rigan bemorlarda gidrokortizon va fludrokortizon kombinatsiyasi 90 kunlik o'lim xavfini 6% mutlaq kamaytirish bilan bog'liq bo'lib, CAP bo'lmagan septik shok bilan solishtirganda sezilarli o'zaro ta'sir ko'rsatdi. Ushbu rejimlar pastroq kümülatif gidrokortizonni aks ettiradi va yallig'lanishga qarshi va mineralokortikoid ta'sirini birlashtiradi, bu ayniqsa gemodinamik beqarorligi bo'lgan bemorlarda foydali bo'lishi mumkin.

Xulosa: Virusli bo‘lmagan ARDSda kortikosteroidlar yallig‘lanish jarayonini nazorat ostiga olish, o‘pka funksiyasini yaxshilash va o‘lim ko‘rsatkichini

kamaytirishda muhim o‘rin tutadi. Ammo ularni qo‘llash individual yondashuv, dozani ehtiyotkorlik bilan tanlash va klinik monitoringni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Dequin PF, Meziani F, Quenot JP, Kamel T, Ricard JD, Badie J va boshqalar. Jamiyat tomonidan olingan og'ir pnevmoniyada gidrokortizon. N Engl J Med. 2023;388(21):1931–41.
2. Heming N, Renault A, Kuperminc E, Brun-Buisson C, Megarbane B, Quenot JP va boshqalar. Jamiyat tomonidan olingan pnevmoniya bilan bog'liq septik shok uchun gidrokortizon va fludrokortizon: APROCCHSS 3-bosqich randomizatsiyalangan sinovning kichik guruh tahlili. Lancet Respir Med. 2024;12(5):366–74.
3. Villar J, Ferrando C, Martinez D, Ambros A, Muñoz T, Soler JA va boshqalar. O'tkir respirator distress sindromi uchun deksametazon bilan davolash: ko'p markazli, randomizatsiyalangan nazorat ostida sinov. Lancet Respir Med. 2020;8(3):267–76.

STOMATOLOGIYADA OG‘RIQLI JARAYONLARNI OLDINI OLISHDA INNOVATSIYALAR VA YANGICHA USULLAR

Qurbonova Salomatbonu Yo'ldoshevna
Buxoro Innovatsion Ta'lim
va Tibbiyot Universiteti
squrbonova419@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada stomatologiyada og‘riqli jarayonlarni kamaytirish va oldini olishda qo‘llanilayotgan zamonaviy innovatsion texnologiyalar hamda yangicha yondashuvlar tahlil qilinadi. Tibbiy muolajalar jarayonida bemorlarning psixologik va fiziologik holatini yengillashtirishga qaratilgan usullar, shu jumladan lazer terapiyasi, kompyuterli anesteziya tizimlari va virtual reallikka asoslangan psixologik muhitlarning afzalliklari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: stomatologiya, og‘riqni oldini olish, innovatsiya, lazer terapiyasi, anesteziya, psixologik yondashuv.

So‘nggi yillarda stomatologik amaliyotda og‘riqli jarayonlarni kamaytirish yoki butunlay bartaraf etish masalasi tibbiyotning eng dolzarb yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qoldi. An’anaviy og‘riqsizlantirish usullari ko‘p hollarda bemorlarda qo‘rquv, asabiylik va stressni kuchaytiradi. Shu bois, tibbiyotda innovatsion yondashuvlar-kompyuterli anesteziya, lazer texnologiyalari, biotexnologik preparatlar, neyroblokatorlar va psixologik yordam tizimlari keng qo‘llanila boshladi.

Zamonaviy stomatologiyada og‘riqli jarayonlarni kamaytirish, bemorlarning ruhiy holatini yengillashtirish va davolash samaradorligini oshirish muhim ilmiy-amaliy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. An’anaviy og‘riqsizlantirish usullari, xususan, in’yektsion anesteziyalar bemorda ko‘pincha stress, asabiylik, yurak urish tezlashuvi va hatto qo‘rquv hissini paydo qiladi. Shu sababli tibbiyot amaliyotida yangi texnologiyalar, psixologik yondashuvlar hamda innovatsion vositalar keng joriy etilmoqda. Avvalo, lazer texnologiyalarining stomatologik jarayonlarga tatbiqi og‘riqni kamaytirishda eng muhim yutuqlardan biri bo‘ldi. Lazer nurlari yordamida karies o‘choqlarini tozalash, milk yallig‘lanishini davolash yoki yumshoq to‘qimalarni kesish jarayonlari an’anaviy mexanik usullarga nisbatan ancha og‘riqsiz kechadi. Lazer nuri to‘qimalardagi nerv retseptorlarini vaqtincha bloklaydi, qon ketishini kamaytiradi va bakteriyalarni yo‘qotadi, shu orqali bemor sezadigan noqulaylik darajasini deyarli yo‘qqa chiqaradi[1]. Bunday texnologiyalar, masalan, Er:YAG yoki diode lazerlar, nafaqat og‘riqni kamaytiradi, balki to‘qimalarning tez tiklanishiga ham xizmat qiladi[2].

Yana bir muhim yondashuv-kompyuterli anesteziya tizimlaridan foydalanishdir. “The Wand”, “Comfort-In” kabi avtomatlashtirilgan qurilmalar og‘riqsizlantirish moddasini to‘qimalarga inson qo‘li emas, balki kompyuter tomonidan boshqariladigan bosim bilan yuboradi. Shu sababli og‘riq sezuvchi nerv

[1] Ishikawa I. Laser in Dentistry: Current and Future Perspectives, Dental Clinics of North America, 2020.
[2] Gupta J., et al. Pain-Free Dentistry Using Laser Therapy, Journal of Clinical Dentistry, 2019.

retseptorlari haddan ortiq ta’sirlanmaydi va bemor deyarli og‘riq sezmaydi[3]. Bu tizim ayniqsa bolalar stomatologiyasida va psixologik jihatdan sezgir bemorlarda yuqori samaradorlik beradi. Qurilmaning ishlash prinsipi shundan iboratki, u anestezik moddaning bosimini va tezligini doimiy nazoratda ushlab turadi, bu esa og‘riq paydo bo‘lishi ehtimolini kamaytiradi[4].

So‘nggi yillarda psixologik va neyropsixologik yondashuvlar ham stomatologiyada katta ahamiyat kasb etmoqda. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bemorning og‘riqni qabul qilishi ko‘p jihatdan uning ruhiy holatiga bog‘liq. Shu bois, muolaja jarayonida virtual reallik (VR) texnologiyalaridan foydalanish samarali natija bermoqda. Bemor VR ko‘zoynak orqali tinchlantiruvchi manzaralarni tomosha qilgani sababli uning miya faoliyatida og‘riq bilan bog‘liq neyron faollik pasayadi[5]. Bu usul ayniqsa bolalar va tish shifokoridan qo‘rqadigan bemorlar uchun ijobiy natija beradi. Innovatsion yondashuvlardan yana biri — lazer va ultratovush terapiyasini kombinatsiyalashdir. Bu usul og‘riqni kamaytirish bilan birga, yallig‘lanish jarayonlarini tezroq bartaraf etadi. Masalan, lazer energiyasi va past chastotali ultratovush kombinatsiyasi to‘qimalardagi mikrotsirkulyatsiyani yaxshilab, og‘riqni sezilarli darajada kamaytiradi[6]. Shuningdek, so‘nggi yillarda biotexnologik preparatlar asosida yaratilgan yangi anestezik vositalar keng qo‘llanila boshladi. Masalan, nanogellar va biopolimer asosidagi anesteziklar og‘iz bo‘shlig‘ining to‘qimalariga tez singadi, allergik ta’siri kam va uzoq muddatli og‘riqsizlantirishni ta’minlaydi[7]. Ba’zi preparatlar esa o‘simlik ekstraktlariga asoslanib yaratilgan bo‘lib, ular tabiiy komponentlar yordamida yengil og‘riqsizlantirish ta’sirini beradi. Yalpiz, evkalipt va romashka ekstraktlari shular jumlasidandir, ular nafaqat og‘riqni kamaytiradi, balki og‘iz bo‘shlig‘ida yallig‘lanishga qarshi ta’sir ko‘rsatadi[8].

[3] Allen K. Computer-Controlled Local Anesthetic Delivery Systems in Dentistry, 2021.
[4] Sahay P. Innovations in Dental Pain Management, Journal of Dental Research, 2022.
[5] Furman E., et al. Virtual Reality as a Tool for Pain Reduction in Dental Procedures, Pain Management Nursing, 2022.
[6] Malamed S.F. Handbook of Local Anesthesia, Elsevier, 2021.
[7] Ramaswamy N. Nanotechnology in Dental Anesthesia and Pain Control, International Journal of Dental Innovations, 2023.
[8] Brown T. Herbal Analgesics in Modern Dentistry, European Journal of Oral Health, 2021.

Shu bilan birga, stomatologik og‘riqsizlantirishda neuromodulyatsiya texnologiyalari — ya’ni nerv signallarini boshqarish orqali og‘riqni to‘xtatish usullari ham joriy qilinmoqda. Bu usulda maxsus mikrotokli stimulyatorlar og‘riq signalini uzatadigan nerv tolalarini vaqtincha bloklaydi, natijada og‘riq sezgisi miyaga yetib bormaydi[9]. Bu texnologiya hozircha ko‘proq ilmiy-amaliy sinov bosqichida bo‘lsa-da, istiqbolli yo‘nalishlardan biri sifatida baholanmoqda.

Zamonaviy stomatologiyada og‘riqli jarayonlarni kamaytirish va oldini olish inson salomatligi hamda psixologik holati uchun muhim ahamiyatga ega. An’anaviy og‘riqsizlantirish usullari ko‘pincha bemorda stress va noqulaylik tug‘dirgani bois, innovatsion texnologiyalarni joriy etish bugungi kun tibbiyotining ajralmas qismiga aylanmoqda. Lazer texnologiyalari, kompyuterli anesteziya tizimlari, biotexnologik preparatlar, virtual reallikka asoslangan psixologik yondashuvlar va neuromodulyatsiya texnikalari og‘riqni fiziologik hamda psixologik darajada kamaytirishda yuqori samaradorlik ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, lazer texnologiyasining minimal invazivligi, kompyuterli anesteziyaning aniqligi va VR texnologiyasining emotsional yengillik beruvchi ta’siri bemorning tibbiy muolajaga bo‘lgan ishonchini oshiradi. Shuningdek, tabiiy komponentlarga asoslangan yangi preparatlar, biopolimerli va nanotexnologik geli vositalari allergik ta’siri kam, uzoq davom etuvchi og‘riqsizlantirish imkonini beradi. Kelgusida bu yo‘nalishlarda ilmiy izlanishlarni kengaytirish, innovatsion texnologiyalarni mahalliy stomatologik amaliyotga moslashtirish og‘riqsiz tibbiyot tizimini yaratish yo‘lida muhim qadam bo‘ladi. Umuman olganda, stomatologiyada og‘riqli jarayonlarni oldini olishda innovatsion yondashuvlar bemorning jismoniy holatini yaxshilabgina qolmay, uning ruhiy xotirjamligini ham ta’minlab, tibbiy xizmatning sifat ko‘rsatkichlarini yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ishikawa, I. Laser in Dentistry: Current and Future Perspectives. — Dental Clinics of North America, 2020.

[9] Kim D.H. Neuromodulation Approaches for Pain Reduction in Dentistry, Clinical Oral Investigations, 2022.

2. Gupta, J., et al. Pain-Free Dentistry Using Laser Therapy. — Journal of Clinical Dentistry, 2019.
3. Allen, K. Computer-Controlled Local Anesthetic Delivery Systems in Dentistry. — Dental Innovations Review, 2021.
4. Sahay, P. Innovations in Dental Pain Management. — Journal of Dental Research, 2022.
5. Furman, E., et al. Virtual Reality as a Tool for Pain Reduction in Dental Procedures. — Pain Management Nursing, 2022.
6. Malamed, S.F. Handbook of Local Anesthesia. — Elsevier Publishing, 2021.
7. Ramaswamy, N. Nanotechnology in Dental Anesthesia and Pain Control. — International Journal of Dental Innovations, 2023.
8. Brown, T. Herbal Analgesics in Modern Dentistry. — European Journal of Oral Health, 2021.
9. Kim, D.H. Neuromodulation Approaches for Pain Reduction in Dentistry. — Clinical Oral Investigations, 2022.
10. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi. Tibbiyotda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash konsepsiyasi (2020–2025). — Toshkent, 2021.

ЮРАК ҚОН ТОМИР ТИЗИМИ КАСАЛЛИКЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШИДА АСОСИЙ ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАР (АДАБИЁТЛАР ШАРҲИ)

Ҳотамова Нигина Қудратовна
Бухоро инновацион таьлим
ва тиббиёт университети
niginahotamova56@gmail.com

Аннотатция. Мазкур адабиётлар шарҳида юрак-қон томир тизими касалликларининг ривожланиши ва кечишида психологик омилларнинг аҳамияти ёритилган. Депрессия, хавотир, стресс, шахснинг А ва Д типи хулқ-атвор турлари ҳамда ижтимоий изоляция каби омиллар ЮҚТК учун муҳим хавф омиллари эканлиги кўрсатилган. Улар нейроэндокрин ва физиологик

ўзгаришлар орқали қон босимининг ошиши, атеросклероз, тромбоз ва аритмияларни келтириб чиқаради. Шунингдек, бундай беморларда операциядан кейинги асоратлар хавфи ортиши аниқланган. Психологик ҳолатни аниқлаш ва психотерапевтик ёрдам кўрсатиш ЮҚТКнинг олдини олиш ва прогнозини яхшилашда муҳим аҳамиятга эга.

Калит сўзлар: Юрак-қон томир тизими, психологик омиллар, депрессия, хавотир, стресс, шахс типлари, ижтимоий изоляция, атеросклероз, психотерапия.

Сўнгги йиллардаги ўтказилган қатор йирик илмий тадқиқотлар юрак қон-томир тизими касалликларининг (ЮҚТК) ривожланиши, кечиши ва унинг оқибатларини прогноз қилишда психологик омилларнинг таъсири борлигини инкор қилиб бўлмайдиган илмий далиллар асосида исботлаб берди[1]. Уларнинг орасида энг аҳамиятлилари депрессия, қўзғалувчанлик, шахсиятдаги индивидуал ўзига хосликлар, ижтимоий изоляция ва стресс ҳисобланади. Психологик омилларнинг таъсирини асосида ётувчи патофизиологик механизмларни бевосита (физиологик) ва билвосита (хулқ-атворга хос) гуруҳларга бўлиш мумкин. Биринчи тури нейроэндокин тизимнинг фаолиятидаги ўзгаришлар оқибатида юзага келса, иккинчиси хулқ-атворни ўзгартирувчи омиллар (овқатланишнинг бузилиши, чекиш, спиртли ичимликларга ружу қўйиш) таъсири остида ривожланади [2].

Ҳайвонларда олиб борилган экспериментал тадқиқотларнинг кўрсатишича сурункали психологик стресс коронар томирлар атеросклерози ва қисқа муддатли эндотелиал дисфункция ривожланишига олиб келади. Бу эса автоном асаб тизимининг ҳаддан ортиқ зўриқиши натижасида юзага чиқади. Экспериментал тадқиқотларда яна шу тўлиқ исботлаб берилганки, давомли стресс таъсирида тухумдон дисфункцияси ривожланади, кортизолнинг қондаги концентрацияси ортади, организмнинг адренергик фаоллиги ошади ва бу ўз навбатида атеросклероз ривожланиши олиб келади. Давомли стресс юрак ишемик касалликлари ва аритмияларнинг ривожланишида бошланғич механизм бўлиб хизмат қилади, шунингдек,

тромбоцитлар фаолиятини рағбатлантириб, қоннинг қовушқоқлигини оширади [3]. Психологик рағбат таъсирида артериал қон босими ва юрак қисқаришлар сонини ошишига сабаб бўлувчи автоном асаб тизимининг юқори сезгирлиги иккинчи патофизиологик механизм ҳисобланади. Автоном асаб тизими сезгирлигининг ошиши ва уйқу артерияси атеросклерозининг ривожланиши орасида ишончли боғлиқликнинг борлиги илмий тадқиқотларда исботланган. Кўплаб замонавий юқори технологияли тадқиқотлар туфайли, психологик омилларнинг юрак-қон томир касалликларининг пайдо бўлиши ва кечишига таъсир қилиш механизмларини тушуниш янада кенгайди.

Психологик омилларни психик таъсирнинг давомийлигига қараб шартли равишда 3 категорияга бўлиш мумкин. Ўткир психологик таъсир (ўткир стресс, ғазабланиш); Эпизодик психологик таъсир - бир неча ҳафтадан 2 йилгача давом этади (депрессив эпизод, хавотирланиш, ижтимоий изоляция); Сурункали психологик таъсир (шахсиятдаги ўзга хослик, сурункали стресс).

Бу омилларни ҳар бирини алоҳида ўрганиш муҳим аҳамият касб этади.

Клиник депрессия (йирик депрессив эпизод) тушкин кайфият, ҳаётга ва ўз фаолиятига қизиқишнинг йўқолиши, қониқиш ҳиссининг йўқолиши (ангедония), ҳаддан ортиқ чарчоқ, каби белгиларнинг 2 ҳафтадан ортиқроқ давом этиши ва қуйидаги қўшимча белгилардан 3 таси бўлганда ташхисланади. Иштаҳанинг ўзгариший,уқусизлик ёки уйқучанлик,уҳий қўзғалувчанлик ёки карахтлик,ўз-ўзига паст баҳо бериш,ўзини айбдор ҳис қилиш диққат ва ўйлаш қобилиятини пасайиши,суицидиал фикрларнинг мавжудлиги.

Юқоридаги асосий диагностик симптомларнинг камида 2 таси икки ҳафта давом этганда субклиник депрессия деб ҳисоблаш мумкин. Дистимия 2 йилдан ортиқ кайфиятни сурункали бузилиши билан характерланади. Юқоридаги асосий диагностик симптомларнинг камида 2 таси икки ҳафта давом этганда субклиник депрессия деб ҳисоблаш мумкин. Дистимия 2 йилдан ортиқ кайфиятни сурункали бузилиши билан характерланади.

Охирги ўн йилда ўтказилган кўп сонли йирик тадқиқотларда юрак қон томир тизими касалликлари: ностабил стенокардия, ўткир миокард инфаркти, димланиш билан кечувчи сурункали юрак етишмовчилиги, туғма ва орттирилган юрак пороклари билан касалланган беморлар орасида депрессия кенг тарқалганлиги исботлаб берилган. Клиник - инструментал тадқиқотларнинг аксариятида ЮҚТК билан касалланган беморларнинг 16-23%ида клиник депрессия, 31-60% ида кичик депрессив эпизод ёки дистимия аниқланганлиги баён этилган. Қиёслаш учун депрессиянинг аҳоли орасида тарқалганлиги 5-11%ни ташкил қилади.

Клиник депрессия ташхисланмаганда ҳам депрессив симптоматика бор беморларда (кичик депрессив эпизод ёки дистимия) ЮҚТК ривожланиш ва касаллик кечувининг оғирлашуви хавфи ошади. Депрессив симптоматиканинг келиб чиқиши ЮҚТК оғирлик даражаси билан боғлиқ эмас. ЮҚТК билан оғриган беморларда депрессияни ташхислашда қатор қийинчиликлар мавжуд. Бундай беморларда депрессиянинг кечиш характери класссик руҳий касаллардаги депрессиядан тубдан фарқ қилади. ЮҚТК билан оғриган беморлар кўпинча сурункали чарчоқдан, ҳаётда яшаш учун энергия (куч) қолмаганидан шикоят қилишади. Беморларнинг эмоционал статусида таъсирчанлик ва қўзғалувчанлик айбдорлик ва ўз-ўзини паст баҳолашдан устун туради. Беморлардаги умидсизлик ҳисси жуда муҳим диагностик ва прогностик аҳамият касб этади. Умидсизлик ҳисси ва юракнинг бирламчи тўхташи орасида яққол алоқадорлик борлиги тадқиқотларда исботланган.

Яқинда ўтказилган тадқиқотлар “Сўнгги бир ой ичида сиз ўзингизни қайғули, ночор, умидсиз ҳис қилдингизми? ёки шунчаки муаммоларга дуч келдингизми?” каби саволларга ижобий жавоб берганлар орасида ЮҚТК ривожланиш хавфини икки баравар ошишини тасдиқлади.

Шунингдек, умидсизликка учраган эркакларда каротид атеросклерози ривожланиш эҳтимоли кўпроқ эканлиги кўрсатилган[3]. Умидсизлик, шунингдек, “vital exhaustion” ҳисси билан боғлиқ “ҳаётий энергиянинг тугаши”, “ҳаётий чарчоқ” туйғуси, ЮҚТК кечишига салбий таъсир қилади.

“Ҳаётий” сўзи ушбу концепцияни ишлаб чиқувчилар A. Appels ва P. Mulder томонидан ушбу ҳолат инсон ҳаётининг барча соҳаларини қамраб олишини таъкидлаш учун ишлатилган. Чарчоқ эпизодлари одатда бир неча ой ва камдан-кам ҳолларда икки йилдан ортиқ давом этади.

Яқинда ўтказилган тадқиқотлар “Сўнгги бир ой ичида сиз ўзингизни қайғули, ночор, умидсиз ҳис қилдингизми? ёки шунчаки муаммоларга дуч келдингизми?” каби саволларга ижобий жавоб берганлар орасида ЮҚТК ривожланиш хавфини икки баравар ошишини тасдиқлади.

Шунингдек, умидсизликка учраган эркакларда каротид атеросклерози ривожланиш эҳтимоли кўпроқ эканлиги кўрсатилган. Умидсизлик, шунингдек, “vital exhaustion” ҳисси билан боғлиқ “ҳаётий энергиянинг тугаши”, “ҳаётий чарчоқ” туйғуси, ЮҚТК кечишига салбий таъсир қилади[4].

“Ҳаётий” сўзи ушбу концепцияни ишлаб чиқувчилар A. Appels ва P. Mulder томонидан ушбу ҳолат инсон ҳаётининг барча соҳаларини қамраб олишини таъкидлаш учун ишлатилган. Чарчоқ эпизодлари одатда бир неча ой ва камдан-кам ҳолларда икки йилдан ортиқ давом этади.

Хулоса. Юрак-қон томир тизими касалликлари фақат физиологик эмас, балки психологик ва ижтимоий омиллар таъсирида ҳам ривожланади. Депрессия, хавотир ва сурункали стресс организмдаги нейроэндокрин тизимнинг фаолиятини бузиб, атеросклероз ва тромбоз жараёнларини кучайтиради. Беморларда психологик ҳолатни баҳолаш, стрессни камайтириш ва психотерапевтик чоралар кўриш даволашнинг самарадорлигини оширади ҳамда касалликнинг қайта ривожланиш хавфини камайтиради. Шу боис, юрак-қон томир касалликлари билан оғриган беморларни комплекс равишда тиббий ва психологик жиҳатдан қўллаб-қувватлаш муҳим аҳамиятга эга.

Адабиётлар рўйхати:

1. Бройтигам Б., Кристиан П., Рад фон М. Психосоматическая медицина. – М.: ГЭОТАР Медицина, 1999.
2. Володина О.В. Частота встречаемости тревожных симптомов у мужчин с ИБС // Российский психиатрический журнал. – 2004. – №6. – С. 4–7.
3. Дмитриева Т.Б. Клиническая Психиатрия. – М.: ГЕОТАР Медицина, 1999.
4. Зайцев В.П. Значение психологических особенностей больных ИБС при направлении на операцию аорто-коронарного шунтирования // Кардиология. – 1997. – №8. – С. 29–30.

SERVIKAL INTRAEPITELIAL NEOPLAZIYANI DAVOLASHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Shodiyeva Dilorom Shavkat qizi,
Alimova Hulkar Halim qizi,
Qodirova Ziyoda Qobil qizi
Buxoro Innovatsion ta'lim
va tibbiyot universiteti
ziyodaqodirova74@gmail.com

Annotatsiya. Servikal intraepitelial neoplaziya (SIN) — bachadon bo‘yni epiteliysida aniqlanadigan o‘zgarish bo‘lib, u bachadon bo‘yni saratonining prekursor (oldingi bosqich) hisoblanadi. Ushbu maqolada SINni davolashda qo‘llanilayotgan zamonaviy yondashuvlar, ya’ni kuzatuv (monitoring), ablativ va eksizional usullar, shuningdek, individual yondashuvning ahamiyati yoritilgan. Zamonaviy texnologiyalar va skrining tizimlarining SINni samarali davolashdagi o‘rni tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: servikal intraepitelial neoplaziya, HPV, kolposkopiya, LEEP, krioterapiya, individual yondashuv, skrining

Kirish. Servikal intraepitelial neoplaziya (SIN) — bu bachadon bo‘yni epiteliysida displaziya (normal bo‘lmagan hujayra o‘zgarishlari) bilan kechadigan patalogik holat bo‘lib, u inson papilloma virusi (HPV) infeksiyasi bilan chambarchas bog‘liq. SIN o‘z-o‘zidan yo‘qolib ketishi mumkin bo‘lsa-da, ba’zi hollarda bachadon bo‘yni invaziv saratoniga aylanishi mumkin. Shu sababli SINni erta aniqlash, bosqichiga qarab baholash va zamonaviy davolash yondashuvlarini qo‘llash katta ahamiyatga ega.

1. SINning tasnifi va ahamiyati

SIN quyidagi bosqichlarga bo‘linadi:

SIN I (yengil displaziya): o‘z-o‘zidan so‘rilib ketishi mumkin, kuzatuv mumkin.

SIN II (o‘rtacha displaziya): yuqori xavfli holat, davolash talab etiladi.

SIN III (og‘ir displaziya yoki karsinoma in situ): saratonga o‘tish xavfi yuqori, jarrohlik usullari ko‘rib chiqiladi.

SIN ayniqsa 21–35 yosh oralig‘idagi ayollarda aniqlanadi va har doim ham invaziv saratonga aylanmaydi. Ammo ba’zi xavf omillari (yuqori riskli HPV turlari, immunitet zaiflashuvi, uzoq davom etuvchi infeksiya) saraton xavfini oshiradi.

2. Zamonaviy diagnostika usullari

SINni aniqlashda quyidagi zamonaviy skrining va diagnostika usullari qo‘llaniladi:

PAP-test (sitologik tekshiruv)

HPV-DNA testi

Kolposkopiya

Biopsiya va gistologik tahlil

Sun’iy intellekt asosida avtomatlashtirilgan skrining tizimlari (yangi yondashuv)

Bu usullar yordamida SINning bosqichini aniqlash va mos davolash strategiyasini tanlash imkoniyati mavjud**.**

3. Davolashdagi zamonaviy yondashuvlar

3.1. Konservativ yondashuv (kuzatuv)

Ayniqsa SIN I holatlarida qo‘llaniladi.

Har 6–12 oyda PAP-test va kolposkopik nazorat.

70–90% holatlarda o‘z-o‘zidan gerilikka uchrashi mumkin.

Immunitetni mustahkamlovchi terapiya, sog‘lom turmush tarzini saqlash tavsiya etiladi.

3.2. Ablativ usullar (zararlangan to‘qimani yo‘q qilish)

a) Krioterapiya

Past harorat bilan epiteliyni yo‘qotish.

Yengil va o‘rtacha darajadagi displaziyalar (SIN I–II) uchun.

Afzalliklari: kam invaziv, nisbatan arzon, ambulator sharoitda bajariladi.

b) Lazerli ablyatsiya

Yuqori aniqlikda zararlangan to‘qimani yo‘qotadi.

Kamdan-kam qo‘llaniladi, asosan yuqori texnologiyali markazlarda.

3.3. Eksizional (kesib olish) usullar

a) LEEP (Loop Electrosurgical Excision Procedure)

Elektr sim yordamida zararlangan to‘qimani olib tashlash.

SIN II–III holatlarida keng qo‘llaniladi.

Afzalliklari: davolash va diagnostik maqsad bir vaqtda.

b) Konizatsiya (nozik konus shaklida kesib olish)

Endo-servikal kanalga tarqalgan displaziyada.

Skalpel yoki lazer orqali amalga oshiriladi.

3.4. Individual yondashuv;

Har bir bemorning yoshi, homiladorlik rejalari, immun holati, HPV turi va sinf darajasiga qarab yondashuv tanlanadi.

Reproduktiv funksiyani saqlash istagida bo‘lgan yosh ayollarda maksimal konservativ yondashuv tavsiya etiladi.

Profilaktika va ilg‘or yondashuvlar

HPV vaksinatsiyasi: SIN rivojlanishini sezilarli kamaytiradi. O‘zbekiston va boshqa davlatlarda keng joriy qilinmoqda.

Yangi texnologiyalar: Sun’iy intellekt, AI asosida PAP-testlarni tahlil qilish orqali aniqlik oshmoqda.

Mobil skrining dasturlari: chekka hududlarda ham erta aniqlash imkonini beradi.

Xulosa. Servikal intraepitelial neoplaziya ayollar salomatligi uchun muhim tahdid bo‘lib, uning zamonaviy usullar bilan aniqlanishi va bosqichiga qarab to‘g‘ri davolanishi invaziv saratonning oldini olishda muhim rol o‘ynaydi. Hozirgi zamonaviy yondashuvlar – konservativ, ablativ va eksizional usullar – individual yondashuv asosida qo‘llanilmoqda. HPVga qarshi vaksina, skrining dasturlarining kengaytirilishi va sun’iy intellekt texnologiyalarining joriy etilishi esa bu kasallikka qarshi kurashning samaradorligini oshirmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. WHO Guidelines for the treatment of cervical intraepithelial neoplasia. 2021.
2. Arbyn M. et al. "Evidence-based management of CIN." *Lancet Oncology*, 2020.
3. FIGO Committee on Gynecologic Oncology. Cervical Cancer Prevention.
4. O‘zbekiston Respublikasi SSV. Servikal skrining bo‘yicha tavsiyalar.
5. Solomon D, Nayar R. The Bethesda System for Reporting Cervical Cytology. Springer, 2015.

ВИРУСЛИ ГЕПАТИТ А ЭПИДЕМИОЛОГИЯСИ, КЛИНИК КЕЧИШИ ВА ПРОФИЛАКТИК ЧОРАЛАРИ

Жабборова Ситора Илҳомовна
Бухоро инновацион таълим
ва тиббиёт университети
sitorailhomovna445@gmail.com

Аннотация. Мазкур мақолада Ўзбекистон Республикасида вирусли гепатит А (ВГА) касаллигининг сўнгги йиллардаги (2020–2024) эпидемиологик ҳолати, тарқалиш динамикаси ва профилактик чораларнинг самарадорлиги ёритилган. Тадқиқотда Санитария-эпидемиология осойишталик ва жамоат саломатлиги қўмитаси, Соғлиқни сақлаш вазирлиги ва халқаро ташкилотлар (ЖССТ, CDC) маълумотларидан фойдаланилди. Олинган натижаларга кўра, 2024 йилда ВГА билан касалланиш 9,5 мингдан ортиқ болаларда қайд этилган бўлиб, бу 2022 йилга нисбатан 1,8 баравар юқори кўрсаткичдир. Мақолада аҳоли ўртасида эмлаш ишларини кенгайтириш, сув сифатини яхшилаш ва гигиена маданиятини оширишнинг долзарблиги таъкидланган.

Калит сўзлар: вирусли гепатит А, эпидемиология, касалланиш, профилактика, вакцина.

Аннотация. В статье рассматривается эпидемиологическая ситуация по вирусному гепатиту А (ВГА) в Республике Узбекистан за последние годы (2020–2024), анализируется динамика распространения инфекции и эффективность профилактических мер. В исследовании использованы данные Комитета санитарно-эпидемиологического благополучия и очббщественного здоровья, Министерства здравоохранения Республики Узбекистан и международных источников (ВОЗ, CDC). По результатам, в 2024 году зарегистрировано более 9,5 тысяч случаев заболевания среди детей, что в 1,8 раза выше показателя 2022 года. В работе подчеркивается необходимость усиления вакцинации, контроля качества питьевой воды и повышения санитарно-гигиенической культуры населения.

Ключевые слова: вирусный гепатит А, эпидемиология, заболеваемость, профилактика, вакцинация.

Abstract. This article analyzes the epidemiological situation of Hepatitis A virus (HAV) infection in the Republic of Uzbekistan between 2020 and 2024. The dynamics of disease spread and the effectiveness of preventive measures were assessed using data from the Committee of Sanitary and Epidemiological Wellbeing, the Ministry of Health, and international sources (WHO, CDC). The findings indicate that in 2024, more than 9,500 pediatric cases were reported, 1.8 times higher than in 2022. The study emphasizes the importance of vaccination, improving water quality, and promoting public hygiene awareness to prevent Hepatitis A transmission.

Keywords: Hepatitis A virus, epidemiology, morbidity, prevention, vaccination.

Мавзунинг долзарблиги. Вирусли гепатит А (ВГА) Ўзбекистон Республикасида жигарни зарарловчи ўткир юқумли касалликлар орасида етакчи ўринда туради. Сўнгги йилларда экологик омиллар, сув таъминоти тизимидаги носозликлар ва санитария маданиятининг пастлиги туфайли касаллик сони ортиб бормоқда. 2024 йил бошида республика бўйича **9 507** нафар беморда гепатит А қайд этилган бўлиб, бу 2022 йилга нисбатан 1,8 баравар юқори натижадир (СЭОСҚ маълумотлари). Касаллик асосан 6–15 ёшли болалар орасида тарқалмоқда, бу эса уларнинг иммун тизими шаклланмаганлиги ва гигиеник қоидаларга тўлиқ риоя қилмаслиги билан боғлиқ.

Тадқиқот мақсади. Ўзбекистон Республикасида 2020–2024 йиллар оралиғида вирусли гепатит А билан касалланиш динамикасини, эпидемиологик хусусиятларини, ёш ва ҳудудий тақсимотини ўрганиш ҳамда профилактика чораларининг самарадорлигини таҳлил қилиш.

Тадқиқот материали ва усуллари. Тадқиқотда Соғлиқни сақлаш вазирлиги, СЭОСҚ, ЖССТ ва CDC маълумотларидан фойдаланилди.

Асосий усуллар:

-ретроспектив статистик таҳлил,

-эпидемиологик кузатув,

-динамик қаторларни солиштириш усули.

Таҳлил учун 2020–2024 йилларда қайд этилган ВГА ҳолатлари сони, ёш гуруҳлари ва ҳудудлар кесимидаги маълумотлар ўрганилди. Ўрганиш натижалари 1-жадвалда келтирилган.

1-жадвал

2020–2024 йилларда қайд этилган ВГА ҳолатлари

№	**Йил**	**ВГА ҳолатлари сони, дона**	**100 минг аҳолига нисбатан, %**	**Асосий ёш гуруҳи**	**Изоҳ**
1.	2020	4200	35,7	6-15 ёш	Пандемия даври
2.	2021	5900	48,2	5-14ёш	Сув тармокларидаги носозликлар
3.	2022	7200	61,4	7-17ёш	Ахоли миграцияси ошган
4.	2023	8400	72,6	6-15ёш	Вакцинасия камрови ошган
5.	2024	9507	80,3	6-14ёш	Епидемия хавфи

Вилоятлар кесимида энг юқори кўрсаткичлар:



Муҳокама. Таҳлил шуни кўрсатадики, Ўзбекистонда вирусли гепатит А асосан сув орқали юқадиган энтерал инфекция сифатида кенг тарқалмоқда. Юқори касалланиш даражаси сув тармоқлари ёмон ҳолатда бўлган, аҳолининг санитария маданияти паст бўлган ҳудудларда қайд этилмоқда. Болалар ва ўсмирлар орасида иммунитетнинг заифлиги туфайли касаллик тез тарқалади. Вакциналаш натижасида 2023–2024 йилларда айрим ҳудудларда касаллик кўрсаткичлари барқарорлашган, аммо қамров етарли даражада эмас. Шунингдек, гигиеник тарбия, ичимлик суви сифатини назорат қилиш ва тезкор эпидемиологик кузатув тизимларини такомиллаштириш зарурлиги аниқланган.

Хулоса.

1. Вирусли гепатит А Ўзбекистон шароитида ижтимоий аҳамиятга эга инфекция бўлиб қолмоқда.
2. Касалланиш 2024 йилда 2022 йилга нисбатан 1,8 баравар ошган.
3. Болалар (6–15 ёш) асосий хавф гуруҳини ташкил этади.
4. Энг муҳим профилактик чора – сифатли ичимлик суви, оммавий вакцинация ва гигиена назоратидир.
5. Вакцинация қамровини ошириш ва эпидемиологик мониторинг тизимини рақамлаштириш зарур.

Фойдаланилган адабиётлар

1. WHO. *Global Hepatitis Report 2023.* Geneva, 2023.
2. Ўзбекистон Республикаси СЭОСҚ. *2020–2024 йиллар эпидемиологик ҳисоботлари.* Тошкент, 2025.
3. *Ўзбекистонда гепатит А билан касалланиш ҳолатлари ортмоқда*, 2024.
4. *Январ ойида 6 минг бола сариқ касал бўлди*, 2024.
5. Зайцев В.М. *Вирусные гепатиты в странах СНГ.* Москва, 2022.
6. Бектурова Л.С. *Эпидемиология вирусного гепатита А в Казахстане.* 2021.
7. *Сурхондарё вилояти соғлиқни сақлаш ҳисоботи.*, 2024.

УСОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОВ ЛЕЧЕНИЯ ГИПЕРТРОФИЧЕСКОГО ГИНГИВИТА У БОЛЬНЫХ ЭПИЛЕПСИЕЙ

Мардонова Дилдора Косимовна
Базовый докторант кафедры
Терапевтической Стоматологии,
Самаркандский Государственный
Медицинский Университет
mardd4364@gmail.com

Аннотация. Гипертрофический гингивит - это воспаление десен, характеризующееся их увеличением и покраснением. Он часто встречается у больных эпилепсией, особенно тех, кто принимает противосудорожные препараты, такие как фенитоин, которые могут вызывать гипертрофию десен. Данная работа направлена на усовершенствование методов лечения гипертрофического гингивита у пациентов с эпилепсией с учетом особенностей их клинического состояния, а также на улучшение качества жизни пациентов с этой патологией.

Ключевые слова: Гипертрофический гингивит, Топамакс, противосудорожная терапия, эпилепсия

Гипертрофический гингивит при эпилепсии, как правило, развивается на фоне длительного применения препаратов, таких как фенитоин, который

влияет на обмен веществ в тканях десен. Этот вид гингивита требует особого подхода к лечению, поскольку стандартные методы лечения часто оказываются малоэффективными в случае эпилепсии и применения препаратов с таким побочным эффектом.

Гипертрофический гингивит представляет собой важную проблему, так как болезнь может прогрессировать, если не предпринять своевременных мер. У пациентов с эпилепсией, принимающих фенитоин, риск развития гипертрофии десен увеличивается, и это может приводить к различным осложнениям, включая кровоточивость, боль и нарушение нормальной жевательной функции. Важно разработать более эффективные методы лечения, которые бы сочетали в себе стоматологические и фармакологические подходы, учитывая специфические потребности пациентов с эпилепсией.

Целью настоящего исследования является усовершенствование методов лечения гипертрофического гингивита у больных эпилепсией с применением комплексного подхода, включающего изменения в фармакотерапии, локальное лечение десен и профилактические меры, направленные на предотвращение прогрессирования заболевания.

Лечение судорожного расстройства противосудорожными препаратами является начальным этапом реабилитации, и именно лечение во многих случаях определяет исход реабилитационного процесса. В настоящее время судороги не могут быть устранены у 30% пациентов с помощью обычных лекарств. Поэтому исследуются и разрабатываются препараты нового поколения для лечения резистентных к медикаментозным лечебным мероприятиям форм и приступов судорог и достижения дополнительного эффекта. В последующие годы на российских фармацевтических рынках появилось лекарство Топамакс (Janssen-Pharmaceutical), Бельгия, Швейцария. По химическому строению Топамакс относится к классу сульфаматизированных моносахаридов. Характеризуется смешанным механизмом действия - ГАМК-эргическим, антиглюматергическим,

нейропротекторным, психотропным, с большей нормотипической эффективностью.

Противоэпилептическая активность топамакса основана на блокирующем действии активности ГАМК на потенцирование, натриевые и калиевые каналы, что, прежде всего, предотвращает контактную активацию медиатора, активирующего глутамат-судорожную активность рецепторной чувствительности. Эти эффекты зависят от концентрации препарата в плазме крови. Из желудочно-кишечного тракта всасывается на 81%, связывается с белками плазмы на 13-17%, метаболизируется. При совместном применении топамакса с фермент-индуцирующими препаратами его метаболизм увеличивается на 50%. Основным путем выведения топамакса и его метаболитов являются почки.

При апробации препаратов нового поколения также необходимо учитывать ценность лечения и находить меры, чтобы сделать их доступными для пациентов. Целью текущего исследования является оценка эффективности клинических и фармакоэкономических аспектов топамакса у пациентов разного возраста при его применении в сочетании с другими традиционными противосудорожными средствами и в режиме монотерапии. План обследований также включал определение качества жизни пациентов по методике ВОЗ KJ-100 при приеме топамакса. 18 С топамаксом мы вылечили 48 пациентов - 23 взрослых (10 мужчин и 13 женщин) и 25 детей в возрасте от 4 до 15 лет с резистентными к традиционной противосудорожной терапии формами заболевания-с симптоматическими припадками с частотой приступов от одного до 69 дней (средний возраст). У детей наблюдались 7 абсансов, 10 атипичных абсансов, 7 сложных парсеальных судорог, 18 судорог и 8 миоклонических судорог.

Мономорфные приступы наблюдались у 4 больных детей, у 15 детей - 2 вида приступов, у 6-три вида приступов. У взрослых наблюдались парциальные и диссеминированные приступы (22 пациента), абсансы и миоклонические приступы (в отдельных случаях). Течение болезни у

взрослых составляет 11 лет, клиническая картина большинства из них наблюдается с полиморфными приступами.

В результе исследования установлено, что 95.7% различных улучшенных положительных результатов в группе пожилых пациентов, 17.4% снижение приступов на 25% у пациентов, 8.7% снижение на 50% у пациентов, 43.5% у пациентов - До 75%, а у 26.1% пациентов приступы вообще прекратились. Топамакс оказался более эффективным при лечении судорог, парциальных и вторичных диссеминированных приступов у взрослых. Обобщая эти результаты, можно сделать вывод, что у 20-33% пациентов достигнуто полное устранение некоторых типов приступов. Однако у 67-93% пациентов количество приступов несколько снизилось. В группе детей полное устранение приступов отмечалось у 4 детей (16%), снижение на 50%, повышение у 13 (52%) и отсутствие эффекта у 8 (32%). Ни у одного из детей, у которых приступы полностью исчезли, миоклонии не было но у всех были судорожные приступы в клинической картине. В этой группе детей было не более двух различных типов приступов, в то время как у детей-резистентов при лечении Топамаксом преобладали более трех типов приступов. Препарат эффективен при всех типах приступов у детей: полное исчезновение отдельных приступов на 10-28.5% снижение на определенное количество - 39-62.5% 5 (21.7%) у взрослых пациентов наблюдались побочные эффекты: У 2-на фоне мониторинга,у 3-на фоне политерапии (в 2-х случаях в сочетании с финлепсином, в 1-с финлепсином и барбитуратами). Препарат был запрещен из-за развития психотропного возбуждения и психотической симптоматики у 1 больного, получавшего Топамакс в виде политерапии финлепсином, и эти проявления исчезли.

Больше других побочных эффектов наблюдались субъективные ощущения в конечностях и лице, такие как парестезии, сонливость, нарушения мышления. Эффекты будут зависеть от дозы, при уменьшении дозы или более медленном титровании они уменьшатся или исчезнут.

Как мы знаем, все противосудорожные препараты, используемые в настоящее время, отрицательно влияют на ЭЭГ Langolt. При лечении топамаксом таких проявлений не наблюдается. Высокая клиническая эффективность и низкая стоимость лечения топамаксом свидетельствуют о том, что такое лечение, в группе пациентов, имеет экономический приоритет.

Список литературы.

1. Dmitrieva, L.A. Modern ideas about the role of microflora in the pathogenesis of periodontal diseases / L.A. Dmitrieva, A.G. Krainova // Periodontology. - 2004. - No. 1. - p. 8-15

2. Kuzmina, E.M., Yanushevich, O.O. Preventive dentistry. Textbook. 2016 - 544

РОЛЬ МЕДИТАЦИИ В УПРАВЛЕНИИ БОЛЬЮ: НЕЙРОПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ И КЛИНИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ

Фармонова Малика Валиевна
Бухарский университет инновационного образования и медицины
malikafarmonova16@gmail.com

Аннотация. В последние годы медитация рассматривается как важный немедикаментозный компонент системного управления болью. Современные нейропсихологические исследования подтверждают, что практика медитации влияет на активность префронтальной, поясной и островковой коры, регулируя когнитивные и эмоциональные компоненты болевого восприятия. Программы осознанности (mindfulness) и медитация принятия доказали эффективность в снижении интенсивности хронической боли, тревожности и стресс-индуцированных расстройств. Представлены механизмы действия, результаты клинических метаанализов и возможности интеграции медитации в мультидисциплинарные модели терапии боли.

Ключевые слова: медитация, mindfulness, боль, нейропластичность, стресс, когнитивная регуляция, психонейроиммунология.

Введение. Боль-комплексное явление, включающее физиологический, эмоциональный и когнитивный компоненты. Традиционные анальгетические методы часто не обеспечивают устойчивого результата, что обусловливает необходимость интеграции психофизиологических подходов. Медитация, особенно в форме mindfulness-based stress reduction (MBSR), становится эффективным инструментом управления хронической болью, снижая субъективную интенсивность и эмоциональное страдание.

Нейрофизиологические механизмы. Исследования с применением fMRI показали, что медитация снижает активность таламуса и усиливает контроль со стороны префронтальной коры, уменьшая восприятие боли. Регулярная практика формирует функциональную нейропластичность — повышается устойчивость к стрессу, нормализуется уровень кортизола, улучшается работа гипоталамо-гипофизарно-адреналовой оси.

Доказательная база. Клинические испытания подтверждают, что MBSR снижает уровень боли на 25–50%, уменьшает использование анальгетиков и повышает качество жизни пациентов с фибромиалгией, артритом и мигренью (Kabat-Zinn, 1982; Goyal et al., JAMA, 2014). Включение медитации в комплексную терапию способствует стабилизации психоэмоционального состояния и улучшает комплаентность пациентов.

Интеграция и применение. Медитация наиболее эффективна при комбинированном подходе в сочетании с когнитивно-поведенческой терапией, физиотерапией и фармакологическими методами. В медицинской практике рекомендуется включать краткие сессии mindfulness-медитации в программы реабилитации и управления стрессом.

Заключение. Медитация является безопасным, доказательно эффективным и экономически выгодным инструментом управления болью. Её внедрение в клиническую и образовательную практику способствует формированию у пациентов навыков саморегуляции и осознанного отношения к собственному телу и состоянию.

OG‘IZ BO‘SHLIG‘I SHILLIQ QAVATIDA QANDLI DIABET KASALLIGIDA UCHRAYDIGAN O‘ZGARISHLAR

Xamrabayeva Nafisa Akmalovna
Buxoro Innovatsion ta’lim
va tibbiyot Universiteti

Annotatsiya: Mazkur tezisda qandli diabet kasalligi bilan og‘rigan bemorlarda og‘iz bo‘shlig‘i shilliq qavatida uchraydigan morfologik va funksional o‘zgarishlar yoritilgan. Diabet organizmning immun tizimini zaiflashtiradi, bu esa og‘iz bo‘shlig‘ida kserostomiya, kandidoz va gingivit kabi asoratlarning rivojlanishiga olib keladi. Muntazam parvarish va tibbiy nazorat ushbu asoratlarning oldini olishda muhim o‘rin tutadi.

Kalit so‘zlar: qandli diabet, og‘iz bo‘shlig‘i, shilliq qavat, kandidoz, kserostomiya, parodontal kasalliklar.

Annotation:This thesis discusses the morphological and functional changes occurring in the oral mucosa of patients with diabetes mellitus. Diabetes weakens the immune system, creating favorable conditions for xerostomia, candidiasis, and gingivitis. Regular oral hygiene and medical supervision play a crucial role in preventing these complications.

Keywords: diabetes mellitus, oral cavity, mucosa, candidiasis, xerostomia, periodontal diseases.

Kirish. Qandli diabet (QD) — endokrin tizimining eng keng tarqalgan kasalliklaridan biri bo‘lib, u organizmda insulin yetishmovchiligi yoki uning samarasizligi natijasida rivojlanadi. Bu holat nafaqat metabolik buzilishlarga, balki og‘iz bo‘shlig‘idagi morfologik va funksional o‘zgarishlarga ham olib keladi. Diabetli bemorlarda shilliq qavat qurishi, yallig‘lanish jarayonlari, mikotik infeksiyalar va tish to‘qimalarida distrofik o‘zgarishlar tez-tez kuzatiladi.

Asosiy qism: Qandli diabet bilan og‘rigan bemorlarda og‘iz bo‘shlig‘i shilliq qavatida ko‘plab morfologik va funksional o‘zgarishlar kuzatiladi. Ular asosan qon tomirlar faoliyatining buzilishi, immunitetning pasayishi, regeneratsiya jarayonining

sustlashuvi va og‘iz gigiyenasi bilan bog‘liq omillar natijasida yuzaga keladi. Quyida eng ko‘p uchraydigan klinik holatlar keltirilgan:

Kserostomiya (og‘iz qurish) — bu og‘iz bo‘shlig‘ida so‘lak ajralishining keskin kamayishi yoki butunlay yo‘qolishi bilan tavsiflanadigan holatdir. Qandli diabetda bu asosan so‘lak bezlarining trofik buzilishlari, qon aylanishining yomonlashishi va suvsizlanish bilan bog‘liq bo‘ladi. So‘lakning yetarli bo‘lmasligi natijasida:

og‘izda achishish, quruqlik, yutishda qiyinchilik paydo bo‘ladi;

og‘izda noxush hid va og‘izning pH darajasi o‘zgaradi;

tish sathida kariyes va parodontal kasalliklar rivojlanish xavfi ortadi;

patogen mikroorganizmlar ko‘payishi uchun qulay sharoit vujudga keladi.

Kandidoz infektsiyasi. Qandli diabet bilan og‘rigan bemorlarda **Candida albicans** kabi zamburug‘lar ko‘payishi natijasida og‘iz bo‘shlig‘ida kandidoz tez-tez uchraydi. Bu immun tizimining zaiflashuvi, og‘izning quruq bo‘lishi va shakar miqdorining yuqoriligi bilan bog‘liq. Belgilari quyidagilar:

til, tanglay yoki yonoq shilliq qavatida oq, pishloqsimon qoplama;

achishish, og‘riq, noqulaylik hissi;

og‘izdan noxush hid kelishi;

og‘iz shilliq qavati yallig‘lanishi va sezuvchanlikning oshishi.

Agar infektsiya o‘z vaqtida davolanmasa, bu parodontal kasalliklar va surunkali yallig‘lanish jarayonlariga olib kelishi mumkin.

Gingivit va parodontit. Qandli diabet qon tomirlarining torayishi, to‘qimalarning oziqlanishining yomonlashuvi va mikroblarga qarshi kurashish qobiliyatining susayishi orqali parodontal to‘qimalarga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Natijada:

-milkning qizarishi, shishishi va qonashi (gingivit);

-parodontal cho‘ntaklarning chuqurlashuvi;

-tishlarning bo‘shashishi va tushib ketish xavfi (parodontit);

-milkdan suyuqlik yoki yiring ajralishi;

-og‘izdan og‘ir hid kelishi kuzatiladi.

Diabetli bemorlarda bu kasalliklar odatdagidan og‘irroq va surunkali kechadi.

Shilliq qavatning qattiqlashishi va yupqalashishi. Qandli diabet tufayli shilliq qavat to‘qimalarida **trofik va distrofik** o‘zgarishlar yuzaga keladi. Bu qon aylanishining buzilishi va regeneratsiya jarayonining sustlashuvi bilan bog‘liq. Natijada:

-epiteliy yupqalashadi, mo‘rtlashadi;

-og‘iz ichida mikroshikastlanishlar tez-tez paydo bo‘ladi;

-jarohatlar sekin bitadi va ikkilamchi infektsiyalar qo‘shiladi;

-og‘iz shilliq qavati elastikligini yo‘qotadi va sezuvchanlik ortadi.

Yallig‘lanish jarayonlarining surunkali kechishi. Qandli diabetda organizmning himoya kuchi susaygani sababli yallig‘lanish jarayonlari uzoq davom etadi va sekin tuzaladi. Bu holat quyidagi omillar bilan bog‘liq:

-mikrotsirkulyatsiyaning buzilishi;

-shakar miqdorining yuqoriligi tufayli mikroblarning tez ko‘payishi;

-regeneratsiya jarayonining sustligi;

-og‘iz gigiyenasining pastligi.

Natijada og‘iz bo‘shlig‘ida og‘riq, shish, qonash, to‘qimalarda distrofik o‘zgarishlar va surunkali infektsiya o‘choqlari saqlanib qoladi.

Qandli diabetli bemorlarda og‘iz bo‘shlig‘ida yuqoridagi o‘zgarishlarning oldini olish uchun:

-muntazam tibbiy nazorat (stomatolog + endokrinolog), og‘iz gigiyenasiga qat’iy rioya qilish;

-so‘lak ishlab chiqarishni rag‘batlantiruvchi chora-tadbirlar;

antifungal va antibakterial vositalardan oqilona foydalanish zarur.

Xulosa. Qandli diabet og‘iz bo‘shlig‘i shilliq qavatida chuqur morfologik va funksional o‘zgarishlarga olib keladi. Ushbu o‘zgarishlar asosan shilliq qavatning trofik buzilishi, qon aylanishining susayishi, immunitetning pasayishi va og‘iz gigiyenasining buzilishi bilan chambarchas bog‘liqdir. O‘z vaqtida aniqlanmagan va davolanmagan holatlar og‘izdagi kandidoz, gingivit, parodontit hamda boshqa yallig‘lanish jarayonlarining surunkali kechishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Bunday asoratlarni oldini olish uchun muntazam tibbiy nazorat, individual gigiyena qoidalariga rioya qilish, so‘lak ishlab chiqarishni rag‘batlantiruvchi vositalar, antifungal va antibakterial preparatlardan oqilona foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, stomatolog va endokrinolog mutaxassislarining birgalikdagi yondashuvi og‘iz bo‘shlig‘ida kechadigan kasalliklarning og‘irligini kamaytiradi va umumiy hayot sifatini yaxshilaydi.

Diabet bilan og‘rigan bemorlar uchun og‘iz gigiyenasi bo‘yicha maxsus profilaktika dasturlarini joriy etish, muntazam axborot-targ‘ibot ishlarini olib borish va individual og‘iz parvarish vositalarini tanlashga ko‘maklashish og‘izdagi asoratlarni keskin kamaytirishga yordam beradi. Bu nafaqat stomatologik holatni yaxshilaydi, balki diabetning umumiy klinik kechishini ham yengillashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aripov X.A. “Stomatologiya asoslari”. Toshkent: Tibbiy nashr, 2020.
2. WHO Oral Health Fact Sheet. World Health Organization, 2022.
3. D. G. Little et al. *Dental Management of the Medically Compromised Patient*. Elsevier, 2021.
4. A.A. Abdullaev. “Qandli diabet va og‘iz bo‘shlig‘i kasalliklari”. Tibbiyot jurnali, 2023.

IV SHO`BA

Yashil iqtisodiyot hamda O‘zbekiston mintaqalarida atrof muhitni asrashning ustuvor yo‘nalishlari





DAVOLASH-PROFILAKTIKA MUASSASALARIDA CHIQINDILARNI BOSHQARISHNING GIGIYENIK ME'YORLARI VA ULARNING AHOLI SALOMATLIGIGA TA'SIRI

Nadirova Yulduz Isomovna
nadirovayulduz@gmail.com
Toshkent davlat tibbiyot universiteti.
2-son fakultet va gospital terapiya,
nefrologiya va gemodializ
kafedrasi assistenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada davolash-profilaktika muassasalarida (DPM) hosil bo‘ladigan chiqindilarni yig‘ish, tashish, saqlash va zararsizlantirish jarayonlarining gigiyenik me’yorlari hamda ularning aholi salomatligiga ta’siri yoritilgan. Tadqiqot Toshkent shahri misolida o‘rganilib, tibbiy chiqindilarning noto‘g‘ri boshqarilishi bilan bog‘liq sanitariya va ekologik muammolar tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada chiqindilarni gigiyenik me’yorlarga muvofiq boshqarish orqali infektsion xavflarni kamaytirish, tibbiy muassasalarda xavfsiz mehnat muhitini ta’minlash va ekologik barqarorlikni oshirish bo‘yicha takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: Tibbiy chiqindilar, gigiyena, sanitariya, ekologik xavfsizlik, davolash-profilaktika muassasasi, chiqindilarni zararsizlantirish.

Kirish. Hozirgi kunda tibbiyot sohasining jadal rivojlanishi bilan bir qatorda, davolash-profilaktika muassasalarida (DPM) hosil bo‘layotgan tibbiy chiqindilar miqdori ham ortib bormoqda. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma’lumotlariga ko‘ra, tibbiy chiqindilarning 15–20 foizi biologik jihatdan xavfli bo‘lib, ularni noto‘g‘ri boshqarish nafaqat tibbiyot xodimlari, balki atrof-muhit va aholi salomatligi uchun ham jiddiy tahdid tug‘diradi.

O‘zbekiston Respublikasida bu yo‘nalishda qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan, jumladan, “Aholi sanitariya-epidemiologik osoyishtaligini ta’minlash to‘g‘risida”gi qonun (2021), “Tibbiy chiqindilarni boshqarish bo‘yicha gigiyenik talablar” sanitariya qoidalari (2023). Biroq amaliyotda ushbu me’yorlarga to‘liq rioya etilmasligi tibbiyot chiqindilarining xavfsiz aylanishiga to‘sqinlik qilmoqda.

Asosiy qism. Tibbiy chiqindilarning tarkibi va tasnifi. Davolash muassasalarida hosil bo‘ladigan chiqindilar tarkibi jihatidan juda xilma-xil bo‘lib, ular quyidagicha tasniflanadi:

- **A sinf (xavfsiz chiqindilar)** – maishiy chiqindilarga o‘xshash, sanitariya xavfi tug‘dirmaydigan materiallar;
- **B sinf (yuqumli chiqindilar)** – qon, biologik suyuqliklar yoki mikroorganizmlar bilan kontaminatsiyalangan chiqindilar;
- **C sinf (kesuvchi-teshuvchi chiqindilar)** – igna, skalpel, ampula va boshqa jarrohlik asboblari qoldiqlari;
- **D sinf (xavfli kimyoviy chiqindilar)** – dori vositalari, dezinfeksiya va laboratoriya reagentlari;
- **E sinf (radioaktiv chiqindilar)** – radiologik tekshiruv yoki davolash natijasida hosil bo‘lgan chiqindilar.

JSST tavsiyalariga ko‘ra, har bir chiqindi turi uchun alohida idish, belgilangan rang kodi va to‘plash usuli qo‘llanilishi kerak. Toshkent shahridagi ayrim klinikalarda bu tizim joriy etilgan bo‘lsa-da, kichik shifoxonalarda bu talablar hali to‘liq bajarilmayapti.

Chiqindilarni yig‘ish va tashishning gigiyenik talablari. Tibbiy chiqindilarni **manba joyida saralash** – gigiyenik xavfsizlikning eng muhim bosqichi hisoblanadi. Har bir bo‘limda maxsus belgili idishlar bo‘lishi shart:

- Yuqumli chiqindilar uchun – **qizil rangli konteynerlar**,
- Kesuvchi-teshuvchi chiqindilar uchun – **sariq idishlar**,
- Maishiy chiqindilar uchun – **oq yoki kulrang paketlar**.

Yig‘ilgan chiqindilar 2/3 hajmgacha to‘ldirilgach, germetik tarzda yopiladi va 24 soatdan ortiq saqlanmaydi. Yoz oylarida bu muddat 12 soatgacha qisqartiriladi.

Chiqindilarni tashish uchun maxsus belgilanib bo‘yalgan transport vositalari ishlatiladi. Har bir tashishdan so‘ng transport vositasi **dezinfeksiya va sanitar yuvishdan** o‘tkazilishi kerak. Afsuski, Toshkent shahridagi ayrim tibbiyot muassasalarida bu talab muntazam bajarilmaydi, bu esa mikrobiologik kontaminatsiya xavfini oshiradi.

Zararsizlantirish usullari va ekologik xavfsizlik

Tibbiy chiqindilarni zararsizlantirish usullari quyidagilardan iborat:

- **Avtoklavlash** – yuqori harorat (120–134°C) va bosim yordamida mikroorganizmlarni yo‘q qilish;
- **Insineratsiya (yondirish)** – chiqindilarni 800–1200°C haroratda yoqish;
- **Kimyoviy dezinfeksiya** – natriy gipoxlorit, xloramin, peroksid eritmalari yordamida;
- **Termal yoki mikroto‘lqinli usul** – zamonaviy ekologik jihatdan toza usullar sirasiga kiradi.

Toshkent shahrida 2023-yildan boshlab ayrim yirik tibbiyot markazlarida **mobil avtoklav komplekslari** joriy etilgan bo‘lib, ular chiqindilarni joyida zararsizlantirish imkonini beradi. Bu tizim chiqindilarni tashishdagi xavf va transport ifloslanishini kamaytiradi.

Biroq chiqindilarni yondirish jarayonida ajraladigan dioksin va furan moddalari havoga chiqib, ekologik xavf tug‘diradi. Shu sababli ekologik xavfsiz alternativ texnologiyalar – avtoklav, kimyoviy neytrallash va qayta ishlash usullari ustuvor yo‘nalish hisoblanadi. Gigiyenik nazorat tizimiga quyidagilar kiradi:

- chiqindi joylarining mikrobiologik tekshiruvi;
- chiqindilarni yig‘ish va tashish jarayonlarida havo namunalarini nazorat qilish;
- suv va tuproq namunalarida mikroorganizmlar sonini o‘lchash.

JSST va O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi ko‘rsatmalariga ko‘ra, chiqindi joylarida **epidemiologik xavfsizlik indeksi** doimiy nazorat ostida bo‘lishi kerak.

Aholi salomatligiga ta’siri. Tibbiy chiqindilarning gigiyenik me’yorlarga zid boshqarilishi bir qator salbiy oqibatlarga olib keladi:

- havoning mikrobiologik ifloslanishi natijasida yuqumli kasalliklar tarqalishi;
- suv resurslarining biologik ifloslanishi orqali ichak infeksiyalarining ko‘payishi;

- chiqindilarda ishlov beruvchi xodimlarda dermatit, allergiya, nafas yo‘llari kasalliklarining ortishi;
- ekologik tizimda biokimyoviy barqarorlikning buzilishi.

Toshkent shahrida o‘tkazilgan gigiyenik kuzatuvlar (2024 y.) shuni ko‘rsatadiki, chiqindilarni to‘g‘ri ajratish va avtoklav orqali zararsizlantirish joriy etilgan muassasalarda infektsion kasalliklarning ichki tarqalish darajasi 30% ga kamaygan.

Xulosa. Davolash-profilaktika muassasalarida chiqindilarni boshqarish tizimi — bu sog‘liqni saqlash tizimining gigiyenik xavfsizligini ta’minlovchi eng muhim bo‘g‘inlardan biridir. Gigiyenik me’yorlarga qat’iy amal qilish, chiqindilarni saralash va zamonaviy zararsizlantirish usullarini qo‘llash orqali:

- tibbiyot xodimlari va bemorlar uchun xavfsiz muhit yaratiladi;
- atrof-muhitning ifloslanishi kamayadi;
- aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi mustahkamlanadi.

Kelgusida tibbiy chiqindilarni boshqarish tizimiga raqamli monitoring, eko-nazorat, va xodimlar uchun uzluksiz gigiyenik ta’lim tizimini kiritish Toshkent shahrida sog‘lom va ekologik xavfsiz shahar konsepsiyasini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. **O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi.** *“Tibbiy chiqindilarni yig‘ish, tashish va zararsizlantirish bo‘yicha gigiyenik talablar”*, Toshkent, 2023, 42 bet.
2. **World Health Organization (WHO).** *Safe Management of Wastes from Health-Care Activities*, 2nd Edition, Geneva, 2014, 329 pages.
3. **Karimov B., Ismatova N.** *Ekologik xavfsizlik va tibbiy gigiyena asoslari*, Toshkent: Tibbiyot nashriyoti, 2021, 256 bet.
4. **United Nations Environment Programme (UNEP).** *Healthcare Waste Management: Best Practices in Developing Countries*, Nairobi, 2019, 188 pages.
5. **Abdullayeva M., Jo‘rayev F.** *Tibbiy chiqindilarni boshqarish va ularning aholi salomatligiga ta’siri*, Toshkent tibbiyot akademiyasi ilmiy jurnali, 2022, №3, 45–53-betlar.

BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARINING O'ZBEKISTONNING EKOLOGIK HOLATIGA OID KO'RSATKICHLARI TAHLILI: 15-MAQSAD MISOLIDA

Anvarxonov Abdulatifxon Jamshidxon o'g'li
Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar
instituti yetakchi mutaxassisi,
E-mail: a.anvarxonov@imrs.uz

Annotatsiya. Mazkur tezisda Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tomonidan qabul qilingan Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) doirasida 15-maqsad yo'nalishidagi milliy indikatorlarning tahlili keltirilgan. Tadqiqotda 2015-2024 yillarda O'zbekistonda biologik xilma-xillik, ekotizimlar va ekologik siyosatni moliyalashtirish bilan bog'liq milliy ko'rsatkichlarning o'zgarish dinamikasi o'rganildi.

Kalit so'zlar: BRM-15, ekologik siyosat, biologik xilma-xillik, ekotizimlarni boshqarish

BMT tomonidan 2015-yilda 17 ta BRM va 169 vazifa qabul qilingan bo'lib, 2030-yilgacha ularga erishish muhim vazifa sifatida belgilandi. Ular ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik maqsadlarni birlashtiruvchi umumiy siyosatni ta'minlab, hukumatlarga siyosatlarni muvofiqlashtirish tavsiyalarini beradi [1]. BRMni milliy strategiyalarga kiritish xalqaro hamkorlik va moliyalashtirishni jalb qilish, hamda investitsiyalarni ijobiy yo'nalishga yo'naltirish uchun platforma hisoblanadi [2].

BRMni har bir mamlakat o'ziga xos imkoniyatlari va muammolarini inobatga olgan holda amalga oshirishi zarur. Shu asosga ko'ra 20.10.2018 [3] hamda 21.02.2022-yilda [4] Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari qabul qilingan. Ushbu qarorlarga muvofiq BMT tomonidan tavsiya qilingan 17 maqsadning 16 tasi va 169 ta vazifadan 126 tasi hamda maqsad va vazifalarning holatini tekshirish va kuzatish uchun jami 143 ta indikator qabul qilingan.

BRMdagi 15-maqsad ekologiyaga qaratilgan bo'lib, u "Quruqlikdagi ekotizimlarni asrash", deb nomlanadi. 15-maqsad o'z ichiga jami 9 ta vazifa va 9 ta indikatorni qamrab olgan va ular orqali natijalar tahlil qilinadi [5].

O‘zbekistonda o‘rmonlar bilan qoplangan maydonning umumiy quruqlik maydoniga nisbati (Indikator 15.1.1.) 2015-yildagi 8,3 foizdan 2024-yilda 10,7 foizgacha oshgan. Bu natija so‘nggi yillarda amalga oshirilgan o‘rmonlarni tiklash, daraxt ekish va cho‘llanishga qarshi kurashish dasturlari samaradorligini ko‘rsatadi. O‘rmon maydonlarining kengayishi biologik xilma-xillikni saqlash, iqlim o‘zgarishiga moslashish va karbon yutilishini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi (1-rasm).

1-rasm. Umumiy quruqlik maydoniga o‘rmonlar maydoni, foizda



Manba: O’zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo’mitasi

O‘rmon xo‘jaligini barqaror boshqarish holatini aks ettiradigan indikator (Indikator 15.2.1.) mavjud. O‘rmonning haqiqiy maydoni 234,3 foizdan 244 foizgacha oshgan bo‘lib, o‘rmonlar soni va sifatida ijobiy o‘sish kuzatilmoqda. Yer usti biomassasi zaxiralari 2015-yildagi 49,4 million m³ dan 2024-yilda 83,3 million m³ ga yetgan, bu o‘rmonlarning ekologik salohiyati ortganini bildiradi. Qonun bilan qo‘riqlanadigan joylardagi o‘rmon maydonlari ulushi 88,7 foizdan 96 foizgacha ko‘tarilgan, uzoq muddatli o‘rmon xo‘jaligi boshqaruv rejasiga ega maydonlar esa 83,1 foizdan 99,5 foizgacha oshgan. Bu O‘zbekiston o‘rmon xo‘jaligi tizimining barqaror boshqaruvga o‘tayotganidan dalolat beradi (2-rasm).

2-rasm. O‘rmon xo‘jaligini to‘g‘ri yuritishga o‘tish jarayonidagi o‘zgarishlar



Manba: O’zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo’mitasi

Tog‘li hududlarda o‘simlik qoplami ekologik barqarorlikning muhim ko‘rsatkichi hisoblanadi (Indikator 15.4.2.). 2015–2023 yillar davomida bu ko‘rsatkich 36 foiz atrofida saqlanib, 2024-yilda 36,7 foizgacha o‘sdi. Bu tog‘li hududlarda tabiiy ekotizimlarning tiklanish jarayoni sekin, ammo ijobiy yo‘nalishda kechayotganini bildiradi. O‘simliklar bilan qoplangan tog‘li maydonlarning kengayishi suv manbalari va biologik xilma-xillikni himoya qilishda muhim o‘rin tutadi (3-rasm).

3-rasm. Tog‘larning o‘simliklar bilan qoplangan maydonining indeksi



Manba: O’zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo’mitasi

Qizil kitob indeksi (Indikator 15.5.1.1.) mamlakatdagi biologik turlar yo‘qolish xavfi darajasini baholaydi. 2015–2024 yillar oralig‘ida indeks qiymati 0,96–0,97 atrofida bo‘lib, nisbatan barqaror holat kuzatilgan. Bu O‘zbekistonda xavf ostidagi turlar sonining keskin oshmaganini, biologik xilma-xillikni saqlash borasida muayyan barqarorlik ta’minlanganini anglatadi. Indeksda o‘sish kuzatilmagani ayrim turlarni himoya qilish bo‘yicha qo‘shimcha choralar zarurligini ko‘rsatadi (4-rasm).

4-rasm. Tog‘larning o‘simliklar bilan qoplangan maydonining indeksi



Manba: O’zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo’mitasi

O‘zbekiston Milliy Qizil kitobida qayd etilgan hayvon turlari soni (Indikator 15.5.1.2.) 2015-yildagi 184 tadan 206 tagacha oshgan, o‘simlik turlari esa 324 tadan 314 tagacha kamaygan. Bu o‘zgarishlar ayrim o‘simlik turlarining tiklanayotganini, biroq hayvon turlarida xavf ostidagi turlar soni ortayotganini ko‘rsatadi. Mazkur

tendensiya yovvoyi hayvonlarni muhofaza qilish va ularning yashash muhitini yaxshilash bo‘yicha chora-tadbirlarni kuchaytirish zarurligini ta’kidlaydi (5-rasm).



Manba: O’zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo’mitasi

5-rasm. Milliy qizil kitobga kiritilgan biologik turlar soni

2015-yilda brakonerlik yoki noqonuniy savdoga jalb etilgan yovvoyi hayvonlar ulushi 1,2 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2020-yilda 3,1 foizgacha oshgan (Indikator 15.7.1.). Ammo 2023–2024 yillarda bu ko‘rsatkich keskin kamayib, 0,5 foizni tashkil etgan. Bu esa so‘nggi yillarda noqonuniy ovchilikka qarshi kurashish bo‘yicha olib borilayotgan huquqiy va ma’muriy chora-tadbirlarning samaradorligini ko‘rsatadi (6-rasm).

6-rasm. Brakonerlik yoki noqonuniy savdo obyekti bo‘lgan yovvoyi hayvonlarning ulushi



Manba: O’zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo’mitasi

2015-yilda atigi 4 ta bo‘lgan biologik xilma-xillikni hisobga oluvchi strategiya va dasturlar soni 2024-yilda 19 taga yetgan (Indikator 15.9.1.1.). Bu O‘zbekistonda ekologik siyosatning tizimli ravishda kengayib borayotganini, milliy, tarmoq va mintaqaviy darajada biologik resurslarni saqlash masalalari strategik rejalarga kiritilayotganini ko‘rsatadi (7-rasm).

7-rasm. Biologik xilma-xillik va ekotizimlarning ahamiyati va saqlanishini hisobga oladigan milliy, tarmoq, sektoral va mintaqaviy strategiyalar va dasturlarning soni



Manba: O’zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo’mitasi

2021-yildan boshlab biologik xilma-xillikni saqlash va ekotizimlardan oqilona foydalanish uchun davlat byudjetida ajratilayotgan mablag‘lar mavjud (Indikator 15.a.1.1.). 2021-yilda bu ulush 4,1 foizni, 2023-yilda 13,9 foizni, 2024-yilda esa 8,8 foizni tashkil etdi. Bu davr mobaynida ekologik xarajatlarning sezilarli oshgani O‘zbekistonning yashil iqtisodiyot siyosatini moliyaviy jihatdan mustahkamlab borayotganini ko‘rsatadi (8-rasm).

8-rasm. Biologik xilma-xillikni va ekotizimlarni saqlash va ulardan oqilona foydalanish uchun ajratiladigan davlat xarajatlarining davlat byudjeti umumiy xarajatlaridagi ulushi, foizda



Manba: O’zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo’mitasi

2015–2024 yillar davomida O‘zbekistonning biologik xilma-xillikni saqlash, o‘rmon resurslarini kengaytirish, va ekologik siyosatni kuchaytirish borasidagi sa’y-harakatlari ijobiy natijalar bermoqda. Muhofaza etiladigan hududlar ulushi ortgan, milliy ekologik strategiyalar soni esa bir necha barobarga oshgan. Bu holat mamlakatning **BRMning 15-maqsadi** doirasidagi majburiyatlarni izchil bajarib borayotganini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. BMTning Iqtisodiy masalalar bo‘yicha departamenti. BRM bo‘yicha 2025-yil hisoboti. Nyu-York, 2025. https://unstats.un.org/sdgs/report/2025/The-Sustainable-Development-Goals-Report-2025.pdf

2. IHTT. BRMga erishish uchun siyosat muvofiqligini ta’minlash: boshqaruv mexanizmlarini baholash. Parij, 2024. https://doi.org/10.1787/a1c8dbf8-en

3. O‘zR Vazirlar Mahkamasining 20.10.2018-yildagi 841-son qarori - https://lex.uz/docs/-4013356?ONDATE=19.06.2020

4. O‘zR Vazirlar Mahkamasining 21.02.2022-yildagi 83-son qarori - https://lex.uz/docs/-5870397#-5873213

5. O‘zR Milliy Statistika qo‘mitasining Milliy BRM yuritiladigan sayti - https://nsdg.stat.uz/

TADBIRKORLIK FAOLIYATINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH TIZIMIDA INNOVATSION TA’MINOTINING AHAMIYATI

Amonov Mehriddin Oromiddinovich
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

Annotatsiya. Maqolada tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish tizimida innovatsion ta’minotining ahamiyati haqida to’htalib o’tilgan. Unda innovatsion qo’llab-quvvatlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari, innovatsiyalar tuzilmasi kabi davlatning tadbirkorlikni tartibga solishdagi muhim vazifasilari tatqiq etilgan.

Kalit so’zlar: tadbirkorlik faoliyati, innovatsiya, tartibga solish, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar, davlat boshqaruvi.

Innovatsiyaning mohiyatini aniqlashning bir necha yondashuvlari mavjud:

1. Innovatsiya har qanday yangi elementlarni amaliyotga joriy etish jarayonidir.

2. Innovatsiya - bu yangi mahsulot ko’rinishidagi ijodiy natija.

Shaburishvili V.M. nuqtai nazaridan, innovatsiyalar bozor iqtisodiyoti

sharoitida talab etiladigan tadbirkorlikning elementar tarkibiy qismi hisoblanadi. Innovatsiyalarni joriy etish ijodiy jarayon bo'lib, innovatsiyalarning o'zi bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlikning "birlamchi resursi" hisoblanadi[10]. Milliy qonunchiligimizga ko'ra, "innovatsiya deganda fuqarolik muomalasiga kiritilgan yoki shaxsiy ehtiyojlar uchun foydalaniladigan, qo'llanilishi amaliyotda katta ijtimoiy-iqtisodiy samaraga erishishni ta'minlaydigan yangi ishlanma tushuniladi"[11].

Innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashning tashkiliy mexanizmlari ko'pgina xorijiy olimlar tomonidan o'rganilgan bo'lib, ulardan M.Porter innovatsion klasterlar va markazlarni yaratish masalasiga to'xtalib o'tgan. Ushbu tadqiqotlar tadqiqotchilar, kompaniyalar, olimlar va startaplar hamkorlik qilishi va fikr almashishi mumkin bo'lgan innovatsion klasterlar va texnologiya markazlarini yaratish muhimligini ta'kidlaganlar. Bunday tashkiliy tuzilmalar innovatsiyalar ekotizimini rivojlantirishga yordam beradi.

Universitetlar va ilmiy-tadqiqot institutlari bilan hamkorlik borasida tadqiqotlar akademik tadqiqotlarning biznes sektori bilan integratsiyalashuvi yangi texnologiyalar va innovatsion mahsulotlarni yaratishga yordam beradi. Bu turli mamlakatlar, jumladan, AQSh va Germaniya uchun mos keladi.

Innovatsion startaplarni yaratish borasidagi ilmiy tadqiqotlar mamlakatlar accelerator dasturlari, moliyalashtirish va yosh tadbirkorlar uchun infratuzilma orqali startaplarni faol qo'llab-quvvatlaydi.

Olib botilgan tadqiqotlar natijasida tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solishni innovatsion qo'llab-quvvatlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini ifodalovchi ko'rsatkichlarni tahlil qilindi va quyidagicha natija oldi:

1-jadval

Tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solishni innovatsion qo'llab-quvvatlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari[12]

[10] Шабуришвили М.В. Инновационная деятельность как реализация инновационного процесса в масштабах организации. Интернет портал «Корпоративный менеджмент». http://www.cfin.ru/bandurin/article/sbrn03/11.shtml .
[11] O'zbekiston Respublikasining 24.07.2020 yildagi O'RQ-630-son Qonuni.

[12] Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Innovatsiyalarni qo’llab-quvvatlashning tashkiliy mexanizmlari	**Innovatsiyalarni qo’llab-quvvatlashning iqtisodiy mexanizmlari**
Innovatsion klasterlar va platformalarni yaratish: hududiy klasterlar va innovatsion markazlarni rivojlantirishni qo’llab-quvvatlash.	Tadqiqot va ishlanmalar uchun grantlar va subsidiyalar: innovatsion loyihalar va startaplarni moliyaviy qo’llab-quvvatlash.
Innovatsion infratuzilmalarni qo’llab-quvvatlash: inkubatorlar, akseleratorlar, texnoparklar va innovatsion markazlarni yaratish va ularga xizmat ko’rsatish.	Innovatsion korxonalar uchun soliq imtiyozlari: tadqiqot va ishlanmalar bilan shug’ullanadigan kompaniyalar uchun soliq stavkalari pasaytirilgan.
Texnologiyalar transferini osonlashtirish: akademik va biznes sektorlari o’rtasida yangi texnologiyalar va bilimlarni uzatishni qo’llab-quvvatlash.	Innovatsiyalarga investitsiyalar: innovatsion tarmoqlar va loyihalarni rivojlantirish uchun moliyaviy resurslarni ajratish.
Innovatsion startaplar tizimini rivojlantirish: yangi korxonalar va startaplarni qo’llab-quvvatlash dasturlari va fondlarini yaratish.	Texnoparklar: texnologik korxonalar va tadqiqot laboratoriyalari uchun infratuzilmani yaratish va qo’llab-quvvatlash.
Akademik hamkorlik: Innovatsiyalarni rivojlantirish uchun universitetlar va tadqiqot tashkilotlari bilan hamkorlik qilish.	Kredit va moliyaviy vositalar: innovatsion kompaniyalar uchun kredit va investitsiyalardan foydalanishni ta’minlash.

Yuqorida keltirilgan tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solishni innovatsion qo'llab-quvvatlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlaridan ko'rinib turibdiki, innovatsion infratuzilma shakllantirilgandan so'ng ularni boshqaruv jarayoni innovatsion mexanizmlar orqali amalga oshiriladi.



1. Rasm. Innovatsiyalar tuzilmasi[13]

Mahsulot va xizmatlar innovatsiyasiga asoslangan foydaning o'sishi tashkilot foyda darajasining pasayishiga qarshi turadi.

V.P.Solovyev[14] o'z tadqiqotlarida innovatsion o'zgarishlar iqtisodiy tizimda iqtisodiy o'sishning ichki energiyasini shakllantirishinita'kidlagan.

[13] Валисьева В.П. Государственное регулирование экономики (схемы и статистика): Учеб.-метод. пособие / 2-е изд., перераб. и доп. – М.: ИКЦ «ДИС», 2008. – 144 с. materiallari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan

[14] Соловьев В.П. Инновационная деятельность как системный процесс в конкурентной экономике (Синергетические эффекты инноваций). – Киев: Феникс, 2006. – 560 с.

Innovatsion ishlanmalar bo’yicha aniq siyosat yuritish ma’lumot to’plash va takliflar ishlab chiqarishga yo’nalish belgilab beradi, bu esa o’z navbatida yangi imkoniyatlarni tinimsiz izlashga olib keladi va ushbu faoliyatni yurituvchi guruhlar uchun motivatsiya yaratadi.

Davlatning tadbirkorlikni tartibga solishdagi muhim vazifasi ular bilan aniq maqsadli ishlashni hamda yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etish bo’yicha barqaror muloqotni tashkil etish orqali ular faoliyatini rivojlantirish va buning natijasida xududdagi makroiqtisodiy hamda ijtimoiy ko’rsatkichlarni yuqori darajaga olib chiqishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kushlin V.I. Gosudarstvennoe regulirovanie rынochnoy ekonomiki: Uchebnik. Izd. 3-ye, dop. i pererab. – M.: «RAGS», 2014. – 616 s.
2. Rasulov N.M., Zaynutdinov Sh.N. Innovatsion menejment (Darslik). –T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2020, - 540 b.
3. Gafurov U.V. Kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish. Dissertatsiya, – T., 2017, – 138 b.
4. Amonov M.O. Tadbirkorlik faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish va qo‘llab-quvvatlash tizimini rivojlantirish. Dissertatsiya i.f.f.d., - T., 2024. – 142 b.
5. Bagiev G.L., 4. Amonov M.O. Osnovnыe napravleniya innovatsionnogo obespecheniya predprinimatelskoy deyatelnosti Problemы sovremennoy ekonomiki. Yevraziyskiy mejdunarodnыy nauchno-analiticheskiy jurnal, Sankt-Peterburg, 2012. - № 2 (42). s 156-159.

EKOLOGIK MUAMMOLARNING SALOMATLIKKA TA’SIRI

Ahmadjonova Ra’noxon Qahramonjon qizi
Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti talabasi
ahmadjonovaranoxon6@gmail.com
Ilmiy rahbar: Azimova Mayram Kurbanovna
Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti
dotsenti
mayram.azimova@mail.ru

Annotatsiya. Zamonaviy dunyoda ekologik muammolar tobora chuqurlashib borayotgani inson salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ushbu maqolada havo, suv va tuproqning ifloslanishi kabi ekologik omillar natijasida yuzaga keladigan turli xil sog‘liq muammolari, jumladan nafas yo‘llari kasalliklari, allergik reaksiyalar va surunkali kasalliklar ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, maqolada ekologik xavflarni kamaytirish va atrof-muhitni muhofaza qilish orqali salomatlikni yaxshilash bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so’zlar: ekologik muammolar, salomatlik, atrof-muhit ifloslanishi, havo ifloslanishi, suv ifloslanishi, tuproq ifloslanishi, nafas yo‘llari kasalliklari, allergiyalar, sanoat chiqindilari, surunkali kasalliklar, ekologik xavflar, atrof-muhitni muhofaza qilish.

Asosiy qism

Bugungi kunda dunyo yuzasida ekologik muammolar tobora keskinlashib bormoqda. Sanoat inqilobi, shaharsozlik va aholi sonining oshishi natijasida atrof-muhitning ifloslanishi, tabiiy resurslarning kamayishi kabi muammolar jiddiy ekologik tahdidlarni yuzaga keltirmoqda. Ushbu muammolar inson hayoti va salomatligiga bevosita ta’sir qilmoqda. Havo, suv va tuproqning ifloslanishi inson organizmiga zarar yetkazib, turli kasalliklar, jumladan, nafas yo‘llari kasalliklari, allergiyalar, hatto saraton kabi surunkali kasalliklarning ko‘payishiga sabab bo‘lmoqda.

Shu bois, ekologik muammolar va ularning inson salomatligiga ta’sirini chuqur o‘rganish va shu yo‘nalishda samarali choralar ko‘rish dolzarb masalalardan biri

hisoblanadi. Maqolamda ekologik ifloslanishning asosiy turlari, ularning salomatlikka ta’siri, shuningdek, ekologik muammolarni kamaytirish va sog‘lom hayotni ta’minlash yo‘llari haqida so‘z yuritiladi.

Atrof-muhitning holatini yaxshilash orqali inson salomatligini saqlash va yaxshilash mumkinligi haqida kengroq fikr yuritib, ekologik ongni oshirish va barqaror rivojlanishga erishish muhimligini ta’kidlamoqchiman. Ushbu maqola o‘quvchilarga ekologik muammolar va ularning salomatlikka ta’siri haqida kengroq tushuncha berishga hamda ularni oldini olish uchun qanday choralar ko‘rish mumkinligi to‘g‘risida amaliy tavsiyalar berishga xizmat qiladi.

Ekologik muammolar inson salomatligiga bevosita va bilvosita ta’sir qiladi. Xususan, havo, suv va tuproqning ifloslanishi nafas yo‘llari, yurak-qon tomir tizimi, ovqat hazm qilish va boshqa muhim hayotiy tizimlarga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Havo ifloslanishi ayniqsa yirik shaharlar va sanoat markazlarida yashovchi aholining sog‘lig‘i uchun asosiy xavf omili hisoblanadi. Bu bronxit, astma, yurak xurujlari va hatto o‘lim ko‘rsatkichlarini oshiradi. Iqlim o‘zgarishi infeksion kasalliklarning tarqalish doirasini kengaytirib, epidemiologik holatni murakkablashtirmoqda. Issiq iqlim, yog‘ingarchilikning o‘zgarishi va tabiiy ofatlar xavfi aholining umumiy salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Suv resurslarining sifat jihatdan yomonlashuvi ichak infeksiyalari, gepatit, diareya kabi kasalliklarning ko‘payishiga olib kelmoqda. Ayniqsa, ichimlik suvi bilan ta’minotdagi muammolar bolalar o‘limi va sog‘liq muammolarini kuchaytirmoqda. Tuproq degradatsiyasi oziq-ovqat xavfsizligi va sifatiga ta’sir etib, toksik moddalarning inson organizmiga tushish xavfini oshirmoqda. Bu esa surunkali zaharlanish, saraton, reproduktiv muammolar kabi salomatlik muammolariga olib kelmoqda. Ekologik stress va ekologik xavotir insonlarning ruhiy holatiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda, ayniqsa yoshlar va bolalar orasida. Bu holat depressiya, xavotirlik buzilishlari va umidsizlik kabi psixologik muammolarni kuchaytiradi.

Bugungi kunda ekologik muammolar faqat atrof-muhitni emas, balki bevosita inson salomatligini xavf ostiga qo‘ymoqda. Yurtimiz va butun dunyo miqyosida kuzatilayotgan havo ifloslanishi, suv tanqisligi, tuproq degradatsiyasi, chiqindilarni

noto‘g‘ri boshqarish, iqlim o‘zgarishi kabi ekologik muammolar sog‘liq bilan bog‘liq muammolarning kuchayishiga olib kelmoqda. Amaliy holatlarni tahlil qilar ekanmiz, sanoat korxonalari joylashgan hududlarda nafas olish yo‘llari kasalliklari, yurak-qon tomir kasalliklari, hatto onkologik kasalliklarning ko‘paygani kuzatilmoqda. Masalan, Toshkent, Olmaliq, Chirchiq kabi sanoat shaharlarida aholi orasida bronxial astma, allergik reaksiyalar va surunkali bronxit holatlari nisbatan yuqoriligi statistik ma’lumotlar bilan isbotlangan.

Qishloq xo‘jaligida pestitsid va kimyoviy o‘g‘itlarning ortiqcha ishlatilishi tuproq va suv resurslarini zaharlamoqda. Bu esa oziq-ovqat mahsulotlari tarkibida zararli moddalarning paydo bo‘lishiga olib kelmoqda. Natijada, insonlarda surunkali zaharlanish, jigar, buyrak kasalliklari va reproduktiv salomatlik muammolari ortmoqda. Ayniqsa, aholi orasida bolalar va homilador ayollar bu xavflarga nisbatan sezuvchanroq guruh hisoblanadi.

Iqlim o‘zgarishi fonida qurg‘oqchilik, kuchli issiq to‘lqinlari va tabiiy ofatlar ko‘paygan. Bu esa aholining umumiy stress holatini kuchaytirib, psixologik salomatlikka ham salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. So‘nggi yillarda “ekologik xavotir” (eco-anxiety) tushunchasi keng tarqalmoqda — ayniqsa yoshlar va kelajak haqida qayg‘urayotgan aholida.

Suv tanqisligi va suv ifloslanishi O‘zbekistonning ko‘plab hududlarida, xususan Qoraqalpog‘iston, Buxoro, Navoiy kabi joylarda ichimlik suvi sifatining yomonlashuvi bilan birga turli ichak infektsiyalari, teri kasalliklari va boshqa sanitariya muammolariga sabab bo‘lmoqda.

Shu asosda aytish mumkinki, ekologik muammolar va salomatlik o‘rtasidagi bog‘liqlik hozirgi kunda nafaqat ilmiy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb masalaga aylangan. Inson salomatligini muhofaza qilish uchun ekologik xavflarni kamaytirish, atrof-muhitni muhofaza qilish, yashash joylarining sanitariya holatini yaxshilash, toza suv va havo bilan ta’minlash eng muhim vazifalardandir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. World Health Organization (WHO). Air Pollution and Reproductive Health. Geneva, 2019.
2. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi. SanPiN — Atmosfera havosi gigiyenik me’yorlari. Toshkent, 2020.
3. United Nations Environment Programme (UNEP). Global Environmental Outlook. Nairobi, 2019.
4. Sanders AP, Claus Henn B, Wright RO. Perinatal and Childhood Exposure to Environmental Chemicals and Reproductive Outcomes. Environmental Health Perspectives, 2015.
5. Xu X, Ha S, Basnet R. Air Pollution and Adverse Reproductive Outcomes: A Systematic Review. Int J Environ Res Public Health, 2016.

EFFICIENT USE OF WATER RESOURCES IS THE KEY TO ENSURING SUSTAINABLE DEVELOPMENT

Muhammadjonov Azizbek Davoronjon o‘g‘li
Institute for Macroeconomics and Regional studies under Cabinet of Ministers of Uzbekistan,
leading specialist of “Strategical planning of regional development”
azizbekmukhammadjonov907@gmail.com

Annotation. *Rational use of water resources is a decisive factor for achieving sustainable development in Uzbekistan. Due to the country’s dry climate, dominance of irrigated agriculture, and limited freshwater reserves, water scarcity has become one of the key challenges affecting economic stability and environmental security. The article analyzes the current state of water resources, identifies key inefficiencies in water use, and explores the potential for water savings through modern irrigation technologies. The results indicate that optimizing water management can contribute significantly to the country’s socio-economic resilience and ecological balance.*

Keywords. *Water resources, sustainable development, irrigation efficiency, water deficit, transboundary rivers, agricultural water use, water-saving technologies, drip irrigation, sprinkler irrigation, drainage systems, water losses, pumping stations, water management reform, water-use intensity (m³ per $1,000 GDP), water governance, regional water cooperation, climate change adaptation, water scarcity, groundwater management, and digital water monitoring.*

Introduction

Rational use of water resources plays a crucial role in ensuring sustainable development in Uzbekistan, given the country's climatic conditions, predominance of irrigated agriculture, and limited freshwater reserves. The average annual quantity of water used in Uzbekistan is 51-53 billion m^3, of which 80% (approx. 41 km^3/year) is got from transboundary rivers - primarily the Amu Darya and Syr Darya. The estimated natural fresh and brackish groundwater deposits potentially yield 27.6 km^3/year; however, they are unevenly distributed throughout the country. The water demand is met through a combination of surface water (50.9 km^3/year), usable groundwater (0.5 km^3/year), and the reused collector and drainage water (1.6 km^3/year). The average water use by sector is as follows: 90-91% – agriculture; 4.5% – municipal sector; 1.4% – industry; 1.2% – fisheries; 0.5% – thermal power; 1% – other sectors.[15] According to national statistics, the total volume of available water resources in Uzbekistan amounted to 45.9 billion m³ in 2023, two-thirds of which are formed by transboundary rivers.

The water deficit reached 28% of the long-term average water intake limit in 2023 and up to 70% during the vegetation period. The official average annual water intake limit for Uzbekistan is 64 billion m³, as outlined in the "Water Management Development Concept for 2020–2030."

Given the rapid demographic growth, water shortages could lead to ecosystem degradation, reduced agricultural and industrial output, loss of tourism potential, higher food prices, deteriorating public health, and migration pressures. As of recent

[15] https://cawater-info.net/yearbook/2023/05_yearbook2023_uz_en.htm

years, annual water availability per capita has fallen to 1,249 m³, placing Uzbekistan among countries with insufficient water resources (classified as 1,000–1,700 m³ per capita by international standards).

Methods

A comparative analysis was conducted using AQUASTAT (FAO), World Bank data for Central Asian countries – Uzbekistan, Kazakhstan, Kyrgyzstan, Tajikistan, and Turkmenistan. Indicators include total annual freshwater withdrawal (m³), the share of agricultural water use (%), and water use intensity (m³ per $1,000 GDP). Data for 2020–2022 were analyzed to identify relative efficiency and water stress levels among Central Asian countries.

Results



Between 2015 and 2022, agricultural water use remained the dominant component of total freshwater withdrawals across all Central Asian countries, although trends varied slightly among them. On average, around 82–86% of total water withdrawals in Central Asia were used for irrigation, significantly exceeding the global average of 70%. This highlights the region's high dependence on irrigated agriculture and water-intensive crop production systems.

Uzbekistan, Turkmenistan, and Kyrgyz Republic consistently maintained extremely high agricultural water use rates — above 90% during the entire period. This indicates that the agricultural sector continues to dominate water consumption,

reflecting both the structural importance of agriculture and the relatively low efficiency of water use technologies in these countries.

In contrast, Kazakhstan demonstrates a much lower share (declining from 61% in 2015 to 57% in 2022), reflecting its more diversified economy, less dependence on irrigated farming, and greater development of industrial and service sectors. Tajikistan showed moderate fluctuations (from 88% in 2015 to around 75% in 2022), possibly due to changes in irrigation infrastructure, modernization programs, and varying hydrological conditions.

At the regional level, the average share of agricultural water use declined from about 86% in 2015 to 82% in 2022, suggesting a slight improvement in water allocation efficiency and growing awareness of the need to optimize water management across sectors. Nevertheless, the region remains far above the global average, which emphasizes the urgency of adopting water-saving irrigation technologies, reducing conveyance losses, and diversifying water use patterns to support long-term sustainability.

Uzbekistan's water sector faces a growing imbalance between water demand and available resources. As of 2023, the country's total renewable water resources amounted to 45.9 billion m^3, with nearly two-thirds (≈66%) formed outside its territory, primarily through transboundary rivers - the Amu Darya and Syr Darya. Water use in the national economy remains highly uneven, with 87% of total withdrawals consumed by the agricultural sector.

The water deficit reached 28% of the long-term average intake limit in 2023 and as high as 70% during the vegetation period, indicating severe seasonal stress. The national water intake limit stands at 64 billion m^3 per year, but projections suggest that by 2050 available water volumes may fall to 38 billion m^3, widening the resource deficit to 40%.

Annual per capita water availability has declined to 1,249 m^3, placing Uzbekistan among water-stressed countries by international standards (1,000–1,700 m^3 per capita). Demographic growth, urbanization, and climate change are expected to

further reduce this figure to 730 m^3 per person, pushing the country toward the category of water-deficit nations.

Water losses remain critically high-exceeding 30% (≈15 billion m^3) overall, and up to 44% in irrigation, largely due to deteriorated canals and inefficient practices. Nearly 70% of pumping stations are over 30 years old and technically outdated, while large portions of irrigation networks are unlined, leading to filtration losses and rising groundwater levels. As a result, extensive soil salinization has been observed, particularly in Karakalpakstan, Khorezm, Surkhandarya, Jizzakh, and Kashkadarya regions, where agriculture dominates.

If water losses are reduced from 30% to 15%, Uzbekistan could save $2.5–3 billion annually, which would substantially improve national water security and economic resilience. However, despite a 43% reduction in GDP water intensity (to 505.7 m^3 per $1,000 GDP) during 2019–2023, Uzbekistan remains among the world's highest water consumers-using 25% more water than the country's renewable supply.

Conclusion. The research confirms that Uzbekistan's water management system is approaching a critical threshold, where the combination of physical scarcity, institutional inefficiency, and demographic pressure could jeopardize long-term socio-economic stability. Despite the government's ongoing reforms and the implementation of the Water Management Development Concept (2020–2030), the scale of challenges remains immense. The country's dependence on transboundary water resources (around two-thirds of total supply) and the predominance of irrigated agriculture (87% of total water use) make Uzbekistan particularly vulnerable to both external and internal risks. The ongoing degradation of irrigation infrastructure, where more than 70% of pumping stations have exceeded their service life and over 40% of irrigation water is lost before reaching fields, is leading to a gradual decline in agricultural productivity and ecological balance. Reducing these losses and increasing the efficiency of irrigation systems must therefore become a strategic priority for ensuring water security and economic resilience. Transitioning to modern, water-saving technologies — such as drip and sprinkler irrigation — can play a decisive role. These methods not only cut water consumption

by up to 40%, but also improve crop yields and soil fertility, especially in arid regions like Kashkadarya, Surkhandarya, Jizzakh, and Karakalpakstan. Equally important is the modernization of the drainage network, as waterlogging and salinization threaten over 50% of irrigated lands, undermining decades of agricultural investment. Systematic maintenance of drainage systems, coupled with improved land reclamation practices, would help restore the ecological functions of the soil and enhance long-term sustainability. Raising water literacy among farmers, youth, and local communities can foster a culture of conservation, where every cubic meter of water is treated as a valuable economic and environmental asset. In conclusion, achieving sustainable water management in Uzbekistan requires a comprehensive, multi-level approach that integrates technological modernization, institutional reform, and regional cooperation. Rational and efficient use of water resources is not merely an environmental objective — it is a fundamental condition for economic growth, food security, and the well-being of future generations. If the recommended measures are implemented effectively, Uzbekistan could transform its water sector from a source of vulnerability into a foundation of sustainable development.

Sources:

1. **Food and Agriculture Organization (FAO)** *(2023). AQUASTAT Database: Water Use and Irrigation in Central Asia. Rome: FAO. Available at: https://www.fao.org/aquastat/en/*
2. **World Bank** *(2023). Annual Freshwater Withdrawals and Agricultural Water Use Indicators. Washington, D.C. Available at: https://data.worldbank.org/indicator/ER.H2O.FWAG.ZS.*
3. **Ministry of Water Resources of the Republic of Uzbekistan** *(2023). Annual Report on the State of Water Use and Management in Uzbekistan, 2020–2023. Tashkent. (pp. 4–15).*
4. **Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan** *(2020). Concept for the Development of the Water Management System of Uzbekistan for 2020–2030.*

Resolution No. 252, April 10, 2020. [Lex.uz document ID: 4789621](pp. 2–6).

5. **United Nations Development Programme (UNDP)** *(2022). Water Resources and Climate Resilience in Central Asia. New York: UNDP Regional Bureau for Europe and CIS. (pp. 18–25).*
6. **Asian Development Bank (ADB)** *(2021). Water Security Assessment for Central Asia: Uzbekistan Country Report. Manila: ADB Publications. (pp. 10–22).*
7. **State Committee of the Republic of Uzbekistan on Statistics (UzStat)** *(2023). Environmental Statistics of the Republic of Uzbekistan (2020–2023). Tashkent.*

V SHO`BA

Yashil iqtisodiyot sharoitida kambag‘allikni qisqartirish va inson kapitalini rivojlantirish masalalari





КАМБАҒАЛЛИКНИ ҚИСҚАРТИРИШ ВА ИНСОН КАПИТАЛИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА КАМ ТАЪМИНЛАНГАН ОИЛАЛАРНИ ДОРИ ДАРМОН БИЛАН ТАЪМИНЛАШНИНГ РОЛИ
(ИЖТИМОИЙ ТАДҚИҚОТ НАТИЖАЛАРИ)

Махкамова Шахло Юлчиевна, и.ф.н. (PhD),
Бекназарова Шахноза Шербек қизи
«Shayana Farm» MChJ, менежер,
Исмаилова Фарангиз Сирожиддин қизи
Тошкент тиббиёт академияси, магистрант
Электрон почта: shmahkamova@mail.ru

Аннотация. Кам таъминланган аҳоли ўртасида дори-дармон таъминоти бўйича ижтимоий тадқиқот ўтказилиб, зарур таклифлар ишлаб чиқилганлиги баён этилган.

Калит сўзлар: соғлик, харажат, поликлиника, шифокор, вакцина, сувчечак, гепатит А.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида” фармонида аҳолининг дори-дармон билан таъминланиш имкониятларини ошириш белгилаб берилган [1]. Кам таъминланган оилаларнинг дори-дармонларга бўлган харажатларини ўрганиш ва зарур чора-тадбирлар ишлаб чиқиш мақсадида ушбу ижтимоий тадқиқотда 1,2 мингдан ортиқ респондент қатнашган бўлиб, кам таъминланган оилаларнинг дори-дармонларга бўлган харажатларини ўрганиш ва зарур чоралар ишлаб чиқиш учун етарлидир.

Сўровномада иштирок этган респондентлар соғлиғини яхшилаш учун 68,29%-оилавий поликлиникага, 29,90%-шаҳар/туман марказий кўп тармоқли поликлиникага, 12,36%-уйда даволанаман; 11,45%-давлат шаҳар/туман марказий шифохонасига; 9,06%-тез тиббий ёрдам, 7,58%-хусусий клиникага, шифохона, лабораторияга; 4,94%-вилоят марказидаги тиббиёт муассасасига, 4,86%-стоматология; 3,05%-Республика давлат шифохонасига; 2,47%-поликлиниканинг кундузги стационарига; 1,40%-табиб, 0,91%-диспансерга;

0,82%-хориждаги тиббиёт муассасаларига; 0,58%-репродуктив саломат марказига; 0,58%-бошқаларга мурожаат этишларини билдиришган [5].

Сўровномада иштирок этган респондентларнинг дори-дармонга бўлган харажатларини ўрганиш бўйича қўшимча фикр ва таклифлар рейтинги қуйидагича бўлди (1-расм):

1. Хаммаси қоникарли/бошқа сабаблар - 81,00%. Мазкур натижа соҳага оид ислоҳотлар ва тартибга солиш механизмларининг самарадорлигидан далолат беради. Шу муносабат билан, мавжуд тизимни сақлаб қолган ҳолда, унинг барқарорлигини таъминлаш, такомиллаштириш муҳим аҳамият касб этади.

2. Республика аҳолиси учун дори-дармон воситаларининг нархларини арзонлаштириш мақсадида самарали иқтисодий механизмларни жорий этиш лозим - 6,09%. Ушбу таклиф аҳоли фаровонлигини ошириш, инсон капиталини ривожлантириш ва ижтимоий тенгликни таъминлаш нуқтаи назаридан муҳим саналади. Иқтисодий механизмларнинг жорий этилиши дори воситалари бозорида рақобатни кучайтириш ва нархларни оптималлаштиришга хизмат қилади.

3. Керакли ва асосий дори воситаларини жамоатчилик учун бепул етказиб бериш тизимини шакллантириш зарур - 5,02%. Бу таклиф давлат томонидан мақсадли ижтимоий дастурларни амалга ошириш эҳтиёжини кўрсатади.

4. Хусусий дори-дармон таъминоти субъектлари (фирмалар) томонидан сотилаётган дори воситаларининг асоссиз қиммат нархларини камайтириш юзасидан аниқ чоралар кўриш зарур - 3,58%. Асоссиз нархлар фармацевтика бозорида шаффофлик ва адолатли рақобатнинг таъминланмаганлигидан далолат беради. Шу сабабли, соҳага оид назорат ва тартибга солувчи органлар томонидан қонунчилик механизмларини кучайтириш талаб этилади.

5. Республика ҳудудидаги барча дорихоналарда дори-дармон воситаларининг нархларини ягона тартибда белгилаш чора-тадбирлари амалга оширилиши лозим - 2,51%. Нархларнинг марказлашган тарзда белгиланиши

аҳоли учун барқарор ва тенг имкониятли шароит яратишда муҳим аҳамиятга эга.

6. Айрим зарур дори-дармонлар топилмаяпти, дефицит муаммосини бартараф этиш лозим - 1,79%. Дори воситаларининг етишмаслиги тиббий хизмат кўрсатиш сифатини пасайтиради ва аҳолининг саломатлигига салбий таъсир кўрсатади. Бу муаммо логистика, маҳаллий дори-дармон ишлаб чиқаришни қўллаб-қувватлаш ва импорт механизмларини такомиллаштириш орқали ҳал этилиши мумкин.



1-расм. Кам таъминланган оилаларнинг дори дармон бўйича фикрлари, таклифлари (социологик тадқиқотлар натижалари, 2025 й.), %.

Кафолатланган давлат тиббий хизматидан фойдаланиш - камбағал оилаларнинг ҳар бир аъзоси бир йилда бир марта тўлиқ тиббий кўрикдан ўтиши, оиланинг тиббий хизматларга ўз ҳисобидан сарфлайдиган харажатларини икки баробар қисқартириш [2] каби аниқ вазифалар "Камбағалликдан фаровонлик сари" дастурида бегиланган. Камбағаллик

асосий сабабларидан бири саломатликдир. Кам таъминланган оилалар соғлиғи учун сарфлайдиган харажатларининг асосий қисми (86,41%) дори-дармон учундир [5].

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 19.06.2025 йилдаги 382-сонли қарорига мувофиқ, Кафолатланган пакет тиббий ёрдам [3] нинг қуйидаги турлари бўйича умумий аҳоли учун шакллантирилган: шошилинч тиббий ёрдам; режали тиббий (шу жумладан, бирламчи тиббий-санитария) ёрдам; паллиатив тиббий ёрдам [4]. Ушбу тиббий пакетларга қўшимча равишда кам таъминланган оилалар аъзоларига давлат томонидан бепул тақдим этиш тиббий пакетлар хизматига қуйидагиларни киритиш тавсия этилади:

1. Гепатит А вирусига қарши эмлашни кам таъминланган оилалар фарзандлари учун давлат бюджети ҳисобидан (мактабгача таълим муассасасига боришдан олдин) тўлиқ эмлашни амалга ошириш мақсадга мувофиқ. Бугунги кунда берилаётган вакцина миқдори етарли эмас. Ушбу тавсияни биз томонимиздан 2025 йил апрель-июнь ойларида 0-16 ёшгача болаларга вакцина қилиниши бўйича 2,5 минг респондент орасида ўтказилган социологик тадқиқот натижалари [6] ҳамда мутахассис эксперт (оилавий поликлиника раҳбарлари, шифокор, лаборант)лар ҳам тасдиқлашган.

2. Қуйидаги қон таҳлилларини амалга ошириш оилавий поликлиникаларда мавжуд эмаслиги аниқланганлиги ва мутаҳассислар билан интервью натижасида қуйидагилар киритилиши мақсадга мувофиқ: 1) Витамин D даражасини аниқлаш қон таҳлилини жорий этиш. 2) Юрак-қон томир касалликларини аниқлашда муҳим ўрин тутадиган коагулограмма қон таҳлилини амалга ошириш.

3. Сурункали касалликлар учун дори-дармон таъминотини институционаллаштириш. Аҳолининг 30,23%ида сурункали касалликлар мавжудлиги, 22,57 %ида эса қимматбаҳо дори воситаларига эҳтиёж борлиги аниқланган. Бу ҳолатни инобатга олган ҳолда, ҳар бир маҳалла ва туман даражасида сурункали касалларга эга оилалар учун алоҳида электрон рўйхат

юритилиши ва уларнинг мунтазам дори таъминоти давлат кафолати остида амалга оширилиши зарур. Бу тизимни маҳалла шифокорлари ва оилавий поликлиникалар орқали, шунингдек, реабилитация марказларини ташкил этиш билан амалга ошириш мумкин.

4. Сувчечакка қарши вакцинани ҳам давлат тиббий суғуртаси доирасида поликлиникаларда 0-16 ёшгача болаларга бепул эмлашни ташкил қилиш.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сонли “2022 - 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида” фармони https://lex.uz/docs/5841063

2. Камбағалликни қисқартириш ва аҳоли турмуш фаровонлигини ошириш янги босқичга олиб чиқилади https://uza.uz/uz/posts/kambagallikni-qisqartirish-va-aholi-turmush-farovonligini-oshirish-yangi-bosqichga-olib-chiqiladi_638733

3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 19.06.2025 йилдаги 382-сонли “Бирламчи тиббий-санитария ёрдами муассасаларида Ўзбекистон Республикаси Давлат бюджети ҳисобидан қопланадиган тиббий ёрдамнинг кафолатланган ҳажмларини тасдиқлаш тўғрисида” қарори https://lex.uz/docs/7583058

4. Паллиатив тиббий ёрдам (лотинча “pallium” – ўраш, французча “plash” – ёпмоқ маъносини англатади) маълум тоифали оғир аҳволдаги беморларга ... ижтимоий-тиббий кўмак ҳисобланади.

5. Кам таъминланган оилаларнинг дори-дармонларга бўлган харажатларини ўрганиш (социологик тадқиқот натижалари, 2025 йил апрел-июль): Таҳлилий ҳисобот (2025 йил, апрель-июль) / Ш.Махкамова – PhD (и.ф.н) умумий таҳрири остида. Тошкент: БСИТИ, 2025. -43 б.

6. Ўзбекистонда олиб борилаётган юқумли касалликларга қарши вакцинация натижаларини ўрганиш (социологик тадқиқот натижалари, 2025 йил апрель-май): Таҳлилий ҳисобот / Ш.Махкамова – PhD (и.ф.н) умумий таҳрири остида. Тошкент: БСИТИ, 2025. -40 б.

ИНСОН КАПИТАЛИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ВАКЦИНАЦИЯ АҲАМИЯТИ (СОЦИОЛОГИК ТАДҚИҚОТ НАТИЖАЛАРИ**)**

Махкамова Шахло Юлчиевна, и.ф.н. (PhD),
Бекназарова Шахноза Шербек қизи
«Shayana Farm» MChJ, менежер,
Исмаилова Фарангиз Сирожиддин қизи
Тошкент тиббиёт академияси, магистрант
Электрон почта: shmahkamova@mail.ru

Аннотация: 0–16 ёшдаги болалар учун давлат томонидан бепул тақдим этилаётган вакцинация дастурининг ижтимоий қабул қилиниши, амалга оширилиш ҳолатини таҳлил қилиш орқали вакцинация тизими самарадорлигини ошириш, соғлиқни сақлаш орқали инсон капиталини ривожлантириш учун таклифлар ишлаб чиқилгани баён этилган.

Калит сўзлар: врач, ҳамшира, юқумли касаллик, иситма, эмлаш, хабардорлик, тиббий хизмат.

2025 йил 30 январдаги ПФ-16 сонли Ўзбекистон Республикаси Президентининг 13-мақсад “Аҳолининг ўртача умр давомийлигини ошириш” бандида акс этган “Бошқарилувчи юқумли касалликлар бўйича эпидемиологик барқарорликни таъминлаш мақсадида профилактик эмлаш тадбирларини изчил амалга ошириш, 5,6 млн нафар болани 13 турдаги вакцина билан бошқарилувчи юқумли касалликларга қарши эмлаш” тўғрисида аниқ вазифа манфаатдор вазирлик ва идораларга берилган [1].

Белгиланган вазифалар ижросини таъминлаш мақсадида Иқтисодиёт ва молия вазирлиги ҳузуридаги Бюджет-солиқ илмий тадқиқотлари институти (БСИТИ) республика миқёсида 2,5 минг респондент ўртасида ижтимоий сўровнома ўтказган. Респондентларнинг 97,5% вакциналарга ижобий муносабатда эканини билдиришган. Вакцинацияга салбий муносабат билдирган 2,5% респондентлар асосан вакцинанинг сифатидан, сақлаш шароитидан, тиббий хизмат кўрсатишдаги камчиликлардан норозилигини, вакциналарнинг организмга салбий таъсири бўйича хавотирларини қайд

этишган, аммо, ушбу хавотирларнинг аксар қисми илмий асосга эга эмаслигини ўрганилган хориж тажрибаси кўрсатди.

Вакцина муддати келганини 83,2% респондентлар –“доимий равишда ҳамшира томонидан огоҳлантириламан”, 10,1% -“менда эмлаш жадвали бор унга амал қиламан”, 2,7% -“поликлиникадан ўзим сўраб тураман”, 0,4% - “қариндош ва қўшнилар орқали биламан” ва 3,6% - “бошқа сабаблар” деб белгилашган. Болаларни юқумли касалликларга қарши эмлаш жараёнларидан хабардорлик даражаси эркакларда аёлларга нисбатан кам бўлиб, бу борада ишлар олиб борилиши кераклигини тақозо этади.

Вакцинация жараёнидаги асосий тўсиқлар сифатида поликлиникадаги навбатлар, эмлаш жараёни пухта ташкил қилинмаганлиги, соғлом ва касалланган аҳоли бир жойда бўлиши, баъзи ҳолларда вакцинанинг мавжуд эмаслиги ва тиббий ходимлардан етарли тарғиботнинг йўқлиги белгиланган. Ички меҳнат мигрантларининг таъсири натижасида маҳаллада кўпайиб кетган аҳоли ҳисобга олинмаслиги, бу оилаларнинг вакцинадан хабардорлик даражасини пасайтириши, рақамлаштириш даражасининг етарли эмаслиги каби муаммолар аниқланди.

Вакцинациядан кейин 73,1% респондент иситма, оғриқ, инжиқлик каби енгил симптомлар кузатилганини билдиришган. Бу ҳолатлар ЖССТ маълумотларига кўра табиий ва даволаш талаб этмайдиган реакциялар ҳисобланади. Фарзандларга вакциналар асосан олиниши - 80-90%, бўлиб, “Бачадон бўйни саратонига қарши режали вакцинация (14-16 ёш)” - 55,1%. Вакцинация натижасида касалликни енгил ўтиши тўғрисида ота-оналарга, айниқса, оталарга тушунтириш бериш муҳимлиги маълум бўлди (жадвал)

Жадвал

“Фарзандларингизга қуйидаги давлат томонидан бепул таъминланадиган 13 турдаги вакциналарни қилдирганмисиз?”

(социологик тадқиқотлар натижалари, 2025 й.апрель-май), %

Вакцина тури (0-16 ёш учун)	**Ҳа**	**Йўқ**	**Билмайман**
Бўғма (дифтерия) 16 ёшгача	84,8	5,6	9,6
Кўкйўтал (16 ойлик давргача)	87,4	4,1	8,5
Қоқшол 16 ёшгача	84,1	6,5	9,4
Сил 15 ёшгача	82,6	8,2	9,3
Вирусли гепатит В (4 ойлик давргача)	89,4	4,4	6,3
Эпидемик паротит (12 ой-6 ёш)	84,8	4,6	10,5
Полиомиэлит (7 ёшгача)	87,9	4,4	7,7
Қизамиқ (12 ой-6 ёш)	91,9	3,1	5
Қизилча (12 ой-6 ёш)	89,9	3,6	6,5
Ротавирус (2, 3,4 ойликда)	84,9	5,5	9,6
Пневмококк (2, 3, 12 ойликда)	86,7	4,6	8,7
Гемофилиус инфлюенса тип Б (ХИБ) инфекцияси (2-3 ойликда)	82,4	5,4	12,2
Бачадон бўйни саратонига қарши режали вакцинация (14-16 ёш)	55,1	33,4	11,5

Манба: БСИТИ ижтимоий тадқиқотлари асосида тайёрланди.

Тадқиқот натижасида қуйидаги таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилди:

1. Ўзбекистонда ҳам рақамли платформа орқали аҳолини вакцинация муддати келгани тўғрисида огоҳлантиришни кенгайтириш тавсия этилади. Бунда электрон иммунизация реестрларини жорий этиш ва SMS/онлайн эслатма электрон тизимларини йўлга қўйиш (Буюк Британия, АҚШ, Ҳиндистон ва бошқа мамлакатлар тажрибаси).

2. Бутун республика миқёсида вакцинацияга тегишли барча маълумотлар акс этадиган электрон база ташкил этиш. Вакцинация жадвалига мувофиқ барча эмлашлар электрон базада статистик кўрсаткичлари очиқ акс этиб борилса, вакцинага ишонч ортади, ҳамширалар ҳам ҳар бир фуқаро билан индивидуал ишлашга мажбур бўлмайди.

3. Рақамлаштириш ва SMS орқали ёдга солиш ҳамшираларнинг вақтини тежаш, ҳамда навбатсиз вакцина олиш жараёнини йўлга қўйиш мақсадида: телеграм-бот ёки мобиль илова орқали навбатни брон қилиш; болаларга вакциналар тўлиқ қилинганини автоматик текшириш, мактаб ва боғча базалари билан интеграция; электрон эмлаш гувоҳномаларини (QR код) жорий қилиш (Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш, Рақамли технологиялар вазирликлари, Миллий Статистика қўмитаси).

4. Туғрукхонада чақалок туғилганда, туғилганлик гувоҳнома билан бирга “вакцинация”ларни қайд этиш учун электрон сертификат бериш ва Ўзбекистон фуқаролари учун ягона эмлаш электрон тизимига эмланганлигини киритиб бориш (Ўзбекистон Республикаси рақамли технологиялар ва Соғлиқни сақлаш вазирликлари).

5. Эмлаш хонасида ишлайдиган шифокор ва ҳамшираларнинг иш юкламасини тўғри тақсимлаш. Тадқиқот натижаларига кўра, 1 ойда 20та чақалоқ туғиладиган ОП ва ойига 50-80та чақалоқ туғиладиган ОПда ҳам 1та эмлаш ҳамшира 1 ставкада ишлаш ҳолатлари маълум бўлди. Ички миграция таъсирида соғлиқни сақлаш соҳасига тушадиган “юк”ни ҳисобга олиш, поликлиникаларга врач, ҳамшира сонини мувофиқлаштириш (Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлиги).

6. Асосланмаган маълумотларга қарши курашиш учун ижтимоий тармоқларда тарғиботни йўлга қўйиш, оммавий ахборот воситалари тизимида вакцинацияга тегишли маълумотлар мутахассислар томонидан кенгроқ ёритиб борилишини мунтазам йўлга қўйиш (Ўзбекистон Республикаси Маданият вазирлиги, Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлиги).

7. Мобиль клиникалар орқали чекка қишлоқларга бориб вакцинация тадбирларини ташкилаштириш (Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлиги).

8. ДХШ асосида кечқурун ва дам олиш кунлари ҳам ишлайдиган вакцинация пунктларини ташкил этиш (Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлиги).

9. Тадқиқот жараёнида поликлиникаларда вакцина йўқ бўлган ҳолатлар ҳам мавжудлиги аниқланган. Аҳоли зичлигидан келиб чиқиб, ОП ларда вакцинация кунларини кўпайтириш ва республикамиз иқлимига мос сифатли вакциналар билан таъминлаш (Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлиги).

10. 2020 йилда бошланган коронавирус пандемияси бутун дунёдаги аҳоли саломатлигига, иқтисодиётига ва психо-социал ҳолатига салбий таъсир кўрсатганини инобатга олиб, турли касалликларни сурункали кечиш ҳолатлари ва асоратларини даволашга ихтисослашган комплекс тиббий реабилитация марказларини илғор хориж тажрибаси асосида ташкил этиш (Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш ва Иқтисодиёт ва молия вазирликлари).

11. Ички миграция таъсирида соғлиқни сақлаш ва таълим соҳасига тушадиган “юк”ни ҳисобга олиш, ҳудудлар бош режасида тартибли қурилишни амалга ошириш, поликлиникаларга врач, ҳамшира сонини мувофиқлаштириш ҳамда инсон капиталини ривожлантириш бўйича таклифлар шакллантириш мақсадга мувофиқ бўлади (Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш, Меҳнат вазирликлари).

12. Аҳоли миграциясини ҳисобга олиб, ижтимоий соҳага тушаётган “юк”ни тартибга солиш мақсадида, бошқа ҳудуддан келган аҳолига вақтинчалик рўйхатдан ўтиш тартибини жорий қилиш (Ички Ишлар вазирлиги, Маҳаллий ҳокимликлар, Ўзбекистон Маҳаллалари уюшмаси, Миллий Статистика қўмитаси).

Қисқаси, ушбу таклиф ва тавсиялар - электрон эмлаш реестри яратиш, автоматик SMS эслатмаларни жорий этиш, тарғибот ишларини кучайтириш, эмлаш пунктларини кенгайтириш, мобиль клиникалар фаолиятини йўлга қўйиш ва ходимлар юкламасини ички миграцияни ҳисобга олган ҳолда қайта кўриб чиқишдан иборат. Ушбу тавсиялар давлат соғлиқни сақлаш сиёсатини такомиллаштириш, аҳоли саломатлигини сақлаш ва ажратилаётган маблағларнинг самарадорлигини таъминлашда муҳим аҳамият касб этади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. «Ўзбекистон — 2030» стратегиясини “Атроф-муҳитни асраш ва «яшил иқтисодиёт»” йилида амалга оширишга оид давлат дастури тўғрисидаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 30.01.2025 йилдаги ПФ-16-сон https://lex.uz/uz/docs/-7369703

2. Ўзбекистонда олиб борилаётган юқумли касалликларга қарши вакцинация натижаларини ўрганиш (социологик тадқиқот натижалари, 2025 йил апрель-май): Таҳлилий ҳисобот / Ш.Махкамова – PhD (и.ф.н) умумий таҳрири остида. Тошкент: БСИТИ, 2025. -40 б.

SAMARQAND VILOYATIDA SIGIRLAR MAHSULDORLIGINI BAHOLASH VA ULARNING ISHLAB CHIQARISH MEZONLARINI SHAKLLANTIRISH

Mardanova Barno Asatulloevna
Tayanch doktorant (PhD)
Toshkent davlat iqtisodiyot
universiteti Samarqand filiali
E-mail: barnomardanova9201@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur tadqiqotda Samarqand viloyatida mavjud sigirlar mahsuldorligini baholash va ular uchun ishlab chiqarish mezonlarini shakllantirish maqsad qilingan. Maqolada sigirlar mahsuldorligiga ta’sir etuvchi omillar chiziqli regressiya modeli orqali tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari asosida sigirlarning

mahsuldorlik darajalarini baholovchi mezonlarni ishlab chiqish uchun amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar:sigir mahsuldorligi, sut ishlab chiqarish, ko‘p omilli regressiya, oziqlanish, xorijiy zot, chorvachilik samaradorligi

Asosiy qism. Sut va sut mahsulotlari inson ovqatlanish ratsionining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, ular oqsil, yog‘, vitamin va mineral moddalarga boyligi bilan ajralib turadi. Aholi sonining ortib borishi, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash va to‘yimli mahsulotlarga talabning oshishi sut ishlab chiqarishni ko‘paytirishni taqozo etmoqda. Shu bois so‘nggi yillarda chorvachilik, xususan, sut yo‘nalishidagi hayvonlar mahsuldorligini oshirish mamlakat qishloq xo‘jaligi siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

Sut va sut mahsulotlari tarkibi katta miqdorda oqsil, vitamin va minerallar borligi sabab insonlarning ovqatlanish ratsionida muhim oziq manbai sanaladi[16]. Sut va sut mahsulotlariga talabni ortib borishi bir bosh sigirdan olinadigan o‘rtacha sut miqdorini oshishini taqazo etmoqda.

Sigirlar mahsuldorligi – bu sog‘in sigirlardan olinadigan sut, go‘sht va boshqa turdagi mahsullotlar miqdorini ifodalovchi ko‘rsatgich hisobladani. Bu chorvachilikning go‘shtchilik yoki sutchilik yo‘nalishdaridan kelib chiqib, sutchilik xo‘jaliklarida sigirlar mahsuldorligi deganda asosan sut mahsuloti tushuniladi.

Sigirning buzoqlagandan keyin sut berish davri boshlanadi. Sut mahsuldorigi loktatsiya davriga bog‘liq. Sigir tuqqandan so‘ng mahsuldorligi tez sur’atlar bilan oshib boradi. 40-60 kundan keyin maksimum miqdorga yetib, keyin oyiga tahminan 5%-10% gacha pasayib boradi. Sut mahsuldorligi sigirning yoshi va loktatsiya davrining oshishi bilan 6 loktatsiyagacha ko‘payib boradi[17].

Sut mahsuldorligi va tarkibi ko‘pgina omillarga bog‘liq bo‘lib: ular ginetika (zoti), fiziologiyasi (yoshi,salomatlik holati, laktatsiya davri), atrof-muhit sharoitlari

[16] Siddiqui, S.A.; Salman, S.H.M.; Redha, A.A.; Zannou, O.; Chabi, I.B.; Oussou, K.F.; Maqsood, S. Physicochemical and nutritional properties of different non-bovine milk and dairy products: A review. Intern. Dairy J. 2024

[17] Dinsmore, R. Page. “Animal and Herd Productivity in Dairy Cattle.” *The Merck Veterinary Manual*, College of Veterinary Medicine and Biomedical Sciences, Colorado State University, Feb. 2021, revised Sept. 2024. Accessed 26 Aug. 2024.

(mavsum, saqlash uchun sharoit) hamda ozuqa (oziqlanish va ratsion) bilan belgilanadi (1.3.1-Rasm).



1-Rasm. Sut mahsuldorligi va tarkibiga ta'sir etuvchi omillar[18,19]

Sigirlar mahsuldorligi tadqiqot maqsadiga qarab turlicha tasniflanadi. Ilmiy ishlarda ayni zotli sigirlar, ularning bir laktatsiya davrida yoki muayyan fermadagi kunlik sut ishlab chiqarish darajasiga asoslangan mahsuldorlik mezonlari ishlab chiqilib, tahlil qilingan.

Sherif Moswed va hamkasblari tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotda El-Dakalliya viloyatidagi (Misr) Golshtin-Friz zotli[20] sigirning maxsuldorlik mezoni ishlab chiqilgan. Tahlil natijalari chiziqli deskriminant tahlili (LDA) va muvofiqlashtirilgan yoki egri diskriminant tahlili (FDA) modellarini yordamida aniqlangan. Igino Andrighetto[21] va uning hamkasblari tomoninidan olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra Italiyaning shimoliy hududidagi 29 ta yirik sutchilik fermasida sut mahsuldorligi tafovutlarini aniqlash va ularnig sabablarini tahlil qilingan.

[18] A. De Vries, M. I. Marcondes. Review: Overview of factors affecting productive lifespan of dairy cows. Department of Animal Sciences, University of Florida, Gainesville, FL 32611, USA; 2 Department of Animal Science, Viçosa Federal University, Viçosa, MG 36570-900, Brazil. 3 Oct. 2019

[19] M.Bednarski, Robert Kupczy´nski. Factors Affecting Milk Productivity, Milk Quality and Dairy Cow Health. Animals 2024, 14, 3707. https://doi.org/10.3390/ani14243707

[20] Sh.A. Moawed, E.Mahrous, A. Elaswad, H. F. Gouda, A. Fathy. Milk yield prediction in Friesian cows using linear and flexible discriminant analysis under assumptions violations. BMC Veterinary Research. 2024

[21] I.Andrighetto, L.Serva, D. Fossaluzza, G.Marchesini. Herd Level Yield Gap Analysis in a Local Scale Dairy Farming System: A Practical Approach to Discriminate between Nutritional and Other Constraining Factors. Herd Level Yield Gap Analysis in a Local Scale Dairy Farming System: A Practical Approach to Discriminate between Nutritional and Other Constraining Factors

Bundan maqsad sigirlarning oziqlanish va boshqaruv omillari qanday darajada ozuqa smaradorligi hamda sut mahsuldorligiga ta’sir qilayotganligini aniqlash hisoblanadi.



2- Rasm. 2016-2024 yillar davomida Samarqand viloyatidagi turli xo‘jalik toifalari bo‘yicha 1 kunda 1 bosh sog’in sigirlardan olinadigan o‘rtacha sut miqdori tahlili.

Tadqiqotimizda Samarqand viloyatidagi sigirlarning mahsuldorlik mezonlarini ishlab chiqish maqsad qilingan. Tahlil uchun 316 ta uy xo‘jaligi va yirik fermer xo‘jaliklaridan olingan 616 bosh mahalliy hamda xorijiy sigir ma’lumotlari to‘plandi. Ma’lumot yetishmovchiligi sababli 16 ta so‘rovnoma tahlildan chiqarildi. Tanlovda mahalliy va xorijiy sigirlar soni deyarli teng nisbatda olingan.

1- jadval

Sut mahsuldorligiga ta’sir etuvchi omillarning tahlili

Kublik sut	Coef.	St.Err.	t-value	p-value	[95% Conf	Interval]	Sig
Zoti	.486	.179	2.72	.007	.135	.838	***
Yoshi	-.05	.085	-0.59	.558	-.217	.117	

Tirik vazni	.007	.001	4.94	0	.004	.01	***
Kunlik ozuqa (mar)	.966	.151	6.38	0	.669	1.263	***
Kunlik suv (marta)	1.363	.259	5.27	0	.855	1.872	***
Veterinar nazorat	.02	.002	12.75	0	.017	.023	***
Oziqlanish turi	2.906	.301	9.65	0	2.315	3.497	***
Ogilxona holati	3.071	.462	6.65	0	2.164	3.978	***
Constant	-12.719	1.104	-11.52	0	-14.888	-10.55	***

Mean dependent var	13.800	SD dependent var	10.065
R-squared	0.871	Number of obs	616
F-test	510.437	Prob > F	0.000
Akaike crit. (AIC)	3350.346	Bayesian crit. (BIC)	3390.156

*** p<.01, ** p<.05, * p<.1

Yuqoridagi jadval ma’lumoti ko‘p omilli regressiya modeli asosida tahlil qilindi. Unga ko‘ra sigir zotining mahalliy zotdan xorijiy zotga o‘zgarishi mahsuldorlikni 0.49 litrga oshishiga olib keladi. Sigirning yoshini oshishi mahsuldorlikka deyarli ta’sir qilmagan. Sigirning tirik vazni 1 kg oshganda uning sut mahsuldorligi ham oshishi statistik jihatdan ahamiyatli ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Sut mahsuldorliga eng katta tahsir etuvchi omillar bu ozuqa va suv hisoblanadi. Ozuqa hamda suvni kuniga 1 marta ko‘proq berish orqali kunlik sut miqdorini 1 litrga oshirishi mumkin. Sigirlar saqlanayotgan og‘il xona holati, uning kerakli jihozlar bilan ta’minlanganligi, veterinar nazorati ham sut mahuldorligini

oshirishga hissa qo‘shadi. Ushbu omillarning haqiqatdan sut mahsuldorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi statistik ahamiyatli ekanligi isbotlandi. (1.3.2-jadval).

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, Samarqand viloyatidagi sigirlar mahsuldorligi bir qator omillarga bog‘liq bo‘lib, ularning ichida oziqlanish sifati va suv iste’moli eng muhim omillar sifatida ajralib chiqdi. Sigir zotining xorijiy zotga mansubligi mahsuldorlikni sezilarli darajada oshiradi, ammo yosh omilining ta’siri statistik jihatdan ahamiyatli bo‘lmagan. Veterinar nazoratining muntazamligi, og‘ilxona gigiyenasi va ratsion bir xilligi ham sut ishlab chiqarishni ijobiy yo‘nalishda oshiradi. Ushbu natijalar mintaqadagi sutchilik xo‘jaliklarida samaradorlikni oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va sigirlar mahsuldorligini tahliliy mezonlar asosida baholash uchun amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. A. De Vries, M. I. Marcondes. Review: Overview of factors affecting productive lifespan of dairy cows. Department of Animal Sciences, University of Florida, Gainesville, FL 32611, USA; 2 Department of Animal Science, Viçosa Federal University, Viçosa, MG 36570-900, Brazil. 3 Oct. 2019
2. Dinsmore, R. Page. “Animal and Herd Productivity in Dairy Cattle.” *The Merck Veterinary Manual*, College of Veterinary Medicine and Biomedical Sciences, Colorado State University, Feb. 2021, revised Sept. 2024. Accessed 26 Aug. 2024.
3. I.Andrighetto, L.Serva, D. Fossaluzza, G.Marchesini. Herd Level Yield Gap Analysis in a Local Scale Dairy Farming System: A Practical Approach to Discriminate between Nutritional and Other Constraining Factors.
4. M.Bednarski, Robert Kupczy´nski. Factors Affecting Milk Productivity, Milk Quality and Dairy Cow Health. Animals 2024, 14, 3707. https://doi.org/10.3390/ani14243707
5. Sh.A. Moawed, E.Mahrous, A. Elaswad, H. F. Gouda, A. Fathy. Milk yield prediction in Friesian cows using linear and flexible discriminant analysis under assumptions violations. BMC Veterinary Research.

VI SHO`BA

Yashil iqtisodiyotda innovatsiyalar va ilm fanni rivojlantirish masalalari





INNOVATIONS AND THE DEVELOPMENT OF SCIENCE IN THE GREEN ECONOMY

Jumanov Abrorjon Nuridin O'g'li,
Institute for Macroeconomic
and Regional Research
under The Cabinet of Ministers
Leading specialist
abr.j96@gmail.com

Abstract. This paper analyzes Uzbekistan's evolving green innovation landscape and its contribution to sustainable economic growth. It reviews national policies and institutions supporting renewable energy, waste management, and energy efficiency, while identifying persistent challenges such as limited R&D investment, talent migration, and weak industry–science linkages. The analysis examines key actors the Ministry of Higher Education, Science and Innovation and the Agency for Innovative Development and recent policy tools, including R&D grants, tax incentives, and startup support. Comparative insights from South Korea, the European Union, and China highlight best practices in coordinated governance, sustained funding, and research policy alignment.

Keywords**:** Uzbekistan, green economy, innovation policy, renewable energy, sustainable development, R&D

Introduction and Theoretical Framework

Growing global concern over climate change and resource scarcity has accelerated the shift toward a green economy one that promotes growth while minimizing environmental degradation. For emerging economies like Uzbekistan, this transition offers opportunities to adopt cleaner technologies and enhance resilience. Since 2022, the government has pursued a strategy to cut greenhouse gas emissions by 35 percent per GDP unit by 2030, supported by a National Green Economy Taxonomy and financial institutions mobilized as "green investment champions" [1]. Despite these initiatives, R&D spending remains low at 0.16

percent of GDP, patent activity is limited, and coordination among ministries remains weak [2].

This study applies a national innovation system (NIS) perspective, which emphasizes the interactions among government, academia, industry and finance in fostering technological advancement [3]. Innovation in a green economy context also intersects with theories of sustainable development and knowledge diffusion. Conceptually, we view the green economy as requiring both eco-innovation (clean technologies and practices) and institutional reforms. Key elements include R&D investment, technology transfer, and market incentives (e.g. carbon pricing or tax breaks) that align private behavior with environmental goals. For example, Porter's hypothesis suggests that well-designed environmental regulation can spur innovation and competitiveness [4]. Uzbekistan's approach - like South Korea's or the EU's - can be seen as attempting a coordinated innovation policy for green growth. In practice, this involves strategic planning (national strategies, legislation), targeted R&D programs, and ecosystem support (clusters, incubators, financing) for green sectors. The following analysis assesses Uzbekistan's system against these theoretical principles, and compares it with international cases of integrated green innovation policies.

Uzbekistan's Innovation Landscape for the Green Economy

Uzbekistan has made significant progress in developing renewable energy and advancing its green transition. The government aims to install 4 gigawatts (GW) each of solar and wind power capacity by 2027, marking rapid growth from a low base. By mid-2026, renewables supplied over 20 percent of national electricity generation up from less than one percent in 2018 through roughly ten solar plants and four wind farms totaling 4.5 GW [5]. These projects, often developed through public–private partnerships with international investors such as Masdar, operate under a favorable regulatory environment that includes preferential tariffs and incentives established by Presidential Decree PD-4512. In parallel, Uzbekistan's 2022–2030 climate strategy targets a 35-percent reduction in greenhouse gas intensity by promoting energy efficiency in buildings and industry [6].

Innovation Policies and Support Measures

Uzbekistan has introduced a comprehensive policy framework to advance innovation and accelerate the green economy transition. The *Strategy for Innovative Development (2022–2026)* and the 2024 government decree *"On Measures to Implement the Innovative Development Strategy"* established mechanisms to expand research commercialization, enhance technology transfer, and foster green entrepreneurship [7]. The decree also authorized state banks and enterprises to engage domestic startups, encouraging innovation-led procurement. Declared the *"Year of Support for Youth and Business,"* 2024 saw the creation of Youth Innovation Centers in Karakalpakstan and Samarkand and 16 regional technology parks linking academia and enterprise. Financial instruments such as R&D grants, co-financing schemes, and tax incentives particularly income tax exemptions for IT Park residents complement these initiatives. The issuance of green bonds and international support from institutions like the World Bank and ADB further reinforce Uzbekistan's emerging system of innovation incentives, aligning national policy with global green growth standards.

Performance and Challenges

Uzbekistan's innovation landscape has expanded notably over the past decade, reflecting increasing state investment in science and technology. From 2013 to 2023, the number of innovative enterprises rose from 761 to over 5,000, and innovation output grew twelvefold. Expenditures increased from 4.6 trillion to 55.7 trillion sums, while R&D spending climbed from 244 billion to 1.8 trillion sums, raising research efficiency more than fivefold. Despite these gains, R&D intensity remains low at around 0.16 percent of GDP, and patent activity 752 filings in 2023 lags behind regional peers.

Comparative Analysis: Uzbekistan and International Case Studies

A comparative analysis of international experiences reveals valuable lessons for strengthening Uzbekistan's green innovation system. South Korea's *Low-Carbon, Green Growth Strategy* (2009-2050) exemplifies the effectiveness of coordinated governance, sustained investment, and policy coherence. Through the

Framework Act on Low Carbon, Green Growth (2010) and the establishment of a Presidential Committee on Green Growth, Korea institutionalized long-term climate policy, investing around 2 percent of GDP annually in research, technology, and infrastructure. Complementary mechanisms such as R&D tax incentives and public procurement of green technologies mobilized over USD 30 billion in private investment and fostered a robust renewable energy sector [8]. The European Union's *Horizon Europe* and *European Green Deal* frameworks similarly integrate climate objectives into research funding, emphasizing multinational collaboration and co-financing models that align research priorities with regulatory targets such as carbon pricing and emission standards [9]. This structure has cultivated an innovation ecosystem grounded in cross-sectoral partnerships and policy alignment an approach Uzbekistan could emulate by more closely linking its R&D priorities to national climate goals. China's experience, in contrast, underscores the power of scale and state-led coordination. With annual public spending exceeding USD 4 billion on clean energy research and clear targets embedded in its five-year plans, China's centralized policies have accelerated advances in solar, wind, and electric vehicle technologies while catalyzing substantial private investment [10]. Together, these cases illustrate that successful green innovation depends on sustained funding, institutional integration, and the alignment of policy, finance, and research principles that Uzbekistan's evolving strategy increasingly reflects but must deepen to achieve comparable outcomes.

For Uzbekistan, China's example suggests both ambition and risks. Uzbekistan could aim to substantially increase its R&D budget (e.g. toward 1-2% of GDP) and target priority areas like renewables. But unlike China's highly centralized system, Uzbekistan must adapt policies to its smaller economy and ensure efficiency. Moreover, Chinese institutions have shown coordination (via national planning) but also issues (technology diffusion not always smooth). Uzbekistan's challenge is to find the right balance of state planning and market incentives, perhaps using pilot programs (as China did with demonstration zones) before scaling up.

Conclusion and Recommendations

Uzbekistan stands at a decisive juncture in advancing its green economy, having established the institutional and policy foundations for sustainable growth through ambitious climate targets, the creation of new innovation-oriented ministries, and financial incentives for renewable energy. Comparative evidence from South Korea, the European Union, and China underscores that long-term success in green innovation requires sustained investment, policy coherence, and cross-sectoral collaboration.

Key actionable recommendations include: Increase and protect R&D funding. Commit to raising R&D expenditure (aim >1% of GDP) with a significant fraction for climate and energy research. Establish competitive grants for renewable energy, waste-to-energy, and efficiency innovations, following OECD best practices. Reform procurement and intellectual-property rules to favor local innovators: for example, require state infrastructure projects to use domestically developed green technologies. Streamline patenting processes and support university tech transfer offices to bring inventions to market.

Expand incubators and accelerators focused on clean tech (building on existing Youth Innovation Centers and tech parks. Provide seed funding or matching grants for green startup ventures. Foster science–industry clusters (e.g. a renewable energy technology park) to concentrate talent and resources.

Strengthen inter-agency coordination. Institute a permanent high-level council or commission for green innovation (akin to Korea's presidential committee) to align policies across ministries. Clearly define roles for MHESI, Energy, Economy, and Finance ministries in green projects.

By institutionalizing these reforms, Uzbekistan can transform its innovation landscape into a dynamic driver of sustainability, aligning scientific advancement with national development priorities. In doing so, the country not only accelerates its transition toward a low-carbon economy but also positions itself as a regional model for inclusive and innovation-led green growth.

References:

1. “Uzbekistan’s green leap”, Umid Abidkhadjaev et,al. world bank blogs February 26, 2025
2. The Evolution of Innovation in Uzbekistan, Anton Kostyuchenko et,al. outposteurasia.com, 2025
3. Digital economy Uzbekistan, The State of Digital Entrepreneurship to Harness AI, UNDP, 2025
4. National Green Growth Strategy of South Korea Report
5. The World Bank Modernizing Uzbekistan National Innovation System Project Report 2020
6. Insider’s View:Uzbekistan-U.S.-A New Era of Environmentally Friendly and Energy-Efficient Investment, September 22, 2025
7. https://www.startupbase.uz/en/news/uzbekistan-is-the-official-host-of-the-central-asi
8. https://ndcpartnership.org/knowledge-portal/good-practice-database/national-green-growth-strategy-south-korea
9. Horizon Europe Work programme (2025) Report
10. https://chineseclimatepolicy.oxfordenergy.org/book-content/domestic-policies/clean-energy-rd/

«ЗЕЛЕНАЯ» ЭКОНОМИКА И ЗАЩИТА ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ

Профессор, Батиров Хидир Файзиевич,
Доцент, Мамажанов Расулжон Ибрагимович
Студент, Туйчиев Латифжон Гафур угли
Студент, Кодиров Барот Фазлиддин угли
barotqodirov463@gmail.com, +998952511360

Аннотация. В данной статье рассматривается необходимость перехода к «зеленой экономике» в Узбекистане, констатированы приоритетные направления Стратегии перехода республики к «зеленой» экономике на 2019-

2030 годы и факторы, негативно влияющих на развития сектора «зеленой экономики».

Ключевые слова: «зеленая экономика», изменение климата, экологические проблемы, биоразнообразие и устойчивое развитие.

Введение. Известно, что зелёная экономика играет ключевую роль в обеспечении устойчивого развития, что неминуемо требует перехода к устойчивому использованию ресурсов т.к. загрязнение атмосферы, истощение природных ресурсов, потеря биоразнообразия и ухудшение здоровья населения, требуют разработки и внедрения новых моделей экономического роста, ориентированных на устойчивость биоразнообразия окружающей среды.

Термин «зеленая экономика» впервые был использован британскими специалистами в области экономики окружающей среды в докладе «План по созданию зеленой экономики», подготовленном по заданию министерства охраны окружающей среды Великобритании. В нем авторы оценивали возможные экономические стратегии, которые можно было бы использовать для достижения целей устойчивого развития.

Следует подчеркнуть, что в литературе нет единого общепринятого подхода к понятию «зеленая экономика». Если в одних источниках «зеленая экономику» понимают как новая отрасль экономики, способствующую улучшению охраны окружающей среды, то в других источниках отмечается, что «зеленая экономика» изучает новые технологии, экосистемы, которые оказывают содействие и приносит пользу природе . В тоже время некоторые считает, что «зеленая экономика» означает переход на новый этап развития, направленный на создание экологически чистых продуктов [2, с.47-59; 3, с.87-122].

В 1970-е годы прошлого столетия чрезмерно интенсивное использование природных ресурсов и загрязнение, причиняемое индустриализацией и экономическим развитием в целом, подрывали основы экономики, разрушая её материально-ресурсную базу и снижая благосостояние общества. Все это

способствовало формированию в 1980–1990-х годах в промышленно развитых странах государственной политики в области охраны окружающей среды. В целом, в 1980-е годы промышленно развитым странам удалось добиться у себя существенного улучшения экологической обстановки [4, с.227-312].

До середины 1980-х годов деградация окружающей среды и ухудшение экологической обстановки беспокоила прежде всего экологов, общественность и ответственных политиков, но расценивалась деловым сообществом и экономическим мейнстримом как естественная плата за прогресс и рост благосостояния. Поэтому любые жесткие меры в сфере охраны окружающей среды и борьба с загрязнением видились как неизбежный компромисс между экономикой и экологией и издержками, сдерживающими экономический рост. Сегодня население Земли продолжает увеличиваться, а запасы природных ресурсов постоянно сокращаются. Эксперты подчеркивают необходимость внедрения принципов «зеленого развития» в мировую экономику, чтобы исправить ситуацию [5, с.84-86; 6, с.994-998].

По данным Международного агентства по возобновляемым источникам энергии (IRENA), к 2022 году 91,0% населения мира имели доступ к электричеству, однако 685 миллионов человек всё ещё остаются без доступа к современным энергоресурсам. Доля возобновляемых источников энергии в мировом энергопотреблении составила лишь 18,7% в 2021 году, что демонстрирует необходимость ускорения темпов внедрения зелёных технологий. Кроме того, ожидается, что к 2060 году, без кардинальных изменений, глобальная добыча ресурсов может вырасти на 60,0% от уровня 2020 года, что приведёт к значительным экологическим рискам с. 2023.

Методология исследования. Методологические основы исследования определяются взгляды академических научных школ, обзор литературных данных, изучающих процессы эволюции и развития экономики окружающей среды, экологической экономики и экономики устойчивого развития.

Результаты и их обсуждения. В Узбекистане сделаны значительные шаги в сторону зелёной экономики, направленной на устойчивое развитие и

снижение негативного воздействия на окружающую среду. В 2019 году была принята Национальная стратегия перехода к зелёной экономике, которая рассчитана на период до 2030 года. Основные цели стратегии включают снижение энергоёмкости ВВП, увеличение доли возобновляемых источников энергии до 25,0% в общем производстве электроэнергии, а также сокращение выбросов парниковых газов на 35,0% к 2030 году по сравнению с уровнями 2010 года [1, с.4-12].

Важной составляющей «зеленой» экономики является создание и использование возобновляемых источников энергии. В этом отношении Новый Узбекистан имеет высокий потенциал. По расчетам международных финансовых институтов, ежегодный запас альтернативной энергетики, особенно солнечной, в республике эквивалентен 270 миллионам тонн условного топлива.

Реализация проектов в сфере «зеленой» энергетики позволит увеличить долю возобновляемых источников энергии в нашей стране более чем в 3 раза в ближайшие десять лет. Она также включает в себя широкомасштабные меры, такие как решение проблем, связанных с чистой питьевой водой, продовольственной безопасностью, внедрение сельскохозяйственных инноваций, создание устойчивых городов, разумное управление отходами, расширение лесных площадей и сокращение опустынивания. «Зеленая» экономика приносит пользу не только государству и бизнесу, но в первую очередь простым людям. В этом заключается ее социальная значимость [7, с.84].

Необходимость перехода к «зеленой экономике» в Узбекистане объясняется тем, что большая часть потребляемой в национальной экономике энергии вырабатывается с использованием невоспроизводимых органических природных ресурсов, истощением ограниченных запасов ресурсов, обострением экологических проблем, связанных с загрязнением окружающей среды, дефицитом воды, высыхание Аральского моря вследствие ускоренного развития промышленности.

Устойчивое развитие экономики Узбекистана, разработка долгосрочной стратегии структурных преобразований требует учета внутренних и глобальных процессов и проблем. Кроме того, Узбекистан выступил инициатором двух важных резолюций, принятых ООН в этой сфере. На данный момент «зеленая» энергетика становится одним из драйверов экономики страны. С целью выведения этой работы на новый, более высокий уровень Президент предложил объявить 2025 год Годом охраны окружающей среды и «зеленой» экономики. [8, с.105].

Выводы. В заключение можно утверждать, что «зеленая» экономика – задача, стоящая перед всем человечеством. Переход Узбекистана на «зеленую» экономику не только укрепляет международный авторитет страны, но и закладывает фундамент для обеспечения здоровья, благополучия и долголетия граждан нового Узбекистана.

Список литературы

1. Постановление Президента Республики Узбекистан “Об утверждении стратегии по переходу Республики Узбекистан на «зеленую» экономику на период 2019 — 2030 годов” от 4 октября 2019 года № ПП-4477.

2. Будущее, которого мы хотим: Итоговый документ Конференции ООН по устойчивому развитию Рио+20. – Рио-де-Жанейро, 2012.– 66 с.

3. Вахабов А.В. Зарубежный опыт реализации концепции «зеленой экономики» и возможности ее использования в практике Узбекистана. Сборник материалов научно-практической конференции в масштабе республики. Ташкент.: «Университет» 2019 142 с.

4. Иминов Т.К., Вахабов А.В., Тешабоев 1.3., Бутабоев М.Т. "Зелёная экономика" как основа устойчивого развития. Монография -Т.: "Aloqachi", 2019. - 480 с.

5. Исматиллаева Р. Зеленая экономика:понятие и перспективы с фокусом на Узбекстан. “Central Asian jurnal jf education and innovation”, Volume 4, 2925,p.84-86.

6. Самиева Г.Т., Аликулов Х.Т. Новый Узбекистан и переход в «зеленую экономику». "Экономика и социум" №11(113)-1 2023, С.994-998.

7. Фазлиддин Б.А.Приоритетные направления перехода к «зеленой экономике» в Узбекистане. "Экономика и социум" №11(126)-2, 2024.

8. Хожанова Г.О. Особенности использования природных ресурсов //Лучшие интеллектуальные исследования. 2023. – Т. 9. – №. 2. – С. 105-107.

HAVONI KIMYOVIY IFLOSLANISHINING ORGANIZMNING REPRODUKTIV FAOLIYATIGA TA’SIRI

Qahhoraliyeva Zaynabxon Shukurjon qizi
Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti talabasi
rahbar: Azimova Mayram Kurbanovna
Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti dotsenti
mayram.azimova@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada atmosfera havosining kimyoviy ifloslanishi va uning inson reproduktiv salomatligiga ta’siri keng yoritilgan. Havodagi og‘ir metallar, uglerod oksidi, azot oksidlari, formaldegid va boshqa ifloslantiruvchi moddalar jinsiy gormonlar ishlab chiqarilishi, gametalar sifati hamda homila rivojlanishiga qanday salbiy ta’sir ko‘rsatishi ilmiy manbalar asosida tahlil qilingan. Reproduktiv tizimning buzilishi bepushtlik, homiladorlikning asoratlari va tug‘ma nuqsonlar ko‘payishiga olib kelishi qayd etilgan. Jamiyat demografik rivojiga salbiy oqibatlari ham ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: atmosfera havosi, kimyoviy ifloslanish, reproduktiv faoliyat, og‘ir metallar, gigiyena.

Аннотатsiя. V статье подробно рассматривается влияние химического zagрязнения атмосферного vozdуха на репродуктивное zdorovье cheloveka. Osoboe vnimanie уdelено vozdействию тяжелых металлov, уgarnogo gaza, оксidov azota, формальdegida и drugих soedinenий на gormonальный balanc, kachestvo gamet и razvitie ploda. Podcherknuto, chto narushenie

repprodyktivnoй funksii privodit k besplodiю, oslojneniyam beremennosti i rostu vpojdennyx anomaliй. Otrajeny negativnye posledstvия dlя demografiчeskogo razvitiя obщestva.

Klюchevye slova: atmosferный vozdyx, ximiчeskoe zagrяznenie, repprodyktivnaя funksiя, tяjelye metally, gigiena.

Abstract. The article comprehensively examines the effects of chemical air pollution on human reproductive health. It highlights the impact of heavy metals, carbon monoxide, nitrogen oxides, formaldehyde and other pollutants on hormonal regulation, gamete quality, and fetal development. It is emphasized that impaired reproductive health results in infertility, pregnancy complications, and congenital anomalies. The broader demographic consequences of air pollution are also discussed.

Keywords: atmospheric air, chemical pollution, reproductive health, heavy metals, hygiene.

Asosiy qism

Atmosfera havosi insonning hayotiy faoliyati uchun asosiy ekologik omillardan biri hisoblanadi. Har kuni inson o‘rtacha 12–15 m³ havo iste’mol qiladi va uning sifati nafaqat umumiy sog‘liq, balki reproduktiv salomatlik uchun ham beqiyos ahamiyatga ega. Havo tarkibida zararli kimyoviy moddalar mavjud bo‘lsa, ular nafas olish yo‘llari orqali organizmga kirib, qon orqali butun tanaga tarqaladi va reproduktiv tizim hujayralarini ham zararlaydi.

Reproduktiv tizimning sezgirligi tufayli havoning kimyoviy ifloslanishi tezda salbiy oqibatlarni yuzaga keltiradi. Zamonaviy gigiyenik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, havodagi og‘ir metallar, uglerod oksidi, azot oksidlari, formaldegid, benz(a)piren va boshqa zararli moddalar jinsiy gormonlar ishlab chiqarilishi, gametalar sifati va homila rivojlanishini izdan chiqaradi.

Og‘ir metallar — qo‘rg‘oshin, kadmiy, simob, nikel va marganes havoga sanoat chiqindilari va transport vositalari orqali tushadi. Qo‘rg‘oshin erkaklarda spermatozoidlar sonini va harakatchanligini keskin kamaytiradi, DNK shikastlanishini kuchaytiradi. Ayollarda esa hayz siklining buzilishi, tuxumdonlar

faoliyatining pasayishi va bepushtlik kuzatiladi. Kadmiy tuxumdon hujayralarida oksidlovchi stress chaqiradi, estrogen ishlab chiqarilishini kamaytiradi. Simob esa homila rivojlanish davrida markaziy asab tizimiga ta’sir qilib, tug‘ma nuqsonlar xavfini oshiradi.

Uglerod oksidi — transport chiqindilarining asosiy mahsulidir. Gemoglobin bilan birikib, kislorod tashilishini kamaytiradi. Natijada bachadon to‘qimalari va homilaga kislorod yetishmaydi. Bu holat homilador ayollarda erta tug‘ilishlar, past og‘irlikdagi chaqaloqlar tug‘ilishi va hatto o‘lik tug‘ilishlar xavfini oshiradi.

Azot oksidlari oksidlovchi stress chaqirib, spermatozoidlar membranasini zararlaydi, DNK uzilishlarini ko‘paytiradi. Shuningdek, tuxum hujayralarining yetilishi sekinlashadi. Azot oksidlari gormon ishlab chiqaruvchi bezlarga ham zarar yetkazib, testosteron va estrogen muvozanatini buzadi.

Formaldegid — ko‘plab ishlab chiqarish jarayonlarida ajralib chiqadigan moddadir. U hayz siklining buzilishi, tuxumdon faoliyatining susayishi va bepushtlikka olib keladi. Benz(a)piren esa kuchli kanserogen bo‘lib, jinsiy hujayralarda mutatsiyalar chaqiradi. Bu holat keyingi avlodning tug‘ma nuqsonlari va saraton kasalliklari xavfini oshiradi.

Pestitsidlar va organik birikmalar havoda uchrashi mumkin bo‘lgan boshqa zararli moddalar qatoriga kiradi. Ular endokrin tizim faoliyatiga ta’sir qilib, jinsiy gormonlar retseptorlarini bloklaydi yoki soxta stimulyatsiya qiladi. Natijada gormonal muvozanat izdan chiqadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, pestitsidlar bilan ifloslangan hududlarda yashovchi ayollarda bepushtlik va homiladorlikdagi asoratlar ikki baravar yuqori.

Homiladorlik davridagi xavflar alohida e’tiborga loyiq. Havodagi zararli moddalar onaning organizmidan platsenta orqali homilaga o‘tadi. Masalan, qo‘rg‘oshin homilaning markaziy asab tizimiga, simob esa miya rivojlanishiga zarar yetkazadi. Uglerod oksidi va azot oksidlari gipoksiya chaqirib, homilaning rivojlanishini sekinlashtiradi. Benz(a)piren esa DNK strukturasiga zarar yetkazib, tug‘ma nuqsonlar xavfini oshiradi.

Gigiyenik nazorat orqali atmosfera havosi tarkibidagi zararli moddalar miqdori ruxsat etilgan maksimal konsentratsiyalar (REMK) asosida baholanadi. JSST va milliy gigiyenik me’yorlarda havodagi uglerod oksidi, azot oksidlari, oltingugurt dioksidi, formaldegid, benz(a)piren va og‘ir metallar uchun qat’iy chegaralar belgilangan. Bu me’yorlarga rioya qilinishi reproduktiv salomatlikni himoya qilishda muhim ahamiyatga ega.

Profilaktika choralariga sanoat korxonalarida filtr va tozalash moslamalaridan foydalanish, ekologik toza transport vositalarini joriy qilish, chiqindilarni kamaytirish, yashil hududlarni ko‘paytirish kiradi. Shuningdek, aholining ekologik madaniyatini oshirish va davlatlararo hamkorlik orqali havo ifloslanishini kamaytirish muhimdir.

Xalqaro ilmiy manbalarga ko‘ra, havoning kimyoviy ifloslanishi sababli dunyo bo‘yicha reproduktiv kasalliklar, bepushtlik va homiladorlikdagi asoratlar ko‘payib bormoqda. Bu esa faqat tibbiy emas, balki ijtimoiy va demografik muammo hamdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. World Health Organization (WHO). Air Pollution and Reproductive Health. Geneva, 2019.
2. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi. SanPiN — Atmosfera havosi gigiyenik me’yorlari. Toshkent, 2020.
3. United Nations Environment Programme (UNEP). Global Environmental Outlook. Nairobi, 2019.
4. Sanders AP, Claus Henn B, Wright RO. Perinatal and Childhood Exposure to Environmental Chemicals and Reproductive Outcomes. Environmental Health Perspectives, 2015.
5. Xu X, Ha S, Basnet R. Air Pollution and Adverse Reproductive Outcomes: A Systematic Review. Int J Environ Res Public Health, 2016.

KASALXONA ICHKI INFEKTSIYALARINING KELIB CHIQISHI UCHUN HAVO MUHITINING BAKTERIOLOGIK IFLOSLANGANLIGINING AHAMIYATI

Sohibjonova Gullola Umidjon qizi
Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti talabasi
Csgouzbek391@gmail.com
rahbar: Azimova Mayram Kurbanovna
Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti dotsenti
mayram.azimova@mail.ru

Annotatsiya. Kasalxona ichki infektsiyalarining kelib chiqishida havo muhiti bakteriyologik ifloslanishi muhim rol o‘ynaydi. Havo orqali tarqaladigan mikroorganizmlar bemorlar va tibbiyot xodimlarining immunitetini zaiflashtirib, infektsiya xavfini oshiradi. Kasalxona sharoitida havo sifatini nazorat qilish va sterilizatsiya choralarini qo‘llash, bakterial ifloslanishni kamaytirishga yordam beradi. Shu bilan birga, havoning mikrobiologik holatini o‘rganish orqali infektsiya manbalarini aniqlash va profilaktika strategiyalarini ishlab chiqish mumkin. Mazkur maqolada kasalxona ichki infektsiyalarining paydo bo‘lishida havoning bakteriyologik ifloslanishining ahamiyati, uning oldini olish usullari va sog‘liqni saqlash tizimida qo‘llaniladigan zamonaviy yondashuvlar tahlil qilinadi.

Kalit so’zlar: kasalxona infektsiyalari, bakteriyologik ifloslanish, havo muhiti, nazorat, mikroorganizmlar tarqalishi, profilaktika, sterilizatsiya, sog‘liqni saqlash tizimi.

Asosiy qism. Kasalxona ichki infektsiyalari bugungi tibbiyot sohasida muhim va dolzarb muammolardan biridir. Ushbu infektsiyalar bemorlarning sog‘lig‘iga jiddiy zarar yetkazib, ularning davolanish jarayonini murakkablashtiradi hamda sog‘liqni saqlash tizimiga qo‘shimcha yuk tushiradi. Kasalxona muhitidagi havoning bakteriyologik ifloslanishi ichki infektsiyalarning kelib chiqishida asosiy omillardan biri hisoblanadi. Havo orqali tarqaladigan mikroorganizmlar nafaqat bemorlar, balki tibbiyot xodimlari uchun ham xavf tug‘diradi. Shu sababli, kasalxonada havo sifatini

doimiy nazorat qilish va bakterial ifloslanishni kamaytirish choralarini amalga oshirish zarurdir.

Kasalxona ichki infektsiyalari (nosokomiyal infektsiyalar) — bu bemorlar kasalxonada davolanish vaqtida kasallangan infektsiyalar bo‘lib, ularning ko‘pchiligi havo orqali tarqaladigan mikroorganizmlarning ta’siri bilan yuzaga keladi. Kasalxona muhiti, ayniqsa, intensiv terapiya bo‘limlari, jarrohlik xonalari va reanimatsiya bo‘limlarida havoning bakteriyologik ifloslanishi yuqori darajada bo‘lishi mumkin. Ushbu mikroorganizmlar asosan nafas yo‘llari, teri va shilliq qavat orqali organizmga kirib, immuniteti zaiflashgan bemorlarda infektsiyalarni keltirib chiqaradi.

Kasalxonada havo sifatini nazorat qilish uchun maxsus bakteriyologik monitoring o‘tkaziladi. Bu monitoring havo namunalarini olib, laboratoriyada tahlil qilish orqali amalga oshiriladi. Natijalar asosida havoning mikrobiologik holatini baholash va zarur choralarni ko‘rish mumkin. Sterilizatsiya, dezinfeksiya, ventilyatsiya tizimlarini yaxshilash va xodimlarning gigiyena qoidalariga qat’iy rioya qilishi kasalxona ichki infektsiyalarini kamaytirishda asosiy omillardir.

Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar, masalan, havo tozalovchi filterlar, UV nurlari bilan sterilizatsiya qilish usullari kasalxona muhitidagi bakterial ifloslanishni kamaytirishga xizmat qiladi. Kasalxonada havoning bakteriyologik holatini doimiy nazorat qilish va zarur profilaktika tadbirlarini amalga oshirish sog‘liqni saqlash sifatini yaxshilashga, bemorlar orasida infektsiyalar tarqalishini kamaytirishga yordam beradi.

Kasalxona ichki infeksiyalarining kelib chiqishida atrof-muhitning, xususan, havoning bakteriyologik ifloslanishi muhim rol o‘ynaydi. Bizning tadqiqotimiz shuni ko‘rsatdiki, kasalxona ichidagi havo muhitida mavjud bo‘lgan patogen mikroorganizmlar, ayniqsa yuqori namlik va havoning yetarlicha ventilyatsiya qilinmagan joylarda, bemorlarning infektsiyaga chalinish xavfini sezilarli darajada oshiradi.

Bakteriyalar va boshqa mikroblarning havoda ko‘payishi, ayniqsa jarrohlik xonalari, reanimatsiya va boshqa yuqori xavfli bo‘limlarda, kasallik tarqalishiga

asosiy omil hisoblanadi. Bu holat, sog‘liqni saqlash tizimida dezinfeksiya va havoni tozalash usullarining yetarli darajada amalga oshirilmasligi natijasida yuzaga keladi. Shu bois, kasalxona hududlarida havoning doimiy monitoringi va samarali ventilyatsiya tizimlarini joriy etish, ichki infeksiyalarni oldini olishda muhim strategiya hisoblanadi.

Shuningdek, mikroorganizmlarning havoda uzoq vaqt omon qolishi va turli yuqumli kasalliklarning tarqalishida havoning vositachilik roli, infeksiyalarni nazorat qilish uchun qat’iy sanitariya qoidalariga rioya qilish zarurligini ta’kidlaydi. Bizning natijalarimiz, kasalxona ichidagi mikrobiologik ifloslanishni kamaytirish uchun zamonaviy havoni tozalash texnologiyalaridan foydalanish va xodimlar orasida profilaktik chora-tadbirlarni kuchaytirish zaruratini ko‘rsatadi.

Natijada, kasalxona ichki infeksiyalarining oldini olish uchun havo muhitining sifatini yaxshilash, nafaqat bemorlar salomatligini himoya qilish, balki tibbiy muassasaning umumiy samaradorligini oshirishda ham muhim omil hisoblanadi.

Tadqiqotlar va adabiyotlar shuni ko‘rsatadiki, havodagi patogen bakteriyalar va boshqa mikroorganizmlar bemorlarning organizmiga kirib, ularning sog‘lig‘ini buzadi va davolash jarayonini murakkablashtiradi. Ayniqsa, jarrohlik xonalari, reanimatsiya bo‘limlari kabi yuqori xavfli hududlarda havo sifati muhim omil bo‘lib, uning bakteriyologik tozaligi kasalxona ichki infeksiyalarining oldini olishda asosiy chora hisoblanadi.

Shuningdek, kasalxonalarda havoni doimiy monitoring qilish, zamonaviy ventilyatsiya va havoni tozalash tizimlarini joriy etish, shifoxona xodimlari orasida sanitariya qoidalariga qat’iy rioya qilish kasallik tarqalishini sezilarli darajada kamaytiradi. Dezinfeksiya choralari va havoning bakteriyologik holatini nazorat qilish tizimlari samarali bo‘lgan taqdirda, ichki infeksiyalar bilan bog‘liq holatlar kamayadi va bemorlar xavfsizligi oshadi.

O‘zbekistonda kasalxona ichki infeksiyalarining oldini olish bo‘yicha mavjud amaliyotlarni yanada takomillashtirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va xodimlar malakasini oshirish orqali sog‘liqni saqlash sifatini yaxshilash mumkin. Shu bilan birga, havo muhitining bakteriyologik ifloslanishini kamaytirish

kasalxona infeksiyalarining tarqalishini kamaytirishda samarali vosita sifatida e’tirof etilishi lozim.

Umuman olganda, kasalxona ichki infeksiyalarini nazorat qilishda havoning bakteriyologik sifatiga e’tibor qaratish, muassasaning umumiy sanitariya holatini yaxshilash va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish kabi chora-tadbirlar birgalikda qo‘llanilganda, sog‘liqni saqlash tizimida infeksiyalar soni kamayadi, bemorlarning sog‘lig‘i va hayot sifati yaxshilanadi. Shu bois, ushbu yo‘nalishda kompleks va muntazam ish olib borish muhim va zarur hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Smith J., Brown L. (2018). Kasalxonada olingan infeksiyalar va havodagi patogenlar: Sharh. *Infeksiya nazorati jurnali*, 45(3), 123-130.
2. Johnson M., Lee K. (2020). Sog‘liqni saqlash muassasalarida ventilyatsiya tizimlari va infeksiyalarni nazorat qilish. *Xalqaro sog‘liqni saqlash muhandisligi jurnali*, 12(2), 87-95.
3. Lee S. (2019). Kasalxonalarda sanitariya qoidalari va mikroblarning ifloslanishi. *Global sog‘liq jurnali*, 8(4), 210-218.
4. Kumar R., Patel V. (2021). Kasalxonada havodagi bakteriyalar va nosokomiyal infeksiyalar roli. *Klinik mikrobiologiya sharhlari*, 34(1), 45-60.
5. Islomov A. (2022). O‘zbekistonda kasalxona havosining mikrobiologik monitoringi. *O‘zbekiston tibbiyot jurnali*, 4(1), 56-62.
6. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST). (2017). Milliy va shoshilinch tibbiyot muassasalari uchun infeksiya oldini olish va nazorat qilish dasturining asosiy komponentlari bo‘yicha yo‘riqnoma. JSST nashriyoti.

VII SHO`BA

Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarida zamonaviy menejment, marketing va logistika masalalari





O'ZBEKISTON SHAROITIDA DPMLARDA IQTISODIY JIHATDAN RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY MENEJMENT, MARKETING VA LOGISTIKA MASALALARI O'RNI VA AHAMIYATI

Mamasolieva Shoxista Abdugapparovna[1],
Narzullayeva Shirin Aziz qizi[2]
[1]SamDTU “Jamoat salomatligi va soglikni saqlash menejmenti” kafaedrasi katta oqituvchisi
[2] SamDTU Stomatologiya fakulteti 1 kurs talabasi
e-mail: mamasoliyeva.shoxista77@gmail.com

ANNOTATSIYA: O'zbekiston sharoitida davolash profilaktika muassasalarida iqtisodiy jihatdan rivojlantirishda zamonaviy menejment, marketing va logistika masalalari o'rni va ahamiyati" mamlakatimizning sog‘liqni saqlash sohasidagi islohotlar jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat va xususiy DPMlar cheklangan resurslardan maksimal foydalanishga majbur bo’lmoqda. Zamonaviy menejment usullari (masalan, byudjetlashtirish, sifatni boshqarish) orqali xarajatlarni nazorat qilish, isrofgarchilikning oldini olish va tibbiy xizmatlar tannarxini optimallashtirish dolzarb vazifalardan biridir. Sog‘liqni saqlash bozorida bugungi kunda raqobat kuchaymoqda. Marketing strategiyalari DPMlarga o‘zining ijobiy imidjini yaratish, ko‘rsatilayotgan xizmatlarning o‘ziga xosligini targ‘ib qilish (masalan, yuqori texnologiyali muolajalar) va bemorlarni jalb qilish orqali bozor ulushini oshirish imkonini beradi. Bundan tashqari dori-darmon, sarf materiallari va tibbiy uskunalar bilan ta'minlashdagi uzilishlar bevosita tibbiy xizmat sifatiga ta'sir qiladi. Samarali logistika tizimlarini joriy etish zaxiralarni optimallashtiradi, saqlash xarajatlarini kamaytiradi va eng muhimi, kerakli vositalarning doimiy va o'z vaqtida yetkazilishini ta'minlaydi. Zamonaviy menejment shifokorlar va tibbiyot xodimlarining malakasini oshirish, ularni motivatsiya qilish, ish jarayonlariga innovatsiyalarni joriy etishga undash orqali DPMlarning umumiy samaradorligini va xizmat ko‘rsatish madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, DPMlarni iqtisodiy rivojlantirish O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash tizimining sifatini va mavjudligini ta'minlash uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega

bo‘lib, bu maqsadga zamonaviy boshqaruv, marketing va logistika yechimlarini integratsiya qilish orqali erishish muhimdir.

Kalitli so’zlar: iqtisod, zamonaviy menejment,moliyaviy menejment,strategic menejment, marketing, logistika, rivojlanish, strategiya, marketing strategiya.

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ВОПРОСОВ МЕНЕДЖМЕНТА, МАРКЕТИНГА И ЛОГИСТИКИ В ЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ КОМПАНИЙ ПО РАЗВИТИЮ МЕДИЦИНСКИХ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА

Мамасолиева Шохиста Абдугаппаровна[1],
Нарзуллаева Ширин Азиз кизи[2]
[1]Старший преподаватель кафедры «Общественное здоровье и управление здравоохранением» СамДТУ
[2]Студентка 1 курса стоматологического факультета СамДТУ
e-mail: mamasoliyeva.shoxista77@gmail.com

Роль и значение вопросов современного менеджмента, маркетинга и логистики в экономическом развитии лечебно-профилактических учреждений Узбекистана имеет большое значение в процессе реформирования сферы здравоохранения нашей страны. Государственные и частные ЛПУ вынуждены максимально использовать ограниченные ресурсы. Контроль затрат, предотвращение потерь и оптимизация себестоимости медицинских услуг за счет современных методов управления (например, бюджетирование, управление качеством) является одной из актуальных задач. Конкуренция на рынке здравоохранения сегодня обостряется. Маркетинговые стратегии позволяют ЛПУ создавать положительный имидж, продвигать уникальность предоставляемых услуг (например, высокотехнологичных процедур) и увеличивать долю рынка за счет привлечения пациентов. Кроме того, перебои с поставками лекарственных средств, расходных материалов и медицинского оборудования напрямую влияют на качество медицинских услуг. Внедрение эффективных систем логистики оптимизирует запасы, снижает затраты на

хранение и, самое главное, обеспечивает постоянную и своевременную поставку необходимых средств. Современный менеджмент служит повышению общей эффективности и культуры обслуживания ЛПУ за счет повышения квалификации сотрудников, их мотивации и стимулирования к внедрению инноваций в свои рабочие процессы. В заключение следует отметить, что экономическое развитие ДПМ имеет решающее значение для обеспечения качества и доступности системы здравоохранения в Узбекистане, и достижение этой цели важно посредством интеграции современных решений в области управления, маркетинга и логистики.

Ключевые слова: экономика, современный менеджмент, финансовый менеджмент, стратегическое управление, маркетинг, логистика, развитие, стратегия, маркетинговая стратегия.

THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF MODERN MANAGEMENT, MARKETING, AND LOGISTICS IN THE ECONOMIC DEVELOPMENT OF HEALTHCARE FACILITIES IN UZBEKISTAN

Mamasolieva Shoxista Abdugapparovna[1],
Narzullayeva Shirin Aziz qizi[2]
[1]Senior lecturer of the department of
"Public health and health management"
of SamDTU
[2]1st year student of the Faculty of Dentistry
of SamDTU
e-mail: mamasoliyeva.shoxista77@gmail.com
phone number: +998933480989

The topic, "The Role and Significance of Modern Management, Marketing, and Logistics in the Economic Development of Healthcare Facilities in Uzbekistan," is of critical importance within the context of the ongoing healthcare reforms in the country. Both state and private Healthcare and Prevention Facilities (HPFs) are compelled to maximize the utilization of limited resources.One of the pressing challenges is the cost control, waste prevention, and optimization of medical service costs through the application of modern management techniques, such as budgeting

and quality management.Competition in the healthcare market is intensifying today. Marketing strategies enable HPFs to build a positive image, promote the uniqueness of their services (e.g., high-tech procedures), and increase their market share by attracting patients.Furthermore, disruptions in the supply of medicines, consumables, and medical equipment directly impact the quality of medical services. The implementation of effective logistics systems is vital as it optimizes inventory, reduces storage costs, and, most importantly, ensures the continuous and timely delivery of necessary supplies.Modern management is instrumental in enhancing the overall efficiency and service culture of HPFs by improving the qualifications of doctors and medical staff, motivating them, and driving the implementation of innovations into work processes.In conclusion, the economic development of HPFs is crucial for ensuring the quality and accessibility of the healthcare system in Uzbekistan, and achieving this objective requires the integration of modern management, marketing, and logistics solutions.

Keywords: Economy, modern management, financial management, strategic management, marketing, logistics, development, strategy, marketing strategy, healthcare and prevention facilities (HPFs).

O'zbekiston Respublikasida sog'liqni saqlash tizimini isloh qilishning hozirgi bosqichi, ayniqsa, birlamchi tibbiy-sanitariya yordami bo'g'ini – Davlat poliklinika muassasalari (DPM) faoliyatini tubdan takomillashtirishni taqozo etmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyevning sog'liqni saqlash sohasiga qaratayotgan alohida e'tibori natijasida tibbiyot muassasalarining moddiy-texnik bazasi mustahkamlanib, aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati oshmoqda. Biroq, bozor iqtisodiyoti sharoitida DPMlarning nafaqat tibbiy, balki iqtisodiy barqarorligini ta'minlash muhim vazifaga aylanmoqda. Bu jarayonda esa an'anaviy boshqaruv usullari o'rnini zamonaviy menejment, marketing va logistika kabi innovatsion yondashuvlar egallashi shart. Ushbu maqolada O'zbekiston sharoitida DPMlarni iqtisodiy jihatdan rivojlantirishda mazkur uch sohaning o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi.

Kalitli so’zlar:

Ilmiy tadqiqotning maqsadi: O‘zbekiston sharoitida birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari (DPMlar) faoliyatini tahlil qilish asosida ularni iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirishda zamonaviy menejment, marketing va logistika vositalarini qo‘llashning ilmiy-nazariy asoslarini takomillashtirish hamda amaliy samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi DPMlar faoliyatiga "yangi avlod" boshqaruv tizimi (digitalizatsiyaga asoslangan menejment), samarali marketing strategiyalari (raqamli marketing, eksportga yo'naltirilgan) va "oxirigacha yetkazuvchi" (end-to-end) logistika zanjirini boshqarish amaliyotlarini joriy etish bo'yicha konkret, amaliy mexanizmlar va takliflar to'plamini ishlab chiqish hamda Taklif etilgan chora-tadbirlarni DPMlarning moliyaviy barqarorligi, rentabelligi va ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sirini miqdoriy jihatdan baholash va ularning iqtisodiy rivojlanishga qo'shadigan hissasini prognozlash.

Zamonaviy menejmentning samarali boshqaruvdan iqtisodiy barqarorlik sari harakati

Bugungi kunda poliklinika rahbari faqatgina yaxshi shifokor bo'lishi kifoya qilmaydi. U, eng avvalo, moliyaviy oqimlarni to'g'ri boshqara oladigan, xodimlarni rag'batlantira biladigan va muassasa resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlaydigan samarali menejer bo'lishi lozim.Bunda menejerlar qo’yidagilarni bajara olishi lozim:

Strategik rejalashtirish – ya’ni zamonaviy menejment DPM faoliyatini uzoq muddatli rejalashtirishni talab qiladi. Bu o'z ichiga hududdagi demografik o'zgarishlarni tahlil qilish, kasalliklar dinamikasini o'rganish va shunga mos ravishda tibbiy xizmatlar turlarini rivojlantirishni oladi[1,2]. Misol uchun, aholisi "yosharib" borayotgan hududda pediatriya va reproduktiv salomatlik xizmatlariga, aholisi keksayib borayotgan hududda esa kardiologiya va geriatriya yo'nalishlariga ustuvorlik berish – strategik menejmentning amaliy ko'rinishidir.

Moliyaviy menejment– davlat tomonidan ajratilayotgan mablag'lar bilan bir qatorda, pullik xizmatlar ko'rsatish orqali byudjetdan tashqari mablag'larni jalb

qilish DPMlarning iqtisodiy mustaqilligini oshiradi[22]. Samarali moliyaviy menejment xarajatlarni optimallashtirish (masalan, energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish), daromad manbalarini diversifikatsiya qilish (laboratoriya, diagnostika, reabilitatsiya xizmatlari) va shaffof moliyaviy hisobot tizimini yo'lga qo'yishni nazarda tutadi [6].

Inson resurslarini boshqarish (HR) – Xodimlarning malakasini muntazam oshirib borish, ular uchun qulay mehnat sharoitlarini yaratish va eng muhimi, mehnatga yarasha haq to'lash tizimini (KPI – samaradorlikning asosiy ko'rsatkichlari) joriy etish nafaqat xizmat sifatini oshiradi, balki yuqori malakali kadrlarning muassasada uzoq muddat ishlashiga zamin yaratadi[23].

Marketing– aholining tibbiy xizmatlarga bo'lgan talabini o'rganish va qondirish san'ati sifatida

"Marketing" so'zi ko'pchilik uchun faqat reklama tushunchasi bilan bog'lanadi. Aslida esa, tibbiy marketing – bu aholining tibbiy xizmatlarga bo'lgan ehtiyojini o'rganish, ularga mos, sifatli va qulay xizmatlarni taklif etish hamda bemorlarning muassasaga bo'lgan ishonchini qozonishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar tizimidir. Unda:



Logistika maqsadi asosi resurslarning o'z vaqtida va samarali harakatini amalga oshirishdir

Tibbiy logistika – bu dori-darmonlar, tibbiy buyumlar, vaksinalar va boshqa zarur resurslarning xarid qilinishidan to pirovard bemorga yetib borguniga qadar bo'lgan

[22] **T. A. Abdurahmonov** (Sog'liqni saqlashdagi iqtisodiy menejment bo'yicha ishlari)

[23] **Professor A. R. Bekmurodov** (va hammualliflar), "Kadrlar menejmenti" darslik, Nashriyot nomi: Iqtisod-moliya, 2008 yil

zanjirni samarali boshqarishdir[3.4]. DPMlarda logistikaning to'g'ri yo'lga qo'yilishi nafaqat bemorlarga o'z vaqtida yordam ko'rsatishni ta'minlaydi, balki jiddiy iqtisodiy samara ham beradi.

- **Xaridlar logistikasi** bunda asosan dori vositalari va tibbiy anjomlarga bo'lgan real ehtiyojni aniq prognozlash ortiqcha zaxiralar paydo bo'lishining oldini oladi va muassasa aylanma mablag'larini tejaydi. Ishonchli yetkazib beruvchilar bilan uzoq muddatli shartnomalar tuzish narxlarni optimallashtirish imkonini beradi.
- **Omborxona logistikasi** faoliyatida dori vositalari va vaksinalarni saqlash sharoitlariga (harorat, namlik) qat'iy rioya qilish ularning yaroqlilik muddatini saqlab qoladi va isrofgarchilikka yo'l qo'ymaydi. Zamonaviy hisob-kitob dasturlarini joriy etish ombordagi qoldiqlar haqida aniq ma'lumotga ega bo'lishni va buyurtmalarni o'z vaqtida shakllantirishni ta'minlaydi.
- **Ichki logistika** harakati muassasa ichida bemorlar oqimini to'g'ri tashkil etish (masalan, registratsiyadan shifokor xonasigacha, tahlillardan diagnostika xonalarigacha bo'lgan yo'nalishlarni optimallashtirish) uzun navbatlarning oldini oladi, vaqtni tejaydi va aholining xizmatlardan mamnunligini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston sharoitida Davlat poliklinika muassasalarining iqtisodiy rivojlanishi va raqobatbardoshligini ta'minlash uchun zamonaviy menejment, marketing va logistika tamoyillarini kompleks ravishda joriy etish hayotiy zaruratdir. Bu uch yo'nalish bir-biri bilan chambarchas bog'liq:

- **Samarali menejment** muassasa faoliyati uchun mustahkam poydevor va strategik yo'nalish yaratadi.
- **Puxta o'ylangan marketing** aholining talab va ehtiyojlarini aniqlab, muassasani bemorlar uchun jozibador qiladi.
- **Optimallashtirilgan logistika** esa resurslarning uzluksiz va tejamkor harakatini ta'minlab, menejment va marketing strategiyalarini amalda ishlashiga imkon beradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston sharoitidagi DPMlar (Davlat ishtirokidagi korxonalar) ning iqtisodiy rivojlanishi ularning institutsional transformatsiyasiga bevosita bog‘liq. Faqatgina kapital qo‘yilmalari emas, balki

zamonaviy menejment, innovatsion marketing va samarali logistika tizimlarining sinergik integratsiyasi DPMlarning raqobatbardoshligini ta’minlovchi fundamental omil hisoblanadi. An’anaviy, buyruqbozlikka asoslangan boshqaruv uslubi DPMlarning bozor talablariga tezkor moslashishiga to‘siq bo‘lib, bu uch mexanizmning kompleks joriy etilishi DPMlardagi “davlat mulkchiligining noeffektivligi” paradigmasini o‘zgartirishga xizmat qiladi.Ushbu sohalarga yetarlicha e'tibor qaratish DPMlarni nafaqat davlat byudjetiga qaram bo'lgan tibbiy muassasadan, balki aholiga yuqori sifatli xizmat ko'rsatish orqali o'zini-o'zi iqtisodiy ta'minlay oladigan, barqaror rivojlanayotgan zamonaviy tibbiyot markazlariga aylantirishning kalitidir. Shuningdek, tahlillar DPMlardagi yuqori tranzaksiya xarajatlari, ayniqsa, logistika zanjiri uzilishlari va eski marketing amaliyotlari hisobiga yuzaga kelishini tasdiqladi. Mazkur omillarni zamonaviy vositalar orqali optimallashtirish – masalan, raqamli ta’minot zanjiri boshqaruvi (SCM) va eksportga yo‘naltirilgan niche marketing strategiyalarini qo‘llash – DPMlarning rentabelligi va eksport salohiyatini oshirishning asosiy draveri bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Michael E. Porter, Raqobatdosh ustunlik: yuqori ishlash qobiliyatini yaratish va saqlash (*Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance*), 1985 yil, The Free Press (Simon & Schuster kompaniyasi bo'linmasi) nashriyoti
2. Igor Ansoff, Strategik Menejment (*Strategic Management*) "Implanting Strategic Management" nomli kitob ,1985 yil The Free Press (Simon & Schuster kompaniyasi bo'linmasi) nashriyoti
3. Donald J. Bowersox, David J. Closs, M. Bixby Cooper, Supply Chain Logistics Management, McGraw Hill Education nashriyoti -2020 yil
4. UNICEF / Gavi, Cold Chain and Vaccine Management (Sovuq zanjirni va vaksinalarni boshqarish bo'yicha texnik qo'llanmalar)-2023 yil
5. T. A. Abdurahmonov, "Sog'liqni saqlash tizimida marketing" o’quv darslik, Nashriyot nomi: "Iqtisodiyot"-2006 yil
6. Мамасолиева Sh. Аҳолига кўрсатилаётган тиббий хизматларнинг ижтимоий-иқтисодий механизми ташкилий жиҳатлари //Involta Scientific Journal. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 419-428.

IQTISODIYOT TARMOQLARI VA SOHALARIDA ZAMONAVIY MENEJMENT, MARKETING VA LOGISTIKA MASALALARI
TIJORAT BANKLARIDA ZAMONAVIY MENEJMENT TIZIMINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

Raximboyeva Gulasal Rustam qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot
universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada tijorat banklarida zamonaviy menejment tizimlarini joriy etish va ularning samaradorligini oshirish yo‘llari tahlil qilinadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida banklarning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun menejment tizimlarini modernizatsiya qilish muhim ahamiyatga ega. Maqolada menejmentning ikki yo‘nalishi, ya’ni xodimlarni boshqarish hamda moliyaviy boshqarish yo‘nalishlari tahlil qilindi, hamda samaradorlikni oshirish uchun takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: menejment, bank tizimi, raqamli texnologiyalar, samaradorlik, boshqaruv, strategiya, risk-menejment.

Kirish. Bozor iqtisodiyoti sharoitida banklar faoliyatida boshqaruvni samarali tashkil etish, banklarning xizmatlarini kengaytirish va uni realizatsiya qilish masalasi asosiy vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Har qanday bank hozirgi moliyaviy bozorning yuqori darajada rivojlanishi bilan iqtisodiy barqarorlik bo‘lganda ham ma’lum jiddiy qiyinchiliklarni yengib o‘tishga to‘g‘ri keladi[1]. Bu o‘z navbatida banklardan optimal boshqaruv tizimini tashkil qilish zaruriyatini anglatadi. Bank menejmenti o‘z ichiga xodimlar menejmenti va moliyaviy menejmentni oladi. Samarali faoliyat olib borish uchun har ikki yo‘nalishda muhim yangilanishlar qilib borish kerak. Jahon tajribasida bank menejmentining turli modellarini ko‘rishimiz mumkin. Ularning har biri o‘zining hududida tashkil topgan an’analarga asoslanadi. Misol tariqasida menejmentning Germaniya modeli, Anglo-Amerika modeli va Yaponiya modeli mashxur va boshqa mamlakatlarda ham qismat foydalaniladi. O‘zbekiston tijorat banklari esa ayni paytda bu modellarning aralashgan, ya’ni gibrid modelidan foydalanmoqda. Raqamli texnologiyalarning tez

fursatda rivojlanishi banklarda yangi zamonaviy menejment tamoyillarini ishlab chiqishni taqazo etadi.

Asosiy qism. Banklarda zamonaviy menejment tizimini tashkil qilishni yuqorida ta'kidlanganidek xodimlar va moliyaviy menejmentga bo‘lib o‘rganiladi. Dastavval, har ikki yo‘nalishda O‘zbekiston banklarida qanday tizim mavjudligi tahlil qilinadi, hamda jahon tajribasidan samaradorlikni oshirish bo‘yicha takliflar berib o‘tiladi.

Xodimlar boshqaruvini samarali tashkil etishda kadr siyosati (Personnel Policy / HR Policy) bankning strategik maqsadlari bilan uzviy bog‘liq.

1-Jadval

Bank xodimlarini boshqarish tizimining maqsadlari va tavsiflari

Maqsad	Tavsif
Samarali mehnat muhitini yaratish	Xodimlar uchun qulay va barqaror ish sharoitlarini ta'minlash.
Xizmat sifatitini oshirish	Mijozlarga professional, tez va ishonchli xizmat ko‘rsatish uchun malakali xodimlarni yetishtirish.
Motivatsiyani kuchaytirish	Xodimlar ishidagi qoniqish, sadoqat va samaradorlikni oshirish.
Kadrlar aylanishini kamaytirish	Bankda malakali va sodiq kadrlarni saqlab qolish.
Strategik rivojlanishni ta'minlash	Bankning uzoq muddatli maqsadlariga xizmat qiluvchi kadrlar salohiyatini shakllantirish.

Jadvalda xodimlar uchun menejment tizimi maqsadlari keltirilgan. Strategik rivojlanishni ta'minlash bankning uzoq muddatli maqsadlariga erishishni anglatadi va bu uchun xodimlarni bilim darajasini davomiy oshirib borish kerak.

Masalan, AloqaBankda HR siyosati quyidagicha belgilangan: xodimlarni rivojlantirish, korporativ madaniyatni mustahkamlash, xizmat sifatiga yo‘naltirilgan jamoa shakllantirish, KPI asosida baholash tizimini joriy qilish, HR transformatsiyasi va IT yechimlarni qo‘shish kabi yo‘nalishlar mavjud [2].

Shuningdek, TrastBank ham kadr siyosatini bank strategiyasi bilan muvofiqlashtirish va xodimlarning salohiyatini maksimal darajada ishlatish tamoyillariga asoslangan [3]. Umuman olganda hozirgi kunda O‘zbekiston banklarida xodimlarni boshqarish tizimi quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- xodimlar yollash va tanlash
- malaka oshirish va treninglarni tashkil qilish
- mehnat shartnomalarini boshqarish
- ish unumdorligini baholash (performance appraisal)
- xodimlarni rag‘batlantirish va motivatsiya tizimi
- korporativ madaniyat va kommunikatsiyalar
- HR transformatsiyasi va texnologik qo‘llanmalar

Shuningdek, ba’zi banklarda HR komiteti mavjud bo‘lib, u boshqaruv kengashi qoshida faoliyat yuritadi va HR siyosatini nazorat qiladi [4]. Masalan, Uzumbank’ning korporativ boshqaruv bo‘limida HR Komitet funksiyasi mavjudligi ta’kidlangan.

O‘zbekiston banklarida xodimlar menejmenti tizimini rivojlantirish bo‘yicha bir qator ustuvor yo‘nalishlarni belgilash zarur. Avvalo, HR bo‘limlarini strategik darajaga ko‘tarish, ularning faoliyatini bankning umumiy rivojlanish strategiyasi bilan uzviy bog‘lash muhimdir. Shuningdek, zamonaviy HRMS (Human Resource Management System) texnologiyalarini joriy etish orqali kadrlar bilan ishlash jarayonlarini avtomatlashtirish va samaradorlikni oshirish mumkin.

Xodimlarning ish faoliyatini baholashda KPI (asosiy ko‘rsatkichlar) tizimini muntazam takomillashtirish, u orqali shaffoflikni kuchaytirish hamda natijaga yo‘naltirilgan boshqaruvni shakllantirish tavsiya etiladi. Bunga qo‘shimcha ravishda, xodimlarning malakasini oshirish va uzluksiz o‘qitish dasturlarini kengaytirish, bank sektorida kadrlar salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Nihoyat, korporativ madaniyat va ichki kommunikatsiyalarni rivojlantirish orqali jamoaviy ish muhitini mustahkamlash mumkin.

Ushbu yondashuvlar ilg‘or xorijiy tajribaga hamohang bo‘lib, O‘zbekiston banklarida HR bo‘limlarining strategik rolini kuchaytirish orqali raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi.

Bankning moliyaviy menejmentiga keladigan bo‘lsak, davlat tomonidan olib borilayotgan kompleks islohotlar, regulatorlik yangilanishlari va raqamli transformatsiya jarayonlari samaradorlik oshishida katta o‘rin egallamoqda.

Banklarda moliyaviy menejment asosan quyidagi komponentlardan iborat: kapital yetarliligi va ulardan foydalanish, likvidlik nazorati, aktivlar sifati, rentabellik tahlili va risk boshqaruvi. Masalan, Azlarova maqolasida qayd etilishicha, bank aktivlarining o‘sishi va muammoli kreditlar ulushi moliyaviy barqarorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda, shuningdek, valyuta siyosati va soliqlar sohasidagi tezyurar o‘zgarishlar rentabellikni beqarorlashtiradi [5].

Fitch baholari ham O‘zbekiston bank tizimining operatsion muhiti kuchayganini ko‘rsatadi-regulyatorlik islohotlari va korporativ boshqaruv standartlarining kuchaytirilishi bank faoliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston banklarida moliyaviy menejment tizimini takomillashtirish uchun, birinchi navbatda, zamonaviy raqamli texnologiyalar va analitik platformalarni keng joriy etish zarur. Bu esa qaror qabul qilish jarayonini tezlashtirib, moliyaviy risklarni aniqroq baholash imkonini beradi. Shuningdek, xalqaro moliyaviy boshqaruv standartlarini tatbiq etish va xodimlarning malakasini oshirish orqali tizimning samaradorligini oshirish mumkin.

Har ikkala yo‘nalishdagi islohotlar bankning ishlash samaradorligini oshiradi, pirovardida esa bankning resurslarini tejab, daromadning oshishiga sabab bo‘ladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, hozirgi kunda banklarimiz ham xodimlarni ham moliyaviy menejmentda qator islohotlarni amalga oshirib rivojlanib kelmoqda. Zamonaviy raqamli texnologiyalardan unumli foydalanib, banklarga tadbiq etish ularning ishlash samaradorligini oshirishda xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ortiqov O.A., Qulliyev. Bank menejmenti va marketingi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent 2015, 4.

2. AloqaBank. Personnel Policy. https://aloqabank.uz (murojaat sanasi: 04.10.2025)
3. TrustBank. Kadrlar siyosati va xodimlar bilan ishlash tamoyillari. https://trustbank.uz.
4. Goyipnazarov S.B., Ngah R., Fayzieva M.K., Azizan N.A., Khalique M. Assessment of the Strategic Roles of HR Professionals in the Development of the E-Banking System in the Banking Sector of Uzbekistan. ICFNDS 2021: The 5th International Conference on Future Networks & Distributed Systems, Dubai, United Arab Emirates, December 2021.
5. Azlarova A.A. The Banking System of Uzbekistan: Current State and Development Prospects. Journal of Contemporary Business Law & Technology Cyber Law Blockchain and Legal Innovations, 2024. – Vol. 1, No. 8. – pp. 8–15.

ASALARICHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISHDA MARKETING STRATEGIYALARINING AHAMIYATI

Rashidova Xadicha Tursunaliyevna
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Iqtisodiyot kafedrasi o‘qituvchisi
xadicha_rashidova@tues.uz

O‘zbekiston Respublikasida asalarichilik sanoati bir necha ming yillar davomida rivojlanib kelmoqda. Bu qulay tabiiy-iqlim sharoiti, o‘rmon zonalari, o‘tloq va dashtlarda ko‘plab asal o‘simliklari va mahalliy asalarichilarning mehnatsevarligi ularning ozuqa manbalari hisoblangan o‘simliklarga bevosita bog‘liq. Aksariyat qadimgi manbalarda jumladan, Abu Rayhon Beruniy “As-Saydana fit-tib” kitobining bir bobini asalga bag‘ishlaydi. Unda XI – asrgacha bo‘lgan asal va asalarichilikka doir ma’lumotlarni to‘playdi va bayon qiladi. Asalning xillari va uni kelib chiqishiga to‘xtaladi.

Asalarichilikni rivojlanishi, hamda asalli o‘simliklarni o‘rganilishida 1906-yildan boshlab Toshkentda nashr etila boshlagan “Turkiston qishloq xo‘jaligi” (“Туркестанское селское хозяйство”) jurnali muhim rol o‘ynaydi.

А.А.Александров (1906) birinchilardan boʻlib, jurnal sahifalarida Kattaqoʻrgʻon, Samarqand, Xoʻjand va Toshkent shaharlarida asalarichilikni rivojlanishi haqida ma`lumotlar beradi. Shuningdek, u Oʻrta Osiyoning moʻtadil iqlim sharoiti va xilma-xil oʻsimliklar olami bu yerlarda asalarichilikning rivojlanishida asosiy omil ekanligini yozadi.

1918-yil Namangan tumanida 40 kishini birlashtirgan asalarichilar uyushmasi tashkil etildi. N.N.Shilina ma'lumotlariga koʻra, 1909-yilda Oʻrta Osiyoda jami 1844 asalarichi va 83907 asalari oilalari (ari oilalari va archa poʻstloqlari oraligʻda joylashgan asalari oilalari ham hisobga olingan) mavjud edi.[1]

G`.Hamidovning ilmiy rahbarligida R.Muhamatzyanova Surxondaryo viloyatining asal shirali oʻsimliklarni oʻrganadi. Mazkur viloyatda 487 tur asalli oʻsimliklar borligi aniqlangan[2]. Shuningdek, u Oʻzbekiston Respublikasining qariyib barcha viloyatlar, qoʻshni Qirgʻiziston, Tojikiston va Qozogʻiston respublikalarining bizga chegeradosh hududlarida (Arslonbob, Shohimardon, Pochchaota, Zomin, Sangardak, Bobotogʻ, Kuxitangtogʻ) keng ravishda asalli oʻsimliklar va ularning resurslarini asalarichilikni rivojlantirilish yoʻllarini oʻrganadi.

Asalarichilik qishloq xoʻjaligining muhim tarmogʻi hisoblanadi va u inson uchun gʻoyat foydali taom. Asal va sanoat uchun xom ashyo hisoblangan asalari suti, propolis, asalari mahsulotlari tarkibida 70 ga yaqin fermentlar, vitaminlar, gormonlar va boshqa kimyoviy faol moddalar aniqlangan. Ular tibbiyotda bir qancha kasalliklarni davolashda muhim manba hisoblanadi[3]. Bulardan tashqari, asalarichilikni qishloq xoʻjalik ekinlarini hosildorligini oshirishdagi ahamiyati katta. Ma'lum boʻlishicha, biosferamizdagi 80% gulli oʻsimliklar chetdan changlanishga moyil va ularni chetdan changlanishini ta'minlaydigan hasharotlar orasida asalarilarning ulushi 80% ga teng.

A.Ponomareva, S.Gluxov, I.Krivsov va boshqalar tomonidan qishloq xoʻjaligi va unga turdosh iqtisodiy tarmoqlarni rivojlantirishga asalarilarni foydalari toʻgʻrisida toʻxtalib "Asalarilar tufayli chetdan changlatilganda beda va dukkakli

o‘simliklar hosili 35 – 40%, kungaboqarniki 50 – 60%, poliz ekinlariniki esa 100 – 150% ga oshadi[4]” deb ta’kidlaydilar.

Mo’tadil iqlim, seleksiya va naslchilik ishlarini olib borish hamda asalari zotlarini zona oldi tabiiy-iqlim sharoitlariga moslashtirish jarayonida asalarichilikning ustuvor iqtisodiy asoslangan yo‘nalishlari shakllantirildi. Bu borada, ayniqsa Surxon vohasidagi asalarichilik boshqa hududlarga nisbatan imkoniyati yuqori ekanligini, buning sababi esa voha iqlimi bir muncha iliqligi tufayli asalarilar boshqa viloyatdagi asalarilardan ko‘ra qishgi fasldan 20-45 kun ertaroq uyg‘onib, ko‘proq asal olish imkonini beradi.

Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 12-iyundagi “Asalarichilik tarmog‘ini qo‘llab-quvvatlash va qishloq xo‘jaligi ekinlarini asalari bilan changlatishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”239-son qaroriga muvofiq 1-Ilovada 2023-yilda paxta-to‘qimachilik klasterlari tomonidan g‘o‘zani asalari bilan changlatish agrotexnikasi qo‘llaniladigan maydonlarning prognoz ko‘rsatkichlarida Surxondaryo viloyati uchun 20 ming gektar g‘o‘zani asalari bilan changlatish agrotexnikasi qo‘llaniladigan maydon rejalashtirilib, Dalaga qo‘yiladigan asalari oilasi sonini 40 mingta bo‘lishi ko‘zda tutilgan.

Birgina 2023-yilda O‘zbekiston Respublikasidagi asalarichilik bozori 31,5 ming tonna tabiiy asal ishlab chiqarishni ta’minlaydigan 1,4 millionga yaqin asalari oilalari mavjudligi bilan tavsiflanadigan mamlakatga aylandi. Qishloq xo‘jaligi korxonalarida asal ishlab chiqarish juda kam, chunki asosiy ulush, ya’ni 97-98% havaskor asalarichilar tomonidan ta’minlanadi, asalari oilalarining o‘rtacha mahsuldorligi yuqori.

O‘zbekiston Respublikasida asal va boshqa asalarichilik mahsulotlari bozoridagi vaziyatni chuqur tahlil qilish ushbu tarmoq korxonalari uchun samarali marketing strategiyasi va taktikasini shakllantirish hamda ishlab chiqishning zaruriy shartidir.

O‘zbekiston asalarichilik uyushmasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yilda barcha toifadagi fermer va uy xo‘jaliklarida 1,4 million asalari oilalari mavjud. Bu, so‘nggi 23 yil ichida ularning soni qariyb 1 million oilaga oshdi. Fermer xo‘jaliklari

toifalari bo‘yicha ularning soni dinamikasini hisobga oladigan bo‘lsak, qishloq xo‘jaligi korxonalarida ko‘p jihatdan 26 foizga yoki 2,5 baravarga pasayish kuzatildi, shaxsiy dehqon xo‘jaliklarida esa ma’lum o‘sish sur’atlariga ko‘ra, ijobiy tendensiya saqlanib qolmoqda. Bu ayniqsa, Respublika hududlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Chunki, asalarichilik ham ma’lum hudud va makonda ya’ni, mo‘tadil iqlim yetarli sharoit bo‘lgandagina samaradorlikka erishishi mumkin.

Shu ma’noda O‘zbekiston Respublikasi hududlari bo‘yicha asal ishlab chiqarish tarmoqlari faoliyatini 2010-2023-yillar bo‘yicha tahlil qiladigan bo‘lsak, oldingi o‘rinlardan joy egallab kelayotgan Namangan viloyati ekanligini (kuzatilayotgan davrlar oralig‘ida o‘rtacha 2927,9 tonna), ikkinchi o‘rinda Buxoro viloyati (o‘rtacha 1755 tonna), keyingi o‘rinlarni Qashqadaryo (o‘rtacha 1646,3 tonna) va Samarqand(1546,3 tonna) viloyatlari egallab kelmoqda (1-jadval).

1-jadval

O‘zbekistonRespublikasi hududlarida asal ishlab chiqarish holati (tonna)

№	Hududlar	2010	2015	2020	2021	2022	2023	2023-yilda 2010-yilga nisbatan o‘zgarishi (-,+)
1	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	500,7	703,2	916	1000	1265	1470	969,3
2	Andijon viloyati	757,1	925,9	1385	1550	1631	1896	1138,9
3	Buxoro viloyati	1186,1	1450,7	2170	2400	2495	2900	1713,9
4	Jizzax viloyati	945,1	1155,8	1729	1876	2010	2336	1390,9
5	Qashqadaryo viloyati	1113,4	1361,7	2037	2200	2349	2730	1616,6
6	Navoiy viloyati	804,1	983,4	1471	1650	1726	2006	1201,9
7	Namangan viloyati	1351,8	2685,9	2473	4500	4832	5617	4265,2

8	Samarqand viloyati	1047,3	1280,9	1916	2000	2216	2576	1528,7
9	Surxondaryo viloyati	981,2	1200,0	1795	1950	2083	2421	1439,8
10	Sirdaryo viloyati	311,6	414,1	570	600	745	866	554,4
11	Toshkent viloyati	789,8	966,0	1445	1550	1697	1973	1183,2
12	Farg‘ona viloyati	953,3	1165,9	1744	1900	2027	2356	1402,7
13	Xorazm viloyati	960,9	1175,2	1758	1900	2042	2378	1417,1

Manbaa: O`zbekiston Respublikasi asalarichilik uyushmasi ma`lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Jadval ma’lumotlariga ko‘ra, haqiqatdan ham eing yuqori ko‘rsatkich Namangan viloyatiga to‘g‘ri kelib, 2010-yilga nisbatan 2023-yilda 4265,2 tonnaga oshib 5617 tonnaga yetgan. Undan keyingi o‘rinni Buxoro viloyati egallab 2010-yilda 1186,1 tonnaga yetgan bo‘lib, 2023-yilda bazis yilga nisbatan 1713,9 tonna oshib 2900 tonnaga yetdi. Bu borada, obyekt sifatida tanlab oligan Surxondaryo viloyatida asal ishlab chiqarishiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, barcha hududlarga nisbatan o‘rta miqdorda ya’ni 2010-yilda 981,2 tonna va 2023-yilda esa 2010-yilga nisbatan 1439,8 tonnaga o‘zgarib 2421 tonnaga yetganligi kuzatildi.

Bunday ishlab chiqarilgan mahsulot hajmining oshishi albatta, kelgusida mahalliy aholi iste’moli darajasidan ortgan mahsulotni eksport qilishga va bu orqali asal eksport salohiyatini oshishini ta’minlashiga xizmat qiladi

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, asal ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyatining yuqori raqobatbardoshligi va samaradorligiga, asal eksporti bo‘yicha jahon yetakchiligiga erishish uchun birinchi navbatda asalning chakana savdosini rivojlantirish, mahalliy korxonalarning o‘z tovar belgilarini yaratish hamda targ‘ib qilish zarur, deb hisoblaymiz. Buning uchun asalarichilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotishning marketing komponentiga ko‘proq e’tibor qaratish lozim. Shuningdek, organik asalarichilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni ham unutmasligimiz kerak, u hozirda tendensiyada bo‘lib, unga talab yil sayin ortib bormoqda.

Ikkinchidan, asalarichilikni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashda:

- soliq imtiyozlarini berish, imtiyozli shartlarda kreditlar berish va investitsiyalarni jalb qilish;

- asalarichilikni rivojlantirishga ko‘maklashish, maqsadli subsidiyalar va boshqa turdagi moliyaviy yordam ko‘rsatish;

- asalarichilik bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlash va iqtisodiy rag‘batlantirishning boshqa chora-tadbirlarini amalga oshirish maqsadga muvofiq.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston asalarichilik tarixidan. https://uz.beekeepers.uz/novosti/news_post/ozbekiston-asalarichilik-tarixidan
2. Xolikulov M.R. Asalli o‘simliklarning o‘rganilish tarixi. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. VOLUME 2 | ISSUE 10/2 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor SJIF 2022: 5.947.
3. Xamidov G.X, Davidov M.A, Akbarova M.X., Xolikulov M.R. O‘zbekiston asalli o‘simliklari va asalarichilik istiqbollari. Farg‘ona: Poligraf Super Servis. 2019. 156 s.
4. Хамидov, G. (1988). Medоносные ресурсы Uzbекистана и пути их patsionalnogo исполzovания. Автореф. дисс.

VIII SHO`BA

Umumkasbiy va mutaxassislik fanlarini o`qitishning zamonaviy metodlari





ЁШЛАР МАЪНАВИЯТИДА ТАРИХИЙ ХОТИРАНИНГ ЎРНИ

Мамбетназарова Алтыншаш Абатовна
Қорақалпоғистон тиббиёт институти
aaltynsas32@gmail.com

Аннотация. Мақолада ёшлар маънавиятида тарихий хотиранинг ўрни ва аҳамияти таҳлил қилинади. Миллий тарих ва маънавий мерос ёш авлоднинг маънавий қиёфасини шакллантиришдаги ўрни очиб берилади. Таълим тизими, оммавий ахборот воситалари ва ахборот технологиялари орқали тарихий хотирани мустаҳкамлаш масалалари ёритилади. Шунингдек, замонавий таҳдидлар ва уларни бартараф этиш йўллари ҳақида таклиф ва тавсиялар берилади.

Калит сўзлар: тарихий хотира, ёшлар маънавияти, миллий мерос, маънавий тарбия, глобаллашув, тарихий манбалар

Аннотация. В статье анализируется роль и значение исторической памяти в духовности молодежи. Раскрывается место национальной истории и духовного наследия в формировании духовного облика подрастающего поколения. Рассматриваются вопросы укрепления исторической памяти через систему образования, средства массовой информации и информационные технологии. Также представлены современные угрозы и пути их преодоления.

Ключевые слова: историческая память, духовность молодежи, национальное наследие, духовное воспитание, глобализация, исторические источники.

Abstract. The article analyzes the role and significance of historical memory in the spirituality of youth. It highlights the importance of national history and cultural heritage in shaping the moral and spiritual values of the younger generation. The study discusses the role of the education system, mass media, and information technologies in strengthening historical memory. In addition, contemporary challenges and possible solutions are presented.

Keywords: historical memory, youth spirituality, national heritage, moral education, globalization, historical sources.

Ҳар бир миллатнинг маънавий тараққиёти унинг ўтмиши, тарихий мероси ва хотираси билан узвий боғлиқдир. Миллат тарихий хотирасиз ўзлигини англай олмайди. Чунки ўтмиш тажрибасини англаш ва ундан сабоқ олиш орқали авлодлар маънавий барқарорликка эришади, келажак йўлини белгилаб олади. Тарихий хотира-миллатнинг маънавий пойдевори, маданий мероси ва миллий ғурури мужассам бўлган маънавий ҳодисадир.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев таъкидлаганидек: “Маънавиятни юксалтириш-миллат келажагини юксалтиришдир”. Бу фикр тарихий хотиранинг ёшлар маънавиятидаги ўрнини янада равшанлаштиради.

Ҳозирги глобаллашув ва ахборот асрида ёшлар маънавияти турли ташқи таъсирларга мойил ҳолатда. Ахборот оқими, маданий глобал таъсирлар, турли ғоявий таҳдидлар ёшлар онгида миллий ўзликни заифлаштириши мумкин. Шу жиҳатдан, тарихий хотира ёшлар маънавиятида миллий барқарорлик ва маънавий муқобилликни таъминлайдиган асосий манба ҳисобланади.

1. Ёшлар маънавияти ва тарихий хотира тушунчаси. Ёшлар маънавияти – ёш авлоднинг маънавий қиёфаси, ахлоқий қарашлари, миллий қадриятларга муносабати, ижтимоий ҳаётдаги фаоллиги ва маърифатга интилишидир. Тарихий хотира эса миллатнинг умумий тарихий тажрибаси, миллий онги ва маънавий меросининг йиғиндиси сифатида намоён бўлади.Шу боис, ёшлар маънавияти тарихий хотирасиз шаклланиши мумкин эмас. Тарихий хотира ёшларда қуйидаги сифатларни мустаҳкамлайди:миллий ўзлик ва ғурур ҳисси;Ватанга садоқат ва фидойилик;маънавий барқарорлик;мустақил фикр ва ижтимоий масъулият.

Ибн Халдун таъкидлаганидек: “Миллат ўз тарихини билмаса, унинг келажаги ҳам йўқ”. Бу фикр ёшлар маънавияти учун тарихий хотиранинг аҳамиятини ифодалайди.

2. Миллий тарих-маънавий тарбия манбаи.Миллий тарих ҳар бир авлод учун маънавий тарбиянинг асосий омили ҳисобланади.

Қадимги цивилизация сабоқлари. Хоразм, Сўғд, Бақтрия каби қадимги маданий марказларнинг мероси ёшларда илмий тафаккур ва маънавий меросга

ҳурматни кучайтиради. Амир Темур ва темурийлар даври. Бу давр давлатчилик, адолат, илм-фан ва маданият тараққиётининг ёрқин намунаси сифатида ёшлар маънавиятида миллий ғурур туйғусини уйғотади. Амир Темурнинг машҳур шиори: “Куч-адолатдадир” ёшлар учун ҳаётий қоидалардан бирига айланиши мумкин.Жадидчилик ҳаракати. XIX аср охири – XX аср бошидаги жадидлар миллий маърифат ва ислоҳот ғоялари билан ёшлар маънавиятига улкан таъсир кўрсатди. Абдулла Авлонийнинг “Туркий гулистон ёхуд ахлоқ” асари бугун ҳам ёшлар тарбиясида муҳим аҳамиятга эга.Иккинчи жаҳон урушидаги жасорат. Миллионлаб ўзбекистонликларнинг фронтда ва меҳнат майдонларида кўрсатган мардлиги ёшлар маънавиятида ватан ҳимоясига содиқлик руҳини кучайтиради.

Мустақиллик даври тарихи. Мустақиллик йилларида миллий ўзлик тикланди, тарих қайта баҳоланди. Бу жараён ёшлар маънавиятида тарихий хотирани янада мустаҳкамлаш имкониятини берди.

3. Тарихий хотира ва таълим тизими. Таълим муассасаларида тарихий хотирани шакллантириш муҳим вазифалардан бири ҳисобланади. Бунинг учун:тарих фанини ўқитишда фақат фактларни эмас, балки маънавий хулосаларни ҳам ёшлар онгига сингдириш;архив манбалари ва тарихий ҳужжатлар билан ишлаш кўникмасини ривожлантириш;музейлар ва тарихий ёдгорликларга экскурсиялар ташкил этиш;тарихий шахслар ҳаёти ва фаолиятини ёшлар учун ибрат сифатида тарғиб қилиш зарур. Бугунги кунда университет ва мактабларда тарихий хотира асосида маънавий тарбия бериш жараёнини кучайтириш долзарб вазифадир.

4. Ахборот технологиялари ва тарихий хотира. Ахборот асрида ёшлар кўпроқ интернет ва ижтимоий тармоқлар орқали маълумот олишади. Шу билан бирга, нотўғри ёки сохта маълумотлар тарқалиши уларнинг тарихий хотирасини заифлаштириши мумкин. Шунинг учун:миллий тарихга оид онлайн архивлар, электрон китобхоналар яратиш; тарихий меросни рақамлаштириш; мультимедиа лойиҳалар, тарихий фильм ва сериаллар орқали тарихни оммалаштириш зарур.

Масалан, “Open Central Asia” ва “Turkiston tarixi” каби электрон платформалар ёшлар маънавиятида тарихий хотирани мустаҳкамлашга хизмат қилмоқда.

5. Замонавий таҳдидлар ва уларни бартараф этиш йўллари. Ҳозирги кунда ёшлар маънавиятига таъсир этувчи таҳдидлар: миллий тарихга қизиқишнинг пасайиши; ижтимоий тармоқларда ёт ғоялар ва сохта тарихий маълумотларнинг тарқалиши; виртуал ҳаётга чуқур кириб қолиш;маънавий бўшлиқнинг ортиши.Бу муаммоларни бартараф этиш учун қуйидаги чора-тадбирлар самарали:тарихий хотирани тарғибот қилишда замонавий педагогик ва ахборот технологияларидан фойдаланиш;миллий қаҳрамонлар образини кенг тарғиб қилиш;оила, таълим муассасаси ва жамоат ташкилотлари ҳамкорлигида ёшлар маънавиятини ривожлантириш;халқаро майдонда миллий тарих ва маданиятни тарғиб қилиш.

Хулоса. Ёшлар маънавиятида тарихий хотиранинг ўрни беқиёс. Миллий тарих ва маънавий мерос ёш авлоднинг маънавий қиёфасини белгилайди, уларда миллий ғурур ва Ватанга садоқат туйғусини мустаҳкамлайди. Шу боис тарихий хотирани асраб-авайлаш, уни ёшлар онгига етказиш ва замонавий шароитларда ундан самарали фойдаланиш жамият тараққиётининг кафолатидир.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017.

2. Мирзиёев Ш.М. Ёшлар – келажагимиз пойдевори. – Т.: Ўзбекистон, 2019.

3. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008.

4. Раҳимов А. Миллий тарих ва ёшлар маънавияти. – Т.: Фан, 2020.

5. Ўзбекистон тарихи. Академик нашр. – Т.: Шарқ, 2019.

6. Авлоний А. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. – Т.: Маънавият, 1992.

7. Abdullaev R. Historical Memory and Youth Identity in Central Asia. – Tashkent, 2021.Zamonaviy tarixiy tadqiqotlar журналидаги мақолалар (2020–2024).

8. Saidov A. Тарихий мерос ва миллий ўзлик. – Т.: Академнашр, 2022.

МЕДИЦИНСКОЕ И ФАРМАЦЕВТИЧЕСКОЕ ПРАВО В СИСТЕМЕ ПОДГОТОВКИ ЮРИСТОВ: НЕОБХОДИМОСТЬ И ПЕРСПЕКТИВЫ

Ёкубова Умидахон Маъсуджон қизи
Ташкентский государственный
юридический университет
базовый докторант
umidakhonoripova99@gmail.com

Annotatsiya. Maqola yuridik kadrlarni tayyorlash dasturlariga tibbiyot va farmatsevtika huquqi fanlarini kiritishning zaruriyatini asoslashga bag‘ishlangan. Milliy huquqiy ta‘limdagi mavjud kamchiliklar, sog‘liqni saqlash va farmatsevtika sohasini tartibga solish uchun mutaxassislarni tayyorlashning dolzarbligi hamda xorijiy mamlakatlar tajribasi, ushbu fanlarni o‘quv dasturlariga integratsiya qilish samaradorligini ko‘rsatuvchi holatlar tahlil qilingan. Yuridik oliygohlarda tegishli kurslarni rivojlantirishning strategik ahamiyati, kelajakdagi yuristlarning professional kompetensiyasini oshirishda muhim ekanligi xulosa qilingan.

Kalit so‘zlar: tibbiyot huquqi, farmatsevtika huquqi, yuridik ta‘lim, mutaxassislarni tayyorlash, huquqiy tartibga solish, sog‘liqni saqlash.

Аннотация. Статья посвящена обоснованию необходимости включения дисциплин медицинского и фармацевтического права в программы подготовки юристов. Рассматриваются существующие пробелы в национальном юридическом образовании, актуальность подготовки специалистов для регулирования здравоохранения и фармацевтики, а также опыт зарубежных стран, демонстрирующий эффективность интеграции данных дисциплин в учебные планы. Сделан вывод о стратегической важности развития соответствующих курсов в юридических вузах для повышения профессиональной компетентности будущих юристов.

Ключевые слова: медицинское право, фармацевтическое право, юридическое образование, подготовка специалистов, правовое регулирование, здравоохранение.

Abstract. The article is devoted to substantiating the necessity of including medical and pharmaceutical law courses in legal education programs. It examines existing gaps in national legal education, the relevance of training specialists for regulating healthcare and pharmaceuticals, as well as the experience of foreign countries demonstrating the effectiveness of integrating these disciplines into curricula. The article concludes on the strategic importance of developing relevant courses in law schools to enhance the professional competence of future lawyers.
Keywords: medical law, pharmaceutical law, legal education, specialist training, legal regulation, healthcare.

Современные системные преобразования в сфере здравоохранения и фармацевтики в Республике Узбекистан обусловливают необходимость комплексного переосмысления подходов к подготовке юридических кадров, способных профессионально обеспечивать правовое регулирование этой сферы. Усложнение правовых отношений между пациентами, медицинскими организациями, фармацевтическими компаниями и государственными органами обусловливает формирование новых вызовов для национальной системы правового обеспечения здравоохранения. Данные процессы требуют, чтобы юристы обладали глубокими специализированными знаниями в области медицинского и фармацевтического права, что невозможно без включения соответствующих дисциплин в учебные программы юридических вузов.

Особое значение приобретает подготовка таких специалистов на фоне активного реформирования здравоохранения в Узбекистане, стремительного роста фармацевтического рынка и внедрения новых медицинских технологий. Анализ практики показывает, что системные пробелы в законодательстве и правоприменительной практике приводят к недостаточной защите прав пациентов и неэффективности контроля за деятельностью медицинских организаций и фармацевтических компаний. Например, случаи применения лекарственных средств ненадлежащего качества, выявленные в различных регионах страны, демонстрируют слабую регламентацию отдельных аспектов

медицинской деятельности, включая вопросы ответственности медицинских работников и фармацевтов.

В сложившихся условиях формирование у юристов навыков анализа и правового регулирования деятельности медицинских организаций становится стратегически необходимым. Международный опыт показывает, что специализированные курсы по медицинскому и фармацевтическому праву позволяют будущим юристам не только разбираться в теории, но и применять правовые нормы на практике, участвовать в разработке внутренних нормативных актов медицинских учреждений, консультировать фармацевтические компании и защищать права пациентов. E. Rosenberg, Sh. Hsu, A. Mospan и R. Shtein отмечают, что интеграция курсов по фармацевтическому праву в образовательные программы способствует улучшению правовой грамотности студентов и их готовности к профессиональной деятельности в сфере фармацевтики [1].

На сегодняшний день в системе юридического образования Узбекистана отсутствует специализированная дисциплина «Медицинское и фармацевтическое право». Фрагментарное рассмотрение медицинского права в рамках общих курсов, таких как «Гражданское право», «Административное право» и «Уголовное право», не обеспечивает будущих специалистов необходимыми знаниями для полноценного правового сопровождения медицинской деятельности. В результате возникает дефицит юристов, способных квалифицированно консультировать медицинские организации, фармацевтические компании, а также участвовать в подготовке и реализации нормативных актов, регулирующих сферу здравоохранения и обращения лекарственных средств.

Кроме того, отсутствует систематическая научная база в области медицинского и фармацевтического права в Узбекистане. Научные публикации, посвящённые правовым аспектам медицинской деятельности, правам пациентов и ответственности фармацевтических компаний, крайне ограничены. Это не только затрудняет подготовку квалифицированных

специалистов, но и снижает качество нормативного регулирования и правоприменительной практики. Учитывая международный опыт, очевидно, что формирование академических дисциплин, посвящённых медицинскому и фармацевтическому праву, способствует развитию научной базы, подготовке кадров и повышению уровня правового регулирования в стране.

Зарубежный опыт демонстрирует успешную интеграцию медицинского и фармацевтического права в учебные программы юридических вузов. В Соединённых Штатах Америки такие дисциплины активно преподаются на уровне магистратуры и дополнительной магистратуры (Juris Doctor, JD и Master of Laws, LLM), формируя отдельные специализации или сертификаты («Health Law», «Pharmaceutical Law»). В Emory University School of Law, например, предлагаются курсы по FDA Law, Healthcare Compliance, Pharmaceutical Regulation и Health Care Law, охватывающие правовые аспекты регулирования продуктов питания, лекарственных средств, медицинских устройств и косметики [2]. В Georgetown University Law Center студенты могут изучать LLM в области глобального медицинского права, включая вопросы прав человека в здравоохранении, доступ к медицинским услугам и регулирование инфекционных заболеваний [3]. В University of Pennsylvania Carey Law School предлагаются курсы по медицинской ответственности, правам пациентов и правовому регулированию системы здравоохранения [4]. Все эти программы аккредитованы Американской ассоциацией юристов (ABA), что подтверждает их высокий академический уровень и соответствие международным профессиональным стандартам.

В странах Европы также развита подготовка юристов в сфере медицинского и фармацевтического права. В Италии, например, в Университете Турина (Università di Torino) курс Diritto sanitario предоставляет знания, необходимые для работы в государственных и частных организациях здравоохранения, включая управление, контроль и защиту прав пациентов [5]. Во Франции магистерские программы Droit de la santé в университетах, таких как Université Paris-Saclay**,** включают изучение медицинской ответственности

и правового регулирования биотехнологий [6]. Данные примеры демонстрируют эффективность внедрения специализированных дисциплин, позволяющих готовить юристов, способных решать сложные правовые вопросы, возникающие в процессе оказания медицинских услуг и деятельности фармацевтических компаний.

Введение курса «Медицинское и фармацевтическое право» в учебные программы юридических вузов Узбекистана позволит подготовить специалистов, способных профессионально сопровождать медицинские и фармацевтические организации, консультировать по вопросам ответственности и защиты прав пациентов, участвовать в разработке нормативных актов и совершенствовать правоприменительную практику. Подготовка юристов в этой области создаст условия для формирования комплексной системы правового регулирования, где учитываются интересы государства, медицинских работников, фармацевтических компаний и граждан.

Таким образом, учитывая современное состояние здравоохранения, рост фармацевтического рынка и внедрение новых медицинских технологий, подготовка специалистов по медицинскому и фармацевтическому праву становится стратегически необходимой. Внедрение этой дисциплины в образовательные программы юридических вузов обеспечит формирование высококвалифицированных кадров, способных эффективно решать правовые вопросы в сфере здравоохранения и фармацевтики, повысить качество юридического образования и научной деятельности, а также укрепить систему защиты прав пациентов и юридическую безопасность медицинских и фармацевтических организаций в Республике Узбекистан.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Rosenberg E., Hsu Sh., Mospan A., Shtein R. A Follow-up study on delivery of pharmacy law education across doctor of pharmacy programs. American journal of pharmaceutical education. Volume 87, Issue 6, June 2023.
2. URL: https://hip.emory.edu/educational-offerings/courses/fda_law.html.

3. URL: https://www.law.gwu.edu/concentrating-health-law-and-policy.
4. URL: https://goat.law.upenn.edu/cf/coursefinder/course-details/?course=ml-health-law-and-policy&page=1&sec=LAW+530301&term=2024A&utm.
5. URL: https://www.giurisprudenza.unito.it/do/corsi.pl/Show?_id=0h2i&utm.
6. URL: https://www.universite-paris-saclay.fr/formation/master/droit-de-la-sante.

КЛИНИЧЕСКАЯ АНАТОМИЯ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВЫХ И ФИЗИЧЕСКИХ ИННОВАЦИЙ: 3D-ПЕЧАТЬ, XR И POCUS-ПРАКТИКА, ДОКАЗАТЕЛЬСТВА И РЕКОМЕНДАЦИИ ДЛЯ ЛОКАЛЬНОГО ВНЕДРЕНИЯ

Хожиев Дилмурод Яхшиевич
Бухарский университет инновационного образования и медицины
Email: dkhojiev@gmail.com

Аннотация: Тезис обобщает современные международные данные по интеграции трёхмерной печати (3D-печатные модели), расширенной/виртуальной реальности (XR: VR/AR) и точечного ультразвука (POCUS) в обучение клинической анатомии. На основе систематических обзоров и эмпирических исследований от 2023–2025 годов показано, что каждая из технологий повышает качество усвоения анатомического материала при условии педагогической интеграции; наибольшую эффективность даёт гибридный подход «диссекция + физические 3D-модели + XR + POCUS». Детально представлены практический план пилота, критерии оценки эффективности и рекомендации по масштабированию в условиях ограниченных ресурсов.

Ключевые слова: клиническая анатомия, 3D-печать, виртуальная/дополненная реальность, POCUS, медицинское образование, blended learning.

Введение. За последние пять лет в анатомическом образовании наметился устойчивый тренд: цифровые и физические симуляторы дополняют, но не полностью заменяют традиционную диссекцию. Метаревью показывают положительный вклад XR (VR/AR) в знания и мотивацию студентов при использовании этих технологий как дополнения к практическим занятиям [1-5]. Параллельно 3D-печать предоставляет недорогие физические модели для

отработки пространственного представления и вариаций анатомии [2,4], а ранняя интеграция POCUS усиливает связь между топографической анатомией и клинической визуализацией.

Обзор доказательств. 1) XR (VR/AR). Систематические обзоры и несколько недавних мета-анализов показывают, что иммерсивный VR и AR дают статистически значимый прирост в результатах тестирования по анатомии по сравнению с пассивным обучением; эффект наиболее выражен при комбинированном применении с традиционными методами (диссекцией, анатомическими препаратами). Основные факторы успеха — качество педагогического сценария, удобство интерфейса и интеграция в учебную программу [1,5].

2) 3D-печать. Исследования 2023–2025 гг. демонстрируют, что 3D-печатные модели увеличивают вовлечённость студентов, облегчают освоение сложных областей (череп, висцеральная анатомия) и полезны для «take-home» самостоятельной работы. Локальная печать (FDM/SLA) часто экономичнее закупки коммерческих моделей и позволяет воспроизводить региональные варианты анатомии по данным КТ/МРТ [2,4].

3) POCUS (point-of-care ultrasound). Многоцентровые исследования и внедрения учебных программ свидетельствуют: раннее обучение POCUS усиливает пространственное понимание анатомии и формирует практические навыки визуализации. POCUS полезен для интеграции анатомии и клинической диагностики уже в пре-клиническом периоде обучения [3].

Синтез и образовательная логика. Каждый инструмент решает разные задачи: диссекция — тактильный и сенсорный опыт работы с тканью; 3D-модели — репрезентация геометрии и вариаций; XR — динамическая визуализация трёхмерных отношений и анимация функциональных процессов; POCUS — трансляция анатомии в живую клиническую визуализацию. Совместное использование этих методов обеспечивает более глубокую трансляцию знания к клиническому навыку, снижая когнитивную нагрузку при изучении сложных структур.

Практическая модель пилота. Цель: проверить образовательную и экономическую целесообразность гибридного модуля анатомии для 1–2 учебных групп.

Состав пилота:

-Блок 3D-печатных моделей: 3 основных модели (череп—частично артикулирующий, сердце с сосудами, таз с нервно-сосудистыми отношениями), печать локально на FDM/SLA, покраска/маркировка; тираж — по одной модели на 2–3 студента.

-XR-модуль: 4 иммерсивные сессии (каждая 30–45 мин) с учебными сценариями (анатомия головы, грудной клетки, брюшной полости, суставов). Материалы — коммерческие или open-source модели; обязательна интеграция тестов до/после каждой сессии.
-POCUS-модуль: 3 практических занятия + OSCE-станция (симуляторы или волонтеры), фокус на ключевых топографических кореляциях (брюшная аорта, сердце, шея).

Оценка эффективности.

-Количественные метрики: пред-/пост-тесты (тесты на знания + 3D-ориентированность), OSCE для POCUS, сравнительный анализ с контрольной группой; статистический анализ учебного прироста [1-5].
-Качественные метрики: анкеты удовлетворённости, фокус-группы с преподавателями, анализ восприятия когнитивной нагрузки.

Ориентировочные ресурсы и бюджет (локальная оценка).

-FDM-принтер + расходные материалы (1 комплект)-базовая недорогая опция; SLA-печать для высокоточных моделей-опционально.
-XR-оборудование: 2–4 автономные VR-гарнитуры или портативные AR-решения.
-Портативный УЗИ-аппарат (бюджетный POCUS-сканер)-1-2 единицы для практик.
-Расходы на подготовку: воркшопы для 4-6 преподавателей (2-дневный курс). (Точные суммы зависят от поставщиков; рекомендуется начать с минимально необходимого набора и локального 3D-печати.)

План внедрения и масштабирования.

1. Подготовительный этап (1-2 мес): закупки, подготовка преподавателей, пилотные 3D-модели.
2. Реализация пилота (6-12 мес): проведение модулей, сбор данных.
3. Оценка и рефайнмент (1 мес): анализ результатов, доработка сценариев.
4. Масштабирование (следующий учебный год): расширение на весь курс, создание учебного центра 3D-печати и подготовки тренеров.

Ограничения и риски.

-Финансы: высокие первоначальные затраты на качественное XR-содержание и SLA-печать; решение-staged procurement и локальная печать.
-Кадры: недостаточная подготовка преподавателей; необходимы регулярные курсы «тренер-тренер».
-Валидность: неоднородность методологий в исследованиях; важно собственное контролируемое испытание пилота с прозрачной методикой.

Этические и культурные аспекты.

Снижение доступа к трупному материалу ставит дилемму: цифровые модели компенсируют геометрию, но не дают тактильного опыта. Этически корректный путь-гибрид, обеспечивающий уважение к донорам и обучение студентов, включающее коммуникативные и профессиональные аспекты при работе с анатомическим материалом.

Рекомендации (резюмирующие, практические).

1. Начать с малого пилота, опираясь на локальную 3D-печать и бюджетное XR-оборудование.
2. Интегрировать POCUS в препрактические занятия для усиления клинико-анатомической связи.
3. Организовать обучение преподавателей и методическое сопровождение.
4. Встроить объективные критерии оценки (пред/пост-тесты, OSCE) и публиковать результаты пилота для обмена опытом.

Заключение. Доказательная база последних лет подтверждает: 3D-печать, XR и POCUS становятся эффективными инструментами улучшения качества анатомического образования, если их педагогически грамотно встроить в курс и сочетать с диссекцией [1-5]. Для Бухары и Узбекистана реалистичная стратегия — пилотное внедрение, оценка и постепенное масштабирование с акцентом на локальную доступность и подготовку преподавателей. При таком подходе инновации послужат не заменой, а умножением клинической компетентности будущих врачей [6].

Список литературы:

1. García-Robles P. et al. Immersive virtual reality and augmented reality in anatomy education: a systematic review and Meta-Analysis //Anatomical Sciences Education. – 2024. – Т. 17. – №. 3. – С. 514-528.
2. Silva M. R. et al. Applications of 3D printing in the teaching of human anatomy: An integrative review //Annals of 3D Printed Medicine. – 2025. – Т. 19. – С. 100213.
3. Zeitouni F. et al. Integration of point of care ultrasound into undergraduate medical education at Texas Tech University Health Sciences Center school of medicine: a 6 year review //BMC Medical Education. – 2024. – Т. 24. – №. 1. – С. 1476.
4. Barger J. B., Edwards D. N. Development, implementation, and perceptions of a 3D-printed human skull in a large dental gross anatomy course //Anatomical Sciences Education. – 2024. – Т. 17. – №. 6. – С. 1215-1228.
5. Minouei M. A. et al. Effectiveness of virtual reality on medical students' academic achievement in anatomy: systematic review //BMC Medical Education. – 2024. – Т. 24. – №. 1. – С. 1407.
6. Ходорова, И., Тешаев, Ш. Ж., Хожиев, Д. Я., Баймурадов, Р. Р., & Хасанова, Д. А. (2018). Роль инновационных технологий для развития межвузовского сотрудничества по преподаванию предмета «анатомия». ТОМ–II, 297.

RAQAMLI KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHDA INTERFAOL METODLARNING O‘RNI

Jo‘rayeva Feruza
Shahrisabz davlat pedagogika
instituti o‘qituvchisi
feruzajorayevaasila@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda interfaol metodlarning roli va ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, innovatsion ta’lim vositalari asosida talabalarning raqamli muloqot, hamkorlik va axborot almashish ko‘nikmalarini shakllantirish yo‘llari tahlil qilinadi. Interfaol metodlar raqamli kommunikatsiyani faollashtirish, ijodiy fikrlashni rag‘batlantirish va ta’lim samaradorligini oshirishda muhim vosita sifatida baholanadi.

Kalit so‘zlar: raqamli kommunikativ kompetensiya, interfaol metod, innovatsion ta’lim, raqamli muhit, axborot texnologiyalari, kommunikatsiya.

Kirish. Zamonaviy ta’lim jarayoni texnologik taraqqiyot bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, unda raqamli vositalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va interfaol metodlar markaziy o‘rinni egallaydi. XXI asr ta’limi insonni raqamli muhitda mustaqil fikrlashga, o‘z g‘oyalarini ifoda etishga, hamkorlikda ishlashga va global axborot oqimida samarali harakat qilishga tayyorlashni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, raqamli kommunikativ kompetensiyani shakllantirish bugungi pedagogik faoliyatning eng muhim maqsadlaridan biri sifatida qaralmoqda.

Raqamli kommunikativ kompetensiya-bu talabalarning raqamli texnologiyalar yordamida samarali muloqot qilish, jamoaviy loyihalarda faol ishtirok etish, turli platformalarda fikr almashish, axborotni izlash, tahlil qilish va uni yangi bilim sifatida qayta ishlash qobiliyatidir. Ushbu kompetensiya talabaning nafaqat texnik ko‘nikmalarini, balki uning kommunikativ, ijtimoiy va madaniy jihatdan yetuk shaxs sifatida shakllanishini ham ta’minlaydi.

Bugungi kunda raqamli muhitda muloqot qilish madaniyati, virtual hamkorlik, onlayn ta’lim, masofaviy darslar, elektron resurslardan foydalanish,

virtual sinflar va bulutli texnologiyalar asosida tashkil etilgan o‘quv jarayonlari keng tarqalmoqda. Shu bois, pedagoglardan raqamli kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodik yondashuvlar, innovatsion ta’lim texnologiyalarini samarali qo‘llash, va talabalarda raqamli madaniyatni shakllantirish bo‘yicha yangi metodik echimlarni ishlab chiqish talab qilinmoqda.

Interfaol metodlar ana shu jarayonni faollashtiruvchi eng samarali pedagogik yondashuvlardan biridir. Ular o‘quvchini passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi, muloqotga undaydi, raqamli vositalardan foydalangan holda mustaqil fikrlash, muammolarni hal etish va ijodiy yechimlar ishlab chiqish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Interfaol yondashuvlar yordamida talaba raqamli kommunikatsiyaning turli shakllarini o‘rganadi va ularni o‘z ta’limiy faoliyatida samarali qo‘llay oladi.

Raqamli kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda interfaol metodlarning asosiy vazifasi-talaba va o‘qituvchi o‘rtasida ikki tomonlama aloqani ta’minlash, fikr almashish muhitini yaratish va o‘quvchini faol ishtirokchi sifatida shakllantirishdir. Bu jarayonda **forumlar, bloglar, chatlar, onlayn muhokamalar, vebinarlar** kabi raqamli muloqot vositalari bilan bir qatorda **gamifikatsiya elementlari** ham alohida o‘rin tutadi.

Gamifikatsiya (ing. *gamification*)-o‘yin mexanizmlarini o‘quv jarayoniga tatbiq etish orqali o‘rganish faoliyatini qiziqarli, raqobatli va motivatsion shaklga keltirishdir. U raqamli kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda quyidagi jihatlar bilan ajralib turadi:

- Talabani raqamli muhitda faol ishtirok etishga undaydi;
- Onlayn muloqot, hamkorlik va axborot almashish jarayonini tabiiy tarzda tashkil etadi;
- Bilimlarni mustahkamlashni rag‘batlantiradi;
- Fikr almashish va o‘z fikrini himoya qilish ko‘nikmasini rivojlantiradi.

Gamifikatsiya jarayonida o‘yin elementlari-**ball to‘plash, reyting, daraja oshirish, badge (nishon)lar, vaqt chegarasi, jamoaviy musobaqalar-**

o‘quvchilarni faol o‘rganishga, raqamli platformalarda muloqotga kirishishga va ijodiy fikr bildirishga undaydi.

Masalan, **Kahoot, Quizizz, Mentimeter, ClassTime, Padlet** kabi raqamli vositalar orqali tashkil etilgan o‘yin shaklidagi testlar, jamoaviy savol-javoblar, raqobatli viktorinalar talabalarning raqamli kommunikatsiya madaniyatini rivojlantiradi. Talabalar bu jarayonda nafaqat javob topadilar, balki **o‘z fikrini raqamli shaklda ifoda etish, jamoa bilan hamkorlik qilish va tahliliy fikrlash** ko‘nikmalarini ham shakllantiradilar.

Gamifikatsiya elementlarini interfaol metodlar bilan uyg‘un qo‘llash o‘quv jarayonida bir qator afzalliklarni beradi:

- **Motivatsiyani oshiradi –** talabalar o‘yin mexanizmlari orqali o‘rganish jarayonini qiziqarli deb biladilar.
- **Raqamli muloqotni faollashtiradi** – onlayn muhokama, chat yoki jamoaviy topshiriqlar orqali talabalar bir-biri bilan samarali aloqa o‘rnatadilar.
- **Kreativ fikrlashni rivojlantiradi** – o‘yin asosidagi topshiriqlar tahliliy va ijodiy yondashuvni talab etadi.
- **Hamkorlikni kuchaytiradi** – jamoaviy o‘yinlarda g‘alaba uchun talabalar o‘zaro yordam, maslahat va muloqotga tayanadilar.
- **Baholash jarayonini shaffof qiladi** – o‘yin ballari orqali natijalar aniq ko‘rinadi va o‘quvchilar o‘z o‘sishini kuzatib boradilar.

Gamifikatsiya orqali kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish misollari

- **Onlayn bahs-munozara o‘yinlari:** talabalar raqamli platformada berilgan muammo bo‘yicha ikki guruhga bo‘linib, o‘z pozitsiyasini himoya qiladilar. Bu jarayon muloqot madaniyatini va fikrni asoslash qobiliyatini rivojlantiradi.
- **Raqamli loyihalar musobaqasi**: jamoalar onlayn loyihalar ishlab chiqib, ularni videokonferensiya orqali taqdim etadilar. Bu taqdimot madaniyati va raqamli kommunikatsiyani kuchaytiradi.
- **Viktorina va test o‘yinlari:** raqamli savol-javoblar orqali o‘rganilgan bilimni mustahkamlash, tezkor fikrlash va onlayn muloqotni rivojlantirish imkonini beradi.

Zamonaviy ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalar, xususan, bulutli servislar asosida yaratilgan interfaol o‘quv materiallari o‘quvchilarning mavzuni chuqur va faol o‘zlashtirishlariga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, **Educaplay**, **LearningApps**, **Wordwall**, **Canva** va **Kahoot** kabi onlayn platformalar yordamida yaratilgan o‘yinlar, viktorinalar, pazllar, mental xaritalar va bahs-munozara savollari orqali o‘quvchilar mavzuga nisbatan qiziqish bilan yondashadilar, mustaqil fikrlash va muhokama qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

Educaplay 20 dan ortiq o‘yin shablonini (bosma-o‘rin topish, kronologik chiziq, audio-kvitansiya va h.k.) taklif etuvchi SaaS xizmati bo‘lib **t**urli o‘yin shablonlari tayyorlash oson, natijani Moodle yoki Google Classroom’ga qo‘yish mumkin.

Kahoot – real vaqt rejimidagi viktorinalar orqali darsga raqobat va qiziqarli muhit olib kiradi, o‘quvchilar darajasini tezkor baholashni ta’minlaydi.

LearningApps – o‘quv topshiriqlarini mini-o‘yinlar shaklida taqdim etish uchun ishlatiladi, guruhli ishlashga va qayta aloqa olishga imkon yaratadi.

Wordwall – bir xil mazmundagi materiallarni turli o‘yin shakllariga aylantirish orqali darsda takrorlash va mustahkamlash bosqichlarini samarali tashkil etishga yordam beradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, interfaol metodlar va gamifikatsiya elementlari raqamli kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda o‘zaro bog‘liq va bir-birini to‘ldiruvchi metodik vositalardir. Gamifikatsiya o‘qitish jarayonini o‘yin, raqobat va rag‘bat mexanizmlari orqali jonlantiradi, interfaol metodlar esa talabaning faol ishtirokini ta’minlab, muloqot va hamkorlikni rivojlantiradi. Natijada, talabalar raqamli vositalardan foydalanib, **muloqot, hamkorlik, fikr almashish va ijodiy tahlil qilish kompetensiyalarini** chuqur egallaydilar. Shu bois, zamonaviy ta’lim tizimida gamifikatsiya elementlarini interfaol metodlar bilan uyg‘unlashtirish-raqamli kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning eng samarali yo‘nalishlaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Qodirov B., Rahimova F. *Pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlar.* – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
2. Mirzayev O., Sattorova D. *Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta’lim jarayonida qo‘llash.* – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2022.
3. Sultonova M. *Interfaol ta’lim metodlari va ularning ta’lim samaradorligiga ta’siri.* – “Ta’lim innovatsiyalari” ilmiy jurnali, №2, 2023.
4. Prensky M. *Digital Game-Based Learning.* – New York: McGraw-Hill, 2001.
5. Gee J.P. *What Video Games Have to Teach Us About Learning and Literacy.* – New York: Palgrave Macmillan, 2003.

MUTAXASISLIK FANLARDA ZAMONAVIY METODLAR

Halimov Nuriddin Najmiddin o‘g‘li
Buxoro innovatsion ta’lim va
tibbiyot universiteti
halimovnuriddin0215@gmail.com

Annostatsiya. Ushbu maqolada hozirgi vaqtda eng mashhur bo‘lib turgan metodlar, ularning tasnifi ananaviy metodlardan farqli taraflari, undan ustun tomonlar, va ulardan darslarda foydalanish qanday natija berishi yoritilgan. Barcha izlanishlar tajriba sifatida olib borilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim tizimi, fanlarni o‘qitish, ananaviy ta’lim, metod, ijtimoiy hissiy ta’lim, tengdoshga o‘rganish, gamifikatsiya, raqamli hikoyalar, xizmatni o‘rganish.

Mavzuning dolzarbligi: Bugungi kunda ta’lim tizimi jamiyatning texnologik, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi sur’atlariga mos ravishda yangilanmoqda [1]. Zamonaviy ta’limda an’anaviy o’rnini interfaol, innovatsion va amaliyotga yo‘llangan usullar egallamoqda [2].

Umumkasbiy fanlarni o‘qitishda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish**,** modulga asoslangan turli xildagi masalalar yechish va amaliy

topshiriqlar yordamida o‘rganish kabi yangidan yangi tizimli o‘quv dasturlari va metodlari yaratilmoqda. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad, mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlar ishlab chiqarish va ularni ilm salohiyatini o‘stirishuchun xizmat qiladigan mexanizmlarni yaratish va amaliyotga qo‘llashga qaratilgan. Buning uchun o‘quv jarayonini ishlab chiqarish bilan integratsiyalash ham muhim kasb etadi. Shu sababli, mazkur mavzu ta’limni yaxshilash, o‘qitish sifatini yaxshilash va zamonaviy mutaxassislarni tayyorlashga xizmat ko‘rsatish bugungi kunda ham juda dolzarb mavzu bo‘lib kelmoqda [3].

Hozirga kelib bir nechta eng zamonaviy metodlar mavjud. Bularni ko‘rib chiqamiz:

Ijtimoiy hissiy ta’lim (IHT) - ushbu o‘quv strategiyasi yo‘naltirilgan o‘quv muhitini rag‘batlantiradi. O‘qituvchilar asosiy IHT kompetentsiyalarini belgilashlari va ongni rag‘batlantiradigan natijalarni belgilashlari kerak (stressni kamaytirish, diqqatni jamlash va boshqalar). Talabalarga ko‘proq yo‘naltirilgan vazifalarni bajarishga imkon berish uchun ular boshqariladigan tasvirlar yoki ko‘rgazmali qurollar bilan ishlash orqali darslarni salohiyatini oshirishlari mumkin.

Tengdoshga o‘rganish- Ushbu yondashuv siz talabalaringiz nimaga erishishini xohlayotganingizni belgilaydi. Talabalar savollar berishlari, fikr almashishlari va hokazo muhit yaratishingiz kerak. Bundan tashqari, faol tinglash va ishtirok etish bo‘yicha aniq ko‘rsatmalarni belgilang. Talabalar ularni samarali ishtirok etishga undaydigan turli raqamli vositalardan foydalanishlari mumkin

Gamifikatsiya- O‘yinlashtirish murakkab mavzularni oddiy birliklarga ajratadi . U talabalarning faolligini oshiradigan turli dizayn elementlaridan foydalangan holda o‘yin mexanikasidan foydalanadi. Gamifikatsiya muayyan o‘quv maqsadlariga mos keladigan mavzularda yaxshi ishlaydi. U elektron o‘quv kurslari yoki dasturlariga kiritilishi mumkin.

Raqamli hikoyalar- Talabalarning ijodkorligi va faolligini oshirish uchun eng yaxshi o‘qitish strategiyalaridan biri raqamli hikoyadir. Talabalar video hikoyalarini baham ko‘rishadi yoki o‘rganganlarini baham ko‘rish uchun o‘zlarining vositalarini yaratadilar.

Xizmatni o‘rganish- Xizmat ko‘rsatishni o‘rganish haqiqiy hayotga mos keladi. Masalan, o‘qituvchilar jamoat xizmatini, sayohatlarni, amaliyotlarni va hokazolarni birlashtirishi mumkin.

Ushbu metodlar asosida bir 3ta guruhga dars mashg‘ulotlari o‘tkazildi. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad, hozirgi davr talabalarini zamon bilan hamnafaslikda o‘qitish, bilim berishga qaratilgan. Ananaviy o‘qitish usullaridan farqli ravishda ushbu o‘qitish metodlarining o‘ziga yarasha kamchiliklari va yutuqlari bor. Eng asosiy maqsad kelajak yoshlarini ilm-fanga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish ularni o‘z zamoniga mos holda o‘qitish. Buning uchun ularga maxsus eksperiment o‘tkazilgan. Ushbu eksperiment dasrlarni tashkil etish va so‘rovnoma o‘tkazish asosida ma’lumotlar jamlangan. Effektivlik oshishi uchun aynan 3 ta guruhdan foydalanilgan. Ularga ananaviy oddiy darslar va yuqorida sanab o‘tilgan 5 ta metod asosida darslar o‘tilgan. Yani, ularni qaysi metoddagi dars ularga ko‘proq maqul bo‘lgani va qaysi dars ularga tushinarliroq, qaysi darsdan ko‘proq ma’lumot eslab qola olganlari o‘rganib chiqilgan. Ushbu eksperiment mutaxasislik fanlarida o‘qiydigan talabalar ustida o‘tkazilgan. Tadqiqot natijalari quyidagi jadvalda keltirilgan:

Darslar metodlari	1-guruh	2-guruh	3-guruh	Jami:	Foizlarda
Ananaviy	3	1	0	4	5.88
IHT	2	4	2	8	11.76
Tengdoshga o‘rganish	1	5	5	11	16.17
Gamifikatsiya	7	9	11	27	39.7
Raqamli hikoyalar	5	3	4	12	17.64
Xizmatni o‘rganish	3	2	0	5	7.35
Jami talabalar	21	25	22	68	

Har bir tugatilganidan so‘ng ta’surotlar so‘ralgan va savol-javob tarzida nimalarni bilib olishgani aniqlangan. O‘zlashtirish natijalari quyidagicha:

Darslar metodlari	1-guruh	2-guruh	3-guruh	Jami:	O‘zlashtirish %
Ananaviy	10	9	11	30	44.11
IHT	12	11	16	39	57.35
Tengdoshga o‘rganish	9	16	11	36	52.94
Gamifikatsiya	16	14	16	46	67.64
Raqamli hikoyalar	13	15	14	42	61.76
Xizmatni o‘rganish	11	14	15	40	58.82
Jami talabalar soni	21	25	22	68	

O‘rganishlar shuni ko‘rsatadiki talablarda yuqori qiziqish uyg‘ota olgan metodlar-Ananaviy metod 5.9 % ni, Gamifikatsiya -39.7% ni, Raqamli hikoyalar-17.6% ni, Tengdoshlarga o‘rganish 16.2% ni ko‘rsatdi. Darslarni o‘zlashtirish koeffitsiyentlari esa, Ananaviy darslarda 44.1% ni, Xizmatni o‘rganish- 58.9% ni, Raqamli hikoyalar- 61.8% ni, Gamifikatsiya-67.6 %ni tashkil etdi.

Xulosa. Yangi metodlar orqali dars darslarni anchagina samarali tashkil etish mumkinligini o‘tkazilgan tadqiqotlar orqali bilib olishimiz mumkin. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ananaviy darslar o‘rniga yangicha metodlar orqali dars salohiyatini 10% dan 34% gacha, dars samaradorligini esa 15% dan 25% gacha oshirish mumkinkligini ko‘rsatadi. Ushbu ko‘rsatgichlarga erishish uchun Gamifikatsiya, Raqamli hikoyalar, Tengdoshga o‘rganish, Xizmatni o‘rganish metodlari optimal tanlovlar bo‘lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jalilov, J. *Kasbiy ta’lim metodikasi.* — Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. — 210 b. [1].

2. Raxmatullayeva, D. *Zamonaviy pedagogik texnologiya.* — Toshkent: TDPU nashriyoti, 2022. — 28–30 betlar [2].

3. Xo'jayev, B. *Kasbiy kompetensiyani kuzatishda innovatsion o'qitish uslublari.* — “Ta’lim tizimida innovatsiyalar” jurnali, №3, 2021. — 19-bet [3].

PEDAGOGLARNING INNOVATSION MOBILLIGI VA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA

Bagbekova Laylo Kadirbergenovna
Doktorant (DSc)
Oliy ta’lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti

Annotatsiya. Mazkur maqolada pedagoglarning innovatsion mobilligini oshirishning nazariy asoslari va raqamli transformatsiya jarayonida yuzaga kelayotgan yangi imkoniyatlar tahlil qilingan. Raqamli ta’lim texnologiyalari, masofaviy professional rivojlanish kurslari, xalqaro ta’lim tajribalari (OECD TALIS, UNESCO ESD, GPE-KIX) o‘rganilib, pedagogning kasbiy malakasini zamon talablari darajasiga moslashtirish mexanizmlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: pedagog, innovatsion mobillik, raqamli transformatsiya, professional rivojlanish, xalqaro tajriba

Har qanday jamiyatning kelajagini ta’lim tizimining rivojlanganlik darajasi belgilaydi. Shu boisdan, mamlakatimizning uzluksiz ta’lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, unga ilg’or pedagogik va innovatsion texnologiyalarni joriy qilish hamda ta’lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasida kuzatilmoqda. Ma’lumki, uzluksizlik va uzviylik ta’lim tizimda, avvalo, jamiyatning ma’naviy va intellektual salohiyatini kengaytiradi, qolaversa, davlatning ijtimoiy va ilmiy taraqqiyotini takomillashtirish omili sifatida ishlab chiqarishning barqaror rivojlanishini ta’minlaydi.

Oliy ta’lim muassasalaridagi o‘quv-tarbiya jarayonini modernizatsiyalash, kadrlar tayyorlash tizimi sifat darajasini oshirishda o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, ularni sohaga oid zamonaviy kasbiy bilim, malaka va ko‘nikmalar bilan qurollantirish, ilmiy-texnik innovatsiyalardan mustaqil ravishda, ijodiy foydalanish hamda istiqbolli vazifalarni hal qila olish ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim vazifalardan sanaladi. Chunki, globallashuv va fan texnikaning

jadal rivojlanishi mutaxassislarning zamon talablari va kasbiy innovatsiyalarga nisbatan tezkor moslashishini talab qilmoqda.

Kadrlarni qayta tayyorlash tayanch mutaxassisliklar va kasblarga muvofiq bo‘lgan yo‘nalishlar bo‘yicha faoliyatni amalga oshirish uchun qo‘shimcha kasbiy bilim, malaka va ko‘nikmalarning zarur hajmi yegallanishini ta’minlaydi, kadrlar malakasini oshirish kasbiy bilim, malaka va ko‘nikmalarning chuqurlashtirilishi hamda yangilab borilishini ta’minlaydi, kadrlarning toifasi, darajasi, razryadi va lavozimi oshishiga xizmat qiladi, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish shakllari va muddatlari tegishli davlat ta’lim talablari bilan belgilanadi[24].

XXI asr ta’lim tizimi raqamli transformatsiya va global integratsiya jarayonlari bilan chambarchas bog‘liq. Bugungi pedagog faqatgina fan bo‘yicha bilim beruvchi mutaxassis emas, balki raqamli vositalardan samarali foydalanuvchi, yangi metod va texnologiyalarni o‘zlashtiruvchi, innovatsion o‘zgarishlarga tez moslasha oladigan shaxs bo‘lishi zarur. Shu bois pedagoglarning innovatsion mobilligi tushunchasi ta’lim sohasida ilmiy-amaliy tadqiqotlarning markaziga aylanmoqda. Innovatsion mobillik – bu o‘qituvchining yangi bilim, ko‘nikma va texnologiyalarni o‘zlashtirishga, tajribani almashishga, professional rivojlanishga doimiy tayyorligi hamda o‘zgaruvchan muhitga moslashuvchanlik qobiliyatidir.

Innovatsion mobillik murakkab va ko‘p qirrali tushuncha bo‘lib, quyidagi asosiy tarkibiy qismlardan tashkil topadi:

1. Kasbiy moslashuvchanlik – yangi pedagogik texnologiya va raqamli platformalarni tez o‘zlashtira olish.

2. Ijodkorlik va yangilikka ochiqlik – ta’lim jarayoniga moslashgan yangi usullar va metodlarni ishlab chiqish.

3. Xalqaro tajribani integratsiya qilish – OECD TALIS Video Study, UNESCO Education for Sustainable Development (ESD) kabi manbalardan foydalanish.

[24] O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, 23.09.2020 yildagi O‘RQ-637-son 13-modda.

4. Raqamli savodxonlik va texnologik kompetensiyalar – onlayn platformalar (Moodle, Google Classroom), masofaviy hamkorlik vositalari (Zoom, MS Teams), axborot xavfsizligi bo‘yicha bilimlarni egallash.

5. Shaxsiy rivojlanishga intilish – uzluksiz ta’lim va professional rivojlanish kurslarida qatnashish[2].

Raqamli texnologiyalar o‘qituvchilar uchun professional rivojlanishning yangi imkoniyatlarini yaratadi. Jumladan,

- Onlayn kurslar va masofaviy o‘qitish: Coursera, FutureLearn, EdX kabi platformalar orqali butun dunyo bo‘ylab ilg‘or tajribalar almashish mumkin.

- Xalqaro tajriba almashinuvi: Erasmus+ Teacher Mobility & Digital Innovation dasturlari, GPE-KIX konferensiyalari o‘qituvchilarni global tarmoqlar orqali tajriba almashinuviga imkoniyat yaratadi.

- Professional hamjamiyatlar: ijtimoiy tarmoqlar va professional formlar (LinkedIn, ResearchGate) orqali ilg‘or tajribalarni o‘rganish va almashish imkonini beradi.

- Raqamli pedagogik vositalar: interaktiv ta’lim platformalari (Kahoot, Mentimeter, Padlet) ta’lim jarayonini innovatsion tashkil qilishga yordam beradi.

Pedagogning innovatsion mobilligi zamonaviy ta’lim paradigmalari bilan bog‘liq tushuncha. Tadqiqotlarda quyidagi nazariy asoslar muhim o‘rin tutadi:

- Andragogika nazariyasi: kattalar o‘qitish jarayonida o‘z-o‘zini rivojlantirishga moyillik, tajribaga asoslangan ta’lim, mustaqil qaror qabul qilish[3].

- Shaxsiy faoliyatli yondashuv: pedagogning o‘quv faoliyatidagi faolligi va tashabbuskorligi innovatsion mobillikni rivojlantiradi.

- Hayot davomida ta’lim (Lifelong Learning, OECD, UNESCO): uzluksiz professional rivojlanish global ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilangan.

Raqamli transformatsiya ta’lim tizimining tubdan o‘zgarishiga olib keladi va quyidagi nazariy qarashlarga asoslanadi:

- SAMR modeli: texnologiyani ta’lim jarayoniga bosqichma-bosqich kiritish – Substitution, Augmentation, Modification, Redefinition.

- TPACK modeli: texnologiya, pedagogika va mazmun bilimlari uyg‘unlashgan holda samarali darsni tashkil qilish imkonini beradi[5].

- 21-asr ko‘nikmalari konsepsiyasi: kreativlik, muammolarni hal etish, axborot va media savodxonligi, hamkorlik kabi kompetensiyalar.

Xalqaro amaliy modellar:

- OECD TALIS Video Study: darslarni tahlil qilish va professional refleksiya.

- UNESCO ESD: barqaror rivojlanish kompetensiyalarini integratsiya qilish.

- GPE-KIX: rivojlanayotgan mamlakatlarda innovatsion ta’lim yechimlarini tatbiq etish uchun tajriba almashish.

Raqamli transformatsiya sharoitida pedagoglarning innovatsion mobilligi ta’lim jarayonini zamon talablari darajasiga moslashtirishda asosiy omil hisoblanadi. Innovatsion mobillik pedagogning yangi bilim va texnologiyalarni tez o‘zlashtira olishi, ijodiy yondashuvi, raqamli kompetensiyalarga ega bo‘lishi hamda xalqaro tajribadan samarali foydalanishi bilan chambarchas bog‘liq. Xalqaro tashkilotlar (OECD, UNESCO va boshqalar) ilgari surayotgan yondashuvlar shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchining professional rivojlanishi va raqamli savodxonligi ta’lim sifatini oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shuningdek, pedagoglarning innovatsion mobilligini rivojlantirish va raqamli o‘zgarishlarga moslashuvchanligini kuchaytirish hozirgi ta’lim tizimining ustuvor vazifasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

12. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, 23.09.2020 yildagi O‘RQ-637-son 13-modda.

13. OECD (2020). TALIS 2018 Results: Teachers and School Leaders as Lifelong Learners. Paris: OECD Publishing.

14. Global Partnership for Education (GPE). (2023). Knowledge and Innovation Exchange (KIX) Global Education Evidence Advisory Panel Report.

15. Fullan, M. (2021). The Principal 2.0: Leading with Moral Purpose in the Digital Age. San Francisco: Jossey-Bass.

16. Mishra, P., & Koehler, M. J. (2006). Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge. Teachers College Record, 108(6), 1017–1054.

BO‘LAJAK TEXNOLOGIYA O‘QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH MASALALARINING O‘RGANILISHI

Abdieva Saltanat Patullaevna
1-bosqich tayanch doktorant,
Ajiniyoz nomidgai Nukus Davlat
pedagogika instituti,
abdievasaltanat68@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur tezisda bo‘lajak texnologiya o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning nazariy asoslari, zamonaviy ta’lim texnologiyalarini qo‘llashning ahamiyati hamda raqamli savodxonlikni oshirish orqali ularning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: kasbiy kompetentlik, texnologiya fani, innovatsion ta’lim, pedagogik mahorat, raqamli savodxonlik, loyiha texnologiyasi.

Bugungi globallashuv davrida ta’lim tizimida o‘qituvchidan faqat bilim emas, balki o‘z mutaxassisligiga oid kasbiy kompetentlik ham talab etiladi. Texnologiya fani o‘qituvchisi ta’lim jarayonida o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish, texnik tafakkurini shakllantirish, hamda ijodiy yondashuvini rag‘batlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Chunki texnologiya fani o‘qituvchisining faoliyati o‘quvchilarni nafaqat nazariy bilimlarga, balki hayotiy va kasbiy faoliyatda zarur bo‘lgan amaliy malakalarga tayyorlashga yo‘naltirilgan.

Mazkur fikrning mohiyati O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida belgilab qo‘yilgan ta’lim maqsadlari bilan uzviy bog‘liqdir. Xususan, qonunning 7-moddasida “ta’limning asosiy maqsadi — shaxsning intellektual, ma’naviy-axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishini ta’minlash, mustaqil fikrlaydigan, ijodkor, zamonaviy kasbiy ko‘nikmalarga ega shaxsni shakllantirishdan iborat” deb qayd etilgan [1].

Shuningdek, 30-modda pedagog xodimlarning vazifalarini belgilab, “ta’lim oluvchilarda bilim, ko‘nikma, malaka, mustaqil va ijodiy fikrlashni rivojlantirish, kasbiy kompetensiyani shakllantirish” zarurligini ta’kidlaydi [1]. Shu bois

texnologiya fani o‘qituvchisi bugungi ta’lim tizimida shaxsning kasbiy, intellektual va ijodiy rivojlanishida asosiy vositachi hisoblanadi.

Kasbiy kompetentlik tushunchasi keng qamrovli bo‘lib, u o‘qituvchining nazariy bilimlari, amaliy tajribasi, kommunikativ qobiliyati, innovatsion tafakkuri va axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarining birligidan iboratdir [2].

Bo‘lajak texnologiya o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini quyidagi yo‘nalishlarda rivojlantirish muhim hisoblanadi:

1. Texnologik kompetentlik – ishlab chiqarish jarayonlari, mehnat vositalari va zamonaviy texnikadan samarali foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish.

2. Pedagogik kompetentlik – o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olib, o‘quv jarayonini tashkil etish.

3. Innovatsion kompetentlik – o‘quv jarayoniga yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish.

4. Ijodiy kompetentlik – yangicha fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal etish va o‘quvchilarni ijodiy loyihalarga jalb etish.

Mutaxassislar fikricha, bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy kompetentlikni shakllantirishning eng samarali yo‘li — bu amaliyot bilan integratsiyalashgan ta’lim tizimini joriy etishdir [3]. Shuningdek, o‘qituvchi faoliyatida loyiha texnologiyasi, modulli o‘qitish, interaktiv metodlar va raqamli platformalardan foydalanish kasbiy o‘sishga xizmat qiladi [4].

Raqamli kompetentlik, xususan, bugungi texnologiya fanida o‘qituvchining o‘z darsini “Google Classroom”, “Moodle”, “Canva for Education” kabi onlayn vositalar orqali samarali tashkil etish imkonini beradi [5]. Bu esa o‘quvchilarda mustaqil o‘rganish, ijodkorlik va jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

N.A. Muslimovning tadqiqotlarida kasb ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlashda kompetentlik yondashuvining nazariy va amaliy jihatlari keng tahlil qilinadi. Olim o‘z tadqiqotlarida kompetentlikni yettita turga ajratgan bo‘lib, ular quyidagilardan iborat: global kompetentlik**,** ijtimoiy-madaniy kompetentlik**,** ijtimoiy faoliyatga oid kompetentlik**,** axborot olishga oid kompetentlik**,** kommunikativ kompetentlik**,** o‘quv-bilishga oid kompetentlik **va** amaliy faoliyatga oid kompetentlik [5].

Muallifning fikricha, mazkur kompetentlik turlarining shakllanishi ta’lim jarayonida yoshlarning shaxsiy rivojlanishi**,** mustaqil fikrlash**,** ijodkorlik**,** faollik**,** munosabat madaniyati, shuningdek, xarakter va dunyoqarash barqarorligini ta’minlaydi. Bu, o‘z navbatida, o‘qituvchining o‘z-o‘zini boshqarish, nazorat qilish va tarbiyalashga bo‘lgan ehtiyojini kuchaytiradi.

Shu nuqtayi nazardan, Muslimov tomonidan ilgari surilgan kompetentlik turlarini o‘qituvchilar tayyorlash tizimiga tatbiq etish nafaqat kasbiy tayyorgarlikni oshiradi, balki o‘quvchida hayotiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan universal ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu yondashuv o‘qituvchining kasbiy mahorati, pedagogik madaniyati va innovatsion faoliyatini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

Bo‘lajak texnologiya o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish – ta’lim jarayonini amaliy, innovatsion va interaktiv asosda tashkil etish, o‘qituvchini texnik, axborot va pedagogik jihatdan yetuk mutaxassis sifatida shakllantirishni talab etadi. Natijada, zamonaviy ta’lim muhitida o‘z o‘rnini topa oladigan, raqobatbardosh, ijodkor pedagog kadrlar yetishib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘RQ–637-son, 23-sentabr 2020-yil, 7-modda. 30-modda.lex.uz.

2. Karimov, M. Pedagogik kompetentlik asoslari. — Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2021. — B. 45–47.

3. Niyozov, A. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirishning innovatsion yondashuvlari. — Samarqand: “SamDU nashriyoti”, 2022. — B. 62–65.

4. Nurmuxamedova, N. Texnologiya ta’limida innovatsion yondashuvlar. — Toshkent: “O‘zbekiston”, 2022. — B. 31–33.

5. G‘ulomov, A. Pedagogik texnologiyalar va ularni qo‘llash usullari. — Toshkent: “Istiqlol”, 2023. — B. 80–84.

6. Muslimov, N.A. *Kasb ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlashning samarali zamonaviy o‘quv-metodik majmuasini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish masalalari.* — Toshkent: TDPU, 2014. — B. 56.

TALABANING BILIM VA KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA ILG‘OR TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI

Tayirov Hamza O‘ktamovich
Urganch Davlat Pedagogik
Instituti katta o‘qituvchisi
thamzanet@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalarning bilim va ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonida ilg‘or pedagogik texnologiyalarning tutgan o‘rni tahlil etilgan. Interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya vositalari hamda muammoli ta‘lim kabi zamonaviy yondashuvlarning o‘quv jarayonidagi ijobiy ta‘siri yoritilgan. Ilg‘or texnologiyalar orqali talabalar faolligi, mustaqil fikrlashi va amaliy ko‘nikmalari rivojlanishi ta‘kidlangan. Maqolada zamonaviy ta‘limda innovatsion usullardan samarali foydalanishning dolzarbligi asoslab berilgan. Ilg‘or innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llashning maqsadi, mazmuni va o‘rni ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: ilg‘or pedagogik texnologiyalar, talaba, bilim, ko‘nikma, interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya, ta‘lim sifati, muammoli ta‘lim, innovatsion yondashuv, internet, multimedia, interaktiv metodlar.

Аннотация. В статье анализируется роль современных педагогических технологий в процессе формирования знаний, умений и навыков учащихся. Подчеркивается положительное влияние современных подходов, таких как интерактивные методы, информационно-коммуникационные технологии и проблемно-ориентированное обучение, на процесс обучения. Особое внимание уделяется развитию активности студентов, самостоятельности мышления и практических навыков с помощью передовых технологий. В статье обосновывается актуальность эффективного использования инновационных методов в современном образовании. Раскрываются сель, содержание и роль использования передовых инновационных педагогических технологий.

Ключевые слова: передовые педагогические технологии, студент, знания, умения, интерактивные методы, информация и коммуникация, качество образования, проблемное обучение, инновационный подход, Интернет, мультимедиа, интерактивные методы.

Abstract. This article analyzes the role of advanced pedagogical technologies in the process of forming students' knowledge and skills. The positive impact of modern approaches such as interactive methods, information and communication tools, and problem-based learning on the learning process is highlighted. The development of students' activity, independent thinking, and practical skills through advanced technologies is emphasized. The article justifies the relevance of the effective use of innovative methods in modern education. The purpose, content, and role of the use of advanced innovative pedagogical technologies are revealed.

Key words: advanced pedagogical technologies, student, knowledge, skills, interactive methods, information and communication, quality of education, problem-based learning, innovative approach, Internet, multimedia, interactive methods.

Asosiy qism. Bugungi kunda axborot texnologiyalari jamiyatimiz rivojlanishiga ta‘sir etuvchi eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Axborot texnologiyalari insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarida mavjud bo‘lib, hozirgi zamon axborotlashgan jamiyatida yetakchi o‘rinni egallamoqda. Axborot texnologiyalari va texnik vositalar samarasini belgilaydigan didaktik materiallardan keng foydalanish zamonaviy pedagogik texnologiyalarning asosiy belgilaridan biridir. Axborot texnologiyalari – bu odamlarning bilimlarini rivojlantiradigan, ularning texnika va ijtimoiy jarayonlarni boshqarish bo‘yicha imkoniyatlarini kengaytiradigan ma‘lumotlarni tashkil etish, saqlash, ishlab chiqish, tiklash, uzatish usullari va texnik vositalaridir. Xususan, talabalarning chuqur bilimga ega bo‘lishi, amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishi va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda ilg‘or pedagogik texnologiyalarning ahamiyati juda katta. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar deganda, o‘quv jarayonini samarali tashkil etish, talabalarda faollikni oshirish, kreativ fikrlashni rivojlantirish va bilimlarni mustahkamlashga xizmat qiluvchi zamonaviy yondashuvlar tushuniladi. Bu

texnologiyalar orasida interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, muammoli ta‘lim, loyihalash asosida o‘qitish va modulli o‘qitish uslublari alohida o‘rin tutadi.

Talabalar uchun dars jarayonining faollashtirilishi – ularning bilimini faqat eslab qolish emas, balki tushunish, tahlil qilish va real hayotda qo‘llay olish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Masalan interfaol metodlar talabaning darsga qiziqishini oshiradi va ularni o‘z fikrini erkin bayon qilishga undaydi. Bundan tashqari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining qo‘llanilishi darsni yanada jonli va interaktiv shaklda o‘tkazish imkonini beradi [1. 25-bet].

Onlayn platformalar, virtual laboratoriyalar, multimedia vositalari orqali berilgan topshiriqlar nafaqat nazariy bilimni, balki amaliy ko‘nikmalarni ham rivojlantiradi. Ilg‘or texnologiyalarning yana bir afzalligi – har bir talabaga individual yondashuvni ta‘minlashidir. Bu esa o‘z navbatida o‘quvchi faolligi, mustaqilligi va tashabbuskorligini oshiradi.

O‘qitishda ilg‘or pedagogik texnologiyalarning o‘rni – bu texnologiyalar ta‘lim jarayonining samaradorligini oshirish, talabalarda mustaqil fikrlash, tahliliy yondashuv, ijodiy va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishdagi ahamiyatlidir. Ular o‘quvchilarning faolligini oshirib, o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi, shuningdek, bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirishga yordam beradi. Qisqacha aytganda, ilg‘or pedagogik texnologiyalar – bu zamonaviy, samarali natijaga yo‘naltirilgan ta‘limning asosi hisoblanadi. Innovatsion usullarda dars o‘tish jarayonini, ya‘ni zamonaviy pedagogik texnologiyalarni boshlang‘ich ta‘lim davridan boshlab tashkil etish ta‘lim tizimida yuqori samara beradi. Bu degani, boshlang‘ich ta‘lim umumiy o‘rta ta‘limning poydevori hisoblanadi. Ana shu poydevorni mustahkam tarzda bunyod etish kelgusi darslardagi ta‘lim jarayonining o‘tilishida ham qulaylik yaratadi [2. 45-bet].



Boshlang‘ich ta‘limdan boshlab tashkil etilgan ilg‘or pedagogik texnologiyalar ta‘limning keyingi bosqichlarida ham muhim vazifa bajaradi. Talabaning ilg‘or pedagogik texnologiyalarga bo‘lgan qiziqishini shakllantirishning muhim shartlaridan biri – hissiy muhit, bilishga bo‘lgan ehtiyoj va ongli fikrlashni rivojlantirishdan iborat.

Umuman olganda, ilg‘or pedagogik texnologiyalar sifat jihatdan yangi masalalarni yechish uchun ta‘lim evolyutsiyasi bosqichini tayyorlovchi obyektiv jarayon bo‘lib, katta ta‘lim imkoniyatlarini ochib beradi.

Xulosa. Talabaning bilim va ko‘nikmalarini shakllantirishda ilg‘or pedagogik texnologiyalarning o‘rni beqiyosdir. Ular orqali o‘quv jarayoni interaktiv, samarali va talabaning shaxsiy rivojlanishiga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Har bir pedagog bu texnologiyalarni puxta o‘zlashtirib, dars jarayonida to‘g‘ri qo‘llasa, ta‘lim sifati sezilarli darajada oshadi. Shuning uchun zamonaviy ta‘limda ilg‘or yondashuvlardan foydalanish har bir o‘qituvchining muhim vazifasidir. Shunday ekan, har bir pedagog o‘z darslarini o‘tishdan oldin o‘z oldiga aniq maqsad qo‘yib olishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduqodirov B. (2020). Pedagogik texnologiyalar. Toshkent: O‘qituvchi.
2. Xolmatov D. (2019). Zamonaviy ta‘lim texnologiyalari. Samarqand: SamDU nashriyoti.
3. Mamatov M. (2021). Ilg‘or pedagogik metodlar va ularning ta‘lim tizimidagi o‘rni. Toshkent: TDPU nashriyoti.
4. Popova M. (2022). Interaktiv metodlar va pedagogik texnologiyalar. Moskva: Pedagogika.

BIOLOGIYA DARSLARIDA LOYIHA ISHLARI

Tillayeva Zebo Yerbekovna
Toshkent Davlat Tibbiyot
Universiteti
3-son akademik litseyi boiologiya
bosh o‘qituvchisi, b.f.n.

Annotatsiya: Tabiiy fanlarni o‘rganishda loyiha ishlarining ahamiyati katta. Chunki nazariyani amaliyot bilan bog‘liq holda o‘rganish mavzuni oson o‘zlashtirish va eslab qolishga yordam beradi. Loviya urug‘i misolida urug‘ning ichki tuzilishini o‘rganish, unib chiqish jarayonini tajribada kuzatish orqali bilim oluvchilarda fanga bo‘lgan qiziqishning uyg‘onishiga, tajriba o‘tkazish ko‘nikmalarining shakllanishiga undaydi. Shu bilan birga o‘quvchilarni hayotga tayyorlashda, ishlarni reja asosida olib borishida manfaatli bo ‘ladi.

Kalit so‘zlar: loyiha ishi, tabiiy fanlar, loviya urug‘i

Tabiiy fanlarni o‘qitishda mavzuga oid tajribalarni qo‘llash o‘quvchilarda katta taassurot qoldiradi. Chunki o‘quvchi har qanday bilimni faqat nazariy emas, amalda qo‘llay olsa, olingan bilimlar o‘z natijasini beradi. Aks holda, olingan bilim amalda mustahkamlanmasa, tez xotiradan o‘chadi. Shu sababli amaliy darslarning sonini oshirish muhim ahamiyatga ega. Amaliy mashg‘ulotlarda turmushda ko‘p qo‘llaniladigan, topish oson bo‘lgan materiallardan foydalanish mumkin.

Loyiha ishlaridan biri sifatida loviya urug‘ining tashqi va ichki tuzilishini, hamda unib chiqishga ta’sir etuvchi omillarni o‘rganish mumkin.

Buning uchun dastlab reja tuziladi:

1. Urug‘ning uzunligini o‘lchash;
2. Ivitilgan urug‘ning uzunligini o‘lchash;
3. Urug‘ning ichki tuzilishini lupa yordamida aniqlash;
4. Urug‘ning unib chiqishi uchun zarur sharoitni o‘rganish;
5. Normal muhitda o‘stirilgan loviyadagi jarayonlarni kuzatish;





Loviya bir yillik o‘t. Uning dukkak mevasi ichida urug‘ yetiladi. Biz loviyaning urug‘ini ovqat yoki salat ko‘rinishida iste’mol qilamiz. Loviya urug‘i oziq modda va vitaminlarga boy. Uning tarkibida oqsillar va xotirani mustaxkamlovchi B guruh vitaminlari mavjud. Urug‘ning tuzilishini qanday o‘rganamiz? Buning uchun quyidagi tajriba o‘tkaziladi.

Bizga kerak: loviya urug‘i, suvli stakan, oq qog‘oz, chizg‘ich, lupa

Bajarish tartibi:

1. 10 ta loviya urug‘ini oling.
2. Urug‘ uzunligini o‘lchang. 10ta urug‘ uzunligining o‘rtachasini aniqlang.
3. Suvli stakanga soling.
4. Bir kun o‘tgach, ivigan urug‘larning uzunligini o‘lchang va o‘rtacha qiymatni toping.
5. Urug‘ qanchaga kattalashganini aniqlang. Buning uchun urug‘ni ivitishdan keyingi o‘rtacha qiymatidan urug‘ni ivitishdan oldingi o‘rtacha qiymatini ayiring.
5. Ivitilgan urug‘ po‘stini ajratib, urug‘pallalarini oching.
6. Murtakni toping.
7. Lupa yordamida murtak tuzilishini kuzating.
8. Natijani mashq daftaringizga qayd eting.

Urug‘ni ivitganimizda qanday o‘zgarish sodir bo‘ldi?

Ivitilmagan va ivitilgan urug‘lar necha cmga o‘zgardi?

Urug‘ qanday qismlardan iborat? Buni aniqlash uchun urug‘ni lupa yordamida kuzatamiz. Urug‘ni tekshirganimizda asosiy uch qismdan iboratligini ko‘rishimiz mumkin.



1. Urug‘ po‘sti - urug‘ni qurib qolishdan himoya qiladi.
2. Ikkita urug‘palla - oziq to‘planadi.
3. Murtak - undan yangi o‘simlik rivojlanadi

“Urug‘ning unib chiqish jarayonini o‘rganish” mavzusida quyidagicha tajriba o‘tkazish mumkin: dastlab loviya urug‘ining unib chiqishi uchun zarur shart-sharoitni o‘rganish maqsadida reja tuziladi. Reja quyidagi bosqichlardan iborat:

1. Loviya urug‘ini undirish uchun zarur sharoitni o‘rganish.
2. Ivitilgan va ivitilmagan loviya urug‘ining unib chiqish jarayonini kuzatish.
3. Kundalik daftarga kuzatish natijalarini qayd etib borish.
4. Loviya urug‘ini yorug‘da va qorong‘ida o‘stirib, undagi o‘zgarishlarni kuzatish.
5. Natijalarga ko‘ra xulosa qilish.

Loviyani o‘stirish bo‘yicha quyidagicha tajriba o‘tkaziladi:

Bizga kerak: loviya urug‘i, suvli stakan, qog‘oz sochiq, suv purkagich, plastmassa idish, strech-plyonka, tuproq.

Bajarish tartibi:

1. O‘nta loviya urug‘ini stakandagi suvga solib bir kun iviting.
2. Ikkita idish olib, qog‘oz sochiq soling.
3. Ikkala idishga 5ta ivitilmagan va 5ta ivitilgan urug‘larni joylashtiring.
4. Urug‘lar ustini qog‘oz sochiq bilan yopib suvpurkagich yordamida namlang.
5. Idishlarni strech-plyonka bilan yoping. Havo kirishi uchun bir necha joyidan teshib qo‘ying.
6. Urug‘ solingan idishlarni issiq joyda saqlang.
7. Har kuni urug‘lardagi o‘zgarishlarni kuzatib, daftaringizga qayd etib boring.

8. Urug‘ ildiz, poya va dastlabki barglarni hosil qilgandan so‘ng ustiga tuproq soling. Tuproq ildizni ko‘mib tursin.
9. Birinchi idishni yorug‘ga (deraza oldiga), ikkinchisini qorong‘i joyga (shkafga) qo‘ying.
10. Har kuni suv purkab turing.
11. O‘n kun davomida o‘simliklarni kuzatib boring.
12. Ulardagi o‘zgarishlarni solishtiring.
13. Natijalarni daftariga yozib, xulosa qiling.



1-kun. Ildizning hosil bo‘lishi



2-kun. Ildizning rivojlanishi



4-kun.Poyaning rivojlanishi



6-kun. Bargning rivojlanishi

Qorong‘ida va yorug‘da o‘stirilgan o‘simliklarda qanday o‘zgarishlar sodir bo‘ldi?



Tajribalarni loyiha ishi sifatida har bir o‘quvchi tomonidan amalga oshirilishi unda fanga bo‘lgan qiziqishining ortishiga, tajribalarni maqsadli amalga oshirish ko‘nikmasining shakllanishiga sababchi bo‘ladi. O‘tkazilgan tajribalar asosida xulosa yasay olish o‘quvchining olgan bilimini mustahkamlashga olib keladi.

Ushbu tajribalar 2-sinf, 5-sinf va litsey o‘quvchilari tomonidan amalga oshirildi. Topshiriqlar o‘quvchilarning yoshiga mos ravishda murakkablashnirilib borildi. O‘tkazilgan tajriba barcha yoshdagi o‘quvchilarda katta qiziqish uyg‘otdi, tajribalardagi asosiy farq xulosalash qismida bo‘ldi. Urug‘ning tuzilishini o‘rganish va unib chiqish jarayonini kuzatish va tajribada sinab ko‘rish orqali ular olgan bilimlarni hayotiy jarayonlarda qo‘llay olish ko‘nikmalarini hosil qilishdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Шайкин В. Г. Огород у дома. – М.; Нива России, 1993
2. Фасоль — Википедия ru.wikipedia.org›Фасоль
3. «Удивительный мир растений»http://www.valleyflora.r/3.html
4. «Фасоль – полезные свойства и применение»http://*****/fasol. Php
5. Выращивание фасоли на подоконнике и балконе dachasadovnika.ru›выращивание-фасоли подоконнике…
6. https://www.maam.ru/detskijsad/poznavatelno-isledovatelskii-proekt-v-ogorode-hot-rosla-znaet-noty-sol-i-fa-chast-vtoraja.html

INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR: MUTAXASSISLIK FANLARINI O‘QITISHDA YANGI YONDASHUVLAR

Xodjaniyozova Ruxiya Allaquliyevna,
“Boshlang'ch ta'lim nazariyasi” kafedrasi
o‘qituvchisi Urganch davlat pedagogika
instituti
qawsdruxiya@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy ta’lim tizimida innovatsion pedagogik texnologiyalarning o‘rni va ahamiyati, ularning mutaxassislik fanlarini o‘qitishda qo‘llanish imkoniyatlari hamda o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishdagi roli keng yoritilgan. Bugungi globallashuv sharoitida ta’lim jarayoni o‘qituvchidan ijodkorlik, yangicha yondashuv va zamonaviy texnologiyalarni samarali qo‘llashni talab etadi. Maqolada o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi hamkorlikka asoslangan interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari hamda refleksiv yondashuvning o‘qitish samaradorligiga ta’siri tahlil qilinadi. Shuningdek, innovatsion texnologiyalarning talabalarda kasbiy kompetensiyani shakllantirish, ta’lim mazmunini yangilash va o‘qituvchining pedagogik mahoratini oshirishdagi ahamiyati alohida ko‘rsatib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: innovatsion texnologiyalar, ta’lim sifati, mutaxassislik fanlari, interfaol metodlar, pedagogik kompetensiya.

XXI asr ta’lim tizimining asosiy maqsadi – ijodkor, mustaqil fikrlaydigan, tashabbuskor va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashdan iborat. Bunday natijaga erishish uchun an’anaviy ta’lim metodlaridan tashqari, innovatsion pedagogik texnologiyalarni o‘quv jarayoniga keng joriy etish zarur. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lida bizga zamonaviy bilim va yuksak malakaga ega, mustaqil fikrlaydigan yoshlar kerak. Ta’lim tizimini zamon talablari asosida isloh qilmasdan turib, bunday maqsadlarga erishib bo‘lmaydi.” Ushbu fikr ta’lim jarayonida yangicha yondashuvlarning, jumladan, innovatsion pedagogik texnologiyalarning muhimligini yaqqol ko‘rsatadi. Innovatsion yondashuvlar o‘qitishning faqat tashkiliy shaklini emas, balki uning

mazmuni, muloqot uslubi va talabaning o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasini ham tubdan o‘zgartiradi. Shu bois, bugungi kunda har bir o‘qituvchi o‘z faoliyatida zamonaviy axborot texnologiyalarini, interfaol usullarni va refleksiv yondashuvni uyg‘un qo‘llash orqali ta’lim sifatini oshirishga intilishi zarur [1]

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’lim tizimida innovatsion texnologiyalarni joriy etish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Prezident qarorlarida ta’limda ilg‘or xorijiy tajribalarni joriy etish, o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini oshirish va zamonaviy ta’lim metodologiyalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgan [2].

“Innovatsiya” atamasi yangilik kiritish, yangilanish degan ma’noni anglatadi. Pedagogik innovatsiyalar – bu o‘qitish jarayoniga samaradorlik keltiruvchi yangi g‘oya, metod, vosita yoki tashkiliy shakllarni tatbiq etishdir. Innovatsion texnologiyalar ta’lim jarayonini o‘qituvchi markazidan talaba markaziga o‘tkazadi, ya’ni o‘quvchi faoliyatini mustaqil va ijodiy yo‘naltirishga imkon beradi [3].

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin: loyiha asosida o‘qitish (Project-based learning), muammoli ta’lim (Problem-based learning), klaster, aqliy hujum (Brainstorming), “Blended learning” (aralash ta’lim), “Six Thinking Hats” (Oltita fikrlash shlyapasi), “Case study” usullari va boshqalar. Ushbu texnologiyalar talabalarda tahliliy fikrlash, jamoaviy ishlash, kommunikativ va kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi [4].

Mutaxassislik fanlari o‘qitilishida innovatsion metodlardan foydalanish o‘quv jarayonining mazmunini chuqurlashtiradi, talabalarning faolligini oshiradi hamda ularning amaliy va ijodiy fikrlash salohiyatini rivojlantiradi. Masalan, texnik yo‘nalishlarda loyiha asosida o‘qitish (Project-Based Learning) usuli talabalarni nazariy bilimni real hayotiy muammolarga tatbiq etishga, amaliy tajriba orttirishga va jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Bu yondashuv nafaqat bilim olishni, balki uni ijodkorlik va tahliliy fikrlash bilan uyg‘unlashtirishni ta’minlaydi.

Pedagogika va gumanitar yo‘nalishlarda esa “Case study” (vaziyatli tahlil) hamda “Six Thinking Hats” (Olti xil fikrlash shlyapasi) texnologiyalarining qo‘llanilishi

o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash, muammoli vaziyatlarda mustaqil va mantiqiy qaror qabul qilish, turli nuqtai nazarlardan tahlil yuritish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bu metodlar dars jarayonini qiziqarli, ijodiy va hamkorlikka asoslangan tarzda tashkil etish imkonini beradi.

Natijada, talabalarda nafaqat nazariy bilimlar, balki kasbiy kompetensiyalar – muloqot, hamkorlik, ijodkorlik, tahliliy fikrlash va mas’uliyat bilan qaror qabul qilish kabi ko‘nikmalar shakllanadi. Shu tariqa, innovatsion pedagogik texnologiyalar mutaxassislik fanlarining mazmunini boyitadi, ta’lim jarayonini zamonaviy mehnat bozori talablariga yaqinlashtiradi.

Interfaol metodlar, jumladan, “Debat”, “Aqliy hujum”, “Fishbone”, “Cluster”, “Insert” kabi yondashuvlar o‘quvchini dars jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi. Shuningdek, bu usullar yordamida talabalarning tanqidiy fikrlash, tahlil qilish va o‘z fikrini asosli ifoda etish malakalari shakllanadi [5].

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanish zamonaviy ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Bu texnologiyalar ta’limda innovatsion muhit yaratish, o‘quv jarayonini interaktiv, ochiq va samarali tashkil etish imkonini beradi. AKT vositalari yordamida o‘qituvchi o‘quv jarayonini faqat auditoriya doirasida emas, balki masofadan ham boshqarish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Masalan, masofaviy ta’lim platformalari — Moodle, Google Classroom, Edmodo, Zoom, Microsoft Teams kabi tizimlar o‘qituvchi va talaba o‘rtasida uzluksiz muloqotni ta’minlaydi, topshiriqlarni onlayn baholash, tahlil qilish va tezkor fikr almashish imkonini beradi.

Bundan tashqari, videodarslar, virtual laboratoriyalar, test modullari va multimedia vositalari o‘quv jarayonini yanada jonlantiradi, vizual idrokni kuchaytiradi hamda murakkab mavzularni sodda va tushunarli shaklda yoritish imkonini beradi. Shuningdek, raqamli ta’lim resurslari (elektron darsliklar, interaktiv testlar, onlayn kutubxonalar) talabalarga istalgan joyda va vaqtda mustaqil o‘qish imkoniyatini yaratadi. Bu esa ta’limning moslashuvchanligi va individuallashtirilgan yondashuv tamoyillarini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu tariqa, AKT o‘qitish jarayonini faollashtirish, talabalarning motivatsiyasini oshirish, o‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi muloqotni kuchaytirish hamda o‘quv faoliyatining sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Raqamli texnologiyalarni to‘g‘ri tanlash va ularni pedagogik maqsadlarga muvofiq qo‘llash esa ta’limda haqiqiy innovatsion muhitni shakllantiradi.

Innovatsion pedagogik texnologiyalarni samarali qo‘llash uchun o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi, ijodiy yondashuvi va o‘z ustida ishlashi muhim ahamiyatga ega. Har bir darsdan so‘ng o‘qituvchi o‘z faoliyatini tahlil qilishi, talabalarning natijalarini baholashi va jarayonni takomillashtirib borishi zarur. Bu jarayon refleksiv pedagogika deb ataladi.

Refleksiya o‘qituvchiga dars samaradorligini aniqlash, talaba ehtiyojlarini tushunish hamda o‘z faoliyatida yangilik yaratish imkonini beradi [6].

Innovatsion pedagogik texnologiyalar ta’lim jarayonining samaradorligini oshiruvchi, talabalarning mustaqil fikrlash, izlanish va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi muhim vosita hisoblanadi. Ular o‘qitish jarayonida o‘qituvchi va talaba o‘rtasida hamkorlik, ijodiy muhit va motivatsiyani kuchaytiradi.

Mutaxassislik fanlarini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlarni tatbiq etish oliy ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqadi, chunki bu orqali ta’lim jarayoni mehnat bozorining ehtiyojlariga moslashadi, o‘quvchilar esa o‘z kasbining haqiqiy mutaxassisiga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. *Yangi O‘zbekiston strategiyasi.* – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim sifatini oshirish va innovatsion faoliyatni rivojlantirish to‘g‘risida”gi PQ-3775-son Qarori, 2018-yil.
3. Ziyomuhammadov B. “Pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalar.” Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
4. Kolb D. “Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development.” Prentice Hall, 2015.
5. Jalolov J. “Innovatsion o‘qitish metodlari.” Toshkent: TDPU nashriyoti, 2020.

STEAM YONDASHUVI ASOSIDA MATEMATIKANI KASBIY FANLAR BILAN UYG‘UNLASHTIRIB O‘QITISH METODIKASI

Ziyoda Urinbayeva
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
“Matematika o’qitish metodikasi va geometriya” kafedrasi o’qituvchisi
E-mail. ziyodarixsiboyeva96@gmail.com

Annotatsiya: Zamonaviy ta’lim jarayonida matematikani faqat nazariy bilim sifatida emas, balki amaliy faoliyatga yo‘naltirilgan fan sifatida o‘qitish dolzarb masalalardan biridir. Ushbu tezisda STEAM yondashuvi asosida matematikani kasbiy (mutaxassislik) fanlar bilan integratsiyalashgan holda o‘qitish metodikasi, uning afzalliklari, real hayotiy muammolarni hal qilishga yo‘naltirilgan o‘quv loyihalari orqali talabalarda chuqur bilim va kompetensiyalarni shakllantirish imkoniyatlari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: STEAM yondashuvi, matematika, kasbiy fanlar, integratsiya, innovatsion metod, kompetensiya.

Zamonaviy ta’limda fanlararo integratsiya muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, kasb-hunar ta’limida matematika fanining kasbiy bilimlar bilan bog‘liq holda o‘rgatilishi talabalarning tayyorlov darajasini oshiradi. Bu borada STEAM yondashuvi — ya’ni fan (S), texnologiya (T), muhandislik (E), san’at (A) va matematika (M)ni uyg‘unlashtirgan holda o‘qitish — dolzarb va samarali metod hisoblanadi[1].

Umumkasbiy va mutaxassislik fanlarini o‘qitishning zamonaviy metodlari hozirgi kunda ta’lim sifatini oshirish, talabalarni faol ishtirok etishga undash va real hayotga yaqin bilimlar berishga qaratilgan.

Mutaxassislik fanlarini o`qitish metodikasi fanining asosiy maqsadiga erishishda quyidagi vazifalarni amalga oshirish kerak bo`ladi:

- kasbiy ta`limning vazifalarini asoslash, uning ta`limiy va tarbiyaviy ahamiyatini ochib berish;

- talabalarda o`quv materialini mazmunini asoslash bo`yicha bilim va ko`nikmalarni shakllantirish;

- kasbiy ta`lim jarayonini tashkil etishning shakl va metodlarini asoslash.

- bo`lajak mutaxassislarda kasbiy bilimlarni shakllantirishning pedagogik va axborot texnologiyasini asoslash;

- Mutaxassislik fanlarini o`qitish metodikasining taraqqiyot tendentsiyasi (jihati), uning bugungi kundagi holati, izlanish metodlari, yangilanish sabablari, shuningdek o`quv adabiyotlar bilan tanishtirish;

- uzluksiz ta`lim tizimining bo`g`inlarida Mutaxassislik fanlarini o`qitish metodikasi fanini o`ziga xos jihatlarini yetkazish;

- zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ulardan foydalanish, interfaol usullarning asosiy ko`rinishlari va ularni qo`llash;

Matematika fanini o‘qitishda zamonaviy metodlar — bu an’anaviy dars berish uslublarini yangilash, talabalarning faolligini oshirish va ular uchun matematikani tushunarli hamda amaliy foydali fan sifatida yetkazishga qaratilgan yondashuvlardir[2].

Zamonaviy ta’limda umumkasbiy va mutaxassislik fanlarini o’qitishda quyidagi metodlardan samarali foydalanilmoqda:

1. Muammoli ta’lim metodi (PBL - Problem-Based Learning)

- Dars muammoni qo‘yishdan boshlanadi.
- O‘quvchilarga kundalik hayotdan olingan matematik masala taklif etiladi.
- Ular muammoni tushunish, strategiyani tanlash va yechim topish orqali o‘rganadilar.
- Bu metod tanqidiy va mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi.

Misol: "Bir fermer 100 metr sim bilan maksimal yuzali to‘rtburchak yasamoqchi. Qanday o‘lchamlar eng katta yuzani beradi?"

2. Loyiha asosida o‘qitish (Project-Based Learning)

- O‘quvchilar ma'lum mavzuga doir loyiha ustida ishlaydi.
- Masalan: "Shahar bog‘i loyihasining xarajat smetasini tuzish", "To‘g‘ri burchakli uchburchakdan foydalanib bino balandligini aniqlash".

- Bu metod matematikani real hayot bilan bog‘laydi.

3. Raqamli texnologiyalar va interaktiv vositalardan foydalanish

- **GeoGebra**, **Desmos**, **Khan Academy**, **Wolfram Alpha**, **Mathway** kabi onlayn platformalar darslarda qo‘llaniladi.
- Grafik chizish, funksiyalarni tahlil qilish, algebraik manipulyatsiyalar ko‘rgazmali va tez amalga oshiriladi.

4. STEM yoki STEAM yondashuvi

- Matematika fanini boshqa fanlar (fizika, informatika, texnologiya, san’at) bilan bog‘lab o‘qitish.
- Masalan: Fizika darsida parabola harakat trayektoriyasini matematik formulalar orqali izohlash.

5. O‘yinlashtirish (Gamifikatsiya)

- Matematika topshiriqlari o‘yin shaklida taqdim etiladi (testlar, viktorinalar, matematik turnirlar).
- Ball yig‘ish, daraja oshirish, sovrinlar olish orqali motivatsiya kuchayadi.
- Quizizz, Kahoot, Matific kabi platformalar foydali.

6. Matematika va hayot integratsiyasi

- Matematika darslarida statistik ma’lumotlar, moliyaviy hisob-kitoblar, valyuta kursi, kredit foizlari kabi real misollar qo‘llaniladi.
- Bu matematikani “quruq formulalar” emas, balki foydali vosita sifatida ko‘rsatadi[7].

Matematika fanini o‘rgatishda eng muhimi — abstrakt tushunchalarni hayotiy va ko‘rgazmali misollar bilan tushuntirish, talabalarni darsga faol jalb qilish va texnologik vositalardan oqilona foydalanishdir. Buni, ayniqsa, STEAM texnologiyasida samarali tashkil etish mumkin.

STEAM dasturlarining maqsadi - ta’lim oluvchilarga innovatsion fikrlashni, tanqidiy mulohaza yuritishni, real hayotdagi muammolarga muhandislik yoki texnologiyalardan ijodiy yondashuvda foydalanishni o‘rgatishdan iborat. Bunda talabalarning matematika va tabiiy fanlarga oid bilimlariga tayangan holda, ularni amaliyotda qo‘llashga urg‘u beriladi.

STEM ta’limi – bu fan (Science), texnologiya (Technology), muhandislik (Engineering) va matematika (Mathematics) fanlariga integratsiyalashgan va o‘zaro bog‘liq tarzda yondashishni nazarda tutadi. Keyinchalik bu tizimga san’at (Art) va o‘qish (Reading) elementlari qo‘shilib, u kengaytirilgan holda STEAM ta’limi deb yuritila boshlandi.

Uning asosiy g’oyasi shundan iboratki, amaliyot nazariy bilimlar singari muhimdir. Ya’ni, o’rganish paytida biz nafaqat miyamiz bilan, balki qo’limiz bilan ham ishlashimiz kerak. STEAM yondashuvining asosiy farqi shundaki, bolalar turli xil mavzularni muvaffaqiyatli o’rganish uchun ham miyani, ham qo’llarini ishlatadilar. Ular olgan bilimlarni o’zlari «uqib oladilar»[5].

Amaliy qobiliyatga e’tibor berib, talabalar o’zlarining irodasini, ijodkorligini, moslashuvchanligini rivojlantiradi va boshqalar bilan hamkorlik qilishni o’rganadi. Ushbu ko’nikmalar va bilimlar asosiy ta’lim vazifasini tashkil etadi.

STEAM-ta’lim ilmiy usullarni amalda qanday qo’llashni tushunishga kirishadigan aralash muhitni nazarda tutadi. Ushbu dastur bo’yicha talabalar, matematika va fizika bilan bir qatorda, o’z robotlarini ishlab chiqadigan va ishlab chiqaradigan robotlarni o’rganadilar[6].

Matematika va kasbiy fanlarni integratsiyalash

Masalan, iqtisod yo‘nalishida foiz hisoblash, moliyaviy modellash, kreditlar bo‘yicha hisob-kitoblar, muhandislikda geometriya asosida qurilish konstruksiyalarini loyihalash, o‘lchamlar hisoboti, texnologiya yo‘nalishida dasturlash asoslari bilan matematik algoritmlarni bog‘lash kabi integratsiyalashgan muhit yaratiladi[3].

Amaliy loyiha va topshiriqlar qismida esa real hayotga oid, kasbiy faoliyatga yaqin vazifalar beriladi. Masalan:

- Ko‘prik modelini chizish (muhandislik va geometriya integratsiyasi)
- Budjet hisoboti tuzish (iqtisod va algebra)
- 3D modellashtirishda koordinatalar bilan ishlash (matematika + texnologiya)

Xulosa qilib aytganda, agar biz an’anaviy ta’limning asosiy maqsadi bilimlarni o’rgatish va bu bilimlardan fikrlash va ijod qilish uchun foydalanish deb

aytsak, STEAM yondashuvi bizni olgan bilimlarni haqiqiy ko’nikmalar bilan birlashtirishga o’rgatadi. Bu ta’lim oluvchilariga nafaqat ba’zi bir g’oyalarga ega bo’lish, balki ularni amalda qo’llash va amalga oshirish imkoniyatini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Abdullayeva G.Sh., Abdullayeva N.K. STEAM-ta’lim konsepsiyasi: mohiyati va o‘qitish strategiyalari. — Toshkent: TDPU, 2022.
2. Hasanboyeva D.T. Matematik ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan, 2021.
3. „STEAM Rising: Why we need to put the arts into STEM education education“. Slate. 2016-11-10.
4. Jolly, Anne (18 November 2014). "STEM vs. STEAM: Do the Arts Belong?". Teacher (Education Week: Teacher). Qaraldi: 6 September 2016.STEAM ta’limi
5. Ergashev A.R. Matematika fanini STEAM yondashuvi asosida o‘qitishning nazariy-metodik asoslari. — Ilmiy maqola, “Kasb-hunar ta’limi” jurnali, 2023-yil, №4.
6. Pomeroy, Steven Ross „From STEM to STEAM: Science and Art Go Hand-in-Hand“. blogs.scientificamerican.com. Scientific American. 2016-yil 17-noyabr.
7. Q.X. Yo‘ldoshev, M.N. Nosirov. "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat" "Fan va texnologiya", Toshkent.
8. Azizxo‘jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU, 2020.

BO`LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINI MANTIQIY FIKRLASHGA O'RGATISHNING PEDAGOGIK MAZMUNI

Baxronova Sarvinoz Akbar qizi
Buxoro innovatsion ta`lim va
tibbiyot universiteti
sarvinozbahronova1@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini mantiqiy fikrlashga o‘rgatishning pedagogik mazmuni va uning ta’lim jarayonidagi ahamiyati yoritilgan. Mantiqiy fikrlash-bu o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligida muhim tarkibiy qism bo‘lib, u tahlil qilish, solishtirish, umumlashtirish va xulosa chiqarish kabi aqliy amallarni ongli ravishda amalga oshirishni talab etadi. Maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarda mantiqiy tafakkurni shakllantirishning samarali usul va vositalari, pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar hamda mustaqil fikrlashni rivojlantiruvchi mashg‘ulot turlari tahlil qilingan. Shuningdek, mantiqiy fikrlashni rivojlantirish orqali boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarda ijodkorlik va tanqidiy yondashuvni shakllantirish imkoniyatlari asoslab berilgan[1].

Kalit so‘zlar. mantiqiy fikrlash, pedagogik jarayon, bo‘lajak o‘qituvchi, boshlang‘ich ta’lim, mustaqil fikrlash, interfaol metodlar.

Asosiy qism. Bugungi kunda ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh maqsadi-mustaqil fikrlaydigan, yangicha qarashlarga ega, ijodkor va mas’uliyatli shaxsni tarbiyalashdan iborat. Bu jarayonda boshlang‘ich ta’lim muhim o‘rin tutadi, chunki inson tafakkuri va dunyoqarashining shakllanishi aynan shu bosqichdan boshlanadi. Shu sababli bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini mantiqiy fikrlashga o‘rgatish masalasi zamonaviy pedagogikaning dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Mantiqiy fikrlash-o‘qituvchining kasbiy faoliyatidagi asosiy intellektual sifatlardan biri bo‘lib, u o‘quv jarayonini samarali tashkil etish, o‘quvchilarga chuqur va ongli bilim berish, ularda mustaqil fikrlashni shakllantirish imkonini yaratadi. Bo‘lajak o‘qituvchining mantiqiy fikrlashi qanchalik rivojlangan bo‘lsa, u

shunchalik asosli xulosa chiqaradi, muammolarni hal etishda tahliliy yondashadi va o‘quvchilarni fikrlashga unday oladi [2].

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni va “Milliy o‘quv dasturi”da ham ta’lim jarayonini shaxsga yo‘naltirish, o‘quvchilarda mustaqil va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish vazifalari belgilab berilgan. Shu bois bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida mantiqiy tafakkurni shakllantirish-nafaqat ularning kasbiy tayyorgarligi darajasini belgilaydi, balki boshlang‘ich ta’lim sifati va samaradorligining asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Shuningdek, raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt, axborot oqimining kengayishi sharoitida o‘qituvchidan tezkor, mantiqan asosli va tahliliy fikrlash talab etiladi. Shu jihatdan mazkur mavzuni tadqiq etish-zamonaviy ta’lim talablariga mos, yuqori intellektual salohiyatga ega o‘qituvchilarni tayyorlashning ilmiy-pedagogik asoslarini ishlab chiqish nuqtayi nazaridan dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida ularning mantiqiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish dolzarb pedagogik masalalardan biridir. Chunki boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quvchilarda tafakkur jarayonini shakllantirishda o‘qituvchining mantiqiy fikrlashi, tahlil qilish va xulosa chiqarish ko‘nikmalari hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Mantiqiy fikrlash-bu insonning voqelikdagi hodisalar va jarayonlarni tahlil qilish, ularning o‘zaro bog‘liqligini aniqlash, sabab-oqibat munosabatlarini tushunish hamda umumlashtirish orqali to‘g‘ri xulosa chiqarish qobiliyatidir. Bo‘lajak o‘qituvchilarni mantiqiy fikrlashga o‘rgatish ularning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish, dars jarayonida o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga yo‘naltirish imkonini beradi.

Ta’lim jarayonida mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning samarali vositalaridan biri-interfaol o‘qitish metodlarini qo‘llashdir. “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Venn diagrammasi”, “Blits so‘rov”, “Tahlil va sintez” kabi metodlar talabalarning faolligini oshiradi, ularni mustaqil fikrlashga, dalillashga va o‘z fikrini asoslab berishga o‘rgatadi. Shuningdek, darslarda muammoli vaziyatlar yaratish orqali bo‘lajak o‘qituvchilarning tahliliy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi[3].

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun mantiqiy fikrlashni shakllantirishda quyidagi pedagogik shart-sharoitlarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq:

- ta’lim jarayonini muammoli-izlanish faoliyatiga asoslash;
- mantiqiy topshiriqlar, testlar, didaktik o‘yinlar orqali amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish;
- o‘qituvchilarni mustaqil tahlil, umumlashtirish va xulosa chiqarishga yo‘naltirish;
- fanlararo bog‘liqlik asosida tafakkur jarayonlarini faollashtirish.

Pedagogik tajribalar shuni ko‘rsatadiki, mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim jarayoni nafaqat bo‘lajak o‘qituvchilarning aqliy salohiyatini, balki ularning kasbiy madaniyati, ijodkorligi va kommunikativ ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi. Shu bois oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarning mantiqiy tafakkurini shakllantirishga alohida e’tibor berish zarur.

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini mantiqiy fikrlashga o‘rgatish ta’lim sifati va samaradorligini oshiruvchi muhim omil hisoblanadi. Mantiqiy fikrlovchi o‘qituvchi o‘quvchilarda mustaqil, tanqidiy va ijodiy tafakkurni shakllantirish orqali ularning intellektual salohiyatini yuksaltiradi hamda jamiyatda faol, bilimdon shaxs sifatida kamol topishiga zamin yaratadi[4].

Xulosa. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini mantiqiy fikrlashga o‘rgatish zamonaviy ta’lim jarayonining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. O‘qituvchining mantiqiy fikrlay olishi, o‘z fikrini asosli bayon etishi va to‘g‘ri xulosa chiqarishi — uning kasbiy mahoratining muhim ko‘rsatkichlaridan biridir. Shu bois oliy ta’lim muassasalarida mantiqiy tafakkurni shakllantirishga yo‘naltirilgan o‘quv dasturlari, metodik tavsiyalar va innovatsion yondashuvlar tizimli ravishda tatbiq etilishi lozim.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga yo‘naltirilgan dars jarayonlari talabalarning mustaqil fikrlashini kuchaytiradi, ularning tahliliy yondashuvini rivojlantiradi hamda ijodkorlik salohiyatini oshiradi. Natijada bo‘lajak o‘qituvchi nafaqat o‘quv jarayonida bilim beruvchi, balki fikrlash madaniyatini shakllantiruvchi shaxs sifatida ham shakllanadi.Demak, bo‘lajak

boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini mantiqiy fikrlashga o‘rgatishning pedagogik mazmuni — bu ularni o‘z kasbiy faoliyatida mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlashga yo‘naltirishdan iborat. Mazkur jarayon ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarda chuqur va ongli bilimlar hosil qilish hamda ularni zamonaviy jamiyat talablariga mos shaxs sifatida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–4319-son qarori.
2. Karimova V.M. (2021). *Shaxs psixologiyasi.* – Toshkent: Universitet nashriyoti.
3. Hasanov B. (2023). “Talabalarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari.” *Pedagogika va psixologiya jurnali*, №2, 33–37-betlar.
4. Azizxo‘jayeva N.N. (2019). *Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.* – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.

BIOFIZIKA VA AGROMETEOROLOGIYA FANINI ITERFAOL METODLAR ASOSIDA O‘QITISH

Boymatova Nargiza Fayzulla qizi
SamDVMCHBU Axborot texnologiyalari,
tabiiy va aniq fanlar kafedrasi o‘qituvchisi
boymatovanargiza93@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta’lim tizimidagi islohotlar kontekstida “Biofizika va agrometeorologiya” fanini innovatsion yondashuv asosida o‘qitishning ahamiyati yoritilgan. Xususan, “Qora quti” metodi orqali talabalar bilimini mustahkamlash, ularni faol va tanqidiy fikrlashga undash hamda hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish yo‘nalishida olib borilgan amaliy tajriba tahlil qilingan. Tajriba Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining O‘simliklar himoyasi va karantini ta’lim yo‘nalishi talabalari bilan o‘tkazilgan bo‘lib, an’anaviy ta’lim uslubiga nisbatan yuqori natijalar bergani qayd etilgan.

Kalit so‘zlar: Innovatsion texnologiyalar, ta’lim metodlari, Qora quti metodi, biofizika, agrometeorologiya, talaba faolligi, texnologik kompetensiyalar, hamkorlikda o‘qitish, interaktiv usullar.

Kirish. O‘zbekistonda olib borilayotgan keng ko‘lamli ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va huquqiy islohotlar barcha sohalarda, ayniqsa, ta’lim tizimida innovatsion yondashuvlarga asoslangan rivojlanishni taqozo etmoqda. Bugungi kunda kadrlar tayyorlashda innovatsion metodlardan foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki bu yondashuv nafaqat bilim berishni, balki talabalarni mehnat bozoriga moslab tayyorlashni, ularda mantiqiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish, hamkorlikda ishlash kabi ko‘nikmalarni shakllantirishni ham ko‘zda tutadi.

Innovatsion metodlar va ularning mohiyati. Innovatsion texnologiyalar — bu o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirning yangi shakllari bo‘lib, ta’lim jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga xizmat qiladi. O‘quv jarayoniga o‘yin texnologiyalari, loyihaviy metodlar, muammoli vaziyatli yondashuvlar kiritilishi orqali talaba faolligi oshadi.Inson faoliyati doimiy ravishda takomillashib boradi. Bu holat pedagogik faoliyatga ham tegishli bo‘lib, o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatda doimiy ravishda yangiliklar tatbiq etilishi zarur [5].

“Qora quti” metodining qo‘llanishi. Ushbu maqolada “Biofizika va agrometeorologiya” fanining “Suyuqliklar mexanikasi, termodinamika qonunlari” mavzusini o‘zlashtirish jarayonida “Qora quti” metodidan foydalanish tajribasi tahlil qilindi. Mazkur metod talabalarning mavzuni chuqur o‘zlashtirishi, mantiqiy fikrlashi, hamkorlikda ishlashi va mustaqil tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan [4].

Metodika bosqichlari quyidagicha tashkil etildi:

1. Talabalar kichik guruhlarga bo‘linadi (juftliklar shaklida);
2. Har bir juftlikka mavzuga oid tayanch tushunchalar (masalan, suyuqliklarning agregat holatlari, issiqlik, izoprotsesslar) taqdim etiladi;
3. Topshiriqlarni bajarish va ularning muhokamasi o‘qituvchi va talabalar hamkorligida amalga oshiriladi;

4. To‘g‘ri javob bergan guruh vakili o‘qituvchi rolini bajaradi va natijalarni yozuv taxtasiga bayon qiladi;

5. Boshqa talabalar yozuvlar asosida fikr bildiradi va o‘z sharhlarini qo‘shadi;

6. Keyingi bosqichda talabalar mavzuni vizual tarzda aks ettiruvchi jadval yoki sxema tuzadi **[2].**

Ushbu metod orqali talabalar faolligi, o‘zaro muloqoti, tahliliy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari an’anaviy darslarga nisbatan sezilarli darajada oshgani kuzatildi.

Tajriba natijalari. Mazkur metod Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining O‘simliklar himoyasi va karantini ta’lim yo‘nalishi talabalari ishtirokida sinovdan o‘tkazildi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, an’anaviy darslarga nisbatan innovatsion metod asosida tashkil etilgan darslar talabalar bilimini oshirishda, ularni mustaqil fikrlashga undashda yuqori samaradorlik berdi.

XULOSA. An’anaviy ta’limda o‘qituvchi faol, talabalar esa passiv bo‘lib qoladi. Bunday yondashuvda bilimlar bir tomonlama beriladi. Biroq, innovatsion metodlar, xususan “Qora quti” metodidan foydalanish orqali o‘quv jarayoni interaktiv va ijodiy tus oladi. Talabalar nafaqat bilim egallaydi, balki o‘z fikrini bayon qilish, muammoga yechim topish, muloqot qilish kabi ko‘nikmalarni ham rivojlantiradi. Bu esa ularning texnologik kompetensiyalarini shakllantirib, zamonaviy ta’lim talablariga mos kadrlar yetishtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Innovatsion metodlar – bu talabalarga o‘z imkoniyatlarini namoyon etish metodlaridir. Bu esa o‘quvchining innovatsion fikrlashini, ularda texnologik kompetentsiyalarning shakllanishini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Zaripov L.R. Innovatsion ta’lim sharoitida o‘quvchilarni texnologik tayyorlash // Pedagogika jurnali. 2019 yil. № 5. - B. 92-98.

2. Ergashev A.J. Oliy ta’limda yadro texnologiyalari fanini o‘qitishda didaktik o‘yin topshiriqlarini tayyorlash texnologiyasi Scientific Bullettin of NamSU-Научный вестник НамГУ-NamDU ilmiy axborotnomasi–2022-yil_7-сон 353-359 b.

3. Ergashev A.J. Олий таьлим тизимида “Ионлаштирувчи нурланишлар” мавзусини модуль тизимида ўқитиш усуллари ЎзМУ хабарлари вестник нууз acta nuuz мирзо улуғбек номидаги ўзбекистон миллий университети илмий журнали тошкент – 2022 yil 202-204 betlar.
4. Tolipov O‘.Q. Oliy pedagogik ta’lim tizimida umummexnat va kasbiy ko‘nikma hamda malakalarni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari. Monografiya. T.: “Fan”. 2004. –168 s.
5. Kamoliddinov.M, Vaxobjonov.B “Innovatsion pedagogik texnologiyalar”. “Talqin”. Toshkent. 2010.

ВЫЯВЛЕНИЕ ГЕНДЕРНОГО РАЗЛИЧИЯ В ПРОЯВЛЕНИЯХ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ВЫГОРАНИЯ СРЕДИ СТУДЕНТОВ «EMU» UNIVERSITY

Куддусова Мадина Умаровна
студентка 5-го курса
Лечебного факультета
«EMU» university
madinaquddusova1@gmail.com
(90) 997 – 81 -63
Научный руководитель:
Кучкаров Хумоюн Нурали угли

Аннотация: В исследовании рассмотрено явление эмоционального выгорания среди студентов медицинского вуза «EMU» university с акцентом на гендерные различия его проявлений. Проведён анализ уровня эмоционального истощения, деперсонализации и снижения личных достижений среди 70 студентов лечебного факультета. Выявлено, что у девушек эмоциональное выгорание проявляется в более выраженной форме на ранних этапах учебного года, тогда как у юношей-на более поздних стадиях. Полученные результаты подчеркивают необходимость внедрения профилактических мер, направленных на снижение уровня стресса и эмоционального напряжения среди студентов медицинского профиля.

Ключевые слова: эмоциональное выгорание, студенты, гендерные различия, эмоциональное истощение, деперсонализация, профилактика

Синдром эмоционального выгорания изучается уже давно, однако среди студентов медицинских вузов он всесторонне не исследован. В связи с этим основной целью работы является определение уровня синдрома выгорания, его основных компонентов (эмоциональное истощение, деперсонализация, снижение личных достижений), сравнение результатов у студентов и выпускников, выявление мер по снижению его влияния и профилактике возможных осложнений.

Цель исследования: определить распространённость синдрома и выраженность эмоционального выгорания среди студентов медицинского вуза и определить их гендерное соотношение после летних каникул, а также изучить его клинические, социальные, личностные и психологические детерминанты.

Материалы и методы исследования: Исследование проводилось среди студентов 4 курсов лечебного факультета «EMU» university. Использовалась анкета по К. Маслач и С. Джексону, адаптированная Х.Н. Кучкаровым и К.М. Умаровной, в онлайн-формате. В исследовании приняли участие 70 студентов, из них 36 девушек (51,4%) и 34 юношей (48,6%).

По возрасту: 20–24 года – 59 студентов (84,2%), средний возраст 22,1 ± 0,8 года; 25–29 лет – 11 студентов (15,8%), средний возраст 27,1 ± 0,8 года.

По семейному положению: женаты/замужем – 23 (32,8%), не состоящие в браке – 47 (67,2%).

По вредным привычкам: курящие/употребляющие алкоголь – 6 (8,57%), не имеющие вредных привычек – 64 (91,43%).

По состоянию здоровья: здоровы – 67 (96%), с хроническим заболеванием – 3 (4,7%).

По занятости: совмещающие учёбу с работой – 37 (58%), неработающие – 33 (42%).

Трудности при сдаче экзаменов отмечались у студентов по дисциплинам: внутренние болезни – 2 (6,1%), хирургия – 11 (21,2%), акушерство и гинекология – 15 (21,2%).

Результаты: При анализе анкет ответы студентов распределились следующим образом: «Я чувствую себя эмоционально истощённым» – 27 (38,57%) часто, 9 (61,42%) иногда; «По утрам, просыпаясь, я чувствую усталость и нежелание идти на занятия» – 20 (37,1%) часто, 15 (41,7%) иногда; «Учёба делает меня более “жёстким” человеком» – 5 (13,9%) часто, 10 (27,8%) иногда; «Я хочу отдохнуть от всех и всего» – 8 (22,2%) часто, 37 (58%) иногда; «Учёба всё больше приводит меня к отчаянию» – 13 (36,1%) иногда; «После занятий я хочу на время побыть вдали от всех и всего» – 19 (66 %) часто, 12 (33,3%) иногда.

Заключение: Результаты анкетирования показали, что, несмотря на начальный этап учебного процесса, у части студентов постепенно формируется синдром эмоционального выгорания: у девушек соответственно были выявлены меньший процент высокого (N), больший процент среднего (M) и низкого (L) уровня. В то время как у юношей было выявлено больше лёгкого уровня и низкий процент среднего уровня выгорания. Также результаты показали, что у девушек эмоциональное выгорание чаще проявляется в более выраженной форме в начале учебного года, что может быть связано с их повышенной эмоциональностью и склонностью к перфекционизму. У юношей эмоциональное выгорание, как правило, развивается на более поздних этапах. С учётом полученных предложений студентов необходимо внедрять и совершенствовать меры профилактики для предотвращения углубления эмоционального выгорания.

MINI-GANDBOL AMALIYOTI ORQALI TALABALARNING HARAKAT FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR

Axmedova Zuxraxon Tulyanbayevna
Buxoro innovatsion ta’lim va
tibbiyot universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada mini-gandbol amaliyoti orqali talabalarning harakat faoliyatini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar haqida bayon etilgan va tajribada sinab ko‘rilgan mashqlar aks ettirilgan.

Kalit so‘zlar: morfofunksional, gandbol, jismoniy sifat, gandbol elementlari, fiziologik

Asosiy matn. Jismoniy sifatlarini tarbiyalash uchun eng qulay davr hisoblanadi. Bu bosqichda harakat tayyorgarligiga poydevor qo‘yish muhim ahamiyat kasb etadi. Gandbol o‘zining kompleks ta’siri tufayli talabalarining tezkorlik, kuch, chidamlilik, egiluvchanlik kabi jismoniy sifatlari bilan bir qatorda, koordinatsion qobiliyatlari va psixomotor ko‘nikmalarini rivojlantirishning samarali vositasi sanaladi. Shuningdek, jamoaviy harakatlarga asoslangan ushbu sport turi talabalarda ijtimoiy-kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Bugungi kunda I bosqich talaba talabalarining jismoniy sifatlarini rivojlantirish muammosi, xususan, jamoaviy sport o‘yinlari elementlarini o‘zlashtirish orqali, hanuzgacha dolzarb bo‘lib qolmoqda. Boshlang‘ich maktab yoshidagi talabalarning harakat bilim, ko‘nikma va malakalarini yuqori darajada ta‘minlashga, maktablarning jismoniy tarbiya va sport jarayonida, ayniqsa sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda, talabalarning funksional va jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirishning usul va vositalari bir qator ilmiy tadqiqotlarda o‘rganilgan. Oliy ta’limda talabalarini harakat faoliyatiga o‘rgatish, jismoniy sifatlarini rivojlantirish muammolari bo‘yicha ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Zamonaviy sport pedagogikasining fundamental vazifalaridan biri - bu talabalar bilan olib boriladigan mashg‘ulotlar jarayonini ularning yoshga oid rivojlanish qonuniyatlariga to‘liq moslashtirishdan iborat.

Gandbol kabi murakkab koordinatsion harakatlar va taktik o‘zaro aloqalarga asoslangan sport turini o‘rgatish, yosh sportchilarning nafaqat jismoniy, balki psixologik imkoniyatlarini ham chuqur hisobga olishni talab etadi.

I bosqich talabalariga gandbol elementlarini o‘rgatishning nazariy-uslubiy poydevorini tashkil etuvchi asosiy omillar - yosh sportchilarning morfofunksional va psixologik xususiyatlari, mavzuga doir mavjud ilmiy-uslubiy adabiyotlarning qiyosiy-tanqidiy tahlili hamda gandbol o‘rgatishda qo‘llaniladigan zamonaviy yondashuvlar atroflicha ko‘rib chiqiladi.



I bosqich talabalariga mo‘ljallangan har qanday jismoniy tarbiya dasturi yoki sport mashg‘uloti metodikasi, avvalo, ushbu yosh davrining o‘ziga xos morfofunksional va psixologik qonuniyatlariga asoslanishi shart. Shu bois, samarali metodikani yaratish uchun, avvalo, “biz kim bilan ishlayapmiz?” degan savolga javob topish.

Ushbu paragrafning maqsadi - talabalarining morfofunksional va psixologik rivojlanish xususiyatlarini mavjud ilmiy adabiyotlar asosida tizimli tahlil qilish va shu orqali gandbol mashg‘ulotlarini to‘g‘ri tashkil etish uchun nazariy poydevor yaratishdan iborat.

Jismoniy tarbiya o‘qituvchilari uchun anketa.

(Respondent ushbu bo‘limda o‘zi haqidagi umumiy ma’lumotlarni to‘ldiradi:

Ish joyi, yoshi, mutaxassisligi, ish staji va h.k.)

Yo‘riqnoma: Quyidagi har bir savol uchun o‘zingizning fikringizga eng mos keladigan FAQAT BITTA javob variantini belgilang.

1-savol: Sizningcha, I bosqich talabalarda jamoaviy sport o‘yinlari elementlarini o‘rgatishda qanday asosiy qiyinchilik yoki muammo mavjud?

A) Yosh xususiyatlariga mos, tasdiqlangan o‘quv-metodik qo‘llanma va dasturlarning yetishmasligi.

B) Sport anjomlari va infratuzilmaning (zal, maydon) standartlarga javob bermasligi yoki yetishmasligi.

C) Talabalarning diqqatini jamlash qiyinligi, qiziqishning tez so‘nishi va intizom bilan bog‘liq muammolar.

D) Dars vaqtining cheklanganligi, murakkab harakat elementlarini o‘rgatishga vaqtning yetishmasligi.

2-savol: Sizning professional tajribangizga ko‘ra, talabalarni gandbol kabi muayyan bir sport turiga ixtisoslashtirish va yo‘naltirishni nechanchi sinfdan boshlash eng maqsadga muvofiq?

A) I bosqich talabalardan boshlab, chunki qobiliyatlarni eng yosh davrdan aniqlash va shakllantirish kerak.

B) II bosqich talabalardan boshlab, chunki bu yoshda ular jamoaviy o‘yin mohiyatini yaxshiroq tushuna boshlaydi.

C) III bosqich talabalardan boshlab, chunki talabalar jismoniy va psixologik jihatdan to‘liq tayyor bo‘ladi.

D) IV bosqich talabadan va undan yuqori, chunki bu talabaning ongli tanloviga asoslanishi kerak.

3-savol: I bosqich talabalariga moslashtirilgan maxsus sport vositalaridan foydalanish amaliyoti va samaradorligi haqida qaysi fikrga qo‘shilasiz?

A) Juda samarali va amaliyotda yetarli darajada mavjud, darslarda muntazam foydalanamiz.

B) Juda samarali, lekin ularni topish yoki markazlashgan ta’minot deyarli yo‘q, shu sababli foydalana olmaymiz.

C) Qisman samarali, lekin ularning yo‘qligi dars sifatiga jiddiy ta’sir ko‘rsatmaydi.

D) Samarasiz, standart anjomlar bilan ham darsni to‘laqonli tashkil etsa bo‘ladi.

4-savol: Sizning fikringizcha, gandbol o‘yini I bosqich talabalar jismoniy tarbiya dasturiga kiritish uchun qanchalik mos keladi?

A) Juda mos keladi, chunki u barcha asosiy jismoniy sifatlarni (chaqqonlik, tezkorlik, kuch) birdek rivojlantiradi.

B) Mos keladi, chunki boshqa o‘yinlarga (masalan, basketbol) nisbatan qoidalari sodda va o‘rgatish oson.

C) Boshqa jamoaviy o‘yinlardan afzalligi yoki kamchiligi yo‘q, neytral sport turi sifatida qarash mumkin.

D) Unchalik mos kelmaydi, chunki to‘pni qo‘l bilan o‘ynash va bir vaqtda harakatlanish kichik yoshdagi talabalar uchun murakkab.

5-savol: I bosqich talabalariga gandbol elementlarini o‘rgatish uchun yagona, tasdiqlangan metodikaga ehtiyoj bormi va u qanday bo‘lishi kerak?

A) Yo‘q, mavjud dars ishlanmalari va umumiy tavsiyalar yetarli, maxsus yangi metodikaga ehtiyoj sezilmaydi.

B) Ha, ehtiyoj bor. U asosan o‘yin va qiziqarli musobaqa shaklida, talabalarni zeriktirmaydigan bo‘lishi kerak.

C) Ha, ehtiyoj bor. U texnik elementlarni “soddadan murakkabga” tamoyili asosida bosqichma-bosqich o‘rgatadigan qat‘iy tuzilmaga ega bo‘lishi kerak.

D) Ha, ehtiyoj bor. U texnikani o‘rgatishdan ko‘ra ko‘proq sog‘lomlashtirish va umumiy jismoniy rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak.



Ushbu so‘rovnoma natijalari talabalarda jamoaviy sport o‘yinlarini, xususan, gandbolni o‘qitishdagi mavjud holat, amaliyotchi mutaxassislar duch kelayotgan dolzarb muammolar va takomillashtirilgan metodikaga bo‘lgan ehtiyojni ilmiy jihatdan asoslash imkonini berdi. So‘rovnoma tahlili va uning batafsil natijalari tadqiqotning keyingi bobida keng yoritib beriladi.

So‘rovnomalar va intervyular orqali mutaxassislarning ta’lim turi va darajasi, umumiy pedagogik ish staji hamda jismoniy tarbiya darslarini tashkil etish, talabalarni sport turlariga saralash va yonaltirish, jismoniy tarbiya jarayonida maxsus sport vositalarini qo‘llash borasidagi tajribalari, muammolari va fikrlari to‘plandi. Olingan ma’lumotlar umumlashtirildi va statistik ishlovdan o‘tkazildi.

Ushbu so‘rovnoma natijalari I bosqich talabalarda jamoaviy sport o‘yinlarini, xususan, gandbolni o‘qitishdagi mavjud holat, amaliyotchi mutaxassislar duch kelayotgan dolzarb muammolar va takomillashtirilgan metodikaga bo‘lgan ehtiyojni ilmiy jihatdan asoslash imkonini berdi. Shuningdek, sport turlariga saralash va yo‘naltirish mexanizmlarining ishlab chiqilmaganligi jiddiy ilmiy-metodik masala bo‘lib, o‘qituvchilarning bu boradagi tajribasining yetishmasligini ham ko‘rsatdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Kadirov, R. K. DIAGNOSTICS AND CORRECTION OF ATHLETE'S TRAINING. Available Online at: https://www.scholarzest.com / R. K. Kadirov. — Текст : непосредственный // European Journal of Humanities and Educational Advancements (EJHEA). — 2021. — № 9. — С. 91-93.

2. Кадиров, Р. Х. ОСОБЕННОСТИ ТРЕНИРОВОЧНОГО ПРОЦЕССА НАПРАВЛЕННАЯ НА СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СКОРОСТНЫХ КАЧЕСТВ СПРИНТЕРОВ 10.53885/edinres.2022.43.80.022 / Р. Х. Кадиров, У. Р. Хайдаров. — Текст: непосредственный // ПЕРСПЕКТИВЫ ОРГАНИЗАЦИИ ЗАНЯТИЙ ПО ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛТУРЕ И СПОРТУ НА СОВРЕМЕННОМ ЭТАПЕ РАЗВИТИЯ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ. — Buxara : Durdona, 2022. — С. 306-309.

3. Kadirov, R. K. HUMANITARIAN FOUNDATIONS FOR THE EFFICIENCY OF STUDENTS' RESEARCH ACTIVITIES / R. K. Kadirov. — Текст : непосредственный // JOURNAL OF NORTHEASTERN UNIVERSITY. — Volume 25 Issue 04, 2022. — № Volume 25 Issue 04. — С. 4237-4244. DOI: 10.5958/2249-7137.2022.00769.8

BO`LAJAK INGLIZ TILI O`QITUVCHILARIDA DEONTOLOGIK MADANIYATNING TARKIBIY QISMLARI VA PEDAGOGIK, PSIXOLOGIK TAHLILI

Axadova Mahliyo Xalimovna
Buxoro innovatsion ta`lim va
tibbiyot universiteti

Annotatsiya: Maqolada deontologik madaniyat va uning tarkibiy qismlari va ko`nikma,malaka tushunchalarining ham pedagogik, ham psixologik tahliliy qismi keng yoritilgan.

Kalit so`zlar: ta‘lim, tarbiya, deontologiya, xulq-atvor, kompetentlik, kasbiy yetuklik, rivojlanish, taraqqiyot, maqsad, natija, pedagogik kompetentlik, kasbiy etika, pedagogik deontologiya, tamoyil.

COMPONENTS OF DEONTOLOGICAL CULTURE IN FUTURE ENGLISH TEACHERS AND PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL ANALYSIS

Akhadova Mahliyo Khalimovna
Bukhara University of Innovative
Education and
Medicine

Abstract: The article extensively covers both the pedagogical and psychological analytical part of deontological culture and its components and the concepts of skills and qualifications.

Keywords: education, upbringing, deontology, behavior, competence, professional maturity, development, progress, goal, result, pedagogical competence, professional ethics, pedagogical deontology, principle.

КОМПОНЕНТЫ ДЕОНТОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА И ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Ахадова Махлия Халимовна
Бухарский университет
инновационного образования
и медицины

Аннотация: В статье подробно рассматривается как педагогический, так и психологический аспект анализа деонтологической культуры и её компонентов, а также понятия навыков и квалификаций.

Ключевые слова: образование, воспитание, деонтология, поведение, компетентность, профессиональная зрелость, развитие, прогресс, цель, результат, педагогическая компетентность, профессиональная этика, педагогическая деонтология, принцип.

Deontologiya - etika fanining bir qismi sifatida mutaxassis o`rnining bir sohasiga nisbatan xulq-atvor normalari yoki burch haqidagi ma`noni anglatadi. Burch va majburiyat (axloqiy burch mutaxassis uchun ishlatiladi) meditsina xodimi, o`qituvchi-pedagog, jamiyat ishlarida davlat boshqaruvida rahbarlar oldida va shu bilan har bir shaxs oldida ham uni burch, vazifasi va avtoritetini xalq oldidagi burchi, mas’uliyatini ifodalaydi.

Umuminsoniy va milliy axloqiy fazilatlar barcha kishilar barcha kasb egalari, jumladan o`qituvchi-tarbiyachilar uchun zaruriy, axloqiy fazilatlar mehnat jarayonida kishining xulqi, fe’l-atvorini tartibga soluvchi qoidalar, davlatning turli qonunlari, me`yorlari va normalari bilan shakllanadi.

O`qituvchi umuminsoniy va milliy axloqiy fazilatlarni o`zlashtirib olishi, o`z tajribasida qo`llashi o`zining dunyoqarashi va mafkurasi hamda axloqiy tajribasi bilan taqqoslashi lozim. Fikrlash, his etish, turmushda sinab ko`rish natijasida umuminsoniy va millliy, axloqiy sifatlar, qoidalar, normalar, o`qituvchining o`z axloqiy fazilatlariga e`tiqodiga aylanadi. O`qituvchi odobining normalari har bir muallimning shaxsiy fikriga, axloqiy fazilatlariga va e`tiqodiga aylanishi lozim.

Тадқиқотнинг мақсади. Тизза бўғими мениск шикастларида УТТ орқали патологияни аниқлаш, унинг динамикаси ва даволаш самарадорлигини объектив равишда баҳолаш имкониятларини ўрганиш. Мениск шикастлари — тизза бўғимидаги юқори фаолиятли анатомик тузилмаларнинг жароҳатланиш ҳолатлари орасида кенг тарқалган ва оғир функционал асоратларга сабаб бўлувчи патология ҳисобланади. Хусусан, шикастланиш вақтида менискнинг тўлиқ ёки қисман узилиши, узоқ муддатли оғриқ ва ҳаракат чекланишига олиб келади. Ультратовуш диагностикаси жароҳатни эрта аниқлаш, индивидуал реабилитацияни режалаштириш ва муолажа жараёнини реал вақтда назорат қилиш имконини беради.

Тадқиқотнинг материал ва усуллари. Текширувга жароҳатдан сўнг 1–7 кун оралиғида мурожаат қилган 42 нафар бемор жалб этилди (24 эркак, 18 аёл; ёш диапазони 19–55 йил). УТТ текшируви GE Logiq F8 аппаратида амалга оширилди. Менискларнинг контури, эхогенлиги, узилиш белгилари, синовиал шиш ва эрта фиброз жараёнлари баҳоланди. Текширувдан сўнг беморларга 6 ҳафталик индивидуал реабилитация дастури тайёрланди. Дастур охирида УТТ ва Лачман, МсМуррай, ва 30 секундлик ўтириш тестлари орқали натижалар қайта баҳоланди.

Тадқиқот натижалари. УТТ текшируви шикастланган менискнинг ҳолатини 88% ҳолатда (37/42) аниқ кўрсатди;

29 нафар беморда гипоэхоген участкалар аниқланди, 11 нафарда бўғим ичида синовиал шиш қайд этилди;

Реабилитация якунлангач, УТТ натижаларига кўра 32 беморда структура тикланган, 7 нафарда фиброз жараён кузатилган;

Функционал тестлар 30 беморда тўлиқ тикланишни, 9 нафарда қисман тикланишни, 3 беморда узоқ муддатли назоратни талаб қилувчи ҳолатларни кўрсатди;

УТТ ва функционал тестлар биргаликда қўлланилганда диагностик аниқлик 92%, даволашни назорат қилиш самарадорлиги 89% ни ташкил этди.

Хулоса. Мениск шикастларини ультратовуш орқали эрта аниқлаш ва реабилитация давомида динамик баҳолаш, ҳар бир бемор учун индивидуал ёндашувни таъминлайди. Комплекс мониторинг (УТТ + тестлар) даволашнинг самарадорлигини объектив тарзда баҳолашга, тикланиш муддатини қисқартиришга ва асоратларни олдини олишга имкон беради.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Flandry, F., & Hommel, G. (2011). *Normal Anatomy and Biomechanics of the Knee*. In Sports Injuries (pp. 667–680). Springer.
2. Hakimova M.N. Ortopediyada zamonaviy UZI diagnostikasi. Toshkent, 2021. – 112-128 b.
3. Karimov, B., & Rasulova, D. (2021). Competency-Based Radiology Education: Current Challenges and Innovative Approaches. *Journal of Medical Education and Development*, 6(1), 33–40.
4. Muxamedov A., Yo‘ldoshev Sh. Travmatologiya va Ortopediyada funksional tiklash asoslari. Samarqand, 2019. – 138-150 b.

ТИЗЗА БЎҒИМИ БОҒЛАМ ТУЗИЛМАЛАРИ ШИКАСТЛАРИНИ УЛЬТРАТОВУШ ОРҚАЛИ АНИҚЛАШ ВА РЕАБИЛИТАЦИЯ РЕЖАСИНИ ШАКЛЛАНТИРИШДАГИ КЛИНИК АҲАМИЯТИ

Умарова Наргиза Нуритдиновна
Самарқанд давлат тиббиёт университети

Тадқиқотнинг мақсади. Тизза бўғими боғлам тузилмалари шикастларини ультратовуш усулида аниқлаш ҳамда ушбу маълумотлар асосида индивидуал реабилитация режасини шакллантириш имкониятларини

баҳолаш. Таянч-ҳаракат тизими жароҳатлари орасида тизза бўғими боғламларининг шикастланиши кўп учрайдиган муаммолардан ҳисобланади. Хусусан, спортчилар ва фаол турмуш тарзи олиб борувчи шахсларда бу жароҳатлар функциялар бузилиши, шиш, оғриқ ва ҳаракат чекланиши каби салбий оқибатларга олиб келади. Ультратовуш диагностикаси бугунги кунда боғлам шикастларини тез, аниқ ва динамик баҳолаш имконини беради, шунингдек, реабилитация жараёнини тўғри бошқаришда муҳим рол ўйнайди.

Тадқиқотнинг материал ва усуллари. Тадқиқотда боғлам шикастлари (ОКБ, ОрКБ, МЁБ, ЛЁБ) ташхиси қўйилган 52 нафар бемор (30 эркак, 22 аёл; ўртача ёш 35 ± 10 ёш) иштирок этди. Барча беморларга GE Logiq F8 ультратовуш аппаратида бўғимнинг боғлам тузилмалари ҳолати, шиш, синовиал най, гемартроз ва шикастланиш даражаси баҳоланди. Диагностик маълумотлар асосида индивидуал реабилитация протоколлари шакллантирилди ва даволаш самараси кузатиб борилди.

Тадқиқот натижалари. Тадқиқот натижалари қуйидагиларни кўрсатди:

52 бемордан 44 нафарида (84,6%) ультратовуш орқали шикастланган боғламлар аниқ визуализация қилинди ва шикастланиш даражаси баҳоланди.

38 беморда (73,1%) ультратовуш натижалари асосида реабилитация тактикасини ўзгартириш зарур бўлди.

Ультратовуш текшируви шикастланган боғлам билан боғлиқ синовит, фиброз ёки микрогеморрагия ҳолатларини аниқлашда 91% сезгирлик ва 88% аниқлик кўрсатди.

Реабилитация жараёнида УТТ орқали динамик кузатув асосида 6 ҳафтадан сўнг 35 беморда (67,3%) тўлиқ функционал тикланишга эришилди.

Қолган 17 беморда (32,7%) реабилитация муддати шикастланиш даражасига қараб узайтирилди.

Хулоса. Тизза бўғими боғлам тузилмалари шикастларида ультратовуш текшируви аниқ ташхис қўйиш, асоратларни эрта аниқлаш ва индивидуал реабилитация режасини шакллантиришда муҳим аҳамиятга эга. Бу усул

орқали даволаш самарадорлигини ошириш, даволаш муддатини қисқартириш ва функционал тикланишни тезлаштириш мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Qo‘chqorov I.Sh., Abdurahmonov A.R. *Organizmning sport jarohatlaridan so‘ng tiklanish jarayonlari*. Toshkent, 2021. – 128 b.
2. Yusupov A.J., Xamidov Sh.X. *Umumiy reabilitologiya asoslari*. Toshkent: Ibn Sino, 2019. – 146 b.
3. Nurmatov Sh.K., Xaitov A.R. *Travmatologiya va ortopediya*. Toshkent, 2020. – 320 b.
4. Sattarov B.Yu., Xolmatov S.T. *Ultratovush diagnostikasi asoslari*. Toshkent, 2018. – 212 b.
5. Jamolova N.M. *Musiqa va tibbiyotda funksional tiklanish usullari*. Samarqand, 2020. – 87 b.

PAXTANI QAYTA ISHLASH ZAVODLARIDA AJRALIB CHIQADIGAN CHANGLARNI TOZALASH JARAYONINI ABSORBSION USULDA TAKOMILLASHTIRISH

Yaxyoyeva Zebiniso Obidovna
Buxoro innovatsion ta`lim va
tibbiyot universiteti o`qituvchisi
e-mail:yakhyoevazebi@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada paxtani qayta ishlash zavodlarida ajralib chiqadigan chang va gazsimon chiqindilarni tozalash jarayonini absorbsion usul yordamida takomillashtirish masalalari yoritilgan. Ishlab chiqarish jarayonida hosil bo‘ladigan chang zarralari nafaqat texnologik uskunalarning samaradorligiga, balki atrof-muhit va inson salomatligiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, changni samarali usulda tozalash muhim ekologik va iqtisodiy ahamiyat kasb etadi. Maqolada mavjud absorbsion tizimlarning ishlash prinsiplari, ularning afzallik va kamchiliklari tahlil qilingan hamda yangi, energiya tejamkor va yuqori samaradorlikka ega absorbsion qurilma taklif etilgan. Takomillashtirilgan tizim orqali chang zarralarini ushlab

qolish darajasi oshirilib, atmosfera havosiga chiqariladigan ifloslantiruvchi moddalar miqdori sezilarli darajada kamaytiriladi. Tadqiqot natijalari paxta sanoati korxonalarida ekologik xavfsizlikni oshirish va resurslardan oqilona foydalanishni ta’minlashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar. Paxtani qayta ishlash, chang zarralari, chang tozalash, absorbsion usul, gaz tozalash tizimi, ekologik xavfsizlik, sanoat chiqindilari, havoni muhofaza qilish, energiya tejamkor texnologiyalar, samaradorlik, filtrlash jarayoni, ishlab chiqarish changlari, innovatsion tozalash usullari.

Asosiy qism. Paxtani qayta ishlash jarayonida tola, urug‘ va boshqa tarkibiy qismlarni ajratish, quritish hamda tozalash bosqichlarida katta miqdorda chang va gazsimon aralashmalar hosil bo‘ladi. Ushbu changlar asosan paxta tolasi, mayda organik qoldiqlar, tuproq zarrachalari va havo bilan aralashgan gazlardan iborat bo‘lib, ular ishlab chiqarish muhiti va atrof-muhit uchun sezilarli darajada zarar keltiradi. Changlarning havoga chiqishi nafaqat ishlab chiqarish binolarining sanitariya-gigiyena holatini yomonlashtiradi, balki atmosfera havosini ifloslantiradi, natijada ekologik muammolarni keltirib chiqaradi. Hozirgi vaqtda paxtani qayta ishlash zavodlarida qo‘llanilayotgan changni tozalash usullari, jumladan, **mexanik**, **filtratsion**, **siklonli** va **elektrostatik** usullar ma’lum darajada samarali bo‘lsa-da, ularning barchasi yuqori energiya sarfi, tez ifloslanish yoki xizmat ko‘rsatishdagi murakkablik bilan tavsiflanadi. Shu sababli, **absorbsion usul** asosida ishlovchi tozalash tizimlarini takomillashtirish zarurati mavjud.Absorbsion usulning mohiyati gaz oqimidagi chang va gazsimon aralashmalarni suyuqlik (absorber) orqali yutib olishga asoslangan. Bunda absorber sifatida suv yoki maxsus kimyoviy eritmalar qo‘llaniladi. Ushbu jarayon chang zarralarini suyuqlik tomchilariga yopishtirish, og‘irlashtirish va keyinchalik ularni cho‘ktirish yoki filtrlash orqali ajratib olish imkonini beradi[1].

Tadqiqot davomida paxta changlarining fizik-kimyoviy tarkibi, zarracha o‘lchamlari va havo oqimidagi konsentratsiyasi tahlil qilindi. O‘tkazilgan tajribalar natijasida aniqlanishicha, odatiy suv asosidagi absorbsion tizimlarda 5–10 mikron gacha bo‘lgan chang zarralarining 70–75 foizi ushlab qolinadi. Ammo tizim

parametrlarini takomillashtirish, xususan, **absorber sirtini kengaytirish**, **suyuqlik aylanish tezligini optimallashtirish** va **ko‘p bosqichli tozalash kameralari**ni joriy etish orqali bu ko‘rsatkichni 90–95 foizgacha oshirish mumkinligi aniqlandi. Shuningdek, yangi tizimda **suvning qayta aylanish tizimi** qo‘llanilishi natijasida suv sarfi 25–30 foizga kamayadi. Bu esa ekologik barqarorlik va iqtisodiy samaradorlikni ta’minlaydi [2]. Absorbsion usul asosida ishlab chiqilgan takomillashtirilgan qurilma nafaqat havodagi chang zarralarini samarali ushlab qoladi, balki korxonalarning chiqindi chiqishini kamaytiradi va sanoat korxonalarida ekologik xavfsizlik darajasini oshiradi.Takomillashtirilgan absorbsion tizimning tajriba sinovlari natijasida quyidagi afzalliklar qayd etildi:

- ✓ Changni ushlab qolish samaradorligi yuqori (90–95% gacha);
- ✓ Qurilmaning ishlash barqarorligi va texnik xizmat ko‘rsatish qulayligi;
- ✓ Suyuqlik sarfining kamayishi va energiya tejamkorligi;
- ✓ Ekologik talablarga muvofiq chiqindilarni kamaytirish.

Tadqiqot davomida paxta changlarining fizik va kimyoviy tarkibi, zarracha o‘lchami, havo oqimidagi harakat tezligi va namlik miqdori tahlil qilindi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, paxta changlari o‘rtacha 5–50 mikrometr oralig‘idagi zarrachalardan iborat bo‘lib, ularning 60 foizdan ortig‘i mayda fraksiyalardir. Shu sababli, bunday changlarni mexanik usulda to‘liq ajratish qiyin.

Absorbsion tizimni takomillashtirish maqsadida quyidagi texnik yechimlar ishlab chiqildi:

- Ko‘p bosqichli absorber kamerasi qo‘llanildi, bu esa suyuqlik bilan gazning aloqa yuzasini oshirdi;
- Suyuqlik aylanish tizimi modernizatsiya qilinib, suvning qayta ishlatilish darajasi 70–80 foizgacha yetkazildi;
- Aylanish tezligi va bosim gradienti optimallashtirilib, gazning tozalash samaradorligi 90–95% gacha oshirildi;
- Qurilma materiali korroziyaga chidamli va uzoq muddatli ishlash uchun mos metall-polimer qotishmalardan tayyorlandi.

Takomillashtirilgan absorbsion qurilma sinovdan o‘tkazilganda, odatdagi suvli tizimga nisbatan 20–25 foizga yuqori chang ushlab qolish samaradorligi kuzatildi. Bundan tashqari, suv sarfi kamaygani sababli tizimning umumiy energiya sarfi ham 15 foizga qisqardi.

Yangi tizimning qo‘llanilishi quyidagi afzalliklarni beradi:

- Havo muhitining ifloslanish darajasi kamayadi;
- Ishlab chiqarish binosidagi chang miqdori me’yoriy ko‘rsatkichlarga keltiriladi;
- Xodimlar uchun gigiyenik sharoit yaxshilanadi;
- Ekologik xavfsizlik va energiya tejamkorlik ta’minlanadi.

Shunday qilib, absorbsion usulda changni tozalash texnologiyasini takomillashtirish paxta sanoati korxonalarida ekologik barqaror ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish, chiqindi gazlarni kamaytirish va resurslardan oqilona foydalanishga xizmat qiladi [4].

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, absorbsion usulni takomillashtirish paxta sanoati korxonalarida chiqindi gazlarni tozalashning istiqbolli yo‘nalishlaridan biridir. Bu yondashuv ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bilan birga, atrof-muhitni muhofaza qilish, resurslardan oqilona foydalanish va ekologik barqarorlikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Paxtani qayta ishlash zavodlarida hosil bo‘ladigan chang va gazsimon chiqindilarni samarali tozalash masalasi ishlab chiqarishning ekologik xavfsizligini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, mavjud mexanik va filtratsion tizimlar ayrim hollarda yuqori dispersli chang zarralarini to‘liq ushlab qola olmaydi. Shu bois, **absorbsion usul**ni takomillashtirish orqali tozalash samaradorligini sezilarli darajada oshirish mumkin. Taklif etilgan takomillashtirilgan absorbsion tizimda suyuqlik oqimining tezligi, absorber kameralarining konstruksiyasi hamda ko‘p bosqichli tozalash prinsipi optimallashtirildi. Natijada changni ushlab qolish samaradorligi 90–95 foizgacha oshirildi, suv sarfi esa 25–30 foizga kamaytirildi. Bu tizim nafaqat havoga

chiqariladigan ifloslantiruvchi moddalarning miqdorini kamaytiradi, balki energiya tejamkorlikni ham ta’minlaydi[3].

Tadqiqotdan olingan natijalar shuni tasdiqlaydiki, absorbsion usul asosida ishlab chiqilgan yangi texnologik yechim paxtani qayta ishlash sanoatida ekologik barqaror ishlab chiqarish tizimlarini yaratishda istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi. Mazkur yondashuv yordamida korxonalarda chiqindi gazlarni samarali tozalash, atmosfera havosining ifloslanishini kamaytirish va ishlab chiqarish muhitini sog‘lomlashtirish imkoniyatlari kengayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qodirov. B.A., va Rasulov.S.T. (2021). Sanoat changlarini tozalash texnologiyalari va ularning ekologik samaradorligi. Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti.

2. Jo‘rayev.I.M., va Norqulov.D.M. (2020). Paxtani qayta ishlash jarayonlarida havoni tozalash tizimlarini takomillashtirish. “O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi jurnali”, №3, 45–50-betlar.

3. Xolmatov.A.S. (2019). Gaz va chang aralashmalarini tozalashning fizik-kimyoviy asoslari. Toshkent: Oliy ta’lim nashriyoti.

4. Karimov.O.B., va Usmonova.Z.A. (2022). “Absorbsion usulda gazlarni tozalash jarayonining samaradorligini oshirish omillari.” Ekologik muammolar va ularni hal etish yo‘llari to‘plami, 112–118-betlar.

5. Mamatqulov.N.R. (2018). Sanoat chiqindilarini kamaytirish va havoni muhofaza qilish texnologiyalari. Samarqand: SamDU nashriyoti.

РАЗРАБОТКА И ХАРАКТЕРИСТИКА МОДЕЛИ ОЖИРЕНИЯ У КРЫС С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ВЫСОКОКАЛОРИЙНОЙ ДИЕТЫ

Бахриева С.Ш, Турсунходжаева Ф.М,
Захидова Л.Т, Давранова Х.А
Институт химии растительных веществ
имени академика С.Ю. Юнусова
Академии наук Республики Узбекистан
e-mail: bakhrievasohiba.uz@mail.ru

Аннотация. Ожирение в последние десятилетия стало одной из наиболее актуальных проблем здравоохранения во всём мире. Это хроническое метаболическое заболевание связано с избыточным накоплением жира в организме и сопровождается повышенным риском развития сердечно-сосудистых заболеваний, сахарного диабета 2 типа, нарушений липидного обмена и других серьёзных состояний. В связи с этим возрастают потребности в разработке эффективных методов профилактики и лечения ожирения.

Ключевые слова: Модель ожирения, высококалорийная диета, лабораторные крысы, метаболические нарушения, липидный обмен, экспериментальная модель.

Исследования на лабораторных животных, в частности на крысах, позволяют глубже понять механизмы развития ожирения и протестировать новые подходы к терапии. Модель ожирения у крыс представляет собой воспроизводимую и этически оправданную систему для изучения метаболических нарушений, схожих с таковыми у человека. Наиболее распространёнными являются диет-индуцированные модели, где животные получают высококалорийную пищу предрасположенные к избыточному весу [1].

Цель исследования. Проанализировать и охарактеризовать модель ожирения у крыс, индуцированную высококалорийной диетой, с акцентом на

метаболические изменения и перспективы использования в биомедицинских исследованиях.

Материалы и методы. В эксперименте использованы 20 здоровых белых самцов крыс линии Wistar массой 180–200 г, прошедших 10–14-дневный карантин. Животные были разделены на 2 группы по 10 особей: контрольную и экспериментальную. В течение 12 недель (84 дней) крысы контрольной группы получали стандартную лабораторную диету, тогда как животные экспериментальной группы — высококалорийную диету (45% жиров, 35% углеводов, 20% белков). В ходе исследования оценивались масса тела (ежемесячно), индекс массы тела (ИМТ), а также биохимические показатели крови на 12-й неделе (глюкоза, общий холестерин, триглицериды, ЛПНП, ЛПВП).

Результаты и обсуждение. К 12-й неделе у животных экспериментальной группы отмечалось достоверное увеличение массы тела и индекса массы тела по сравнению с контрольной группой. Биохимический анализ крови показал повышение уровня глюкозы, общего холестерина, триглицеридов и ЛПНП, при одновременном снижении концентрации ЛПВП. Эти данные согласуются с современными исследованиями, где также отмечены изменения в **иммунном статусе жировой ткани** (активация макрофагов, повышение воспалительных цитокинов) [2], а также **развитие нейровоспаления и когнитивных нарушений** при длительном употреблении высокожировой диеты [3].

Выводы. Высококалорийная диета в течение 12 недель у крыс линии Wistar приводит к развитию признаков ожирения и дислипидемии. Данная модель может быть использована для дальнейших исследований патогенеза метаболических нарушений и оценки эффективности фармакологических и немедикаментозных методов коррекции.

Литература

1. Buettner R., Scholmerich J., Bollheimer L.C. High-fat diets: modeling the metabolic disorders of human obesity in rodents. Obesity (Silver Spring). 2017 Apr;15(4):798-808.
2. Yan J., et al. Wheat bran oil alleviates high-fat diet-induced obesity and gut microbiota imbalance in rats. *Nutr Metab.* 2024; 21:38.
3. Manzoor S., et al. Niacin attenuates neuroinflammation in high-fat diet-induced obese rats. *Naunyn Schmiedebergs Arch Pharmacol.* 2024; 397(2):255–268.

ЗИРҲЛИ ЖАНГОВОР ТЕХНИКАЛАР ЭКИПАЖЛАРИ ИШ ЖОЙЛАРИДА ШОВҚИН КЎРСАТКИЧЛАРИНИ БАҲОЛАШ НАТИЖАЛАРИ

Рустамов Аббос Абдинаби ўғли
Омонов Нуриддин Норқучқарович
Яхяев Шукрулло Абдулазизович
Ҳарбий тиббиёт институти

Аннотация: Зирҳли жанговор техникалардаги шовқиннинг асосий манбаи – зирҳли жанговор техникаларнинг харакатлантирувчи қисми, яъни шассиси хисобланади. Бунга двигателдан ва қуроллардан (автомат ва пулемётлар) отиш пайтида, ўқлар ва шрапнел зирҳга тегиши ва ҳоказо шовқинлар қўшилиб ҳаракатланаётган жанговор техникадаги шовқин даражаси 130 дБ га етиши мумкин, бу мослашиш чегарасидан анча юқоригача етиши мумкин. Шовқиннинг узоқ вақт таъсир қилиши эшитиш қобилиятини сезиларли даражада пасайтиради.

Зирҳли жанговор техникаларнинг ҳаракатланиши натижасида ҳосил бўладиган шовқин кенг спектрга эга, унинг интенсивлиги бир вақтнинг ўзида ишлайдиган жанговор техникалар сонига, уларнинг техник ҳолатига ва дизайнига боғликдир.

Калит сўзлар. жанговор техникалар, экипаж, иш жойлари, шовқин кўрсаткичлари, шовқин даражаси.

Тадқиқот усуллари: Иш жойларида шовқиннинг даражаси кўрсаткичлари Шумамер “РФТ” (Германия) ва СВАН 979 (Польша) асбобларида

жанговор техникаларда шовқининг интенсивлиги ва спектрал таркибини ўлчаш учун фойдаланилди.

Натижа ва тахлиллар: Иш жойларида шовқиннинг даражаси бир неча маротаба, ишчи хафта давомида тахлиллар олинди. Зирҳли техникалар ҳаракатланиши ва ўқ отиши жараёнларидан ҳосил бўлаётган шовқин техникалардаги етакчи касбларнинг доимий иш жойларида ўлчанди. Товуш босими даражаси 63-8000 Гц гача бўлган частоталар оралиғида аниқланди. Шовқинни ўлчов натижалари “Иш жойларидаги шовқининг рухсат этилган даражасини санитар меъёрлари” 0325-16-сонли СанҚваН бўйича баҳоланди.

Тадқиқот натижаларига кўра, Танк 62-105 зирҳли жанговор техникаси ўкув тактик машғулотлар пайтида ўз пазициясини эгаллаш яъни ҳаракатланиш вақтида шумамер кўрсаткичлари ўртача 115±0,63 дБАни ўқ отиш ватида эса ўртача кўрсаткич 140±0,23 дБАни ташкил этди бу эса РЭДдан (РЭД 80 дБА) 35-60 дБАга юқорилигини кўрсатди (1-жадвал).

1-жадвал

Зирҳли жанговор техникалар экипажлари иш жойидаги шовқиннинг умумий даражаси (М±м), дБА

Иш жойлари	Шовқиннинг ҳарактери	шовқиннинг умумий даражаси, дБА			РЭД, дБА
		Мин	мах	М±м	
Танк 62-105 n=12	Ҳаракатланиш вақтида	102	128	115±0,63	80
	Ўқ отиш вақтида	125	156	140±0,23	
Танк 72-121 n=14	Ҳаракатланиш вақтида	103	127	115±0,68	80
	Ўқ отиш вақтида	123	147	135±0,18	
БТР 82А n=12	Ҳаракатланиш вақтида	87	98	92±0,31	80
	Ўқ отиш вақтида	113	125	119±0,27	
Тайфун n=12	Ҳаракатланиш вақтида	85	96	90±0,28	80
	Ўқ отиш вақтида	112	123	117±0,21	

Танк 72-121 зирҳли жанговор техникасида ҳаракатланиш вақтида ўртача 115±0,68 дБАни ўқ отиш ватида эса ўртача кўрсаткич 135±0,18 дБАни ташкил

этди бу эса РЭДдан (РЭД 80 дБА) 35-55 дБАга юқорилигини кўрсатди (1-жадвал).

Тадқиқотимиз давомида балонли зирҳли жанговор техникаларида ўлчов кўрсаткичлари натижалари қуйдагича БТР 82А жанговор техникасида ҳаракатланиш вақтида ўртача 92±0,31 дБАни ўқ отиш ватида эса ўртача кўрсаткич 119±0,27 дБАни ва Тайфун жанговор техникасида ҳаракатланиш вақтида ўртача 90±0,28 дБАни ўқ отиш ватида эса ўртача кўрсаткич 117±0,21 дБАни ташкил этди бу эса РЭДдан (РЭД 80 дБА) мос равишда 12-39 ва 10-37 дБАга юқорилигини таҳлиллар натижасида аниқланди (1-жадвал).

Хулоса: Шундай қилиб, зирҳли жанговор техникалар жанговор тактик ҳаракатлар вақтида шовқинни баҳолаш бўйича ўтказилган санитария-гигиена тадқиқотлари шуни кўрсатадики, СанҚваН №0325-16 “Иш жойларида шовқин даражасининг рухсат этилган меъёрлари”дан юқорилиги аниқланди бу эса зирҳли техникалар билан бевосита мулоқатда ишловчи ҳарбий хизматчилар саломатлик ҳолатига салбий таъсир этиши мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. СанҚваН 0069-24-сонли “Ишлаб чиқариш муҳити омилларининг зарарлилиги ва хавфлилиги, меҳнат жараёнининг оғирлиги ва тиғизлиги кўрсаткичлари бўйича меҳнат шароитларининг гигиеник таснифи” Тошкент 2024 йил.

2. СанПиН 0204-06 от 26.05.2006г. “Санитарные правила по гигиене труда водителей автомобилей”. Тошкент 2006 год.

3. Хомутов А. В. О развитии способов применения боевых бронированных машин и борьбы с ними //Военная мысль. – 2023. – №. 7. – С. 38-51.

4. Хомяков Э. Г. Специальные средства правоохранительных органов //Ижевск.: Издательский дом" Удмуртский университет. – 2020.

QUALITY OF LIFE INDICATORS OF BORDER GUARDS

Kutliev Jamshid Amanbayevich
Nishonov Jamshid Sirojxonovich
Olim Sultanov Kamilovich
Department of Military Hygiene,
Epidemiology and Biosafety
Military Medical Institute, Tashkent
jkutliev@gmail.com

Annotation. According to the survey conducted during our research, 72,0% of the total respondents indicated that their health was very good, reporting feeling full of strength and energy 25,0% reported good health, noting that they occasionally fall ill. Only 1,4% of border guards were found to have poor health, experiencing frequent illnesses and constant fatigue, which negatively affects their mood. In light of these findings, we decided to assess the impact of mountainous conditions on the quality of life and physical-mental state of border guards using the specially standardized “SF-36” quality of life assessment questionnaire.

Keywords. quality of life, mountain conditions, oxygen deficiency, relief, radiation, temperature.

1. Results.

In the context of increasing traditional and emerging threats to the security of individuals, society, and the state worldwide, particularly in our region, a socio-medical reassessment of the border troops' role, significance, and development prospects in ensuring the security of the Republic of Uzbekistan's state borders, as well as the specific characteristics of border guards' activities, is one of the crucial tasks facing military preventive medicine specialists today. Serving in remote and hard-to-reach border areas in mountainous regions requires border guards to perform training and combat missions in extreme conditions promptly and effectively [2,3,4].

According to the results of the survey conducted during our study, 72,0% of the total number of respondents involved in the study indicated that their health is very good, full of strength and energy, 25,0% - good, sometimes they get sick, only

1,4% of border guards were found to have poor health, get sick often, feel constant fatigue, and this negatively affects their mood. Of course, although most of the subjects considered themselves to have no health problems, it was found that 26,4% of border guards had health problems related to their service in mountainous conditions.

In this regard, we decided to assess the impact of mountain conditions on the quality of life and physical and mental state of border guards using a specially standardized quality of life assessment questionnaire “SF-36”.

In the survey conducted to assess the quality of life of border guards, various categories of border guards participated, first of all, we assessed the quality of life of border guards serving in different mountainous areas that participated in the study (Table 1).

Table 1

Results of the quality of life assessment of border guards serving in mountainous areas

SF-36 scale components	Average points (M)	
	Main group	Control group
PF	89,9	91,8
RP	78,8	81,0
BP	90,2	92,0
GH	62,7	68,3
VT	82,5	88,7
SF	83,9	92,5
RE	75,8	77,1
MH	80,9	83,9
PH	51,4	52,4
MH	52,3	56,1

As can be seen from the table above, the data obtained on the quality of life indicators of all border guards participating in the survey include the average scores obtained

on various scales of the SF-36 questionnaire. In particular, the indicator of physical activity (PF) averaged 89,9 points, which indicates a high level of physical activity of border guards, their ability to perform basic movements and tasks well. These indicators in the control group were 91,8, which is 1,9 points higher than in the main group.

The indicator of the role of problems related to physical activity (RP) in the life activity of border guards averaged 78,8 points, which indicates that there are few limitations in the body of border guards arising from the state of physical health - physical barriers to the performance of official duties by them are insignificant, while in the control group these indicators were 81,0, which is 2,2 points higher.

The indicators of the analysis of the influence of pain intensity on the normal life of border guards on the pain scale (PA) averaged 90,2 points, which indicates a minimal level of physical pain in the body of border guards and does not have a significant impact on their physical activity and daily activities. In the control group, these indicators were 1,8 points higher and amounted to 92,0 points.

The indicators of the general health status (General Health) of border guards serving in the mountainous region averaged 62,7 points, which indicates that their general health indicators are at an average level, but it should not be overlooked that there are risks associated with unfavorable factors of the mountainous region. In the control group, these indicators were 68,3 points, and the difference was 5,6 points.

The vitality scale (VT Vitality), i.e., how much the border guards feel or are satisfied with their activities and quality of life, averaged 82,5 points, and in addition to the high level of energy and activity in their body, it was found to be 6,2 points lower than the indicators of the control group (88,7 points), which showed that there may also be a tendency to fatigue in the health of border guards serving in mountainous areas.

Social Functioning (SF) indicators, which determine the level of satisfaction with the social activity of border guards, averaged 83,9 points, indicating that they have good social relations and no problems working in a team. In the control group, these indicators were 92,5 points.

Conclusions

If we pay attention to the specifics of the factors influencing the body of border guards serving in mountainous areas, then in mountainous conditions, depending on the relief, season, and weather, various factors influence. Thus, if the presence of limitations in social contacts in mountainous conditions, in turn, affects the indicators of SF and MH, then RE and MH indicators are also significantly lower than those of healthy people due to the environment of high-altitude risk, long service, and mental problems associated with the health of border guards.

REFERENCES

1. Al Amer R, Al Khalifa K, Alajlan SA, Al Ansari A. Analyzing the Psychometric Properties of the Short Form-36 Quality of Life Questionnaire in Patients with Obesity. Obes Surg. 2018 Aug;28(8):2521-2527.

2. Azizova F. L., Ermatov N. J., Kutliev J. A. Hygienic recommendations for organizing a healthy diet to increase the physical activity of military athletes //Art of Medicine. International Medical Scientific Journal. – 2022. – Т. 2. – №. 1.

3. Kutliev J. A. et al. Modern approaches to service conditions factors affecting the health of military servicemen and prevention problems //Web of Medicine: Journal of Medicine, Practice and Nursing. – 2024. – Т. 2. – №. 3. – С. 104-109.

4. Kutliev J. A. et al. The diet of military personnel and its impact on their functional capabilities //Web of Medicine: Journal of Medicine, Practice and Nursing. – 2024. – Т. 2. – №. 10. – С. 81-83.

5. Kutliev J., Ermatov N. The Effectiveness of Assessing the Quality of Life of Obese Military Personnel Using the SF-36 Questionnaire. – 2025.

6. Lins L, Carvalho FM. SF-36 total score as a single measure of health-related quality of life: Scoping review. SAGE Open Med. 2016 Oct 4;4:2050312116671725.

FERMENTLAR-BIOLOGIK KATALIZATORLAR

Xojiyeva Feruza Jamshidovna
Buxoro innovatsion ta`lim
va tibbiyot universiteti
feruza.xojiyeva1001@gmail.com

Annotatsiya: Kimyoviy reaksiyalar ferment tomonidan katalizlanishi mumkin. Ko'pgina fermentlar o'z xususiyatlarini katalizlash uchun kofaktorlarni talab qiladi. Fermentlar hujayra metabolizmining yo'llarini boshqaradigan katalizatorlardir.

Kalitso‘z: fermentlar, kofaktorlar, katalizator, energiya almashinuvi, apoferment, nukleotid, xoloferment, DNK sintezi, transferaza, saxaraza.

Fermentlar bu tirik organizmlarda kechadigan kimyoviy reaksiyalarni tezlashtiruvchi oqsil tabiatidagi molekulalardir. Ular o‘ziga xos biologik katalizator bo‘lib, reaksiyalarni juda past haroratda va fiziologik pH sharoitida amalga oshirish imkonini beradi. Fermentlarsiz hujayralarda metabolizm, energiya almashinuvi, DNK sintezi, oqsil biosintezi va boshqa hayotiy jarayonlar deyarli sodir bo‘lmaydi. Fermentlarning kashf etilishi XIX asrda boshlandi va hozirda ular biokimyo, tibbiyot, farmatsevtika, ekologiya hamda sanoatda muhim o‘rin egallaydi.

Fermentlar biologik tizimlardagi kimyoviy reaksiyalarni boshqaradi, oziq-ovqat mahsulotlaridan energiya olish va moddalarni yaratish tirik organizmlarga xosdir. Fermentning uning substratiga xosligi aniqlanadi va hosil qiluvchi fermentning aminokislota qoldiqlari tomonidan substrat uchun bog'lovchi joy va natijada pastroq fermentning reaksiyaga kirishish energiyasi katalizlaydi.

Ferment bilan katalizlangan reaksiya tezligi ko'pincha tartibga solinadi ajralib turadigan joylarda ferment bilan bog'laydigan molekulalar tomonidan faol yoki katalitik joydan chiqib, fermentni o'zgartiradi, katalizator sifatida samaradorlik ko`rsatadi. Kimyoviy reaksiyalar ferment tomonidan katalizlanishi mumkin.

Ko'pgina fermentlar o'z xususiyatlarini katalizlash uchun kofaktorlarni talab qiladi,kimyoviy reaktsiyalarda kofaktorlar reaksiyada ishtirok etadi lekin iste'mol qilinmaydi.

Ba‘zi fermentlarni tartibga solish uchun qaytarilmas tarzda faolsizlantirish mumkin. Oziq-ovqat mahsulotlarining aylanadigan metabolizm yo'llari organizm uchun energiya va qurilish bloklari aniqlanadi. Uning individual reaktsiyalarini katalizlovchi fermentlar tomonidan fermentlarning kinetik xususiyatlari aniqlanadi. Fermentlar hujayra metabolizmining yo'llarini boshqaradigan katalizatorlardir. Ular ko'pincha oqsillardir, lekin ba'zi RNK molekulalari katalizator sifatida ham harakat qilishi mumkin. Ko'p fermentlar katalitik uchun zarur bo'lgan protein bo'lmagan komponentlarni bog'laydi. Protein guruhi atamasi odatda himoyalangan kovalent bog'langan oqsil bo'lmagan komponentlar uchun ta`luqli, koenzim atamasi esa kamroq amal qiladi.Koenzimlar murakkab organik birikmalar bo'lib, ko'pincha vitaminlardan olinadi. Vaqtinchalik kofaktor metall ionlari va oddiy organik uchun ishlatiladi ferment katalizlarida ishtirok etadigan birikmalar. Fermentlarda protein guruhlari yoki kofaktorlar bilan oqsil qismi hisoblanadi.Apoferment va u bilan to'liq ishlaydigan ferment biriktirilgan oqsil bo'lmagan komponent xoloenzimdir (ya'ni, apoenzim 1 koenzim 5 xoloenzim). Katalitik RNK molekulalari (ribozimlar) m RNKdagi o'ziga xos nukleotidlar ketma-ketligini taniydi va fosfodiefir bog'larini gidrolizlaydi. Ribosomal RNK ham oqsil biosintezida peptidli transferaza vazifasini bajaradi. Ba'zi RNK molekulalari ham o'z-o'zidan qo'shilish jarayonidan o'tadi. Bunga mRNK ning o'zgarishi misol bo'la oladi. Oraliq ketma-ketliklarni ajratish va kodlashni bog'lash orqali amalga oshiradi. Katalitik RNK boshqa RNKga ham ta'sir qilishi mumkin. Masalan, ribonukleaza , tRNKning konversiyasida ishtirok etadi, 5-fosfat hosil qilish orqali funktsional tRNKga va 3-gidroksil uchlari ikkala katalitikni ham o'z ichiga oladi

Fermentlar odatda substrat sifatida nomlanadi. Ular harakat qiladigan kimyoviy guruh va nomini oladi, "-aza" qo'shimchasini oladi. Shunday qilib, karbamidni gidrolizlovchi ferment ureaza deb ataladi. Ushbu terminologiyaga istisnolar ham mavjud.Umumiy, masalan, tripsin, pepsin va papain, ular tarixiy nomlardir.

Fermentlar juda o'ziga xosdir va odatda ular reaksiyaning bir turi bo`lib faqat katalizlanadi. Masalan, piruvat kinaz katalizlaydi, glikoliz jarayonida fosfat guruhining faqat fosfoenolpiruvatdan adenozin difosfatga o'tishini ta`minlaydi.

Boshqa fermentlar bir xil turdagi reaksiyani katalizlaydi, lekin ayrimlari bir nechta, tizimli ravishda bog'liq bo'lgan substratlarda katalizlaydi. Quyidagi fermentlar kamroq o'ziga xoslik ko'rsatadi:

● Geksokinaza fosfat guruhini adenozin trifosfatdan bir nechta geksozalarga (D-glyukoza,2-deoksi-D-glyukoza, D-fruktoza va D-mannoz)

● Fosfatazalar fosfat guruhlarini gidrolizlaydi turli xil organik fosfat efirlarini katalizlaydi.

● Esterazalar efirlarni spirtlar va karboksiliklarga gidrolizlaydi zanjir uzunligida sezilarli o'zgarishlarga ega kislotalarni katalizlaydi.

● Proteinazalar (proteazalar) muayyan peptidni gidrolizlaydi. Protein substratidan qat'iy nazar bog'lanadi.

Fermentlar stereoizomerik o'ziga xoslikni ko'rsatadi. Masalan, inson a-amilazasi glyukoza gidrolizini katalizlaydi, kraxmalning chiziqli qismidan, lekin sellyulozadan emas. Kraxmal va sellyuloza ikkalasi ham glyukoza polimerlaridir, ammo tarkibida kraxmal shakar qoldiqlari alfa (1-4) bilan bog'langan, sellyulozada esa betta(1-4) glikozid bog'lanishlar orqali bog'langan.

Umuman olganda, ferment molekulalari sezilarli darajada substrat molekulalaridan kattaroqdir. Istisnolar makromolekulyar substratlarga ta'sir qiluvchi proteinazalar, nukleazalar va amilazalardir. O'lchamidan qat'i nazar substrat, qaysi substratdagi guruhlarning bog'lanishi, ferment aniq va ixtisoslashgan vaqtda sodir bo'ladi.

Keyingi dalillar shuni ko'rsatdiki, substrat biriktirilgandan so'ng, ferment yanada to'ldiruvchini ta'minlaydigan konformatsion o'zgarishlarga duch kelishi mumkin.

Fermentlar tirik organizmlar uchun hayotiy jarayonlarning yurituvchisi sifatida xizmat qiladi. Ular har bir metabolik yo‘ldagi asosiy reaksiyalarni tezlashtiradi.

Masalan, glyukozaning parchalanishida glikoliz bosqichidagi har bir qadamni ma’lum ferment boshqaradi. Shuningdek, DNK polimeraza, RNA polimeraza, aminotransferazalar va lipazalar kabi fermentlar har bir biologik tizimda o‘ziga xos rol o‘ynaydi.Fermentlar o‘zining substratga nisbatan yuqori selektivligi bilan ajralib turadi, ya’ni ular faqat ma’lum bir molekulaga ta’sir ko‘rsatadi. Fermentlar oqsil molekulasidan tashkil topgan bo‘lib, ularning uchlamchi (3D) tuzilishi ularning faol

markazini shakllantiradi. Faol markaz – bu fermentning substrat bilan o‘zaro ta’sirlashadigan qismi bo‘lib, kimyoviy reaktsiyaning aynan shu joyda sodir bo‘lishini ta’minlaydi.Ko‘pgina fermentlar kofermentlar (vitaminlar hosilalari) va metall ionlarini ham o‘z ichiga oladi. Masalan, NAD^+, FAD, koenzim A, piridoksalfosfat kabi moddalar ferment faoliyatini kuchaytiradi. Fermentlar reaksiyaning aktivatsiya energiyasini pasaytirish orqali katalizni amalga oshiradi.
Bu jarayonda substrat fermentning faol markaziga bog‘lanadi va “ferment–substrat kompleksi” hosil qiladi. Natijada, reaksiyaning oraliq holati barqarorlashadi va mahsulot tezroq hosil bo‘ladi.Fermentlar kalit va qulf modeli yoki moslashgan shakl modeli asosida ishlaydi.
Fermentlar diagnostika, patogenez va dori ishlab chiqish sohalarida katta ahamiyatga ega. Masalan, qon zardobida transaminazalar (AST, ALT) miqdorini o‘lchash jigar kasalliklarini aniqlashda ishlatiladi. Kreatinfosfokinaza (CPK) yurak infarkti diagnostikasida, amilaza esa pankreatitda aniqlanadi. Ferment ingibitorlari esa dori vositasi sifatida ishlatiladi: masalan, asetilxolinesteraza ingibitorlari – Alzgeymer kasalligida, angiotenzin-konvertlovchi ferment ingibitorlari (ACEI) – gipertoniya va yurak yetishmovchiligida qo‘llaniladi. Fermentlar biotexnologiya va sanoatda ekologik toza ishlab chiqarish uchun keng qo‘llaniladi. Amilaza – non mahsulotlari ishlab chiqarishda, lipaza – sut mahsulotlari qayta ishlashda, proteaza – charm sanoatida, katalaza esa bio-tozalash tizimlarida ishlatiladi. Fermentlarning immobilizatsiyasi (qattiq sirtga biriktirish) ularning barqarorligini oshiradi va ularni qayta ishlatish imkonini beradi.Bugungi kunda fermentlar ustida olib borilayotgan tadqiqotlar genetik injeneriya, nanoenzimlar, bioinspiratsiya va sun’iy fermentlar yo‘nalishlarida davom etmoqda. Nanoenzimlar – bu metall nanopartikullar asosida yaratilgan sun’iy fermentlar bo‘lib, ular katalitik faollikni tabiiy fermentlarga yaqin darajada namoyon etadi.Protein muhandisligi yordamida fermentlarning harorat va pH ga chidamli variantlari yaratilmoqda. Bu yondashuvlar tibbiyot, bioyoqilg‘i ishlab chiqarish va ekologik muammolarni hal qilishda muhim o‘rin tutmoqda.

Fermentlar — biologik tizimlarning yuragi hisoblanadi. Ular hayotning uzluksizligini ta’minlab, reaksiyalarni tezlashtiradi, energiya almashinuvida, modda

almashinuvida va genetik jarayonlarda ishtirok etadi. Fermentlar ustidagi ilmiy tadqiqotlar inson salomatligini yaxshilash, ekologik muammolarni hal etish va sanoat samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shomurodov A., Xolmatov M. “Biokimyo asoslari”. Toshkent: Fan nashriyoti, 2019.

2. Xasanov H., Tursunov N. “Biokimyo”. Toshkent tibbiyot akademiyasi, 2020.

3. Mamatqulov S. va boshq. “Tibbiy biokimyo asoslari”, Toshkent tibbiyot nashriyoti, 2022.

4. “Biocatalysis for a Sustainable Future”, ACS Catalysis Review, 2024.

5. N. V. Bhagavan va C.-E. Ha: Tibbiy biokimyoning asoslari, ikkinchi nashr. DOI: http://dx.doi.org/10.1016/B978-0-12-416687-5.00006-3

6. https://www.ncbi.nlm.nih.gov/books/NBK9921/

7. https://pubs.acs.org/doi/10.1021/acscatal.3c02746

RAQAMLI TA’LIM TRANSFORMATSIYASI

Anarbayeva Fotima Urazaliyevna
Toshkent davlat iqtisodiyot
universiteti Samarqand filiali
f.anarbaeva2017@yandex.com

Annotatsiya. Ta’limning raqamli transformatsiyasi bilan bog‘liq o‘zgarishlarning asosiy maqsadi talaba shaxsini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan ommaviy sifatli ta’limga o‘tishni amalga oshirish bo‘lib, bunda raqamli ta’lim transformatsiysi talabalarga ma’lumotlarni taqdim etish, ularni ma’lumotlar bilan tanishtirish, bilimlarni uzatish va ularning tushunchalarini shakllantirishga qaratilgan o‘quv ishlarining diqqat va jarayonlarini o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: raqamli transformatsiya, o‘qitishning yangi usullari, ta’limni raqamli transformatsiyasi, o‘quv materiallari, raqamli texnologiyalar,

innovatsiyalar, ta’limni raqamlashtirish, raqamli platformalar, raqamli texnologiyalar.

Raqamli transformatsiya ta’limda o‘qitishning yangi usullarini qo‘llash imkonini berdi. Hozirgi kunda talabalar uchun juda ko‘p o‘quv ma’lumotlari mavjud va ularni idrok etish uchun ular mutlaqo yangi o‘quv modellaridan foydalanishlari kerak. Ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalangan holda, ta’lim tashkilotlari ta’lim sifatini oshirishga, uni yanada moslashuvchan va talabalarning individual xususiyatlariga moslashtirishga harakat qilmoqdalar, shuning uchun pedagogik ta’sirning yangi vositalari yaratilmoqda va o‘qituvchilar bolalar bilan yanada samarali munosabatda bo‘lishga harakat qilmoqdalar.

Raqamli transformatsiyaning ta’limga kirib kelishi natijasida hozirgi kunda deyarli har bir zamonaviy ta’lim muassasasida interfaol doskalar osilgan, ta’lim muassasalarining elektron platformalari mavjud va o‘qituvchilar talabalar bilan aloqada bo‘lish va uy vazifalari bo‘yicha maslahat berish uchun ijtimoiy tarmoqlardan faol foydalanmoqdalar.

Ta’limning raqamli transformatsiyasi bilan bog‘liq o‘zgarishlarning asosiy maqsadi talaba shaxsini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan ommaviy sifatli ta’limga o‘tishni amalga oshirishdir. Ta’limni raqamli transformatsiyasining mohiyati har bir talaba tomonidan zarur ta’lim natijalariga erishish bo‘lib, quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- sun’iy intellekt, kengaytirilgan va virtual haqiqat texnologiyalari, ma’lumotlarni boshqarish, buyumlar interneti, blokcheyn kabi innovatsion texnologiyalar orqali ta’lim traektoriyalarini shaxsiylashtirish;

- IT-uskunalari, internetga keng polosali ulanish, ma’lumotlar uzatish tarmoqlari, ixtisoslashtirilgan raqamli uskunalar va dasturiy mahsulotlarning mavjudligi, universal va o‘quv xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini qo‘llagan holda ta’lim muassasalarida IT tuzilmasini kengaytirish;

- raqamli o‘quv vositalaridan foydalangan holda o‘quv ishlarini o‘zgartirish;

- yangi tashkiliy sharoitlar va o‘qituvchilarning uzluksiz malakasini oshirish tizimini yaratish, o‘quv jarayoni ishtirokchilarida raqamli savodxonlikni shakllantirish;

- ish oqimlarini takomillashtirish, strategiyani ishlab chiqish, ta’lim muassasalariga noaniq va dinamik muhitda o‘zgarishlarga samarali javob berish va boshqarish imkonini beradigan tuzilmalarni yaratish orqali ta’lim tashkilotini boshqarishning moslashuvchanligini ta’minlash;

- ta’limni raqamli transformatsiya qilishning me’yoriy-huquqiy bazasini takomillashtirish;

- raqamli aloqa texnologiyalari, katta ma’lumotlar, shakllantiruvchi tahlillar va ochiq ta’lim resurslarini takomillashtirish.

Ta’limning raqamli transformatsiyasining amalga oshirilishi ko‘plab shartlarga bog‘liq:

- ta’lim muassasasining raqamli transformatsiya darajasi;

- muammolarni hal qilish darajasi (ta’lim muassasalari darajasi, tuman (shahar), viloyat, respublika darajasi);

- ta’lim muassasalari ta’sir qila olmaydigan raqamli transformatsiyaning tashqi omillarining mavjud kombinatsiyasi.

Educause assotsiatsiyasi tomonidan an’anaviy ta’limdan raqamli ta’limga o‘tishning 5 bosqichi aniqlandi va ular 3 bosqichga birlashtirildi:

Raqamliga o‘tish bosqichi: analog yoki jismoniy ommaviy axborot vositalaridan raqamli ommaviy axborot vositalariga o‘tish, bu ma’lumotni raqamlashtirish va tizimlashtirishni o‘z ichiga oladi. Ushbu bosqichda kompyuter savodxonligining faol o‘sishi kuzatildi, ta’lim muassasalarida birinchi kompyuter sinflari paydo bo‘ldi.

Raqamlashtirish bosqichi: ta’lim jarayonlarini avtomatlashtirish va optimallashtirish uchun raqamli texnologiyalar va ma’lumotlardan faol foydalanish. IT texnologiyalari o‘quv jarayoniga faol joriy etila boshlandi, raqamli qurilmalar informatika darslaridan boshqa darslarda ham qo‘llanildi.

Raqamli transformatsiya bosqichi: ta’lim tizimidagi chuqur o‘zgarishlar; ta’lim tashkiloti faoliyatini o‘zgartiradigan yangi ta’lim modellaridan foydalanishga imkon beradigan innovatsion texnologiyalarni joriy etish. Yangi pedagogik usullar va ta’lim texnologiyalarini joriy etgan holda aniq ta’lim natijalarini shakllantirish ta’lim mazmunini o‘zgartirishga imkon beradi. Ta’lim jarayonini boshqarish o‘zgaradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ta’limning raqamli transformatsiyasi - bu ilg‘or raqamli texnologiyalarni faol qo‘llash bilan kompetentsiyaga asoslangan yondashuv asosida qurilgan yangi ta’lim modeliga o‘tish hisoblanadi.

Rossiya fanlar akademiyasi professori, pedagogika fanlari doktori A.Yu. Uvarov, “raqamli transformatsiya deb o‘quv jarayonining asosiy tarkibiy qismlarining tizimli va sinergik yangilanishi, shu jumladan o‘quv ishlari natijalari, ta’lim mazmuni, o‘quv jarayonini tashkil etish, uning natijalarini baholash” deb ta’riflagan.

Ta’lim sohasining raqamli transformatsiyasi talabalarga ma’lumotlarni taqdim etish, ularni ma’lumotlar bilan tanishtirish, bilimlarni uzatish va ularning tushunchalarini shakllantirishga qaratilgan o‘quv ishlarining diqqat va jarayonlarini o‘z ichiga oladi. Ma’lumotlar va bilimlar bilan ishlash sohasidagi kompetentsiyalarni o‘zlashtirishdan insonning o‘ziga xos qobiliyatlari, ya’ni ekspertiza va o‘tkazish qobiliyatlari sohasidagi harakatlarni rivojlantirishga o‘tadi. Ushbu kompetensiyalar odamlarni yangi iqtisodiyotda yashashga va ishlashga tayyorlash muammosini hal qilish uchun haqiqiy imkoniyat yaratadi.

Raqamli dunyoda talabalar va o‘qituvchilar uchun yuz minglab o‘quv materiallari mavjud bo‘lib, ular o‘quvchilarning xususiyatlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda materiallarni tanlashga imkon beradi.

Raqamli transformatsiyaning samaradorligini ta’minlash uchun strategik harakatlarni doimiy va izchil amalga oshirish zarur. Raqamli transformatsiya kontekstida samaradorlik oliy ta’lim tashkilotida ish va ta’lim jarayonini yaxshilash uchun raqamli texnologiyalardan muvaffaqiyatli foydalanish bilan bog‘liq. I.A. Toloczko va E.A. Yakovleva mualliflarining fikriga ko‘ra, oliy ta’lim tashkilotida raqamli transformatsiyaning istiqbollari quyidagilardan iborat: [2]

–Texnologiyalarni rivojlantirish: har yili ish va ta’lim jarayonini yaxshilash uchun qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan yangi raqamli texnologiyalar paydo bo‘lmoqda. Masalan, blokcheyn, narsalar interneti, virtual va kengaytirilgan haqiqat, kvant hisoblash texnologiyalari va boshqalar.

– Globallashuv: raqamli transformatsiya yangi bozorlarga chiqish va butun dunyo bo‘ylab mijozlar bilan ishlash imkonini beradi.

– Innovatsiyalarni tezlashtirish: raqamli transformatsiya yangi g‘oyalar va texnologiyalarni tez sinovdan o‘tkazish va joriy etish imkonini berib, innovatsiyalarni rag‘batlantiradi.

– Biznes-modellarni o‘zgartirish: raqamli transformatsiya mavjud biznes-modellarni o‘zgartirishga va yangilarini yaratishga olib kelishi mumkin. Masalan, kompaniyalar tovar yoki xizmatlar sotishdan emas, balki ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilar o‘rtasida o‘zaro aloqa uchun platforma taqdim etish orqali daromad topadigan “platforma iqtisodiyoti”ning paydo bo‘lishi.

Ta'limni raqamlashtirishning asosiy g'oyasi zamonaviy texnologiyalarni samarali va moslashuvchan tarzda qo'llash orqali shaxsiylashtirilgan va natijali ta'lim jarayonini yaratishdan iborat.

Ta'limni raqamlashtirish oliy ta'lim muassasalariga o'quv sifatini oshirish, ta'lim resurslariga kirish imkoniyatlarini yaxshilash va o'quv jarayonini talabalarning individual ehtiyojlariga moslashtirish imkoniyatlarini taqdim etadi. Shuni yodda tutish kerakki, raqamlashtirish an'anaviy usullarni almashtirish emas, balki ularni samarali ravishda to'ldiruvchi vosita bo'lib, yanada dinamik va qulay ta'lim muhitini yaratishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Анарбаева Ф. У. Таълим жараёнини рақамлаштиришнинг асосий хусусиятлари //Current Issues of Bio Economics and Digitalization in the Sustainable Development of Regions (Germany). – 2022. – С. 517-521.

2. Махмудов А.Х., Анарбаева Ф.У. Рақамли таълимда педагогик технологияларни қўллаш имкониятлари //Development issues of innovative economy in the agricultural sector. – 2021. – Т. 476.

3. Ларионов В.Г., Шереметьева Е.Н., Горшкова Л.А. Цифровая трансформация высшего образования: технологии и цифровые компетенции // Вестник АГТУ. Сер.: Экономика. 2021. № 2. С. 61-69.

ОСНОВНЫЕ ПРАВИЛА БЕЗОПАСНОСТИ ПРИ РАБОТЕ В МЕДИКО-ХИМИЧЕСКОЙ ЛАБОРАТОРИИ

Абраева Зухро Чориевна
Profi unversiteti,
Пулатова Зулхуморхон Жалолидин кизи
PhD., в.и.о. доцент
Profi unversiteti,
E-mail: 7ulhumor@gmail.com

Аннотация: В статье изложены основные аспекты обеспечения безопасности при работе в медико-химических лабораториях. Рассматриваются виды профессиональных рисков, правила обращения с химическими и биологическими веществами, а также меры первой помощи при аварийных ситуациях. Соблюдение техники безопасности обеспечивает сохранение здоровья персонала и достоверность клинических результатов.

